

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**ABDUSATTOR RAXMONOVICH QORABOYEV,
BAHODIR KARIMOVICH G'OYIBNAZAROV,
NILUFAR XATAMBAYEVNA RASHITOVA**

MILLIY HISOBALAR TIZIMI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligining Muvoofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2015**

UO'K: 336: 657(075)

KBK: 65.051

M-50

Taqrizchilar:

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, iqtisod fanlari doktori, professor Yo.Abdullayev;

Dasturiy mahsulotlar va apparat dasturiy majmualar yaratish markazi laboratoriyasi mudiri, texnika fanlari doktori, professor A.Abdug'afforov.

Milliy hisoblar tizimi. Qoraboyev A.R., G'oyibnazarov B.K., Rashitova N.X. / Darslik. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 384 b.

Darslik Toshkent moliya instituti va O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi “Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazi” bilan birgalikda tayyorlangan.

Mazkur kitob “Ta'lif to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida, oliy va o'rta maxsus ta'lif tizimida iqtisodchi mutaxassislar, statistik, menejerlar, moliyachi va bankirlar tayyorlovchi o'quv yurtlari uchun darslik sifatida yozildi. Unda milliy hisoblar tizimini uslubiy-nazariy asoslari, schyotlar tarkibi, hisoblash va tahlil usullari tuzilmaviy-mantiqiy chizmalar, jadvallar orqali, o'quv mashg'ulotlari, ilmiy seminar va suhbatlar, treninglar uyuştirish uchun mo'ljallab yozilgan.

Darslikda milliy hisoblar tizimini O'zbekistonda ishlab chiqarishning o'ziga xos qonun-qoidalarini yoritishga urg'u berilib, milliy hisoblar tizimini asosiy schyotlar tarkibi va uni ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish usuli, kategoriyalar, tasniflari hamda schyotlar tuzishning umumiy qoidalariga o'rin berildi.

UO'K: 336: 657(075)

KBK: 65.051

ISBN 978-9943-13-543-7

© «IQTISOD-MOLIYA», 2015

© Qoraboyev A.R., G'oyibnazarov B.K., Rashitova N.X., 2015

So‘zboshi

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab, iqtisodiyotni boshqarish bozor iqtisodiyoti prinsiplari asosida olib borilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, bu iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi yangi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish va uni amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. Bu xususida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek, “Ilmiy asoslangan, bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillariga javob beradigan, milliy hisoblar tuzishni ta’minlaydigan hamda xalqaro statistika andozalariga muvofiq bo‘lgan yagona statistika metodologiyasi va ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqib, tatbiq etish asosiy vazifalardan biri”¹.

Bozor munosabatlari iqtisodiyotni yuritish tizimi sifatida o‘z qonunlariga ega. Bu qonunlardan samarali foydalanish, ularni hayotga tatbiq etish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirishda, uning asosiy quroli bo‘lgan milliy hisobchilik tizimi asosiy va zaruriy ahamiyatga egadir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan 198 mamlakatda iqtisodchilar makroiqtisodiy siyosatning turli yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirishda milliy hisoblar tizimi uslublaridan u yoki bu darajada foydalanishmoqda.

Milliy hisoblar tizimi – bu aynan bozor iqtisodiyotiga asoslangan tizim bo‘lib, milliy iqtisodiyot bo‘yicha chambarchas bog‘langan statistik ko‘rsatkichlarni makroiqtisodiy tuzilmada baholash, hisob-kitoblar to‘plami va balans jadvallar tuzish, iqtisodiy faoliyat natijalarini xarakterlash hamda iqtisod tuzilmasini va boshqa muhim zaruriy bog‘lanishlarni ifodalashga xizmat qiladigan tizimdir.

Shu jihatdan ham xalqaro andozalar talablariga muvofiq respublikada milliy hisoblar tizimini joriy etish maqsadida 1994-yil 24-avgustda “O‘zbekistonda xalqaro amaliyotda qabul

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг “Макроиқтисодиёт ва статистика вазирлигини қайта ташкил этиш тўғрисида” ги Фармони. // Халқ сўзи, 2002 йил 26 декабрь.

qilingan hisob va statistika tizimiga o‘tish davlat dasturi” ishlab chiqildi va u bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Hozirgi davrda iqtisodiyotning rivojiga to‘sinqinlik qilayotgan muammolarni hal etishda milliy tizim imkoniyatidan to‘liq foydalanib bo‘lmaydi. Bunga bir tomondan, ushbu mavzulardagi o‘quv adabiyotlarining kamligi sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bozor iqtisodiyoti mazmunini yorituvchi va ifodalovchi tushunchalar, klassifikatsiyalar, schyotlarini tuzish; ularning hisoblash usullarini amaliy misollar yordamida o‘rganish, tahlil va talqin qilishga imkoniyat beradigan ilmiy manbalarning yetarli emasligi sabab bo‘lmoqda.

Mazkur darslik iqtisodchi mutaxassislar tayyorlaydigan va qayta tayyorlaydigan barcha oliy o‘quv yurtlarida bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotida kechayotgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni ifoda etuvchi ko‘rsatkichlar tizimi, ularni hisoblash va tahlil qilish usullari bilan tanishtirish, bu ko‘rsatkichlarni xalqaro amaliyotda qabul qilingan andozalar asosida hisoblash usul va uslublarini o‘rgatish, ular yordamida iqtisodiyotda kechayotgan jarayonlarni mushohada etish, makroiqtisodiy muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan omillarni aniqlash usullari bilan tanishtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

I mavzu. FANNING PREDMETI VA VAZIFALARI.

O'ZBEKISTONDA QO'LLANILAYOTGAN MILLIY HISOBCHILIK TIZIMI, ULARNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA YO'NALISHLARI

1.1. Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi

<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Kirish, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza mashg'ulotining rejasি</i>	<ol style="list-style-type: none">Milliy hisobchilik tushunchasi va uning yuzaga kelish tarixi.Milliy hisoblar tizimi fanini predmeti va qamrov obyekti.Milliy hisobchilikni yuritish zarurati.Bozor munosabatlari va unga asoslangan iqtisodiyot tushunchasi.Xalq xo'jalik balansi (XXB) va “ Milliy hisoblar tizimi” (MHT) o'rtaсидаги farqlar va o'xshashliklar.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi</i>	Milliy hisoblar tizimi fani to'g'risida to'liq ma'lumot berish, fanning tashkiliy va uslubiy ta'minoti bilan tanishtirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none">predmetning vazifalari va funksiyalari, o'quv fanlari tizimida tutgan o'rni va roli bilan tanishtirish;o'quv predmeti tarkibini sharhlash va tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy adabiyotlar ro'yxatini berish;fanga doir sohalardagi erishilgan yutuqlarni qayd etib borish;predmet doirasida ishning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini baholash shakli va muddatini ochib berish;fanga oid g'oyalarni asoslab berish va uni rivojlantirish jarayonlarini tushuntirib berish;	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none">predmetning vazifalari va funksiyalari, o'quv fanlari tizimidagi o'rni va rolini ifodalaydi;o'quv predmeti fanning tuzilmasini va tarkibini sharhlaydi, adabiyotlar ro'yxati bilan tanishadi;fanga doir sohalardagi erishilgan yutuqlarni yoritib beradi;predmet doirasida ishning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini baholash shakli va muddatini ochib beradi;fanga oid g'oyalarni tushuntirib beradi va uni rivojlantirish jarayonlarini aniqlaydi.fanga doir iqtisodiy-ijtimoiy

<ul style="list-style-type: none"> • fanga doir iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning asosiy bosqichlarini umumiy ifodalash; • Milliy hisobchilik ko'rsatkichlaridan foydalanish jarayonini izohlab berish. 	<p>jarayonlarning asosiy bosqichlarini umumiy ifodalaydi;</p> <ul style="list-style-type: none"> • MHT ko'rsatkichlaridan foydalanish jarayonini izohlab beradi.
O'qitishning uslubi	Ma'ruza, aqliy hujum, pinbord texnikasi
O'qitishning shakli	Guruhlarda ishslash, frontal va jamoa, juftliklarda ishslash.
O'quv vositalari	Ma'ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar, flomasterlar.
O'qitish shartlari	Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlар bilan ishslash uchun mo'ljallangan auditoriya.


Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

<i>Ishning bosqichlari va vaqtி</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talabalar</i>
1-bosqich kirish qismi (20 min)	<p>1.1. Mavzuning nomini e'lon qiladi. Fan bo'yicha umumiy tasavvur keltiradi. Ishning metodologik va tashkiliy xususiyatlarini yoritib beradi.</p> <p>1.2. Kurs davomidagi ma'ruzalar mazmuni bilan tanishtiradi. Reiting baholash mezonlari bilan tanishtiradi, yozma ish va oraliq nazoratlari hamda yakuniy nazoratlар bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro'yxati bilan tanish-tiradi.</p> <p>1.3. Mavzuning nomini, iqtisodiyotni rivojlanishtirishda MHTning o'rnini, o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalari haqida gapiradi.</p> <p>1.4. Aqliy hujum uslubini taklif etadi va mavzuga bog'liq g'oya tashlanadi hamda guruhlар orasida muhokama qilishni</p>	<p>1.1. Eshitadi.</p> <p>1.2. Yozib oladi va tinglaydi.</p> <p>1.3. Mavzuning nomi va tushunchalarni yozib boradi.</p> <p>1.4. G'oya va tushunchalarni yozib boradi.</p>

	<p>o'rgatadi. Hamma berilganlar doskada o'z aksini topadi.</p> <p>1.5. Mazkur muhokama dars jarayonining yakunida tugallanadi.</p>	
2-bosqich Asosiy bosqich (50 min)	<p>2.1. Ma'ruza matni tarqatiladi va uning rejasi haqida tayanch so'zlar tushuntiriladi.</p> <p>2.2. Fanning mohiyati, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, uning vazifa va o'ziga xos xususiyatlari haqida slaydlar, tarqatma materiallar namoyish qilinadi. Eng asosiy joylarga urg'u beriladi va fanning ikki qiyofasining tarkibiy qismlarining har biri tushuntirib beriladi.</p> <p>2.3. Tayanch so'zlar va atamalarga qaytib alohida e'tibor beriladi. Talabalar bilan pinbord uslubini o'tkazish tavsiya etiladi.</p>	<p>2.1.O'qydi.</p> <p>2.2.Eshitadi, jadvalni ko'chirib oladi hamda savollar beradi.</p> <p>2.3. Tayanch so'z va atamalarni muhokama qiladi.</p>
3-bosqich Asosiy bosqich (10 min)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa va yakuniy natijalar e'lon qilinadi.</p> <p>3.2. Talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi hamda maqsadga erishilganlik o'zlashtirish darajasi aniqlanadi.</p> <p>3.3. Mustaqil vazifalar beriladi va talabalar tayyorgarlik darajasi baholanadi.</p>	<p>3.1.Savollar beradi</p> <p>Test</p>

Ma’ruzaning mazmuni bo‘yicha ko‘rgazmali slaydlar

Milliy hisoblar tizimi – bu iqtisodiy faoliyat natijalarini makrodarajada qayd etish va uni tahlil qilish uchun foydalanadigan, o’zaro bir biriga bog’liq ko’rsatkichlar, klassifikatsiyalar va schyotlar tizimidir.



- Iqtisodiyotni tavsiflashda xalqaro statistika amaliyotida qo‘llanuvchi asosiy tushuncha va kategoriylar bilan tanishtirish.
- Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, daromadlarning shakllanishi, taqsimlanishi, qayta taqsimlanishi va ulardan foydalanish, jamg‘arish, shuningdek, makroiqtisodiy ko’rsatkichlar tizimini yoritib berish.
- Makroiqtisodiy ko’rsatkichlar o‘rtasidagi bog’lanishlarni ochib berish va hisoblash usullarini o‘rganish.
- Ichki iqtisodiyot va tashqi dunyo sektorining alohida schyotlarini tuzish va uslubiyatlarini tushuntirish.
 - Tarmoqlararo balans tuzish uslubiyotlarini o‘rganish.
 - MHT schyotlar ko’rsatkichlarini tahlil qilishni asosiy yo‘nalishlari va usullarini o‘rganish.

Iste’molchilar


- Halqaro tashkilotlar – MHTga tegishli standartlar ishlab chiqish, kreditlar ajratishda va o’z badallarini aniqlashda qo’llaydi.
- Davlat boshqaruvi tashkilotlari – soliq, budjet siyosati; pul massasi, foiz, inflyatsiyaga qarshi kurash chorralari, aholini ish bilan ta’minlash, aholini ijtimoiy himoyalash, daromadni taqsimlash, tashqi savdo siyosati va makroiqtisodiy muammolarini yechishda foydalanadi.
 - Korxona rahbarlari va menejerlari – korxona o’z iqtisodiy ko’rsatkichlarini makroiqtisodiy ko’rsatkichlardagi o’rnini aniqlash orqali, korxonani investitsiya siyosatini va bozor konyunkturasini o‘rganish uchun foydalanadi.
 - Ilmiy tekshirish institutlari va ilmiy markazlar – iqtisodiyotni tahlil qilishda va iqtisodiyotni prognozlashda hamda iqtisodiy modellar ishlab chiqarishda foydalanadi.

*1.1-rasm. Milliy hisoblar tizimi tushunchasi, uning maqsadi,
iste’molchilari va makroiqtisodiy tahlildagi o‘rni*

MHT ko'rsatkichlarining tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari


- Ayrim MHT schyotlari ko'rsatkichlarining tahlili;
- Schyotlarning ko'rsatkichlari bir-biri bilan bog'langan holda va ularga qo'shimcha hisoblangan ko'rsatkichlar bilan birgalikda tahlili;
- Iqtisodiy sektor ko'rsatkichlarini alohida tahlil qilish va iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rnnini oydinlashtirish;
- Tarmoqlarning ishlab chiqarish salohiyatini tahlil qilish va tarmoqlarning tarkibiy o'zgarishlarini baholash;
- MHTda aks etadigan iqtisodiy jarayonlar (daromadning shakllanish, taqsimlash va ulardan foydalanish, jamg'arish) tahlili;
- Iqtisodiy o'sish qonuniyatlari va yo'nalishlari, YaIM tarkibi, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarining muvozanatlari rivojlanish sur'atlarining bog'liqligi, iste'mol va jamg'arish, investitsiyani ichki talab va takliflar orasidagi munosabatlar, yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'mol va yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlar dinamikasi tahlili.

1.2-rasm. Milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlarining tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari




1.3-rasm. MHT konsepsiyasining nazariy asosi

Milliy hisoblar tizimining paydo bo‘lishi, taraqqiyot bosqichlari




1.4-rasm. MHTning shakllanish va taraqqiyot bosqichlari




1.5-rasm. MHTning xalqaro standartlari

Milliy hisoblar tizimi (MHT) va Xalq xo'jalik balansi (XXB) tizimi o'rtaсидаги асосиу farqlar va o'xshashliklari

Ikki tizim (MHT va XXB)da ham moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari tan olinadi. Biroq ularni hisobga olish MHT va XXBda bir-biridan farq qiladi:





1.6-rasm. Milliy hisoblar tizimi (MHT) va xalq xo'jalik balansi (XXB) tizimi o'rtasidagi asosiy farqlar va o'xshashliklar

O‘quv materiallari

1. Milliy hisoblar tizimi (MHT) haqida tushuncha va ma’lumotlarining iste’molchilari

MHT - bu iqtisodiy faoliyat natijalarini makrodarajada qayd etish va tahlil qilish uchun foydalanadigan o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar, klassifikatsiyalar va schyotlar tizimidir.

Ichki iqtisodiyot va «tashqi dunyo»ni qamrab oluvchi milliy schyotlar tizimini tuzish metodologiyasi «MHT» kursining o‘rganish predmeti bo‘lib hisoblanadi. Bu metodologiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: schyotlarni tuzish tamoyillari va usullari, ularning mazmuni, MHT ko‘rsatkichlar tizimi, ular o‘rtasidagi bog‘liqliklar va ularni hisoblash usullari; umumiqtisodiy schyotlar tizimi va undagi har bir schyotning iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiyotni, tashqi iqtisodiy faoliyat, hamda tarmoqlararo balansni tahlil etishdagi roli va boshqalar.

Milliy schyotlar tizimini tuzishdan maqsad moddiy ne’matlar va xizmatlar ishlab chiqarish, daromadlarning tashkil topishi, taqsimlanishi, qayta taqsimlanishi va ulardan foydalanish ko‘rsatkichlarini, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq makroiqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini miqdoriy tomondan tavsiflash hisoblanadi. Bu tavsif resurslar va ulardan foydalanish asosida o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar va jadvallarda balanslash yordamida amalga oshiriladi.

MHT kursining o‘rganish obyekti bu – tarmoqlar, sektorlar, turli mulkchilik shakllari va iqtisodiy faoliyat turlari, iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiy sektorlar yig‘indisi ko‘rinishidagi mamlakat va uning hududlari iqtisodiyotidir.

Ushbu kursning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiyotni tavsiflashda xalqaro statistika amaliyotida qo‘llaniluvchi asosiy tushuncha va kategoriyalar bilan tanishtirish;

- MHTda qo‘llaniladigan asosiy klassifikatsiyalar va guruhlashlarni ko‘rib chiqish;

- Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, daromadlarning tashkil topishi, taqsimlanishi, qayta taqsimlanishi va ulardan foydalanish, shuningdek boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini yoritib berish;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib berish va hisoblash usullarini o'rganish;
- ichki iqtisodiyot va «tashqi dunyo» ning alohida schyotlarini tuzish metodologiyasini tushuntirish;
- tarmoqlararo balans tuzish metodologiyasini o'rganish;
- MHT tahlilining asosiy yo'nalishlari va usullarini ko'rib o'tish.

2. MHT ma'lumotlarining iste'molchilarini

MHT ma'lumotlarining asosiy iste'molchilarini birinchi galda davlat boshqaruvi organlari tashkil etadi. Sababi, bozor iqtisodiyoti davrida davlat siyosatini ishlab chiqishda, ya'ni soliq va byudjet siyosati pul massasi, foizi qanday bo'lishi kerak, inflyatsiyaga qarshi kurash choralari, aholini ish bilan ta'minlash va davlat boshqaruvi organlari tomonidan ijtimoiy himoyalash, daromadni taqsimlash, tashqi savdo siyosati va boshqa makroiqtisodiy muammolarni yechishda foydalaniladi.

Yana asosiy iste'molchilardan biri korxonalar menejerlari, korparatsiyalar rahbarlari va biznes rahbarlar ishlarida foydalanadi, ya'ni, ular korxona uchun investitsiya, ishlab chiqarishni kengaytirish, iqtisodiy kon'yunkturani tahlil qilish maqsadida foydalanadilar. Albatta yuqoridagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda ishslash savodxonlikni bildiradi.

Uchinchi iste'molchi bu ilmiy tekshirish institutlari bo'lib, ular iqtisodiyotni tahlil qilishda, kelajakni bashorat qilishda, hamda iqtisodiy modellar yaratishda foydalanadi. To'rtinchi foydalanuvchi bu oliy o'quv yurtlari.

Eng asosiy iste'molchilar xalqaro tashkilotlardir: Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT), Xalqaro valyuta fondi (XVF) va boshqalar. Ular MHTga tegishli metodologiyani rivojlantirish, shu bilan birga o'z tashkilotlari badallarini aniqlash, kredit berishni asoslash va rivojlanayotgan davlatlarga o'zaro yordam berishida foydalanadilar.

Shunday qilib, MHT orqali iqtisodchilar, davlat rahbarlari, olim-iqtisodchilar, statistiklar o‘zaro birlashadi.

3. MHT bilan xalq xo‘jaligi balansi (XXB) o‘rtasidagi munosabatlar

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida statistikani tubdan o‘zgartirish talab qilinadi. Shuni aytib o‘tish kerakki, sobiq ittifoq davrida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosan xalq xo‘jaligi balansidan olingan. XXBda xalq xo‘jaligi moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish kabi ikkita sohaga ajratilib, u yaratuvchi va yaratilmaydigan mehnat nazariyasiga tayanadi. Bu holat xalq xo‘jaligini bir butunligicha tahlil qilishga imkon bermaydi.

MHTda XXBda topib bo‘lmaydigan tashqi iqtisodiy aloqalar to‘g‘risida to‘la axborotlarga ega bo‘linadi.

Barcha rivojlangan mamlakatlar o‘z iqtisodiy qudrati va aholi turmush darajasi ko‘rsatkichlarini MHT yordamida hisoblaydi va o‘zaro taqqoslaydi. BMTning xalqaro tashkilotlari bunday tizimga o‘tishni har tomonlama rag‘batlantirmoqdalar.

Aslini olganda, MHT va XXB tizimlari bir-biriga yaqin tizimlardir. Ikkala tizimda ham moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlari tan olinadi. Lekin ularni hisobga olish bu ikkala tizimda bir-biridan farq qiladi, ya’ni XXB tizimida *yalpi ijtimoiy mahsulot* va *milliy daromad* faqat moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratiladi, deb hisoblanadi. XXB tizimida xizmat ko‘rsatish hisobi milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida sarf-xarajatlar sifatida hisobga olinadi.

MHTda moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hisobida bunday farq qilinmaydi. Xizmat ko‘rsatish natijasida yaratilgan qiymat moddiy ishlab chiqarishda yaratilgan qiymat bilan bir xil mavqega ega, deb qaraladi. Bu esa mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni va milliy daromadni to‘la hisobga olish imkonini yaratadi.

4. MHTning paydo bo‘lishi va taraqqiyot bosqichlari

XVII asr oxirida iqtisodiy rivojlangan davlatlardan Angliya, Gollandiya va Fransiyada o‘zlarining milliy daromadlari va

boyliklarini hisoblab, shu boylikka asosan armiya saqlashgan. Bu davrda ko‘zga ko‘ringan iqtisodchilardan Angliyada V.Petti (1665-1676 y.y.), King (1696 y.) va Fransiyada Voban (1707 y.) milliy daromadni hisoblashgan va shu asosda milliy soliq tizimini tuzishgan.

XVIII asrga kelib, iqtisodiyot fanida asosan ishlab chiqarishga e’tibor berilib, undan olingan daromadlarni hisoblashgan. Xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga kiritganlardan Fransiyalik iqtisodchi A.Smitdir. 1930 yilga kelib, AQShda yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni hisoblash konsepsiysi paydo bo‘lgan.

Chet mamlakatlar statistikasida balans tizimlari tajribasi V.Leontev tomonidan AQShning 1929-1938 yil ma’lumotlari asosida tuzildi. Bu balans xarajatlar-ishlab chiqarish jadvali shaklida bo‘lib, uning asosida ikki yoqlama yozuvli shaxmat jadvali metodi asos bo‘lgan.

1951-yilda Parijda Evropa iqtisodiy hamjamiyatining Milliy hisoblar bo‘yicha konferensiysi bo‘lib, unda Evropa iqtisodiy hamjamiyatiga a’zo bo‘lgan mamlakatlar uchun Milliy hisoblar tizimining standart loyihasi qabul qilindi. Bu loyiha angliyalik bir guruh iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqildi.

1952-yilda bir guruh ekspert-statistiklar BMTning Statistika byurosi topshirig‘ig‘a binoan «Milliy hisoblar va uzatuvchi jadvallar» deb nomlangan metodologiyani tayyorladilar. Bunga Angliya va AQShning milliy hisoblar bo‘yicha asosiy ishlari negiz qilib olindi.

1953-yilda dastlabki MHT qabul qilingandan so‘ng, BMTning statistika organlari tomonidan milliy hisoblarning nazariy va metodologik asoslari takomillashtirildi va rivojlantirildi. Bu ishlar 1968-yilda qabul qilingan MHTning xalqaro standarti 25 yil, toki 1993-yilning fevraliga qadar xizmat qildi.

1993-yil fevral oyida BMTning N’yu-Yorkdagi Statistika komissiyasining navbatdagi sessiyada MHTning yangi standarti qabul qilindi.

1993-yilda MHT tubdan yangilanganidan keyin BMT Statistika qo’mitasi kichik, lekin tez-tez yangiliklar kiritishning maqsadga muvofiqligi to’g’risida qaror qabul qildi, lekin bu qaror amalga oshirilmadi va shuning uchun boshqa yirik

yangilashni amalga oshirish zarurati tug'ildi. 1993-yilgi MHTni yangilash jarayoni 2008-yilning mart oyida nihoyasiga yetdi, uni yangilangan tahriri BMT statistika qo'mitasi tomonidan ma'qullandi. Unga "2008-yilgi Milliy hisoblar tizimi" (MHT-2008) nomi berildi.

1968-yildan to 1993-yilgacha MHTda qo'lga kiritilgan yutuq va tajribalar bu yangi standartga asos qilib olindi.

Shunday qilib, MHTning qisqacha tarixiy ma'lumotining xulosasi quyidagicha:

Yillar	Asosiy e'tibor	Natijasi
1950-1750	Daromadlar	-milliy daromadni hisoblash -hisoblashdan maqsad, soliqlarni to'g'ri hisoblashdir.
1700-1900	Ishlab chiqarish	YaIM hisoblash -ishlab chiqarishni chegarasini aniqlash
1940	Makroiqtisodiyot	Hozirgi amaliyotdagi MHT

5. MHT ning nazariy asoslari, konsepsiyalari va tushunchalari

Iqtisodiy jarayonlarni amaliyotga asoslangan holatda MHT orqali tavsiflash uchun siyosiy-iqtisodiy qonuniyatlarga suyanishi kerak. Ana shunday konsepsiyalardan biri ishlab chiqarish chegarasi va tarkibiy qismidir. Shuni qayd qilish kerakki, iqtisodiy ishlab chiqarish konsepsiysi, ilmiy iqtisodiyot fani asosidir. Bu konsepsiyaning o'z tarixi mavjud. Ishlab chiqarish kuchlari va jamiyatning rivojlanishi o'zaro bog'liq holda o'zgarib turdi. Masalan, fiziokrat Fransua Kenening fikricha, iqtisodiy ishlab chiqarish faqat tog'-kon sanoatida jamlashgandir, chunki iqtisodiyotga bu sohalar tabiatdan ajratib olingan. Qolgan tarmoqlar esa, tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulolarning ko'rinishi bir-xolatdan boshqa xolatga aylantirgan.

Fiziokratlarning bu nazariyasi o'sha davrda, tog'-kon sanoati juda rivojlangan davrga to'g'ri kelgan, keyinchalik boshqa tarmoqlar bilan birga sanoat ham rivojiana boshlagan. Bu konsepsiyanı juda to'g'ri emasligini A.Smit o'zining moddiy ishlab chiqarish konsepsiyasida asoslagan, ya'ni muayyan ishlab chiqarish sohasiga hamma ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kirishini aytgan. A.Smit fikriga ko'ra xizmat sohasi ishlab chiqarish

tarkibiga kiritilgan. K. Marks hamda sovet siyosiy iqtisodchilari xizmatlarni ishlab chiqarish tarkibiga kiritmagan, shu sababli bu soha yaxshi rivojlanmay qolgan. Shuni aytish kerakki bundan 300 yil ilgari ingliz iqtisodchisi V. Petti yashagan davrda iqtisodiyotni rivojida xizmat sohasi katta o'rinni tashkil qilgan. Shuning uchun V. Petti xizmatlarni ham ishlab chiqarishga kiritgan, ana shu konsepsiya MHT uchun asos bo'lgan. Faqatgina uy xo'jaligidagi uy bekalarining xizmati hisobga olinmagan. Hozirgi MHTda uy xizmatkorining xizmati ishlab chiqarish tarkibiga kiradi. Agarda siz uy xizmatchingizga uylansangiz, YaIM qiymati uy xizmatkorining daromadi miqdoriga kamayadi.

MHT yangi nusxasining MHT-1993 konsepsiyasida uy xo'jaligida uy bekalarining xizmatini hisoblash tavsiya qilinadi. Shu bilan birga narkotik modda ishlab chiqarish va tarqatish, yashirin ishlab chiqarish sohalarini ham hisobga olish tavsiya qilinadi. Shu kungacha ko'pgina davlatlar buni hisobga olgani y o'q. Ishlab chiqarish aktivini ushlab turganda inflyatsiya tufayli ularning oshgan qiymatlari, tabiiy o'sgan o'simliklar va yovvoyi xayvonlar mahsulotlari esa ishlab chiqarishga kiritilmaydi.

Shunday qilib, iqtisodiy ishlab chiqarish sohasining chegarasiga quyidagi faoliyat turlari kiradi:

- 1) tovar ishlab chiqarish va uning realizatsiyasi, hattoki o'zining iste'moli va jamg'arish uchun ishlab chiqarilgan bo'lsa ham;
- 2) sotishga mo'ljallangan nomoliyaviy xizmatlar;
- 3) moliyaviy korxonalar faoliyati (bank, sug'urta tashkilotlari);
- 4) davlat boshqaruvi organlari faoliyati, ya'ni bozorga oid bo'lмаган xizmatlar (kollektiv va individual xizmatlar);
- 5) uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatadigan notijorat tashkilotlar faoliyati;
- 6) uy xo'jaligi pulli xizmat faoliyat turlari (xaydovchi, enaga, oshpaz, bog'bon);
- 7) uy egasini o'zining iste'moli uchun turar joy xizmatlari.

MHTning asosiy prinsiplari quydagilardan iborat:

1. Klassifikatsiya prinsipi:

- schyotlar klassifikatsiyasi;
- birliklar klassifikatsiyasi;
- operatsiyalar klassifikatsiyasi.

2. Tenglik muvozanat prinsipi:

- umumiy tushum-umumiy xarajatlarga teng (byudjet muvozanati)

- yalpi xarajat-yalpi mahsulotga teng(tarmoqlar balansi)
- qo'shilgan qiymat—birlamchi daromad—pirovard
iste'molga (YaIMni uch usulda hisoblash prinsipi).

3. Hisobchilikdagi standart qoidalar prinsipi:

- ishlab chiqarish chegarasi;
- qayd qilish vaqtி;
- baholash;
- hisoblash birligi (davlat valyutasini hisoblash).

MHTda zahira va oqim tushunchalari muhim ahamiyatga aga. O'zgaruvchan zahira faqatgina ma'lum bir vaqtida o'lchanadi va obyektning ma'lum bir vaqtidagi – yilning boshi yoki oxiri hamda boshqa holatlarini tavsiflaydi. Zahiraga misol bo'lib davlat qarzi, iqtisodiyotda kapital miqdori, ishsizlarni umumiyl soni va boshqalar misol bo'lishi mumkin.

O'zgaruvchan oqimlar birlamchi vaqt birligida o'lchanadi (oy, chorak, yil va boshqalar) hamda iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xos «oqimini» tavsiflaydi; yillik iste'mol xarajatlari miqdori, chorak davomida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va boshqalar.

Mavzuga doir testlar

1. MHTni, barchaga tegishli ma'lumotlarni tartibga solgan, ixchamlangan holdagi, deb qaraladi:

- a) tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash, aktivlarni o'zlashtirish va majburiyatlar olishini;
- b) iqtisodiy jarayonlarda qatnashayotgan xo'jalik subyektlarini;
- c) milliy boylikni shakllantiruvchi iqtisodiy operatsiyalarini;
- d) tarmoqlararo aloqani.

2. Milliy hisoblar tizimi (MHT) va xalq xo'jaligi balansi (XXB) tizimi o'rtasidagi nazariy va uslubiy farq nimadan iborat?

a) MHT bozor iqtisodiyoti talabini qondirish bo‘lib, avvalo birinchi navbatda moliya kredit munosabatlarini ilgari suradi, XXB esa ishlab chiqarish jarayoni va moddiy resurslar harakatini nazorat qilishga xizmat qiladi;

b) MHT natura va qiymat ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘laydi, XXB esa faqatgina qiymat ko‘rsatkichlari;

c) MHT da iqtisodiy ishlab chiqarish chegarasiga barcha iqtisodiy faoliyat natijasi kiradi va u daromad yaratadi, XXB da esa nomoddiy ishlab chiqarish yaratadi deb izohlanadi;

d) MHT da jami ijtimoiy mahsulot qiymati –ishlab chiqarish omillarini mehnat xarajatidir; XXB da esa ko‘chirib o‘tgan va yangi yaratilgan qiymat.

3. MHTni nazariy asoslari qaysi konsepsiya asoslangan?

a) J.B.Sey, A.Marshalni noishlab chiqarish omillar nazariyasiga asoslanadi;

b) K.Marksni moddiy ishlab chiqarish konsepsiyasiga asoslangan;

c) Dj. Xiksni foizlar to‘g‘risidagi konsepsiyasiga;

d) Marshalni iqtisodiy ishlab chiqarish nazariyasiga asoslangan bo‘lib, bunda xizmatlarga moddiy ne’matlar yaratish bilan bir qatorda ishlab chiqarish safida qaraladi.

4. MHT da iqtisodiy ishlab chiqarish quyidagicha ta’riflanadi:

a) institutsional birliklar nazorati ostida ishlab chiqarish omillari ishtirokida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarga aytildi;

b) ishlab chiqarish faoliyati natijasida yaratilgan qiymat;

c) moddiy ne’matlar va xizmatlarni yaratuvchi barcha faoliyat sohalari;

d) mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sarflangan barcha faoliyat turlari kiradi.

5. Iqtisodiy faoliyat deganda....

a) tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish tushuniladi;

b) tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish, iste’mol va jamg‘arish jarayonlari tushuniladi;

c) institutsional birlikning foyda olishga qaratilgan faoliyati tushuniladi;

d) faqat iste’mol va jamg‘arish jarayonlari tushuniladi.

6. MHT da institutsional birliklar, deb...

- a) bozor va nobozor ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan birliklarga;
- b) faqat bozor ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan birliklarga;
- c) bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagina nobozor ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan birliklarga;
- d) huquqiy shaxslar.

7. Oralıq iste’mol, deb ...

- a) hisobot davrida ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan tovarlar va xizmatlar hamda ishchi va xizmatchilarga bepul berilgan tovarlar qiymatiga aytiladi;
- b) hisobot davrida ishlab chiqarish jarayonida iste’mol qilingan (ishlatilgan) tovarlar va xizmatlar qiymatiga aytiladi;
- c) ishlab chiqarish jarayonida iste’mol bo‘lgan (ishlatilgan) tovarlar va xizmatlar qiymatiga aytiladi;
- d) foyda olish maqsadida ishlab chiqarishga sarflangan mahsulotlar qiymatiga aytiladi.

8. Shaxs o‘zini pirovard iste’moli uchun ko‘rsatgan xizmatlarining qaysi biri iqtisodiy ishlab chiqarish chegarasiga kiradi?

- a) uy xo‘jaliklari a’zolari tomonidan o‘zlari va uy xo‘jaligi a’zolari uchun bajariladigan xizmatlar;
- b) uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi yollangan uy xizmatchilarining faoliyati;
- c) uy xo‘jaliklarining hayvonlarni sotib olish xarajatlari;
- d) uy xo‘jaliklar tomonidan uzoq muddatli foydalanadigan iste’mol tovarlarini ta’mirlash.

9. “Oqim” tushunchasi nimani anglatadi?

- a) oqimlar - kuzatilayotgan ma’lum bir davrdagi iqtisodiy o‘zgarishlarni ifodalovchi operatsiyalardir;
- b) pul, qimmatbaho qog‘ozlar va boshqa moliyaviy aktivlar harakati;
- c) tovarlar va xizmatlar harakatlari;
- d) iqtisodiy moddiy aktivlar harakatlari.

10. “Zaxira” tushunchasi nimani anglatadi hamda oqim va zaxira ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligi:

- a) hisobot oxiridagi zaxira qiymati teng, zaxira hisobot boshidagi qiymatdan oqim qiymatini ayirmasiga;
- b) barcha turdagи passivni iqtisodiy o‘zgarishlarni ma’lum sanadagi holatini ifodalovchi operatsiyalardir;
- c) barcha turdagи aktivlar va majburiyatlarning ma’lum davrdagi holatini ifodalovchi operatsiyalardir;
- d) hisobot oxiridagi zaxira qiymati teng, zaxirani hisobot boshidagi qiymatiga oqim qiymatini qo‘silganiga teng.

11. Milliy hisoblar tizimiga quyidagi javoblardan qaysi biri makroiqtisodiy tizimiga javob beradi va bozor iqtisodiy mexanizmini to‘liq ko‘rsatadi?

- a) MHT – bu tizim, u aktiv va daromad ko‘rsatkichlar oqimidir;
- b) MHT – bu aktivlarni qiymat ko‘rinishidagi iqtisodiy aylanish tizimidir;
- c) MHT-bu tovar va xizmatlar ko‘rsatkichlarini balans va standart jadvallardagi ko‘rinishi;
- d) MHT-bu talab va takliflar balans tizimidir.

12. Ayrim vaqtarda MHT iqtisodiyotning buxgalteriya balansi deyiladi. Quyidagi javoblarni qaysi biri bu ta’rifga to‘liq javob beradi?

- a) MHTni ma’lumotlar manbayi nuqtai nazaridan qaraganda buxgalteriya hisobiga asoslanadi;
- b) milliy hisoblar tizimi tuzish uslubiyati ko‘p jihatlari, buxgalteriyadagi hisoblash uslubiyatlariga asoslangan;
- c) milliy hisoblar tizimiga, xo‘jalik subyektlarini iqtisodiy-moliyaviy faoliyatini kattalashgan nusxasi, deb qarash mumkin;
- d) MHTni tuzish usulining asosi kapitallarni balans qiymati bo‘yicha tuzishga asoslangan.

1.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi

<i>O‘quv mashg‘uloti shakli</i>	Amaliy mashg‘ulotlarda chuqurlashtirish va bilimni kengaytirish jarayoni.
Amaliy mashg‘ulotda muhokama qilinadigan savollar.	<ol style="list-style-type: none"> 1. O‘zbekistonda milliy hisobchilikni yuzaga kelish tarixi va bosqichlari. 2. Ishlab chiqarish haqida tushuncha va uni hisobga olish. 3. Yalpi mahsulot ishlab chiqarish va uni hisobga olish. 4. Yalpi xizmatlar, uni tasnifi va hisoblash usullari.
<i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i> Mavzu bo‘yicha bilimni chuqurlashtirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Bozor munosabatlariiga asoslangan iqtisodiyotda fanning ahamiyatini yoritib beradi. • Iqtisodiy ishlab chiqarish va uni chegarasini aniqlab berish. • Ayrim tarmoqlarda yalpi ishlab chiqarish hajmlarini hisoblashdagi ayrim xususiyatlari. 	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • fanning strategiyasi, tamoyillari, komplekslariga tushuncha beradi va iqtisodiyotdagi uning ahamiyatini yoritib beradi; • bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotida kechayotgan erkinlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlarini yaxlit statistik ko‘rsatkichlar tizimi orqali ifoda etish mohiyatini ochib beradi; • iqtisodiy tarmoqlarda yalpi ishlab chiqarish qiymatlarini hisoblash usullarini yoritib beradi.
<i>O‘quv uslubi</i>	Xabar berish orqali o‘qitish, diskussiya, “Doira” stol, grafik organayzer: mantiqan tizimli chizma.
<i>O‘qitish shakli</i>	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Ma’ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar, flomasterlar.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya yoritilgan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Mustaqil o‘rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar va vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	o‘qituvchi	talaba
1-bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish (20 min.)	<p>1.1. Mavzu nomini aytadi, rejalashtirilgan natijalarni va uni o‘tkazish jarayoni bilan tanishtiradi. Birgalikda guruhlар bilan texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonini tushuntiradi. Adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Tayanch iboralar tushunchalari orqali so‘rovnoma olib boradi. Savollar beradi va 1-2 ta javoblarni eshitib bo‘lgach, keyingi muhokamalarni guruhlар ishlarini bajarib, natijalarni prezентatsiya jarayonida eshitishni e’lon qiladi. Har bir talaba individual tarzda guruhlardagi baholanish bilan birga baho oladi va guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi..(1.2.1-ilova).</p> <p>Guruhlarda ishlangan natijalar flip-chatlar orqali namoyish qilinishini e’lon qiladi.</p>	<p>1.1. Eshitadi va yozib boradi.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradi.</p>
2-bosqich Guruhlarda ishlash (40 min)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhgа bo‘ladi. O‘quv vazifalarni tarqatadi. Qanday natijalarga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi.</p> <p>2.2. Natijaviy ko‘rsatkichlarni sharhlaydi. Qanday qo‘srimcha materiallar bilan foydalanish mumkinligini tushuntiradi (darslik, ma’ruza matnlari, o‘quv qo‘llanma).</p> <p>2.3. O‘zaro guruhlarda olingan natijalarni prezентatsiya qilish va ularni baholanishini tashkil qiladi. Qilingan ish jarayonidagi xulosalar keltiriladi va alohida e’tiborga loyiq guruhlар jarayoni ketadi.</p>	<p>2.1. Ish jarayonidagi o‘quv vazifalar, baholar mezonlari bilan tanishadi. Ishni bajarishni boshlaydi.</p> <p>2.2. Birgalikda qilingan prezентatsiya chiqishlari ko‘rsatiladi. Qo‘srimchalar kiritiladi va baholash jarayoni ketadi.</p>
3-bosqich Yakuniy bosqich (10 min)	<p>3.1. Amaliyot natijalarini yakunlaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish mavzusini aytadi va vazifa beradi.</p>	Eshitadi, tahlil qiladi va yozib oladi.

Uslubiy ko‘rsatmalar va namunaviy misollar yechish

Iqtisodiy ishlab chiqarish, deb ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarish omillari mehnat, kapital, yer va tadbirkorlik faoliyati ishtirokida tovarlar va xizmatlar sarflab, natijada boshqa turdag'i tovarlar va xizmatlarni yaratib, iste'molchiga (pul yoki bepul yoki tovar evaziga) yetkazib berish jarayoniga aytildi. Milliy hisoblar tizimi (MHT)da faqatgina ishlab chiqarish omillari ishtirokida yaratilgan mahsulotlar va xizmatlar hisobga olinadi.

Iqtisodiy ishlab chiqarish sohasiga quyidagi faoliyat turlari kiradi:

- tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va uni sotish, hattoki o‘z iste’moli va jamg‘arish uchun ishlab chiqargan bo‘lsa ham;
- moliyaviy korxona (bank, sug‘urta tashkilotlari) faoliyati;
- davlat boshqaruva tashkilotlarining faoliyati, ya’ni bozorga oid bo‘lmagan xizmatlari (jamoa va individual xizmatlar);
- uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatadigan notijorat tashkilotlarning faoliyati;
- uy xo‘jaligiga pulli xizmat ko‘rsatuvchilarning faoliyati (haydovchi, oqsoch, oshpaz, bog‘bon va boshqalar);
- uy-joy egalarining uylarning holatini saqlash va yaxshilash bo‘yicha faoliyatları (ta’mirlash, kapital ta’mirlash, rekonstruktsiyalash va boshqalar).

MHTda ishlab chiqarish xarakteriga va maqsadiga qarab:

- bozorga oid ishlab chiqarish;
- bozorga oid bo‘lmagan ishlab chiqarish.

Nobozor ishlab chiqarish bozor ishlab chiqarishdan quyidagi belgilari orqali farqlanadi:

- ishlab chiqaruvchi birlikning asosiy maqsadi foyda olish emas;
- ishlab chiqarilgan tovarlar yoki xizmatlar iste’molchiga yetkazilganda olingan daromad shu tovar va xizmatni ishlab chiqarish va yetkazishga ketgan sarf-xarajatlarni to‘liq qoplamasligi;
- ishlab chiqaruvchi birlik o‘zining pirovard iste’moli uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar, zaxiraga kelib

tushadigan va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi (bozor baholarida baholanadi).

Ishlab chiqarish natijalari eng avvalo yalpi ishlab chiqarish (YaICh) ko'rsatkichi orqali qayd etiladi.

YaICh hisobot davrida ishlab chiqarilgan barcha bozorga oid va bozorga oid bo'lмаган tovarlar va xizmatlar qiymatining yig'indisidan iborat.

Xalqaro amaliyotda YaICh ko'rsatkichi iqtisodiyotni natijaviy ko'rsatkichi deb hisoblanmasa-da, yalpi qo'shilgan qiymatni hisoblashda boshlang'ich ko'rsatkich bo'ladi. Shu sababli, YaIChni aniq hisoblash tavsiya etiladi.

Iqtisodiyotning tarmoq va sektorlarida YaICh ko'rsatkichini hisoblash usuli turlichadir.

Xizmat ko'rsatish, mahsulot ishlab chiqarish va bozorga oid bo'lмаган ishlab chiqarish tarmoqlarida bu ko'rsatkichni hisoblash usullari farqlanadi. Quyida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida YaICh ko'rsatkichini hisoblash usullarini ko'rib chiqamiz.

Moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi korxona va tashkilotlar YaICh ko'rsatkichi quyidagi tenglama orqali hisoblanadi:

$$YaICh=R+B+N+I+\Delta TM+\Delta TICh \quad (1)$$

Bunda:

R-bozor bahosida sotilgan tovar mahsulotlari;

B-barter usuli bilan almashilgan tovarlar;

N-korxona o'z xizmatlari uchun mehnat haqi sifatida bergen natural ko'rinishdagi mahsulotlar;

I-korxonalar shohobchalarining o'zaro bir-biriga beradigan tovar mahsuloti;

Δ TM-sotishga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar zaxira qiymatlarini hisobot davridagi o'zgarishi;

Δ TICh- tugallanmagan ishlab chiqarishlar hajmlar qiymatining hisobot davrida o'zgarishi.

Tayyor mahsulotlar zaxirasi o'zgarishi (Δ TM) quyidagi tenglama orqali hisoblanadi:

$$\Delta TM = TM_{Zo} - TM_{Zb} \quad (2)$$

Bunda:

△ TM_{Zo} -zaxiradagi tayyor mahsulotlarning hisobot davri oxiridagi qiymati;

△ TM_{Zb} -zaxiradagi tayyor mahsulotlarning hisobot davri boshidagi qiymati.

Yuqoridagi tenglamadan foydalanilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

Ma'lumki, tovarlarni ishlab chiqarish va sotish davrlari har doim hisoblash davriga mos kelavermaydi. Shu sababli YaIChi hisoblaganda zaxiraning o'zgarishini hisobga olish kerak. Zaxiraning o'zgarishi hisoblanganda mahsulotni zaxiraga tushgan vaqtidagi, ya'ni ishlab chiqarish vaqtidagi baho bilan hisoblash kerak. Mahsulotni zaxiradan olib, sotish vaqtidagi baholar bilan mahsulotni zaxiraga tushgan vaqtidagi baholar bir-biridan farq qiladi. Bu farq MHTda xolding foydasi (yoki zarari), deb yuritiladi. Bunday holatlarda zaxiradan sotishga olingan tayyor mahsulotlarning baholar o'zgarishi hisobiga hosil bo'lgan qo'shimcha (xolding foydasi) yoki yo'qolgan qiymat (xolding zarari) miqdorini quyidagi tenglama orqali hisoblash kerak:

$$X_F = Q_3(L-M) \quad (3)$$

Bunda:

X_F -xolding foyda (+) yoki zarar (-);

L-sotiladigan tovarning zaxiradan olinayotgan vaqtidagi bahosi qiymati;

Q_3 -zaxiraga yoki zaxiradan olinayotgan mahsulotni miqdori.

Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan holatlarda YaIChi ko'rsatkichini hisoblashda X_F -xolding foydani (zarar) ayirib tashlanadi va (1) tenglamaning umumiyligi ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$HFCp = (K+I+T+III+\Delta E_b + \Delta E_{PCp}) - \text{Ча} \quad (4)$$

Yuqoridagi tenglamalarda (3) YaICh hisobga olingan ishlab chiqarilgan mahsulotlardan tashqari quyidagilar ham hisobga olinadi:

* ishlab chiqaruvchining xizmatchilarga mehnat haqi sifatida bergan mahsulotlari va xizmatlari;

* korxonaning kelishilgan xizmat ko'rsatuvchi shohobchalarga bergan mahsulotlari (oshxona, tibbiyot maskani, bolalar bog'chasi va boshqalar);

* uy xo'jaligi o'zining iste'moli uchun ishlab chiqargan dehqonchilik, chorva mahsulotlari (kiyim, poyafzal, mebel va boshqalar);

* uy xo'jaligining shartli ijara haqi (MHTda uy egalarining uy xo'jaligiga ijara xizmati ko'rsatish deb talqin etiladi. Ijara xizmatiga esa ishlab chiqarish, deb qaraladi);

* uy xo'jaligining pulli xizmatlari;

* shartli moliyaviy vositachilik xizmatlari.

Uyda ishlab chiqarilgan quyidagi mahsulot va xizmatlar YaIChga kiritilmaydi:

* uy bekalarining bepul xizmatlari;

* uy egalarining o'z kuchlari bilan uylarini joriy ta'mirlashi;

* yerning ijara haqi (renta).

Namunali misollarni yechish

«Orzu» fabrikasida yanvar oyida 12 ming dona futbol koptogi, 9 ming dona sportchilar sumkasi ishlab chiqarildi. Yanvar oyida futbol koptogidan 9500 donasi 2000 so'mdan, sportchilar sumkasining 6000 donasi 4000 so'mdan sotildi. Qolgan futbol koptogini har bir donasi 2500 so'mdan, sportchilar sumkasining bir donasi 5000 so'mdan fevral oyida sotildi. Yanvar oyida «Orzu» fabrikasida yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot va xolding foydani hisoblang.

Yechim:

Yuqorida qayd etilgan (4)-tenglama asosida hisoblaymiz:

“Orzu” fabrikasi yanvar oyida yalpi ishlab chiqarilgan mahsuloti YaICh=YaICh(futbol koptogi)+YaICh (sportchilar sumkasidan iborat) YaICh=YaICh_{kop}+YaICh_{sumka}

yanvar oyida ishlab chiqarilgan futbol koptogi va sport sumka mahsulotlari teng:

$$\begin{aligned}
 YaICh_{kop} &= R_1(9500 \cdot 2000) + R_2(2500 \cdot 2500) - X_f Q(2500)[L(2500-2000)] = \\
 &= R_1(19000000) + R_2(6250000) - X_f(1250000) = 24000000 \text{ so'm} \\
 HfSCp_{yglylf} &= K_1(6000 \cdot 4000) + K_2(3000 \cdot 5000) - \\
 - \chi_a \dot{Y}(3000) \chi D(5000) - \dot{B}(4000) \dot{B} = & K_1(240006000) + K_2(150000000) - \\
 - \chi_a \dot{Y}(3000) \chi D(5000) - \dot{B}(4000) \dot{B} = & 36000000 \text{ yash'eb} \\
 YaICh &= YaICh_{kop}(24000000) + YaICh_{sumka}(36000000) = \\
 &= 60000000 \text{ so'm} = 60 \text{ mln so'm}.
 \end{aligned}$$

Inflyatsiya tufayli mahsulotlarni bahosi oshishi hisobiga olingan qo'shimcha daromadlar «xolding» foyda (X_f) bo'lib, u yalpi ishlab chiqarish qiymatiga qo'shilmaydi. Xolding foydani (3) tenglama asosida hisoblaymiz.

$$X_f = Q(12000-9500) \cdot [L(2500)-M(2000)] + Q(9000-6000) \cdot [L(5000-4000)] = 4250000 \text{ so'm} = 4,25 \text{ mln so'm}.$$

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1.1-masala

Yulduz firmasi hisobot yilning yanvar oyida 5500 dona ko'yak ishlab chiqardi. Bir dona ko'yak bahosi 2000 so'm edi. Ammo ishlab chiqarilgan ko'yaklar mart oyida, har birining narxi 2500 so'm bo'lganda, sotildi.

Firmada hisobot yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan yalpi ishlab chiqarish qiymatini va xolding foydani hisoblang.

1.2-masala

Chinni zavodi hisobot davrida 25000 dona lagan ishlab chiqarib, har donasini 1500 dan bo'lgan laganni 15000 so'mga sotdi. Qolgani tayyor mahsulotlar omboriga yuborilib, keyingi yilda har bir donasi 2000 so'mdan sotildi.

Zavodda hisobot davrida ishlab chiqarilgan YaIChni va xolding foydasini hisoblang.

1.3-masala

«Qizil tong» fabrikasining joriy davrida ishlab chiqargan mahsuloti 40 mln so'mga sotildi. Bundan tashqari savdo firmasi tomonidan oldindan o'tkazilgan pulning 30 %ga – 10 mln so'mga mahsulotlar berdi.

Fabrikada yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymatini hisoblang.

1.4-masala

Joriy yilning aprel oyida mashinasozlik zavodi 12 mln so‘mlik mahsulot sotdi. Bundan tashqari savdo firmasi zavodga oldindan 5 mln so‘m o‘tkazdi hamda zavod qo‘shti zavodga 12 mln so‘mlik xizmat ko‘rsatdi.

Zavodni aprel oyida ishlab chiqargan yalpi mahsulotini hisoblang.

1.5-masala

Ulgurji savdo firmasi hisobot yilda har birining bahosi 1,5 ming so‘mdan 5 ming dona ko‘ylak sotib olib, ularning 3 ming donasini har birini 2 ming so‘mdan sotdi. Qolganini kelgusi yilda har birini 2,5 ming so‘mdan sotdi.

Firmaning hisobot davrida ko‘rsatgan pulli yalpi xizmatini va xolding foydasini hisoblang.

1.6-masala

Toshkent poyafzal fabrikasi, joriy yilda 40 mln so‘mlik tayyor mahsulotlarni realizatsiya qildi. Fabrika o‘z xizmatchilarining ish haqi uchun natura holida 2 mln so‘mlik tayyor mahsulotlar berdi. 2 mln so‘mlik tikuv mashinalarni kapital ta’mirlash ishlarini bajardi.

Fabrikani joriy yilda yalpi ishlab chiqargan mahsulotlari qiymatini hisoblang.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar

1. MHT qanday tizim va u nimaga asoslanadi?
2. MHTni o‘rganishdan maqsad nima?
3. MHT ma’lumotlarining iste’molchilari kimlardan iborat?
4. MHT rivojlanishida qanday taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan?
5. MHTning nazariy asoslari va tushunchalarini ta’riflab bering.
6. O‘zbekiston Respublikasining MHTga o‘tishdagi Davlat dasturi va uning amalga oshirilishi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar

1. Система национальных счётов 1993. Издание ООН, 1998г. – С. 1-72.
2. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./ Под ред. Ю.Н.Иванова. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – С. 19-69.
3. Подмогильная В. Система национальных счетов: Учебно-практическое пособие. – Москва: РАГС, 2010. – 238 с.
4. Кремлев Н.Д. Система национальных счетов: Учебное пособие. – Курган: Издательство Курганстат, 2009. – С. 6-60.
5. Елесеева И., Силаева С., Щирина А. Практикум по макроэкономической статистике. – М.: Проспект, 2008. – С. 6-22.
6. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов: Учебное пособие для вузов. – Москва: Финансы и статистика, 2006. – 272 с.
7. Махмудов Б. Миллий ҳисобчилик асослари./Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2003. – Б. 9-34.
8. Qoraboyev A.R. Milliy hisoblar tizimi fanidan masalalar to’plami. O’quv uslubiy qo’llanma. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – В. 4-21.
9. Абдуғаффоров А, Зокирова М, Қорабоев А. Миллий ҳисоблар тизими. Тошкент “Молия” 2002.- 80 б.

II mavzu. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA IQTISODIY KATEGORIYALAR, OPERATSIYALAR VA ASOSIY TASNIFFLASHLAR


2.1. Ma’ruza mashg‘ulotini o‘qitish texnologiyasi

Vaqti-2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Axborot, vizual ma’ruza
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	1.MHT ning asosiy kategoriyalari va tushunchalari 2.MHTda qo‘llaniladigan asosiy tasniflar. 3.MHTda baho, soliqlar, subsidiyalar va ularning tasnifi.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> MHT da iqtisodiy kategoriyalar, iqtisodiy sektorlar va tarmoqlar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> Iqtisodiy birliklar, iqtisodiy hudud, milliy va ichki iqtisodiyotga ta’rif berish. Sektorlar va tarmoqlar tasnifini tushuntirish. Iqtisodiyotni sektorlar va tarmoqlar bo‘yicha tahlil qilishning ahamiyatini yoritish. MHTda iqtisodiy operatsiyalar va ularning tasnifini, ularni qayd qilish qoidalarini tushuntirish. 	<ul style="list-style-type: none"> Institutsional birliklar o‘rtasidagi iqtisodiy operatsiyalar munosabatlarni o‘zlashtiradi. Iqtisodiy tarmoqlar va iqtisodiy sektorlarni shakllantirish jarayonlarini o‘rganadi. Iqtisodiy operatsiyalar tasnifi va ularni qayd qilish qoidalarini o‘rganadi. Moliyaviy vositalar (baho, soliq, subsidiya va boshqalar) bilan qilinadigan operatsiyalarni o‘zlashtiradi.
<i>O‘qitishning uslubi</i>	Ma’ruza, aqliy hujum, blis-so‘rov.
<i>O‘qitishning shakli</i>	Guruhlarda ishslash, frontal va jamaoa, juftliklarda ishslash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Ma’ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari, flomasterlar, multimedya.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishslash uchun mo‘ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki savollar, o‘quv vazifalari, test savollari, mustaqil ishlar.


Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik kartasi

Ishning bosqichlari vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	o‘qituvchi	talabalar
1-bosqich kirish qismi (20 min.)	<p>1.1. Mavzuning nomini e’lon qiladi. Fan bo‘yicha umumiy tasavvur keltiradi. Ishning metodologik va tashkiliy xususiyatlarini yoritib beradi.</p> <p>1.2. Mavzuni, uning maqsadi o‘quv mashg‘ulotlardan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.</p> <p>1.3. Kurs davomidagi ma’ruzalar mazmuni bilan tanishtiradi. Reyting baholash mezonlari bilan tanishtiradi, yozma ish va oraliq nazoratlari hamda yakuniy nazoratlar bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p>	<p>Eshitadi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>
2-bosqich Asosiy bosqich (50 min.)	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajasini aniqlash maqsadida tezkor savol javob o’tkazadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Iqtisodiy birliklar va iqtisodiy hudud nima? 2. Milliy va ichki iqtisodiyotning sektorlar va tarmoqlarga bo‘linishi to‘g‘risida qanday tasavvurga egasiz? 3. Iqtisodiy operatsiyalar to‘g‘risida nimalar bilasiz? 4. Yalpi ichki mahsulotni yalpi milliy daromaddan farqi nimada? <p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda, ma’ruzani bayon etishda davom etadi: iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy birliklar va iqtisodiy hudud, milliy va ichki iqtisodiyotning sektorlar va tarmoqlarga bo‘linishi, iqtisodiy operatsiyalar, moliyaviy instrumentlar mohiyatini tushuntirib beradi.</p> <p>2.3. Taqdimotda berilgan misollar orqali makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va ular hisoblanishini ko‘rsatib beradi.</p> <p>2.4. Talabalardan mavzuni yozib olishlarini va asasiy tushunchalarga diqqat qilishlarini so‘raydi.</p>	<p>O‘qiydi</p> <p>Eshitadi hamda savollarga javo beradi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>
3-bosqich Asosiy bosqich (10 min.)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa qiladi va yakuniy natijalarni e’lon qiladi.</p> <p>3.2. Talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi hamda maqsadga erishilganlik, o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi.</p> <p>3.3. Mustaqil vazifalar beriladi va talabalarning tayyorgarligi bo‘yicha baholar e’lon qilinadi.</p>	<p>Savollar beradi</p> <p>Yozib oladi.</p>

Ma’ruzaning mazmuni bo‘yicha ko‘rgazmali slaydlar




2.1-rasm. MHTning asosiy tushunchalari



2.2-rasm. MHTning asosiy kategoriyalari

“Oqim” va “Zaxira” tushunchalari hamda ularning o’zaro bog’liqligi


Oqimlar – kuzatilayotgan ma’lum bir davrdagi iqtisodiy o’zgarishlarni ifodalovchi operatsiyalardir: bu tovar va xizmatni ayirboshlash, aktiv va passivlarning o’zgarishini ifodalovchi operatsiyalar, ma’lum davrdagi ishlab chiqarish hajmini yoki olingan (berilgan) daromadlarning miqdorini qayd etuvchi operatsiyalarni o’z ichiga oladi.




Hisobot davrining oxiridagi zaxira, hisobot davrini boshidagi zaxiraning unga tushgan resurslar bilan zaxiradan olingan resurslar yig'indisiga teng.

2.3-rasm. “Oqim” va “Zaxira” tushunchalari hamda ularning o’zaro bog’liqligi

Guruhash zaruriyati – mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqaruvchi birliklarning soni, tarkibi va faoliyati turlari xilma – xil bo’lib, tez o’zgarib turishi, buni natijasida mamlakatda kechayotgan iqtisodiy jarayonlar holatini bilish, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularning qanchalik darajada mamlakatning iste’mol talablarini qondirayotganligini bilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, institutsional birliklarni faoliyati bir-biriga o’xshash bo’lsa, ikkinchidan, oldilariga qo’yan maqsadlari, vazifalari va ularni amalga oshirishlariga qarab ham bir-birlariga o’xshaydilar. Shu sababli iqtisodiyotni o’rganishda institutsional birliklarni tarmoqlar va sektorlarga guruhash orqali, iqtisodiy jarayonlarni ixcham va sodda holda ifodalab o’rganish zaruriyatni kasb etadi.




2.4-rasm. MHTda guruhash va tasnif tushunchalari



2.5-rasm. Iqtisodiy sektorlarning institutsional tasnifi

Sektor	Sektorlarning tarkibi	Asosiy vazifasi	Faoliyati uchun moliyaviy manbayi
Nomoliyaviy korxonalar	Turli multk shakllaridagi nomoliyaviy korxonalar	Tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish	Tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlar
Moliya korxonalari	Tijorat kredit tashkilotlari, sug'urta va nafaqa fondlari	Tijorat asosida moliya resurslarini yig'ish, o'tkazish, taqsimlash, sug'urta tashkilotlari va nafaqa fondlarni tashkil qilish	Moliya operatsiyalaridan olingan foizlar, foydalar, sug'urta va nafaqa badallari
Davlat boshqaruv idoralari	Davlat boshqaruv idoralari, budget tashkilotlar, budgetdan tashqari fondlar va boshqalar	Aholini individual va jamoa ehtiyojlarini qondirish va bepul xizmat ko'rsatish	Davlat budgeti mablag'lari, boshqa sektorlar institutsional birliklarining majburiy to'lovleri
Uy xo'jalik-lariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	Jamoatchilik asosida tashkil topgan maorif, tibbiyot, madaniyat, san'at tashkilotlari va boshqalar. Siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va diniy tashkilotlar	Uy xo'jaligiga mansub ma'lum bir qism aholining individual va jamoa talablarini qondirish hamda bepul xizmat ko'rsatish	Hadya, xayr-ehsonlar va ixtiyoriy to'lovlar, badallar, mulkdan olingan daromadlar
Uy xo'jaliklari	Jismoniy shaxs, o'z daromadlarini birgalikda tasarruf etuvchi alohida oila, yoki oilalar guruhi, nokorporativ korxonalar, mulkdan daromad oluvchi xonardonlar	Barcha iqtisodiy sektorlarni iqtisodiy faoliyat natijalarini iste'mol qilish va jismoniy shaxs sifatida tovar va xizmatlar ishlab chiqish	Yollangan ishchilarining mehnat haqi, mulkdan olingan daromadlar, joriy transfert to'lovleri (nafaqa, stipendiyalar) va boshqalar
Tashqi dunyo sektori	Boshqa mamlakat rezidentlari bilan mamlakat rezidentlari o'rtaсидаги iqtisodiy operatsiyada qatnashadi	Mamlakatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtiroki va ular o'rtaсидаги iqtisodiy operatsiyalani qayd etish va natijasini tahlil etish	

2.6-rasm. Iqtisodiyot sektorlari, ularning tarkibi va xarajatlarni moliyalashtirish manbayi




2.7-rasm. Turli iqtisodiy faoliyat tarmoqlarning tasnifi

Xalqaro tarmoq tasnifi

Bo'lim	Tarmoqlarni nomi
Bo'lim A	Qishloq xo'jaligi, ovchilik va o'rmon xo'jaligi
Bo'lim B	Baliq ovlash va baliqchilik
Bo'lim C	Kon sanoati
Bo'lim D	Ishlab chiqaradigan sanoat
Bo'lim E	Elektr energiyasi, gaz, suv ta'minoti
Bo'lim F	Qurilish
Bo'lim G	Savdo
Bo'lim H	Mehmonxonalar, restoranlar
Bo'lim I	Transport, aloqa, omborxonalar xizmati
Bo'lim J	Moliya vositachiligi
Bo'lim K	Ko'chmas mulk, arenda va boshqa tijorat faolyati
Bo'lim L	Davlat boshqaruvi
Bo'lim M	Maorif
Bo'lim N	Tibbiyot va ijtimoiy xizmatlar

2.8-rasm. Xalqaro tarmoq tasnifi


Mulk – mulk subyekti – obyekti (shaxs – buyumlar – boylik) hamda subyekti – obyekti (odam-shaxs) mulkiy munosabatlarning aktiv va passiv asoslarini ifodalaydi ya’ni mulkning obyekti va subyekti mavjudligi tufayli mulkdorlar o’rtasida iqtisodiy munosabatlar paydo bo’ladi va uning “subyekt – obyekt munosabat”lari deyiladi.



2.9-rasm. Mulk shakllari tasnifi


Iqtisodiy operatsiyalar tasnifi

Iqtisodiy operatsiyalar – institusion birliklar o’rtasidagi erkin har qanday iqtisodiy ma’noga (tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, foydalanish, taqsimlash, qayta taqsimlash, moliyaviy aktivlarni o’zlashtirish, majburiyat olish) ega bo’lgan munosabatlar.



2.10-rasm. Iqtisodiy operatsiyalar tasnifi

MHTda bahoning tarkibi va turlari



* Omillar bahosi - ishlab chiqarishda sarflangan tovar va xizmatlar qiymati yoki ishlab chiqarish omillar uning xizmat bahosida (bu baho TOB tuzishda ishlataladi).

** Asosiy baho - bu baho, ishlab chiqaruvchini bir birlik mahsulot bahosini ifodalaydi. Bunda mahsulot uchun soliq hisobga olinmaydi, lekin mahsulotga berilgan subsidiya qo'shib hisoblanadi (bu bahodan tarmoq va sektorning YaQQni hisoblashda foydalaniladi).

*** Ishlab chiqaruvchini bozor bahosi - bu baho, ishlab chiqaruvchini bir birlik mahsulot bahosi bo'lib, mahsulot uchun sof soliqlar qo'shilgan bo'ladi. (QQS va import solig'i ayrilgan holda).

**** Xaridorni bozor bahosi - bu baho, xaridorni bir birlik mahsulot uchun to'langan baho bo'lib, mahsulotning QQS va import ustamasi qo'shib hisobga olinadi.

2.11-rasm. Bahoning tarkibi va turlari

MHTda soliqlar tasnifi

Soliqlar – bu majburiy qoplanmaydigan to’lovlardir, soliqlar davlat boshqaruvi idoralari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan qonunda belgilangan tartibda byudjetni moliyalashtirish uchun undiradi.

Joriy soliqlar – davriy (vaqt vaqt bilan) to’lanadigan to’lovlar

Ishlab chiqarish va import soliqlari – majburiy va o’rnii qoplanmaydigan to’lovlar bu davlat boshqaruvi idoralari tomonidan ishlab chiqaruvchi birliklarni ishlab chiqarish va tovar va xizmatlar importi hamda ishlab chiqarish omillaridan foydalanganligi uchun undiriladigan majburiy to’lovlar.

Mahsulot uchun soliq (egri soliq)lar – bu soliq ishlab chiqaruvchi birliklarning tovar va xizmatlari boshqa birlikka sotilganda uni mulkdorga nisbatan proporsional undiradigan to’lovlar

- * Qo’shilgan qiymat solig’i
- * aktsiz soliqlar
- * sotish huquqi uchun soliq
- * ayrim xizmatlar turi uchun (reklama, o’yinlar lotareya va boshqalar) soliqlar
- * foyda solig’i
- * import uchun soliqlar
- * bojxona boj to’lovleri va boshqalar

Kapital soliqlar – institutsional birliklari mol mulkidan bir yo’la undiriladigan to’lovlar.

Daromad soliqlari va soliqqa tortish obyektini ishlab chiqarishda qatnashmaydigan mol mulkidan undiriladigan (to’g’ri soliqlar) to’lovlar.

- * foyda solig’i
- * jismoniy shaxslarning daromad solig’i
- * jismoniy shaxslarni mulk solig’i
- * transport vositalari egalariga soliq
- * tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanadigan jismoniy shaxslarga soliq va boshqalar.

Boshqa ishlab chiqarish soliqlari - bu soliq ishlab chiqarish omillardan foydalanganligi, biror bir faoliyat turi bilan shug’ullanish huquqi uchun litsenziya yig’imlari va boshqa majburiy to’lovlar

- * Mehnat resurslardan foydalanish uchun soliq
- * Yuridik shaxslarni er solig’i
- * korxonalarini mulk solig’i
- * davlat bojlari va yig’imlari
- * litsenziya yig’imlari
- * boshqa majburiy to’lovlar

2.12-rasm. Soliqlar tasnifi

MHTda subsidiya tasnifi

Subsidiya – davlat tomonidan yuridik va jismoniy shaxs mahalliy tashkilotlarga va boshqa davlat korxonalariga ishlab chiqarish faoliyatini yuritish, chetga tovar va xizmatlarni sotish va boshqa faoliyatlaridagi xarajatlarini qisman qoplash uchun to’lanadigan va qaytarib olinmaydigan to’lovlardan iborat.

Joriy subsidiya – bu subsidiya davriy (vaqtı-vaqtı bilan) qaytarib olinmaydigan to’lovlar

Kapital subsidiya – bu subsidiya (invenstsitsiya subsidiyalari asosiy fondlarni sotib olish uchun) bir yo’la beriladigan moliyaviy resurslar

Ishlab chiqarish va import uchun subsidiyalar – bu qaytarib olinmaydigan to’lovlar uni davlat boshqaruv idoralari tomonidan ishlab chiqarish faoliyati va chetga tovar va xizmatlar sotish bilan shug’ullanuvchi rezidentlarga beriladi.

Iqtisodiyotni rivojlanishi uchun tarmoqlarga beriladigan investitsiyalari ishlab chiqarishga yangi texnologiya joriy etish uchun berilgan investitsiya subsidiyalari mutaxassis xodimlarni o’qitish va qayta tayyorlash uchun beriladigan investitsiya subsidiyalari.

Mahsulot uchun subsidiyalar – bu subsidiya uni davlat boshqaruv idoralari tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va uni chetga sotish eki chetdan tovar va xizmatlarni sotib olish bilan shug’ullanuvchi rezidentlarga beriladigan to’lovlar

Boshqa ishlab chiqarish uchun subsidiyalar – bu subsidiya uni rezident birliklarni malum iqtisodiy faoliyat bilan shug’ullanganliklarni qo’llab-quvvatlash maqsadida davlat boshqaruv idoralari tomonidan to’lovlar

Davlat boshqaruv idoralari tomonidan korxonalar ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish narxi uni tannarxidan past bo’lganligi sababli ko’rayotgan zararni qoplash uchun muntazam beriladigan subsidiyalar

- Nogironlar mehnatidan foydalanganligi uchun beriladigan subsidiyalar.
- Import xomashyo materiallar o’rnini bosuvchi mahalliy xomashyodan foydalanganligi uchun beriladigan subsidiyalar
- Ekologiyani buzuvchi chiqitlar miqdorini kamaytiradigan texnologiyani joriy etganligi uchun berilgan subsidiyalar

2.13-rasm. Subsidiya tasnifi


Oraliq iste'mol (OI) va uning tarkibi

Oraliq iste'mol – tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun muayyan sarf-xarajat (mehnat, tovarlar, xizmatlar, asosiy fondlar, amartizatsiya)lar qilish zarur. Bularidan ishlab chiqarish xarajati sifatida ishlatalgan (iste'mol qilingan) tovar va xizmatlar qiymati oraliq iste'mol deyiladi

Materiallar xarajatlari	Nomoddiy xizmatlar	Safar xarajatlari	Boshqa xarajatlari
<ul style="list-style-type: none"> - xomashyo elementlari; - yoqilg'ining barcha turlari; - energiyaning barcha turlari; - yarimfabrikatlar; - ishlab chiqarish jarayonida boshqa korxonalarining ko'rsatgan xizmatlari; - mahsulotlarni tashish transport xizmati; - mehmonxona, restoran, kafelar sotib olgan oziq-ovqat mahsulotla-ri, tobak va ichimlik mahsulotlari; - mudofaa vazirligini qurollash uchun qilingan xarajatlari; armiyani kiyintirish va ovqatlantirish xarajatlari va h.k. 	<ul style="list-style-type: none"> - mahsulot sifatini nazorat qilib turish haqi; - ilmiy va tajriba mehnat haqi; - imorat, mashina va asbob uskunalarini ijara haqi; - malakali ishchilarni tayyorlash uchun o'quv yurtlariga to'langan haq; - kommunal xizmatlar haqi; - reklama uchun to'langan haq; - yuridik xizmatlar haqi; - o't o'chiruvchilar va qorovul haqi; - tovarlarni litsenziyalash va sertifikatsiyalash uchun to'lovlar va h.k. 	<ul style="list-style-type: none"> -mehmonxonada yashaganligi uchun to'lov haqi; -yo'l transporti uchun to'lov haqi (kundalik ovqatlanish uchun to'lov haqi, safar xarajatiga kirmaydi). 	<ul style="list-style-type: none"> - xizmatchilarning mehnat sharoitini yaxshilash (yuvinish xonasi, tibbiy yordam, madaniyat uylarini ushlab turish xarajatlari) xarajatlari; - kafolat va ta'mirlash xarajatlari; - xizmatchilarga ajratilgan transport xizmatlari uchun to'lov haqi (agar korxona jamoat transportidan uzoqda joylashgan bo'lsa); - ishchilarni ishga jalg qilish xizmatlari uchun to'lov haqi; - mahsulotlarni sotish xarajatlari uchun to'lov haqi; - boshqa xarajatlari.

2.14-rasm. Oraliq iste'mol va uning tarkibi

Birlamchi daromadlar – bu, institutsion birliklarning ichki va tashqi iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish faoliyatlaridan va mulkdan olgan daromadlari




2.15-rasm. Birlamchi daromadlar tasnifi

O‘quv materiallari

1. Iqtisodiy faoliyat va uning chegarasi. Iqtisodiy birliklar va iqtisodiy hudud

MHTda milliy xo‘jalik juda murakkab tizim bo‘lib, undan obyektiv mavjud elementlar ajralib, iqtisodiy hodisalarini ko‘p qirraligini tasvirlaydi. Ana shu tizimning asosi iqtisodiy aylanish hisoblanadi. Iqtisodiy aylanish o‘z ichiga ishlab chiqarish, iste’mol, jamg‘arma, qayta taqsimlash jarayonlarini oladi. Sodda qilib aytganda, milliy hisob tarkibida daromad doiraviy harakatni tashkil qiladi. Buni quyidagi sxemada ko‘ramiz.



I-rasm. Daromadlar harakati

Iqtisodiy aylanishning asosiy elementlariga obyektlar, subyektlar va operatsiyalar kiradi.

Obyektlar – mahsulot, xizmat ko‘rsatish va pul vositalari.

Subyektlar – xo‘jalik birliklari. Bir subyektdan ikkinchi subyektga iqtisodiy faoliyat obyektining harakati iqtisodiy operatsiyalar yordamida amalga oshiriladi.

Asosiy elementlar – iqtisodiy operatsiyalar, subyektlar va obyektlar real iqtisodiyotning strukturasini shakllantiradi.

Milliy hisoblar tizimi konsepsiyasining xalq xo‘jaligi balansidan farqi, iqtisodiyotni bir butunligicha tahlil qilishidadir. Bu esa barcha xo‘jalik subyektlarining daromad va xarajatlari, mahsulot va xizmatlari oqimining natijasini baholash imkonini beradi.

MHTda ishlab chiqarish chegarasi XXB tizimiga nisbatan kengroq ma’noda tushuniladi. Ishlab chiqarish faoliyati o‘z ichiga moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasini oladi.

MHTda ishlab chiqarishni ikki turi mavjud;

1. Bozorga oid ishlab chiqarish

2. Nobozor xizmatlar.

Bozorga oid ishlab chiqarish - sotish maqsadida mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish. Nobozor xizmatlar – bepul xizmat ko'rsatish bo'lib, xarajatlari davlat byudjetidan qoplanadi.

Milliy hisoblar tizimida iqtisodiyot ichki va milliy turga bo'linadi, bunda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

- iqtisodiy hudud;
- iqtisodiy manfaatdorlik markazi;
- rezident;

Iqtisodiy hudud – shaxs, tovar va pul birliklari erkin harakat qila oladigan geografik hudud, milliy fazo, hududiy suvlar va xalqaro suvlarda mamlakatning egalik qilish huquqi mavjud bo'lgan kontinental shelflardan iborat hudud.

Bundan tashqari, iqtisodiy hududga hududiy anklavalar (ya'ni, davlatlararo shartnomalar asosida diplomatik, harbiy, ilmiy va boshqa maqsadlarda ishlatiladigan chet ellardagi geografik hudud) va erkin zonalar ham kiradi, mamlakat hududida joylashgan boshqa davlat anklavalari iqtisodiy hududga kirmaydi.

Iqtisodiy manfaatdorlik markazi – bir yil va undan ortiqroq vaqt mobaynida iqtisodiy hududda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar.

Rezident – iqtisodiy manfaatdorlik markazi mamlakat iqtisodiy hududi bilan bog'langan xo'jalik birliklariga (uy xo'jaligi, korxona, tashkilot) aytildi.

Iqtisodiy hududda bir yildan ortiq istiqomat qilgan kishi shu davlatning rezidenti bo'lib hisoblanadi.

Artistlar, talabalar, sportchilar va boshqa davlatlardan kelgan shaxslar, bu mamlakatning rezidenti hisoblanmaydi.

Xalqaro tashkilotlarning hodimlari shu davlatda bir yildan ortiq istiqomat qilib ishlasa, ular ishlab turgan joyidagi davlatning rezidenti hisoblanadi.

Ichki iqtisodiyot – rezident va nerezidentlarning iqtisodiy hududdagi iqtisodiy faoliyati.

Milliy iqtisodiyot – rezidentlarning turar joylaridan qat’iy nazar ularning iqtisodiy faoliyati. Rezidentlarning iqtisodiy faoliyatiga hududiy ishlab chiqarish jarayonlari hamda diplomatik tashkilotlarning va chet el harbiy bazalarining ish faoliyati ham kiradi.

Milliy iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichi yalpi milliy daromad (YaMD) hisoblanadi.

Ichki iqtisodiyot asosan, yalpi ichki mahsulot (YaIM) bilan o‘lchanadi, YaIM tovarlar va xizmatlar oqimini o‘lchaydi. YaMD esa – daromadlar oqimini o‘lchaydi.

O‘zbekiston iqtisodiy tizimining turli qismlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni to‘laligicha aks ettirish maqsadida institutsional birliklarni aniqlash va ularni sektorlar, tarmoqlar bo‘yicha guruhlash zarur.

Institutsional birliklarga to‘liq hisoblar to‘plamini tuzib boradigan va xo‘jalik yuritishda mustaqillikka ega bo‘lgan xo‘jalik birliklari kiradi.

Institutsional birliklarni aniqlash va ularni sektor hamda tarmoqlar bo‘yicha guruhlashdan asosiy maqsad sektorlar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatish, daromad va xarajatlar oqimi, shuningdek, moliya-kredit, aktiv va passivlarni o‘rganishdir.

2. Milliy va ichki iqtisodiyotni sektorlar va tarmoqlarga bo‘linishi

MHTda institutsional sektorlarning quyidagi tasnifi qo‘llaniladi:

❖ Nomoliyaviy korporatsiyalar sektori (tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi korporatsiyalar sektori). Nomoliyaviy korporatsiyalar sektorining asosiy vazifasi nomoliyaviy xizmat ko‘rsatishdan iborat.Ushbu institutsional birliklarning resurslari asosan mahsulot ayirboshlash evaziga vujudga keladi.

Bu sektor o‘z ichiga turli mulkchilikka asoslangan korxonalarini oladi:

- davlat korxonalar;
- xususiy korxonalar;

- jamoa korxonalari;
- aksionerlik korxonalari;
- kooperativ korxonalar;
- xorijiy korxonalar.

❖ Moliyaviy korporatsiyalar sektori – tijoratga asoslangan moliya operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi institutsional birliklar:

- markaziy bank va kredit muassasalari;
- boshqa depozit korporatsiyalar;
- sug‘urta korporatsiyalari.

Kredit muassasalari o‘z ichiga tijorat banklari, kredit beruvchi asotsiatsiya va jamiyatlarni oladi.

Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, taqsimlash va saqlash, pul mablag‘larini saqlash va korxonalar hamda uy xo‘jaliklariga kreditlar berish va boshqalardan iborat. Sug‘urta muassasalari asosan hayotni baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilishni, bundan tashqari uy xo‘jaligi va korxonalar mulkini sug‘ortalash uchun xizmat qiladi.

❖ Davlat boshqaruvi organlari sektoriga jamoa va individual iste’mol uchun bozorga oid bo‘lmagan xizmat ko‘rsatish, milliy daromad va boyliklarni qayta taqsimlashda ishtirok etadigan tashkilotlar kiradi:

- markaziy hokimiyat;
- hududiy hokimiyat;
- mahalliy hokimiyat;
- ijtimoiy ta’minot fondlari;
- sog‘liqni saqlash;
- xalq ta’limi va hokazo.

❖ Uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat (ijtimoiy) tashkilotlari sektoriga aholining individual va jamoa talablarini qondirishda band bo‘lgan korxonalar kiradi.

Ular o‘z ichiga aholining individual talablarini qondiruvchi ijtimoiy tashkilotlar (fan, madaniyat, sog‘liqni saqlash, san’at, dam olish va sanatoriy)ni, shuningdek, ularning jamoa iste’molini qondiruvchi ijtimoiy korxonalar (siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar va boshqalar)ni oladi.

Ularning moliyaviy resurslari asosan ko‘ngilli badallar, uy xo‘jaliklarining hayr-ehsonlari va mulkdan olingan daromaddan iborat bo‘ladi.

❖ Uy xo‘jaligi sektori – ishlab chiqaruvchi yoki iste’molchi bo‘lgan yagona va guruh shaxslarni, mustaqil yuridik statusga ega bo‘lmagan, lekin ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklar faoliyatini ifodalaydi.

Bu sektorga aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari, dehqon (fermer) xo‘jaliklari hamda yakka tartibdagi mehnat faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar (nonvoylar, xunarmandlar, kosiblar, etikdo‘zlar, tikuvchilar va boshqalar)ning iqtisodiy faoliyati kiradi.

❖ «Tashqi dunyo» sektori asosan, xorijiy davlatlar hamda mamlakat institutsional birliklari (rezidentlari) o‘rtasidagi operatsiyalarni hisobga olishda qatnashadi. Bu sektor hisoblari yordamida milliy iqtisodiyot bilan tashqi dunyo o‘rtasidagi munosabatlarni umumlashgan holda ko‘rish mumkin.

Ishlab chiqarish jarayoni, tovar resurslari, xizmat ko‘rsatishda ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi mutanosiblikni tavsiflash maqsadida MHTda institutsion birliklar tarmoqlar bo‘yicha ham guruhlanadi. Tarmoqlar bo‘yicha guruhlash tovar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ulardan foydalanish jarayonidagi oqimlarni tahlil qilishda qo‘l keladi.

Iqtisodiyot sektorlarida asosiy resurslarning kelib chiqishi va prinsipial faoliyati

N	Sektor-bo‘lim	Prinsipial faoliyat	Prinsipial resurslar
1	Nomoliyaviy korporatsiyalar	Mahsulot va nomoliyaviy bozorga oid xizmatlar yaratish	Sotishdan tushgan tushum
2	Moliyaviy korporatsiyalar	Moliya, ya’ni yig‘ish, pul o’tkazish va taqsimlash	Moliya majburiyat-lardan /passivlardan/ foizlar va sug‘urta to‘lovlaridan kelgan daromad
3	Davlat korxonalari	Jamoa individual iste’moli uchun nobozor xizmatlar va milliy daromad hamda boyliklarni qayta taqsimlash	Bevosita va bilvosita olinadigan soliqlar

4	Uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlari	Uy xo‘jaliklariga oid notijorat-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	Xizmatdan foydalanuvchi uy xo‘jaliklarining hayr-ehson to‘lovlari, mulkdan olingan daromad.
5	Uy xo‘jaliklari	Iste’mol, mahsulot va nomoliyaviy, bozorga oid xizmatlarni yaratish	Ish haqi, mulk daromadi va boshqa sektorlardan olingan transfertlar, mahsulot sotishdan tushgan tushum
6	«Tashqi dunyo» norezident birliklari	Mamlakat rezidentlari bilan iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish	

3. MHTda iqtisodiy operatsiyalar va ularning tasnifi. Operatsiyalarni qayd qilish qoidalari

Iqtisodiy operatsiyalarni aniqlash va ularni guruhlash MHTda hisob birligini aniqlash jarayonidan iborat. Operatsiyalar – milliy hisoblar va iqtisodiy faoliyatni hisobiga oluvchi jarayondir. Iqtisodiy operatsiyalar amalga oshirilishiga qarab bir tomonlama (transfert) va ikki tomonlama (transaksiya) bo‘ladi. Ikki tomonlama operatsiyalarga misol qilib deyarli barcha mahsulot yetkazish va xizmat ko‘rsatish operatsiyalarini keltirish mumkin.

Iqtisodiy operatsiyalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- a) tovar va xizmatlar bilan operatsiyalar;
- b) taqsimlash operatsiyalari;
- v) moliyaviy operatsiyalar.

Tovar va xizmatlar operatsiyasi tarmoq hamda sektorlarda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularni ayirboshlash, iste’mol qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Taqsimlash operatsiyalari daromad va mulkni taqsimlash, qayta taqsimlash jarayoniga taalluqlidir.

Moliyaviy operatsiyalar iqtisodiyotning turli sektorlarida moliyaviy aktivlar, passivlar va fondlar o‘zgarishini tavsiflaydi.

Transfertlar bir tomonlama operatsiya bo‘lib, unda bir institutsional birlik tovar, xizmatlar yoki aktivni boshqa institutsional birlikka berib, uning evaziga hech qanday ekvivalent (tovar, xizmat va aktiv) olmaydi.

Har bir sektorni tahlil qilish MHTda operatsiyalarni schyotlar ko‘rinishida tasvirlashni talab etadi. Schyotlar “resurs” va “foydalanish” qismlaridan iborat bo‘lib, ko‘rsatkichlar schyotlarda ikki marta yoziladi. Bir marta-resurs qismida, ikkinchi marta foydalanish qismida.

4. Bahoning bozor sharoitidagi iqtisodiy xususiyati

Baho bozordagi talab va taklifni muvozanatga keltirishdagi ahamiyati bilan xarakterlanadi. Bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan baho tushunchasi uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuniga nisbatan ancha farq qiladi. Birinchisida baho sirtdan, almashish jarayonidagi o‘rni va funksiyasi nuqtai nazaridan qaraladi. Ikkinchisida esa, so‘z bahoning ichki mazmuni haqida boradi, takror ishlab chiqarish jarayoni nuqtai nazaridan, iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmunidan kelib chiqadi.

Bahoning iqtisodiy kategoriya nuqtai nazaridan mazmuni shundan iboratki, u tovarning ishlab chiqarish qiymatini pulda ifodalaydi, ya’ni tovari ishlab chiqarish uchun sarf bo‘ladigan ijtimoiy zaruriy mehnat sarfini pul ko‘rinishida ifodalaydi. Shuning uchun ham tovar va xizmatlarning joriy bahosi ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati hajmini aniqlash imkoniyatini beradi.

MHTda baho huddi shu ma’noda, ya’ni ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot va yaratilgan milliy daromad hamda ularning tarkibiy qismlarini pulda ifodalashning aniq va real quroli sifatida ishlatiladi.

MHTda bahoni belgilaydigan turli omillar va baho turlari mavjud. Baho shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar jumlasiga ishlab chiqarish xarajatlaridan tashqari turli xil soliqlar va ishlab chiqarilgan mahsulotning joyi va vaqtini, bozordagi talab konyunkturasini, tovari ishlab chiqaruvchidan iste’molchigacha bo‘lgan oraliqdagi bo‘g‘inlarni, saqlash va reklama xarajatlarini, tashish va sotishda ko‘rsatilgan turli xizmatlarni kiritish mumkin. Yuqorida nomlari zikr qilingan omillarni baho shakllanishida hisobga olish narx qaysi bosqichda va sharoitda aniqlanayotganiga, narxga qanday funktsional ma’no berilayotganligiga bog‘liqdir.

Bahoning shakllanishida ishlab chiqarishdagi xarajatlar va mablag‘lar, hamda soliqlar va subsidiyalar asosiy rol o‘ynaydi. O‘z navbatida ular ikki guruhga bo‘linadi;

- 1) mahsulotga to‘lanadigan soliqlar;
- 2) ishlab chiqarishga to‘lanadigan soliqlar.

Mahsulotga to‘lanadigan soliqlar mahsulot ishlab chiqarilganda, sotilganda yoki chetga chiqarilganda olinadi. Bularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz yig‘imlari, import soliqlari kiradi.

Ikkinchi xil to‘lov larga esa, mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida foydalanilganligi uchun albatta to‘lanishi kerak bo‘lgan to‘lovlardan kiradi. Ular ko‘pincha ishlab chiqarishning birlamchi omili bo‘lib, sarflanganligi yoki turlicha xo‘jalik faoliyati yoki bitimlariga bog‘liqligi bilan izohlanadi. Bularga mehnat haqi uchun to‘lovlardan, yer solig‘i, ishlab chiqarish fondlari solig‘i, ma’lum iqtisodiy va kasbiy faoliyat uchun litsenziya olish, transport vositalarini ishlatganlik uchun to‘lanadigan soliqlar, moliyaviy va moddiy aktivlar bilan operatsiyalar uchun soliq, atrof muhitga keltirilgan zararni qoplash uchun to‘lanadigan soliq, xalqaro operatsiyalar o‘tkazishga to‘lanadigan soliqlar (masalan, xorijiy valyutalar oldi-sotdisi, chet elga borish operatsiyalari va hokazolar).

MHT amaliyotida quyidagi baholardan foydalaniladi:

- omillar bahosi;
- asosiy baho;
- ishlab chiqaruvchi bahosi;
- bozor yoki xaridor bahosi.

MHTda baholarning shakllanishi hamda ularning tarkibiy qismi va baholarning o‘zaro bog‘lanishi 1-jadvalda tasvirlangan

1-jadval

Baholar	Mehn at haqi	Oraliq iste’moli	Yalpi foyda	Ishlab chiqarish sof solig‘i	Mahsulot sof solig‘i	Savdo transport ustamasi
Omillar bahosi	+	+	+			
Asosiy baho	+	+	+	+		
Ishlab chiqaruvchi bahosi	+	+	+	+	+	
Bozor yoki haridor bahosi	+	+	+	+	+	+

Omillar bahosi - ishlab chiqarishda sarflangan omillar bahosining yig‘indisidir, bu bahodan tarmoqlararo balans tuzishda foydalaniladi.

Asosiy baho - bu baho, ishlab chiqaruvchini bir birlik mahsulot bahosini ifodalaydi. Bunda mahsulot uchun soliq hisobga olinmaydi, lekin mahsulotga berilgan subsidiya qo’shib hisoblanadi (bu bahodan tarmoq va sektorning YaQQni hisoblashda foydalaniladi).

Ishlab chiqaruvchining bozor bahosi - bu baho, ishlab chiqaruvchini bir birlik mahsulot bahosi bo’lib, mahsulot uchun sof soliqlar qo’shilgan bo’ladi. (QQS va import solig‘i ayrilgan holda).

Xaridor yoki bozor bahosi - bu baho, xaridorning bir birlik mahsulot uchun to’lagan bahosi bo’lib, mahsulotning QQS va import ustamasi qo’shib hisobga olinadi.

Tovar va xizmatlarning qiymati haqiqiy sarf qilingan vaqtdagi joriy bahoda baholanadi.

Zahiradagi tayyor mahsulot, xom ashyo va asosiy kapitalning iste’mol qiymatlari o’rtacha joriy bahoda olinadi.

YaIM yuqoridagi barcha baho turlarida ifodalananadi. Agarda YaIM omillar bahosida bo’lsa, uning tarkibiga mehnat haqi, oraliq iste’mol va yalpi foyda qiymatlari kiritiladi. Omillar bahosiga ishlab chiqarish sof solig‘i va mahsulot solig‘i qo’silsa, YaIM assosiy yoki ishlab chiqaruvchi bahosida bo’ladi. YaIMni bozor bahosida ifodalash uchun, ishlab chiqaruvchi bahosiga savdo ustamasi va transport xarajati qo’shiladi.

Yalpi qo’shilgan qiymat har xil baholarda ifodalishini va ularni bir bahodan ikkinchi bahoga o’tishni ko’rib chiqamiz:

Mehnat haqi + oraliq iste’mol xarajati + yalpi foyda = YaQQ omillar bahosida + ishlab chiqarish solig‘i – ishlab chiqarishga berilgan subsidiya = YaQQ assosiy bahoda + mahsulot solig‘i (QQS va import solig‘idan tashqari) – mahsulotga berilgan subsidiya = YaQQ ishlab chiqaruvchi bahoda ifodalangan bo’ladi.

Eksport va import tovarlar «Fob» va «Sif» usulida baholanadi va «Fob bahosi», «Sif bahosi» deb yuritiladi.

«Fob» bahosi devilganida tovarni ishlab chiqaruvchi korxonalarining bahosiga tovar eksport qiluvchining davlat chegarasini kesib o‘tgan vaqtida tashish, sug‘urta qilish, saqlash va hokazo xizmatlarga bo‘ladigan xarajatlarning yig‘indisi tushuniladi.

«Sif» bahosi esa import qiluvchi tovarni o‘z davlatiga olib kirganda import boji va boshqa soliqlardan tashqari bergen to‘lovidir.

6. MHTning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichi va ularni hisoblash

	<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>Belgisi</i>	<i>Hisoblash usuli</i>
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
<i>1</i>	<i>Yalpi mahsulot va xizmatlar qiymati</i>	<i>YaMX</i>	<p><i>Yalpi mahsulotlar va xizmatlarga quyidagilarni qiymati kiradi:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <i>1. Realizatsiya qilingan mahsulotlar va xizmatlar;</i> <i>2. Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmlarini o‘zgarishi;</i> <i>3. Korxonalarining o‘z extiyojlari uchun ishlab chiqargan mahsulotlari.</i> <i>4. Qurilish maqsadlari uchun ishlatalgan mahsulotlar;</i> <i>5 Barter uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar (korxonada natura holida almashtirish uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar)</i> <i>6. Zahradagi tayyor mahsulotlar hajmining o‘zgarishi.</i> <i>7.Uy xo‘jaliklarini o‘z iste’moli uchun ishlab chiqarilgan qishlog xo‘jalik mahsulotlari (vino, pivo, musallas, o’simlik yog‘i va hokazo).</i> <i>8. Yashirincha ishlab chiqarilgan mahsulotlar.</i>
<i>2</i>	<i>Yalpi ichki mahsulot</i>	<i>YaIM</i>	<u><i>YaIM=YaMX-OI</i></u> <i>bunda OI – oraliq iste’mol qiymati</i>
<i>3</i>	<i>Sof ichki mahsulot</i>	<i>SIM</i>	<u><i>SIM=YaIM-AKI</i></u> <i>bunda AKI – asosiy kapital iste’moli</i>
<i>4</i>	<i>Yalpi foyda va aralash daromad</i>	<i>Yaf va YaAD</i>	<u><i>YaF va YaAD=YaIM-MH-IchN+IchS</i></u> <i>bunda: MH – mehnat haqi</i> <i>IchN – ishlab chiqarish va import solig‘i</i> <i>IchS – ishlab chiqarish va importga berilgan subsidiya.</i>
<i>5</i>	<i>Iqtisodiyotni sof foydasi</i>	<i>SF va SAD</i>	<u><i>SF va SAD=YaF va YaAD-AKI</i></u>

6	<i>Yalpi milliy daromad</i>	<i>YaMD</i>	<u>YaMD=YaIM+ΔBD</u> <i>bunda ΔBD-rezidentlarning norezidentlardan oлган va bergen birlamchi daromadlari orasidagi farq</i>
7	<i>Sof milliy daromad</i>	<i>SMD</i>	<u>SMD=YaMD-AKI</u>
8	<i>Yalpi milliy ixtiyoridagi daromad</i>	<i>YaMID</i>	<u>YaMID=YaIM+ΔBD+ΔJT</u> <i>Bunda: ΔJT-rezedentlarning norezedentlardan oлган va bergen joriy transfertlari saldosи</i>
9	<i>Sof milliy ixtiyoridagi daromad</i>	<i>SMID</i>	<u>SMID=MIYaD-AKI</u>
10	<i>Milliy provard iste'mol</i>	<i>MPI</i>	$\text{MPI} = \sum \text{Pi}$ <i>PI-sektorlarni provard iste'moli: -uy xo'jaligi sektori pirovard iste'moli -davlat tashkilotlari sektori pirovard iste'moli -uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari sektori pirovard iste'moli</i>
11	<i>Yalpi milliy jamg'arma</i>	<i>YaMJ</i>	<u>YaMJ= YaMID - MPI</u>
12	<i>Sof milliy jamg'arma</i>	<i>SMJ</i>	<u>SMJ= YaMJ - AKI</u>
13	<i>Yalpi jamg'arma</i>	<i>YaJ</i>	<u>YaJ=AKYAJ+MAMS+SX+B</u> <i>AKYAJ-asosiy kapital yalpi jamg'armasi MAMS-moddiy aylanma mablag'lari zahirasi hisobot davridagi o'zgarish saldosi (+,-) SX+B-sof harid qilingan qimmatbaho buyumlar AKYAJ=AF-AKI bunda AF -yalpi asosiy fondlarni sotib olish uchun ajratilgan mablag'lari. MAMS =ΔXOZ +ΔTICh+ΔTM+ST bunda: ΔXOZ-ishlab chiqarish uchun foydalilaniladigan xom ashyo qiymatining hisobot davridagi o'zgarishi (+,-) ΔTICh-tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatini hisobot davridagi o'zgarishi (+,-) ΔTM- tayyor mahsulotning zahirasining o'zgarishi (+,-) ST-takror sotish uchun mo'ljallangan mahsulot qiymati (+,-)</i>
14	<i>Yalpi xususiy kapitalni jamg'arishning olingan va berilgan kapitallarni natijasidagi o'zgarish qiymati</i>	<i>YaXKU</i>	<u>YaXKJ=YaMJ+ΔKT</u> <i>Bunda, ΔKT-oligan va berilgan kapital transfert saldosи</i>
15	<i>Sof kreditlash yoki sof qarz</i>	<i>SK/S+</i>	<u>SK/SQ=YaXKJ-YaJ</u> <i>Agarda YaXKJ-YaJ musbat bo'lsa – sof kreditlash, natija manfiy bo'lsa sof qarz bo'ladi.</i>

Mavzuga doir testlar

1. Iqtisodiy hudud tushunchasi nimani anglatadi?

- a) mamlakatning milliy chegarallangan jo‘g‘rofik hududi, milliy fazo, xalqaro suv va mamlakatni chet elda joylashgan anklavlari, lekin mamlakat hududda joylashgan boshqa davlatlarni anklovlarisiz;
- b) mamlakatni milliy chegarallangan jo‘g‘rofik hududi, milliy fazo, xalqaro suv va mamlakatda joylashgan anklovlar;
- c) mamlakatni milliy chegarallangan jo‘g‘rofik hududi;
- d) mamlakatni milliy chegaralangan, faqat jo‘g‘rofik jihatdan farqlangan hududi.

2. Guruhlash –bu:

- a) bir omil bo‘yicha jamlash;
- b) umumiy to‘plam birliklarni mavjud belgilari asosida tartibga solish;
- c) umumiy birliklarni yig‘imi;
- d) umumiy to‘plamdan bir xil belgiga ega bo‘lganlarini ajratib olib to‘plash yoki bir xil turdagilari necha belgilarga ega bo‘lganlarni jamlash.

3. Guruhlash usulini qo‘llashning zaruriyati nimada?

- a) to‘plamni bir xil belgilarini izohlash;
- b) umumiy ko‘rinish belgilarini aniqlash va ularni o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish;
- c) tadqiqotning umumiy tarkibini xarakterlab berish;
- d) omillar o‘zaro bog‘liqligini aniqlash.

4. Klassifikatsiya-bu:

- a) umumiy qabul qilingan normativlar asosida guruhlarni rasmiylashtirish;
- b) bir xil yoki bir qancha belgilarga ega bo‘lgan birliklarni tartibga solishni rasmiylashtirish;
- c) bir xil belgiga ega bo‘lgan birliklarni umumiy tartibga solish;
- d) umumiy qabul qilinganlarni barchasini rasmiylashtirish.

5. Tarmoqlar klassifikatsiyasida guruhlash birligi nima?

- a) korxona shoxobchalari;
- b) tarmoq;
- c) korxonalar;
- d) institutsional birliklar.

6. Sektorlar klassifikatsiyasida guruhlash birligi nima?

- a) sektorlar;
- b) tarmoq;
- c) institutsional birliklar;
- d) korxonalar.

7. Korxona-bu:

a) hududning ma'lum bir qismida joylashgan va bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi hamda ma'lumotlarni yig'ish to'liq va oson bo'lgan korxona-shoxobchalar;

b) hududning turli joylarida joylashgan, bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi hamda ma'lumotlarni yig'ish to'liq va oson bo'lgan korxona- shoxobchalar;

c) bir xil ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi va amaliyotda ma'lumotlarni yig'ish oson bo'lgan korxona;

d) hududning turli joylarda joylashgan, ammo bir xil turdag'i faoliyat bilan shug'ullanuvchi hamda to'liq va oson ma'lumot oluvchi korxona-shoxobchalari.

8. Institutsional birlik-bu:

a) iqtisodiy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanish huquqiga ega, aktivlar egasi, o'zi majburiyatlar olish, shartnoma tuzish huquqiga ega, davlat oldida qonunda belgilangan tartibda hisobot beruvchi iqtisodiy birliklar;

b) tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish kabi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy subyekt;

c) aktivga ega bo'lgan iqtisodiy subyekt;

d) faqat yuridik shaxs.

9. Davlat tashkilotlari sektori uchun qaysi fikr o'rini?

a) bu sektorga davlat yoki jamoa mulkiga asoslangan korxonalar kiradi;

b) bu korxonalar resurslarini mahsulot va xizmatlarni sotishdan tushgan mablag'lar tashkil qiladi;

c) bu korxonalar moliyaviy resurslarini asosan davlat budjeti tashkil qiladi;

d) bu sektorga tekin xizmat ko'rsatuvchi notijorat korxonalar kiradi.

10. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat ijtimoiy tashkilotlar sektori uchun qaysi fikr o'rini?

a) bu tashkilotlar resurslari asosan ixtiyoriy to'lovlar (vznoslar), o'z mulkidan olgan daromadlari va ixtiyoriy to'lovlar (transfert)lar hisobiga hosil bo'ladi;

b) bu sektorga kiruvchi tashkilotlar davlat tomonidan nazorat qilinadi va pul bilan ta'minlanadi;

c) bu tashkilotlar mamlakatning barcha aholisining individual va umum talablarini qondirish maqsadida faoliyat yuritadilar;

d) aholiga nobozor xizmat qiluvchi tashkilotlar kiradi.

11. Iqtisodiyotda sektor nimani ifodalaydi:

a) bajariladigan vazifalari bir xil bo'lgan institutsional birliklar to'plami;

b) moliyalashtirish manbalari bir xil bo'lgan institutsional birliklar to'plami;

c) guruhlangan korxonalar ya'ni ishlab chiqarish xarakteri va ishlab chiqarish texnologiyasi sarf xarajatlari bir-biriga o'xshash, bir xildagi tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi subyektlar;

d) iqtisodiy faoliyat yuritishda va bajaradigan vazifalari bir xilgi hamda xarajatini moliyalashtirish manbalari o'xshashligi bir xil bo'lgan institutsional birliklar majmuasi.

12. Uy xo'jaligi sektoriga...

a) ishlab chiqaruvchi va iste'molchi bo'lgan alohida shaxslar, oilalar hamda mustaqil huquqiy statusga ega bo'lmagan, lekin ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi oilalar kiradi;

- b) ishlab chiqaruvchi va iste'molchi bo'lgan alohida shaxslar, oilalar kiradi;
- c) xususiy mulkka asoslangan ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lgan oilalar kiradi;
- d) faqat fermer xo'jaliklari kiradi.

13. Nima sababdan MHTda subyektlarni iqtisodiy faoliyati bo'yicha sektorlarga guruhashdan foydalanadi:

- a) daromadlar va xarajatlar oqimini o'rganish uchun;
- b) daromadlar va xarajatlar oqimi holati, aktivlar va passivlar o'zgarishini o'rganish uchun;
- c) ishlab chiqarish jarayonini o'rganish, tovar va xizmatlar resursi hamda ulardan foydalanish balansini tuzish uchun;
- d) daromadlar oqimini o'rganish uchun.

14. Iqtisodiyotda tarmoq nimani ifodalaydi:

- a) ishlab chiqarish xarakteri va ishlab chiqarish texnologiyasi hamda sarf xarajatlari bir-biriga o'xshash tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi guruhashlangan korxona shoxobchalarini;
- b) tovar va xizmatlar ishlab chiqarish xarakteri bir xil bo'lgan guruhashlangan korxona shoxobchalarini;
- c) xarajatlarni tarkibi bir xil bo'lgan guruhashlangan korxona shoxobchalarini;
- d) ishlab chiqarish texnologiyasi bir xil bo'lgan korxona shoxobchalarini.

15. Mamlakat iqtisodiyoti quyidagi sektorlarga bo'linadi:

- a) davlat boshqaruvi tashkilotlari;
- b) nomoliya korxonalari, moliya korxonalari, davlat boshqaruvi tashkilotlari, uy xo'jaligi, tashqi dunyo;
- c) sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, davlat tashkilotlari, aloqa va transport, o'rmon xo'jaligi, mayda ishlab chiqaruvchilar;
- d) nomoliya korxonalari, moliya korxonalari, davlat boshqaruvi tashkilotlari, uy xo'jaligi, tashqi dunyo, uy xo'jaligiga xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlar.

16. Nomoliya korxonalarini sektoriga qanday korxonalar kiradi?

a) faoliyati uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar(resurslar)ni asosan tovar ishlab chiqarish, sotish hamda xizmat ko‘rsatishdan tushgan mablag‘lar hisobiga qoplaydigan korxonalar va ayrim holda ishlab chiqarish xarajatlarini davlat tomonidan berilgan subsidiyalar hisobiga qoplanishi mumkin bo‘lgan korxonalar;

b) faoliyati uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar (resurslar)ni asosan tovar ishlab chiqarish, sotish hamda xizmat ko‘rsatishdan tushgan mablag‘lar hisobiga qoplaydigan korxonalar kiradi;

c) davlatdan subsidiya olmaydigan, ishlab chiqarish uchun kerak bo‘lgan moliyaviy resurslarni asosan tovar va xizmatlarni sotish evaziga hosil qiladigan korxonalar kiradi;

d) faqat foyda olish bilan shug‘ullanadigan korxonalar kiradi.

17. Moliya korxonalarini sektoriga moliya operatsiyalari bilan shug‘ullanuvchi...

a) davlat budgeti hisobiga xizmat ko‘rsatuvchi banklar kiradi;

b) davlat sug‘urta tashkilotlari va moliya operatsiyalaridan tushgan tushumlar hisobiga faoliyat yurituvchi tashkilotlar kiradi;

c) tijorat banklari, nodavlat sug‘urta tashkilotlari va boshqa moliya operatsiyalaridan tushgan tushumlar hisobiga faoliyat yurituvchi tashkilotlar kiradi;

d) faqat tijorat banklari kiradi.

2.2. Amaliy mashg‘ulotni o‘qitish texnologiyasi

<i>O‘quv mashg‘uloti shakli</i>	Amaliy mashg‘ulotlarda chuqurlashtirish va bilimni kengaytirish jarayoni.
Amaliy mashg‘ulotda muhokama qilinadigan savollar.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Milliy hisobchilikda qo‘llaniladigan klassifikatsiyalar. 2. Iqtisodiy birliklar va ular tasnifi. 3. Iqtisodiy tarmoqlar, sektorlar va ular tasnifi. 4. Iqtisodiy operatsiyalar va ular tasnifi.
<i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i> Mavzu bo‘yicha bilimni chuqurlashtirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Milliy hisobchilikda qo‘llaniladigan klassifikatsiyalar to‘g‘risida ma’lumot berish. ▪ Iqtisodiy sektorlarga va iqtisodiy faoliyat bo‘yicha tarmoqlarga bo‘lish mezonlarini asoslab berish. ▪ Iqtisodiy tarmoqlar, sektorlar va ular tasnifini tushuntirish. ▪ Tarmoqlar va sektorlar miqyosida oraliq iste’molni hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlarini misollar asosida tushuntirish. 	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Milliy hisobchilikda qo‘llaniladigan klassifikatsiyalar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish. ▪ Iqtisodiy tarmoqlar, sektorlar va ular tasnifini tushunish va farqlash. ▪ Tarmoqlar va sektorlar miqyosida oraliq iste’molni hisoblashga oid misollarni yecha olish. ▪ Tarmoqlar va sektorlar miqyosida oraliq iste’molni hisoblash va tahlil qilish bo‘yicha ko‘nikma hosil qilish.
<i>O‘quv uslubi</i>	“Doira” stol, grafik organayzer: mantiqan tizimli chizma.
<i>O‘qitish shakli</i>	Guruhlarda ishslash, frontal va jamoa, juftliklarda ishslash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar, flip-chatlar, flomasterlar.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishslash uchun mo‘ljallangan auditoriya. Yoritilgan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Mustaqil o‘rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar va vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	o‘qituvchi	talaba
1-bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 min.)	<p>1.1. Mavzu nomini aytadi, rejalahtirilgan natijalarni va uni o‘tkazish jarayoni bilan tanishtiradi. Birgalikda guruhlар bilan texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonini tushuntiradi. Adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Tayanch iboralar tushunchalari orqali so‘rovnama olib boradi. Savol beradi va 1-2 ta javoblarni eshitib bo‘lgach, keyingi muhokamalarni guruhlар ishlarini bajarib, natijalarni prezentatsiya jarayonida eshitishni e’lon qiladi.</p> <p>1.3. Har bir talaba individual tarzda guruhlardagi baholanish bilan birga baho oladi va guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi.</p>	<p>Eshitadi va yozib boradi</p> <p>Munozarada qatnashadi, savollarga javob beradi.</p> <p>Eshitadi.</p>
2-bosqich Guruhlarda ishlash (60 min)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhgа bo‘ladi. O‘quv vazifalarni tarqatadi. Qanday natjalarga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi.</p> <p>2.2. Natijaviy ko‘rsatkichlarni sharhlaydi. Qanday qo‘srimcha materiallar bilan foydalanish mumkinligini tushuntiradi (darslik, ma’ruza matnlari, o‘quv qo‘llanma).</p> <p>2.3. Guruhlarda olingan natijalarni prezentatsiya qilish va ularni baholanishni tashkil qiladi. Qilingan ish bo‘yicha hulosalarni aytadi va e’tiborga loyiq guruhlarni e’lon qiladi.</p>	<p>Eshitadi, ishni bajarishni boshlaydi.</p> <p>Hisoblaydilar va tahlil qiladilar.</p> <p>Birgalikda qilingan prezentatsiya chiqishlari ko‘rsatiladi.</p>
3-bosqich Yakuniy bosqich (10 min)	<p>3.1. Amaliyot natijalarini yakunlaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish mavzusini aytadi va vazifa beradi.</p>	<p>Eshitadi aniqlashtiradi.</p> <p>Topshiriqni yozib oladi</p>

Uslubiy ko‘rsatmalar va namunaviy misollar yechish

Oraliq iste’moli xarajatlarini hisoblash usuli (OIM):

1. Oraliq iste’moli moddiy xarajatlari quyidagi tenglama orqali hisoblanadi:

$$OIM = S - \Delta XM \quad (1)$$

Bunda:

S — hisobot davrida sotib olingan xomashyo, materiallar qiymati;

ΔXM — xomashyo materiallarining hisobot davridagi zaxiralari o‘zgarishi quyidagi tenglama orqali hisoblanadi:

ΔXM = hisobot davri oxiridagi zaxira qiymatidan – hisobot davri boshidagi zaxira qiymati

2. Nomoddiy xizmatlar haqi ko‘rsatilgan xizmatlar haqidan tushgan tushum bilan baholanadi va hisobga olinadi.

3. Safar xarajatlari yo‘l transporti va mehmonxonadan foydalanish uchun to‘langan haqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.

4. Tarmoqlarda oraliq iste’molini hisoblashning ayrim xususiyatlari.

4.1. Sanoat korxonalarida oraliq iste’moli xarajatlari to‘rt turdag'i guruh bo‘yicha hisoblanadi:

a) barcha mulkchilik shakllaridagi yirik sanoat korxonalarining xarajatlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining “Korxonalarning xarajat hisoboti” dan olib, hisoblanadi;

b) kichik korxonalar va mikrofirmaning xarajatlari – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining “Mikrofirma va kichik korxonalarning hisoboti” dan olib hisoblanadi;

v) nosanoat tarmoqlardagi yordamchi sanoat korxonalarining oraliq iste’mol xarajatlari va kichik korxonalarning iste’mol xarajatlari yalpi ishlab chiqarish qiymatidagi ulushiga hamda ekspertlar tuzatish kiritib, yordamchi sanoat korxonalarini yalpi ishlab chiqarish qiymatiga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

4.2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini oraliq iste’mol sarf-xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- urug‘lar va ko‘chatlar;
- yem-xashak, ozuqa;
- o‘g‘itlar va zaharli ximikatlar;
- neft mahsulotlari, yoqilg‘i va energiyalarning barcha turlari;
- asosiy vositalarni joriy ta’mirlash uchun sarflangan ehtiyyot qismlar, qurilish materiallari;
- qo‘shni korxonalar ko‘rsatgan xizmatlar haqi (transport, aloqa, zootexnik va veterinar xizmatlari);
- tuproq tarkibini yaxshilash, kimyoviy ishlov berish, melioratsiya xizmatlari haqi va boshqalar;
- hosilni yig‘ishda, tashishda va saqlashda yo‘qotilgan mahsulot qiymati;
- harom o‘lgan mollar qiymati;
- yuqoridagilardan tashqari (dam olish xonalarini, dush xonasini saqlash xarajati, mutaxassislarni tayyorlash, ijara haqlari va boshqalar).

2.4.3. Qurilish tarmoqlarida oraliq iste’mol xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- qurilish materiallarining konstruksiya qurilmalari va detallar;
- yoqilg‘i, bug‘lar va energiyaning hamma turlari;
- asosiy vositalarni ta’mirlash va ishlatish xarajatlari;
- qurilish mashinalari va mexanizmlarni ijara haqlari;
- qurilish va xo‘jalik inventarlari, jihozlarining yemirilish qiymatlari.

Yuqoridagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining yirik-kichik qurilish korxonalari, mikrofirmalar va qo‘shma korxonalarning statistik hisobotlaridan hamda uy-xo‘jaligini tanlama kuzatuvlari asosida olinadi.

4.4. BMT, MHT — 1993-yil nusxasida oraliq iste’moli tarkibida ishchi-xizmatchilarga taqdim etiladigan kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar:

- umumiylar uchun xizmat qiladigan uskunalar va moslamalar;
- maxsus asboblar va maxsus moslamalar;
- almashinadigan asbob-uskunalar;
- texnologik idishlar;
- xo‘jalik inventarlar;
- maxsus kiyimlar, poyafzal va muhofaza etish moslamalari;
- ko‘rpa-yostiq (mehmonxonadagi ko‘rpa-yostiqlardan tashqari);
- ishlab chiqarishni hisobga olgan holda ishchilarga beriladigan maxsus ovqatlanish, sut mahsulotlari;

Namunali masala

Yoqilg‘i korxonasining iqtisodiy faoliyati natijalarini ifodalovchi quyidagi ma’lumotlar mavjud (mln so‘m).

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miq-dori
1.	Ishlab chiqarilgan va sotilgan tayyor mahsulotlar, joriy yilda	1480
2.	Barcha ishlov bosqichlarida to‘la o‘tmagan va texnika nazorati tomonidan tekshirilib qabul qilinmagan mahsulotlar: Hisobot davrining boshi Hisobot davrining oxiri	100 240
3.	Barterga almashtirilgan mahsulotlar	300
4.	Xomashyo materiali va ehtiyyot qismlar	600
5.	Yoqilg‘i va energiya	360
6.	Ish haqi va mukofot pullari	300
7.	Ijtimoiy sug‘urta va ta’minot ajratmalar	100
8.	Brak mahsulotlar	20
9.	Laboratoriya xarajatlari	120
10.	Ishchilarning ovqatlari va sut mahsulotlari	2
11.	Yuridik xizmatlar haqi	10
12.	Mol-mulkni sug‘urta qilish xizmatlari haqi	40
13.	Asosiy fondlar iste’moli, (amortizatsiya)	240
14.	Marketing va reklama xarajatlari	106
15.	Kredit xizmatlari haqi	20
16.	Imorat va asbob-uskunalarning ijara haqi	22

Hisoblang:

1. Yalpi ishlab chiqarish (YaICh)
2. Oraliq iste'mol xarajatlari (OI)
3. Yalpi va sof qo'shilgan qiymat

Yechim: Yuqorida qayd qilingan 1-tenglamaga asosan:

$$\text{YaICh} = R (1480) + \Delta \text{TICh} (240-100) + B (300) = 1920 \text{ mln so'm}$$

2. Oraliq iste'molga ish haqi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari va AFIdan tashqari barcha xarajatlar kiradi:

OI = xomashyo materiali va ehtiyoj qismlar (600) + yoqilg'i va energiya (360) + brak mahsulotlar (20) + laboratoriya xarajati (120) + ishchilarning ovqatlari va sut mahsuloti (2) + yuridik xizmatlar haqi (10) + mol-mulkni sug'urta qilish xizmatlari haqi (40) + marketing va reklama xarajatlari (106) + kredit xizmatlari haqi (20) + imorat va asbob-uskunalarining ijara haqi (22) = 1300 mln so'm.

3. Bizga ma'lumki, yalpi qo'shilgan qiymat, yalpi ishlab chiqarish qiymatidan, oraliq iste'mol qiymatini ayirilganiga teng, ya'ni:

$$\text{YaQQ} = \text{YaICh} - \text{OI} = \text{YaICh} (1920) - \text{OI} (1300) = 620 \text{ mln so'm}$$

Sof qo'shilgan qiymat, yalpi qo'shilgan qiymatdan asosiy fondlar iste'mol qiymatini, ya'ni:

$$SF = \text{YaQQ} (620) - AFI (240) = 380 \text{ mln so'm.}$$

Shunday qilib, yoqilg'i korxonasi mamlakat YaIMga o'zini ulushini 620 mln so'm sifatida qo'shdi.

Mustaqil ishlash uchun masalalar

2.1-masala

Yil boshida qurilish firmasi "Bekobod" sement ishlab chiqarish zavodidan 320 tonna tsementni tonnasini 60000

so‘mdan, “Navoiy” sement zavodidan esa 280 tonna sementni 70000 so‘mdan sotib oldi. Joriy yilda “Bekobod” zavodidan olingan sementning 250 tonnasi, “Navoiy” sement zavodidan olingan sementdan 280 tonnasi ishlab chiqarishga ishlataldi. Yilning oxirida “Bekobod” zavodi sementining 1 tonnasi 62000 so‘m, “Navoiy” zavodiniki 1 tonnasi 75000 so‘m bo‘ldi.

Oraliq iste’mol xarajatini va xolding foydani hisoblang.

2.2-masala

Hududiy tijorat banki iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma’lumotlar mavjud, joriy hisobot davriga, bozor baholarida, mln so‘m.

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1.	Kanselyariya tovarlari harakati	30
2.	Hisoblash markazining xizmatlari haqi	24
3.	Aloqa va telegraf xizmatlari haqi	76
4.	Imorat, apparatlardan foydalanish va joriy ta’mirlash xarajatlari	110
5.	Imorat va qurilmalarning ijara haqlari	5
6.	Imoratni kapital ta’mirlash	150
7.	Xizmatchilarning ish haqi	300
8.	Ilmiy-tekshirish ishlari xarajati	20
9.	Telefon xizmati haqi	40
10.	Ijtimoiy sug‘urta ajratmalari	75
11.	Reklama xarajatlari	25
12.	Qorovul xizmatlari haqi	40
13.	Yuridik xizmatlar haqi	10
14.	Navbatchi avtomobil’ xizmatlari haqi	35

Tijorat bankining joriy yilda sarflangan oraliq iste’mol qiy-matini hisoblang.

2.3-masala

Mashinasozlik korxonasining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkich ma’lumotlari mavjud (bozor baholari, mln so‘m).

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdor
1.	Asosiy ishlab chiqarish mahsulotlarini sotishdan tushgan foyda	420
2.	Ombordagi tayyor mahsulotlar zaxirasining o'zgarishi	
2.1.	Hisobot yilining boshida	85
2.2.	Hisobot yilining oxirida	65
3.	Sotib olingan xomashyo, yoqilg'i, materiallar va barcha turdag'i energiya	210
4.	Ishlab chiqarish zaxiralalarining o'zgarishi	-20
5.	Sotish uchun sotib olingan tovarlar	70
6.	Sotib olingan tovarni sotishdan tushgan tushum	55
7.	Olib-sotishga mo'ljallangan tovarlar zaxirasi	
7.1.	Hisobot yili boshida	30
7.2.	Hisobot yili oxirida	20

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida hisoblang:

1. Yalpi ishlab chiqarish qiymatini va uning tarkibini tahlil qiling.
2. Oralik iste'mol qiymatini;
3. Mashinasozlik korxonasining hisobot davri uchun YaQQ.

2.4-masala

Qishloq xo'jaligi korxonasi hisobot davrida ishlab chiqarish va sotish uchun quyidagi xarajatlarni qildi (bozor bahosida, mln so'm)

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdor
1.	Mineral xomashyolarni qayta ishlab chiqarish uchun ajratma	50
2.	Tuproq tarkibini yaxshilashga ajratma	65
3.	Yog'och-taxta tayyorlash uchun sotib olingan to'sin	70
4.	Korxonani sug'orish uchun suvdan foydalanish xarajati	30
5.	Imoratlarni kapital ta'mirdan chiqarish xarajatlari	45
6.	Ijara haqlari	25
7.	Boshqa korxonalarning ko'rsatgan xizmatlari haqi	15
8.	Kanstovarlar va xo'jalik xarajatlari	10
9.	Safar xarajatlari Shu jumladan: 9.1. Yo'l-transport xarajatlari	40 12
9.2.	Mehmonxona ijara haqi	18
9.3.	Kundalik xarajat	10

Qishloq xo‘jalik korxonasini yalpi ishlab chiqarish uchun sarflagan oraliq iste’molini hisoblang.

2.5-masala

O‘simlikshunoslikka asoslangan agrofirmanning hisobot yilida quyidagi iqtisodiy ma’lumotlar mavjud, mln so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1.	Doimiy ekinlardan yig‘ib olingan yalpi hosil	110
2.	Yig‘ib olingan yalpi paxta xomashyosi	590
3.	Yig‘ib odingan yalpi poliz va sabzavot mah-sulotlari	255
4.	Yig‘ib olingan yalpi ozuqa ekinlari	195
5.	Urug‘lik, ekish materiallari qiymati	60
6.	Mineral o‘g‘itlar va ximikatlar qiymati	140
7.	Ishlab chiqarish vositalarini asosiy fondlar iste’moli	45
8.	Safar xarajatlari (yo‘l va mehmonxona xizmatlari haqi)	55
9.	Vositachining moliyaviy xizmatlari haqi	45
10.	Reklama va marketing xizmatlari haqi	25
11.	Ta’mirlash korxonasi xizmati haqi	35
12.	Yuridik xizmatlar haqi	30
13.	Yollangan avtomashinaning xizmat haqi	70
14.	Yoqilg‘i va moylash materiallari xarajati	150

O‘simlikshunoslik agrofirmasining quyidagi ko‘rsatkichlari miqdorini hisoblang.

1. Yalpi ishlab chiqarish qiymati.
2. Oraliq iste’molini va uning tarkibini aniqlang.
3. Yalpi qo’shilgan va sof qo’shilgan qiymat.

2.6-masala

Hududiy davlat boshqaruv tashkilotlarini quyidagi ma’lumotlari mavjud, joriy yilda mln so‘m.

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1.	Sotib olingan kanstovarlar qiymati	60
2.	Kommunal xizmathlar haqi	570
3.	Imoratlarni qurish xarajatlari	1600
4.	To‘langan ijtimoiy nafaqalar	1300
5.	Ijtimoiy sug‘urta ajratmasi	200
6.	Ijtimoiy sug‘urta tashkilotlarining aholiga dam olish uylariga bepul bergen yo‘llanmalari qiymati	880
7.	Sotib olingan mebellar qiymati	240
8.	Idoralarni jihozlash uchun sotib olingan mebellar qiymati	100
9.	Oziq-ovqat mahsulotlari uchun aholiga berilgan dotatsiya (yordam puli)	40
10.	Telegraf, pochta, internet xizmatlari haqi	10
11.	Mehnat haqi to‘lovlar	120
12.	Asosiy vositalarni to‘la tiklash amortizatsiya ajratmalari	15
13.	Qorovul xizmatlari haqi	2

Yuqoridagi ma’lumotlardan foydalanib, davlat boshqaruva tashkilotlarining yalpi ko‘rsatgan xizmatini, oraliq iste’mol va yalpi qo‘shilgan qiymatini hisoblang.

2.7-masala

Kimyo tarmog‘i korxonalarining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma’lumotlar mavjud (bozor baholarida mln so‘m).

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdor
1	2	3
1.	Tayyor mahsulotlar, joriy yilda to‘liq pul o‘tkazilgan	1200
2.	Buyurtmaga yetkazilgan tayyor mahsulotlar, lekin pul o‘tkazilmagan	380
3.	To‘liq texnologik jarayonlari o‘tmagan mahsulotlar.	
3.1.	Hisobot davri boshida	160
3.2.	Hisobot davri oxirida	190
4.	Barterga almashilgan mahsulot	280
5.	Korxona xizmatchilarining mehnat haqiga berilgan tovarlar va xizmatlar qiymati	90
6.	Ish mashinalari va asbob-uskunalarini kapital ta’mirlash xarajatlari	280
7.	Xomashyo va ehtiyyot qismlari xarajatlari	480
8.	Yoqilg‘i va energiyani barcha xillari qiymati	300

1	2	3
9.	Mehnat haqi	400
10.	Ilmiy-tekshirish laboratoriyasi uchun xarajatlar	110
11.	Aloqa xizmatlari haqi	
12.	Yaroqsiz tayyor mahsulotlar qiymati	20
13.	Xizmatchilarni ovqatlantirish xarajati	45
14.	Yuridik xizmatlar xarajati	10
15.	Mol-mulklarni sug‘urtalash xarajati	5
16.	Marketing va reklama xarajatlari:	120

Aniqlang:

- a) Yalpi ishlab chiqarish qiymati va uning tarkibi.
- b) Oraliq iste'mol xarajatlar va uning tarkibi.
- v) Yalpi qo'shilgan qiymat

2.8-masala

Mashinasozlik tarmoq korxonalarining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar mavjud, mln so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdor
1	Tayyor va yarim fabrikat mahsulotlar	2300
2	Sanoatga taalluqli xizmatlar qiymati	350
3	Barterga almashtirilgan tayyor va yarim fabrikat mahsulotlar	100
4	Korxona shohobchalarida bir-biriga o'tkazilgan mahsulotlar	820
5	Korxonaning o'z xizmatchilariga ish haqini natural holatda bergen mahsulotlari qiymati	65
6	Tugallanmagan ishlab chiqarish:	
6.1	Hisobot davri boshida	410
6.2	Hisobot davri oxirida	360
7	Asosiy fondlarni tiklash amortizatsiya ajratmasi	640
8	Safar xarajatlari	
8.1	Yo'l-transport xizmatlari haqi	4
8.2	Mehmonxona xizmatlari haqi	6
8.3	Kundalik xarajatlari	2
9	Ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan materiallar	240
10	Maxsus ishchi kiyimlar xarajati	50
11	Chetdan taklif qilingan transport xizmatlari haqi	320
12	Yoqilg'i va energiya xarajatlari	380
13	Sotib olingan dori-darmon xarajatlari	40
14	Hisoblash markazlarining xizmat haqi	60
15	Asosiy fondlarni joriy ta'mirlash xarajati	120

Aniqlang:

- a) Yalpi ishlab chiqarish qiymati va tarkibi .
- b) Oralıq iste'mol va uning tarkibi.
- v) Yalpi va sof qo'shilgan qiymat.

2.9-masala

Quyidagi jadvalda qurilish birlashmasining iqtisodiy ko'rsatkichlari va ma'lumotlari berilgan, mln so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdor
1	Qurilish-montaj ishlari va ishga tushirilgan qurilish obyekti	800
2	Shu jumladan mashinalar, uskunalar, inventarlar qiymati	220
3	Imoratlarni kapital ta'mirlash (bajarilgan) ishlari	210
4	Tugallanmagan qurilish	
4.1	Yil boshida	180
4.2	Yil oxirida	230
5	Yoqilg'i va energiya xarajatlari	200
6	Qurilish mashinalari va mexanizmlarning ijara haqi	180
7	Maxsus ish kiyimlari xarajati	50

Aniqlang.

- a) Yalpi ishlab chiqarilgan qurilish ishlari .
- b) Oralıq iste'mol xarajatlari.
- v) Yalpi qo'shilgan qiymat.

2.10-masala

Hududiy qurilish tashkilotining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar mavjud (joriy baholarda mln so'm).

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdori
1	2	3
1.	Pudratchi tashkilotlarni bajargan qurilish-montaj ishlari	110
2.	Tugallangan qurilish obyektini ishga tushirish	130
3.	Shu jumladan, o'rnatilgan qurilmalar qiymati	84
4.	Pudratchilik asosida imoratlarni joriy ta'mirlash qiymati	30
5.	Meliorativ ishlari qiymati	20
6.	Tugallanmagan qurilish ishlari	10
6.1.	Yil boshida	16
6.2.	Yil oxirida	26
7.	Asosiy vositalarni kapital ta'mirlash	44
8.	Shu jumladan, qurilmalar qiymati	10
9.	Asosiy vositalarni ta'mirlash, ishlatish uchun sarflangan materiallar qiymati	120

<i>I</i>	<i>2</i>	<i>3</i>
10.	Xizmatchilarining ish haqi	50
11.	Ijtimoiy sug‘urta ajratmasi	12
12.	Asosiy vositalarning amortizatsiya ajratmalari	40
13.	O‘t o‘chiruvchi va qorovullar xizmati haqi	28
14.	Vositachilik moliyaviy xizmatlari haqi	36
15.	Elektr energiyasi va telefon xizmatlari haqi	20

Aniqlang:

- a) Yalpi ishlab chiqarilgan qurilish ishlari;
- b) Oraliq iste’mol xarajatlari va ularning tarkibi;
- v) Yalpi va sof qo’shilgan qiymat.

2.11-masala

Hududiy qurilish bo‘lgan “A” korxonasining quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari mavjud, mln so‘m.

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdor
1.	Bajarilgan qurilish va montaj ishlari	282
2.	Bajarilgan geologiya - qidiruv va parmalash ishlari	120
3.	Imoratlarni kapital ta’mirlash ishlari	156
4.	Tugallanmagan qurilish – ishlab chiqarish qoldig‘ining o‘zgarishi	-42
5.	Qurilish materiallari, konstruksiya detallarining qiymati	146
6.	Yoqilg‘i, bug‘, energiyaning hamma turlari xarajati:	?
6.1.	Ishlab chiqarishga	48
6.2.	Noishlab chiqarishga (yoritish, isitish va boshqa)	56
7.	Aloqa xizmatlari haqi	16
8.	Chetdan ko‘rsatilgan transport xizmatlari haqi	38
9.	Olingan dori-darmonlar xarajatlari	10
10.	Safar xarajatlari:	32
10.1	Yo‘l-transport xizmatlari haqi	12
10.2	Mehmonxona xizmatlari haqi	16
10.3	Kundalik ovqatlanish xarajatlari	4

Aniqlang:

- a) Yalpi ishlab chiqarish va uning tarkibi.
- b) Oraliq istemoli va uning tarkibi.
- v) Yalpi qo’shilgan qiymati.

2.12-masala

Hisobot yili uchun hududiy tijorat bankining quyidagi ma'lumotlari mavjud, mln so'm.

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdori
1.	Mijozlarga berilgan kreditdan olingan foizlar	128
2.	Bankni boshqa investitsiya uchun olingan foizlari	42
3.	Depozitlarga berilgan foizlar	82
4.	Bankni boshqa olgan majburiyatlariga to'langan foizlar	24
5.	Bankni mijozlariga bergen maslahat xizmatlari uchun olgan haqi	32
6.	Bank operatsiyalarida vositachilikka berilgan mukofot	36
7.	Kanstovarlar xarajati	10
8.	Qimmatli qog'ozlar, hisobot blankalarini tayyorlash uchun qilingan xarajatlar	18
9.	Hisoblash markazlarining xizmatlari haqi	6
10.	Pochta aloqasi va telegraf xarajatlari	8
11.	Imorat va qurilmalarni ushlab turish va joriy ta'mirlash xarajatlari	14
12.	Ijara haqlari	10
13.	Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	18
14.	Xizmatchilarni malakasining oshirish xarajati	2
15.	Qo'riqlash xarajatlari	4
16.	Ishchi avtomashinalarni saqlab turish va xizmat xara-jatlari	2
17.	Xizmatchilarni uydan ish joyiga, ish joyidan uyga olib boruvchi navbatchi transport xarajatlari	1

Hisoblang:

- Shartli moliyaviy vositachilik xizmatlar qiymatini;
- Tijorat banklarini yalpi xizmatlar qiymatini;
- Oraliq iste'moli va uning tarkibini;
- Yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichini.

2.13-masala

Xususiy tijorat banklarini hisobot davri uchun quyidagi iqtisodiy ko'rsatkich va ma'lumotlari mavjud, mln so'm

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdor
1.	Mijozlarga berilgan kreditga olingan foizlari:	
1.1.	O'tgan yil uchun	432
1.2.	Joriy hisobot yili uchun	1080
2.	Bankni boshqa investitsiya uchun olgan foizlari:	
2.1.	O'tgan yil uchun	58
2.2.	Joriy hisobot yili uchun	236
3.	Bankni jalb qilingan depozitlar uchun to'lagan foizlari:	
3.1.	O'tgan yil uchun	222
3.2.	Joriy hisobot yili uchun	408
4.	Bankni boshqa olgan majburiyatlariga to'lagan foizlari	?
4.1.	O'tgan yil uchun	90
4.2.	Joriy hisobot yili uchun	190
5.	Bankni shaxsiy sarmoyasini investitsiyalashdan olgan daromadi	88
6.	Bankni mijozlarga ko'rsatgan maslahat xizmati	66
7.	Bank operatsiyalarida vositachilikka berilgan mukofoti	108
8.	Milliy valutalarni sotishda kurslarning farqidan olingan daromad	178
9.	Xo'jalik va kanstovarlar xarajatlari	104
10	Transport xarajatlari	82
11.	Hisoblash markazining ma'lumotlarni ishlab berish xizmati haqi	38
12.	Asosiy vositalarning amortizatsiyasini tiklash qiymati	92
13.	Binolarning ijara haqi	24
14.	Telefon xizmatlari haqi	30
15.	Qo'riqlash xizmatlari haqi	54

Hisoblang:

1. Shartli moliyaviy vositachilik xizmatlar qiymatini;
2. Xususiy tijorat bankining yalpi ko'rsatgan xizmatlari qiymatini;
3. Oraliq iste'moli va uning tarkibini;
4. Yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichini.

2.14-masala

Davlat sug‘urta tashkilotining iqtisodiy faoliyatini ifoda-lovchi quyidagi ma’lumotlar mavjud (bozor baholarida, mln so‘m).

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1.	Mijozlarni shartnomaga asosida to‘lagan sug‘urta badallari	768
2.	Sug‘urta mukofotlari (mijozlarga mo‘ljallangan)	490
3.	Sug‘urta tashkilotini sug‘urta texnik rezervlarini oshirishga yo‘naltirilgan mablag‘i	102
4.	Sug‘urta badallarini investitsiyalashdan olingan daromadlar	32
5.	Sug‘urta tashkiloti xususiy kapitalini investitsiya qilishdan olingan daromad	94
6.	Biror hodisada ko‘rilgan ziyonni hisoblashdan olingan daromad	16
7.	Kanstovarlar xarajati	10
8.	Hisoblash markazini ko‘rsatgan xizmati haqi	24
9.	Mijozlar bilan qilinadigan operatsiyalarda pochta aloqasi, telegraf xizmatlari haqi	22
10.	Imorat va jihozlarni saqlash va joriy ta’mirlash xarajatlari	36
11.	Ijara haqlari	12
12.	Binoni kapital ta’mirlash xarajati	56
13.	Xizmatchilarning ish haqi	72
14.	Ijtimoiy sug‘urta ajratmalar	18
15.	Asosiy vositalar amortizatsiyasini tiklash ajratmasi	38
16.	Telefon xarajatlari	14
17.	Xizmatchilarning malakasini oshirish xizmatlari haqi	4
18.	Qo‘riqlash xizmati xarajatlari	16
19.	Navbatchi avtomobilarning xarajatlari	

Aniqlang:

1. Sug‘urta tashkilotining hisobot davri uchun ko‘rsatilgan yalpi xizmatlari qiymati.
2. Oraliq iste’mol va uning tarkibi.
3. Yalpi va sof qo‘shilgan qiymati.

2.15-masala

Hududiy kredit muassasasining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar mavjud, mln so'm:

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdor
1.	Bankning mijozlariga bergen qarzi va kreditidan olgan foiz summasi	21360
1.1.	Shu jumladan, banklararo bergen kreditidan olgan foiz summasi	4260
2.	Bank tomonidan jalb qilingan aholini bo'sh mablag'i uchun to'langan foizlar summasi	11970
3.	Bankda qimmatbaho buyumlarni saqlash xizmatlari haqi	2900
4.	Mijozlarni bankdagi hisob-kitob schyotlarini yuritish va kredit shartnomalarini boshqarish xizmatlari haqi	1370
5.	Kanselyar xarajatlari	260
6.	Hisoblash markazlarining xizmatlari haqi	268
7.	Mijozlar bilan bo'ladigan operatsiyada foydalanylган почта ва телеграф алоқалари xizmatlari haqi	348
8.	Binolar va qurilmalarni saqlash va joriy ta'mirlash haqi	370
9.	Ijara haqi	338
10.	Imoratni kapital ta'mirlash xarajati	1634
11.	Bank xizmatchilarining mehnat haqi	1896
12.	Asosiy vositalarning amortizatsiyasini tiklash xarajati	800
13.	Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish xarajatlari	286
14.	Kommunal xizmatlar haqi	500
15.	Xizmatchilarning malakasini oshirish xarajatlari	106
16.	Qo'riqlash xarajati	246
17.	Xizmat avtomobilari uchun xarajatlar	490
18.	Reklama xizmatlari	64

Aniqlang:

1. Shartli hisoblangan moliyaviy vositachilik xizmatlari qiymati.
2. Hisobot davri uchun sug'urta tashkilotini yalpi xizmatlari qiymati.
3. Oraliq iste'mol va uning tarkibi.
4. Yalpi va sof qo'shilgan qiymat.

2.16-masala

Shartli mamlakatning sug‘urta tashkilotlarini iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma’lumotlar mavjud, mln so‘m:

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdor
1.	Barcha sug‘urta turlari bo‘yicha ajratilgan sug‘urta mukofotlari	1060
2.	Barcha sug‘urta turlari bo‘yicha mijozlarga to‘langan sug‘urta qoplamasi	680
3.	Sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta texnik rezervlarini investitsiyalashdan olingan sof daromadi	130
4.	Sug‘urta texnik rezervlarining o‘zgarishi	100
5.	Kantselyar xarajatlari	10
6.	Qimmatbaho qog‘ozlar va maxsus hisobot blankalarini tayyorlash xarajatlari	12
7.	Hisoblash markazlarining xizmat haqi	6
8.	Binolar va qurilmalarni saqlash va joriy ta’mirlash xarajatlari	38
9.	Ijara xizmatlari haqi	14
10.	Binolarni kapital ta’mirlash xarajati	70
11.	Xizmatchilarning mehnat haqi	76
12.	Asosiy vositalarni tiklash amortizatsiya ajratmalari	94
13.	Tipografiya, telegraf va telefonlar xarajati	38
14.	Xizmatchilarning malakasini oshirish, o‘quv yurtlarining xizmat haqi	12
15.	Qo‘riqlash xarajatlari	30
16.	Xizmatchi avtomashinalarning xarajati	22
17.	Safar xarajatlari (yo‘l transporti va mehmonxona xizmatlari haqi)	9

Aniqlang:

1. Sug‘urta tashkilotlarining YaICh ko‘rsatkichi.
2. Oraliq iste’mol va uning tarkibi.
3. Yalpi va sof qo‘shilgan qiymat.

2.17-masala

Shartli mamlakatni tashqi savdo tashkilotlarining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar mavjud (bozor baholarida, mln so'm).

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdor
1.	Tovarlar va xizmatlar eksporti (chet el valutasida)	372
2.	Tovarlar va xizmatlar eksporti (milliy valutada)	290
3.	Tovarlar va xizmatlar importi (chet el valutasida)	226
4.	Tovarlar va xizmatlar importi (milliy valutada)	302
5.	Import solig'i	42
6.	Import subsidiyasi	64
7.	Eksport solig'i	36
8.	Eksport subsidiyasi	24
9.	Elektr energiya xarajatlari	26
10.	Ijaraga olingan transport xizmatlari haqi	10
11.	O't o'chirish, harbiy soqchilik va qorovulchilik xarajatlari	14
12.	Kanselyar va pochta aloqalari xarajati	4
13.	Reklama va marketing xizmatlari xarajati	18
14.	Tovalarni guruhlash, qadoqlash va saqlash xarajatlari	12
15.	Yuridik xizmatlar haqi	4
16.	Tovalarni yo'l-yo'lakay tashishda yo'qotishdan ko'rgan zarar	6
17.	Asosiy vositalarning amortizatsiyasini tiklash qiymati	24
18.	Safar xarajatlari (yo'l transporti va mehmonxona haqi)	3

Aniqlang:

1. Tashqi savdo tashkilotlarining yalpi ko'rsatkich xizmatlari qiymatini asosiy va ishlab chiqaruvchilar bahosida hisoblang.
2. Oraliq iste'moli va uning tarkibi.
3. Yalpi va sof qo'shilgan qiymat.

2.18-masala

Avtoparkni iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlari mavjud, mln so'm:

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdori
1.	Yuk tashishdan tushgan daromad	42960
2.	Yo'lovchilar va yuklarni tashishdan olingan daromad	37000
3.	Qo'l yuki va yuklarni saqlovchi omborlarning xizmatlari haqi	1960
4.	Korxonalar va tashkilotlarning binolari, yer uchastkalari, omborlaridan foydalanganlik uchun ijara haqlari	2280
5.	Poyezdlarda yo'lovchilarga ko'rsatilgan xizmatlardan komission yig'im	600
6.	Yuklash, tushirish ishlaridan olingan daromadlar	304
7.	Transport ekspeditorlik operatsiyalaridan olingan daromadlar	1060
8.	Yo'lovchilarni tashishda ularning hayotlari va qo'l yuklarini sug'urtalashdan olingan daromad	2290
9.	Mahsulot solig'i	320
10.	Mahsulotga subsidiya	182
11.	Yoqilg'i va moylash materiallari xarajati	20000
12.	Issiq suv va bug' xarajatlari	6000
13.	Elektr energiyasi xarajatlari	12000
14.	Sug'urta tashkilotlarini xizmatlari haqi	2640
15.	Reklama xarajatlari	300
16.	Marketing xizmatlari xarajati	340
17.	Safar xarajatlar, shu jumladan	
17.1.	yo'l transporti va mehmonxona xizmatlari haqi	42
17.2.	kundalik xarajatlar	16
18.	Asosiy vositalarni tiklash amortizatsiyasi ajratmasi	6800
19.	Qo'riqlash xizmatlari xarajati	18
20.	Xizmatchilarning mehnat haqi	4200

Aniqlang:

1. Avtoparkning hisobot davrida ko'rsatgan yalpi xizmat qiymatini asosiy va ishlab chiqaruvchi bahosida hisoblang.
2. Oraliq iste'mol qiymati va uning tarkibi.
3. Yalpi va sof qo'shilgan qiymat.

2.19-masala

Viloyat fermer xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar mavjud, mln so'm:

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdori
1.	Qishloq xo'jaligi ekinlaridan olingan yalpi hosil	236
2.	Yosh mevali ko'chatlar va yosh tokzorlarni parvarish qilish xarajatlari qiymati	64
3.	Sotilgan chorvachilik mahsulotlari	342
4.	Chorva mollarini parvarish qilishdan olingan daromad (olingan buzoqlar va ularga qo'shilgan vazn)	164
5.	O'simlikshunoslikda tugallanmagan ishlab chiqarish	32
5.1.	Yil boshida	36
5.2.	Yil oxirida	
6.	Chorvachilikda tugallanmagan ishlab chiqarish	42
6.1.	Yil boshida	50
6.2.	Yil oxirida	
7.	Urug'chilik va ko'chat materiallari xarajati	88
8.	Ozuqa xarajatlari	110
9.	Mineral o'g'itlar va zaharli kimyoviy vositalar xarajati	60
10.	Neft mahsulotlari, yoqilg'i va barcha energiyalar xarajati	90
11.	Asosiy vositalarni joriy ta'mirlash uchun ishlatilgan zaxira qismlari	16
12.	Transport va aloqa xizmatlari haqi	36
13.	Zootexnika va veterinar xizmatlari haqi	32
14.	Qoramolni harom o'lishidan ko'rilmagan zarar	14
15.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashish va saqlashda yo'qotishlar	4
16.	Ijara haqi	20
17.	Mutaxassis tayyorlovchi o'quv yurti haqi	28
18.	Yerni yaxshilash uchun meliorativ va kimyoviy vositalar xarajatlari	42
19.	Safar xarajati	?
19.1.	Kundalik	2
19.2.	Yo'l, transport va mehmonxona xizmatlari haqi	6
20.	Dam olish xonalari va shiyponlarni saqlash va joriy ta'mirlash xizmatlari	70

Aniqlang:

1. Fermer xo'jaliklarning yalpi ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari qiymatini hisoblang.
2. Oraliq iste'mol va uning tarkibi.
3. Yalpi qo'shilgan qiymat.

2.20-masala

“A” shartli mamlakatni joriy hisobot yilidagi iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlari mavjud (shartli milliy valutada):

T/r	Ko'rsatkichlar	Yalpi ishlab chiqarish	Oraliq iste'mol
1.	Ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha:		
1.1.	Sanoat	6440	4564
1.2.	Qishloq xo'jaligi	8520	6840
1.3.	Qurilish	1420	980
2.	Pulli xizmatlar tarmoqlari bo'yicha		
2.1.	Transport	2216	848
2.2.	Aloqa	422	164
2.3.	Savdo va umumovqatlanish, tayyorlov tizimlarida	5270	2000
2.4.	Geologiya va yer osti boyliklarini izlash	104	46
2.5.	Uy-joy xo'jaligi	344	142
2.6.	Kommunal xo'jaligi	500	270
2.7.	Informatsion hisoblash ta'minoti	26	10
2.8.	Moliya, kredit, sug'urta tizimlarida	474	164
2.9.	Madaniyat va san'at sohasida	762	300
2.10.	Fan va ilmiy ta'minot	320	190
2.11.	Sog'liqni saqlash, jismoniy, madaniy, ijtimoiy ta'minot	756	400
2.12.	Ma'muriy-boshqaruv tizimlarida	1518	740
3.	Nobozor xizmatlar, tarmoqlar bo'yicha		
3.1.	Geologiya va yer osti boyliklarini izlash	1	2
3.2.	Uy-joy xo'jaligi	50	16
3.3.	Fan va ilmiy ta'minot	30	17
3.4.	Sog'liqni saqlash, jismoniy, madaniy, ijtimoiy ta'minot tizimlarida	438	256
3.5.	Maorif sohasida	376	132
3.6.	Madaniyat va san'at sohasida	54	30
3.7.	Ma'muriy boshqaruv tizimlarida	1284	722
3.8.	Birlashgan jamoat tashkilotlarida	84	64
4.	Shartli moliyaviy vositachilik xizmatlari		
			236

Eslatma:

- Asosiy fondlarni tiklash amortizatsiyasi ajratmalari — 1440, shu jumladan, xizmatlar sohasi bo'yicha — 830.
- Mahsulot va import solig'i — 1150.
- Boshqa ishlab chiqarish solig'i — 1010.
- Mahsulot subsidiyasi — 510.
- Ishlab chiqarish subsidiyasi — 310.

Aniqlang:

1. Yalpi ishlab chiqarish va oraliq iste'mol qiymatlari tarkibini sohalar bo'yicha hisoblang (tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi).
2. Tovarlar ishlab chiqarish, pulli va nobozor sohalar bo'yicha yalpi va sof qo'shilgan qiymatni hisoblang.
3. "A" shartli mamlakatning YaIM va sof ichki mahsulotini hisoblang.

2.21-masala

Mamlakatning shartli "A" viloyati iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar mavjud (hisobot yili uchun, shartli birlikda).

T/r	Ko'rsatkichlar	Yalpi ishlab chiqarish	Oraliq iste'mol
1.	Tovarlar, ishlab chiqarish tarmoqlarida		
1.1.	Sanoatda	1400	1980
1.2.	Qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligida	610	340
1.3.	Qurilishda	680	320
2.	Pulli xizmat ko'rsatish sohalarida		
2.1.	Transport	720	280
2.2.	Aloqa	140	50
2.3.	Savdo va umumovqatlanish tayyorlov tizimida	1360	380
2.4.	Geologiya va yer osti boyliklarini izlash	28	12
2.5.	Uy-joy xo'jaligi	140	64
2.6.	Ko'chmas mulk operatsiyalari	140	4
2.7.	Informatsion-hisoblash xizmatlari	8	2
2.8.	Moliya, kredit, sug'urta sohalarida	80	60
2.9.	Madaniyat va sanat sohalarida	28	14
2.10.	Sog'lijni saqlash, jismoniy-madaniy, ijtimoiy taminot tizimlarida	80	24
2.11.	Ma'muriy-boshqaruv tizimlarida	60	10
3.	Nobozor xizmatlari tarmoqlarida:		
3.1.	Uy-joy xo'jaligi	32	4
3.2.	Fan va ilmiy ta'minot	18	4
3.3.	Sog'lijni saqlash, jismoniy, madaniy-ijtimoiy ta'minot tizimlarida	200	120
3.4.	Maorif sohasida	200	70
3.5.	Madaniyat va sanat sohalarida	28	12
3.6.	Ma'muriy-boshqaruv tizimida	534	280
3.7.	Birlashgan jamoat tashkilotlarida	46	36
3.8.	Shartli moliyaviy vositachilik xizmatlari		12

Eslatma:

1. Asosiy fondlar iste'moli 800, shu jumladan, xizmatlar sohasida – 446.

2. Sof ishlab chiqarish va import solig‘i – 490.

Hisoblang:

1. Iqtisodiy faoliyat sohalari bo‘yicha (ishlab chiqarish va xizmat sohalarida) yalpi ishlab chiqarish va oraliq iste’mol qiymatlari.
2. Yalpi va sof qo‘silgan qiymatlar ishlab chiqarish va xizmat sohalarida.
3. Yalpi hududiy mahsulot.
4. Sof hududiy mahsulot.

2.22-masala

Mamlakatning shartli “B” viloyati iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma’lumotlar mavjud, shartli birlikda.

№	Ko‘rsatkichlar	Yalpi ishlab chiqarish	Oraliq iste’mol
1.	Tarmoqlarda tovarlar ishlab chiqarish		
1.1.	Sanoatda	672	400
1.2.	Qishloq va o‘rmon xo‘jaligida	1220	380
1.3.	Qurilishda	1040	500
2.	Pulli xizmat sohalarida		
2.1.	Transport	600	200
2.2.	Aloqa	1140	470
2.3.	Savdo, umumovqatlanish, tayyorlov tizimlarida	2900	880
2.4.	Geologiya va yer osti boyliklarini izlash	40	20
2.5.	Uy-joy xo‘jaligi	160	64
2.6.	Kommunal xo‘jaligi	280	160
2.7.	Informatsion-hisoblash ta’mnoti	10	4
2.8.	Moliya, kredit, sug‘urta tizimlarida	180	86
2.9.	Madaniyat va san’at sohasida	40	22
2.10.	Fan va ilmiy ta’mnot sohasida	150	90
2.11.	Sog‘lijni saqlash, jismoniy, madaniy, ijtimoiy ta’mnot tizimida	122	40
2.12.	Ma’muriy-boshqaruv tizimida	54	12
3.	Nobozor xizmatlar tarmog‘ida		
3.1.	Uy-joy xo‘jaligi	52	14
3.2.	Fan va ilmiy ta’mnot	22	10
3.3.	Sog‘lijni saqlash, jismoniy-madaniy ijtimoiy ta’mnot tizimida	280	164
3.4.	Ta’lim sohasida	260	86
3.5.	Madaniyat va san’at sohasida	36	16
3.6.	Ma’muriy-boshqaruv tizimida	800	414
3.7.	Birlashgan jamoat tashkilotlarida	60	46
4.	Shartli moliyaviy vositachilik xizmatlari		24

Eslatma:

1. Asosiy fondlar iste'moli – 960, shu jumladan, xizmatlar sohasida – 422.
2. Mahsulot va import solig'i – 1220.
3. Mahsulot va importga subsidiya – 240.

Hisoblang:

1. Tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalarini yalpi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish va oraliq iste'mol qiymatlarini hisoblang.
2. Yalpi va sof qo'shilgan qiymatni sohalar bo'yicha aniqlang.
3. Yalpi va sof hududiy mahsulot.

2.23-masala

Mamlakatning shartli "V" viloyatining quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlari mavjud, hisob davri uchun, shartli birlikda

T/r	Ko'rsatkichlar	Yalpi ishlab chiqarish	Oraliq iste'moli
1	2	3	4
1.	Tovarlar ishlab chiqarish tarmoqlarida:		
1.1.	Sanoat	9920	3780
1.2.	Qishloq xo'jaligi	1580	720
1.3.	O'rmonchilik	20	6
1.4.	Baliqchilik	1100	880
1.5.	Qurilish	1840	900
2.	Tarmoqlarda pulli xizmatlar		
2.1.	Transport	1600	620
2.2.	Aloqa	320	124
2.3.	Savdo va umumovqatlanish, tayyorlov tizimlarida	440	140
2.4.	Geologiya va yer osti boyliklarini izlash	80	36
2.5.	Uy-joy va kommunal xo'jaliklari	580	292
2.6.	Moliya, kredit, sug'urta tizimlarida	300	124
2.7.	Fan va ilmiy ta'llimot sohasida	260	156
2.8.	Sog'liqni saqlash, jismoniy, madaniy, ijtimoiy ta'minot tizimlarida	180	60
2.9.	Ma'muriy-boshqaruv tizimida	64	12
3.	Nobozor xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarda:		
3.1.	Geologiya va yer osti boyliklarini izlash	4	2
3.2.	Uy-joy xo'jaligi	60	14

<i>I</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
3.3.	Fan va ilmiy ta'limot	32	14
3.4.	Sog'liqni saqlash, jismoniy, madaniy, ijtimoiy ta'minot tizimlarida	410	240
3.5.	Ta'lim tizimi	280	130
3.6.	Madaniyat va san'at	50	24
3.7.	Ma'muriy boshqaruv	1280	720
3.8.	Birlashgan jamoat tashkilotlari	84	64
3.9.	Shartli moliyaviy vositachilik xizmatlari		120

Eslatma:

1. Asosiy vositalar ajratmasi – 1200, shu jumladan, xizmat ko'rsatuvchi sohalarda – 630.

2. Ishlab chiqarish va import solig'i – 1960.

3. Mahsulotlar subsidiyasi – 300.

Hisoblang:

1. Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish sohalarining yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'mol qiymatlarini.

2. Yalpi va sof qo'shilgan sohalar bo'yicha.

3. Yalpi va sof hududiy mahsulot qiymatini.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy faoliyat nima va u qanday chegaralanadi?

2. Iqtisodiy birliklar va iqtisodiy hudud tushunchalarining mohiyati nimadan iborat?

3. Milliy va ichki iqtisodiyot qanday sektorlar va tarmoqlarga bo'linadi, sektoral va tarmoq bo'linishning zarurati nimada?

4. Nomoliyaviy korporatsiyalar sektori va uning vazifalari nimadan iborat?

5. Moliyaviy korporatsiyalar sektori, uning vazifasi va maqsadi nimadan iborat?

6. Davlat boshqaruv organlari sektorining vazifasi va maqsadi nimadan iborat?

7. Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashqilotlar sektorining vazifasi nimadan iborat?

8. Uy xo'jaliklari sektori va uning vazifalari nimadan iborat?

9. МНТда iqtisodiy operatsiyalar qanday klassifikatsiyalanaadi?
10. Operatsiyalarni qayd qilish qoidalari qanday?
11. МНТ ning asosiy ko'rsatkichlari qaysilar?
12. Yalpi ichki mahsulotni yalpi milliy daromaddan farqini mada?

Adabiyotlar

1. Система национальных счётов 1993. Издание ООН, 1998 г.
2. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./ Под ред. Ю.Н.Иванова. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – С. 70-89.
3. Подмогильная В. Система национальных счетов: Учебно-практическое пособие. – Москва: РАГС, 2010. – 238 с.
4. Кремлев Н.Д. Система национальных счетов: Учебное пособие. – Курган: Издательство Курганстат, 2009.– С. 61-109.
5. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов: Учебное пособие для вузов. – Москва: Финансы и статистика, 2006.– 272 с.
6. Елесеева И., Силаева С., Щирина А. Практикум по макроэкономической статистике. – М.: Проспект, 2008. – С. 24-44.
7. Махмудов Б. Миллий ҳисобчилик асослари./Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2003. – Б. 35-73.
8. Qoraboyev A.R. Milliy hisoblar tizimi fanidan masalalar to'plami. O'quv uslubiy qo'llanma. – Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. – В. 22-45.
9. А.Абдугаффоров, М.Зокирова, А.Қорабоев. Миллий ҳисоблар тизими. Тошкент "Молия" 2002. – Б. 80.

III mavzu. MILLIY HISOBLAR TIZIMI SCHYOTLAR TARKIBI, ULARNI O'ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI


3.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

O'quv mashg'ulotining shakli	Kirish, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasি	<ol style="list-style-type: none">MHT schyotlari, ularni tuzishning umumiy qoidalari.Institutsional sektorlar, tarmoqlar va iqtisodiy operatsiyalarning ba'zi turlari uchun schyotlar.Yaxlit iqtisodiyot uchun schyotlar.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> MHT schyotlar tarkibi, ularni O'zbekistonda tuzish xususiyatlari mohiyatini yanglab etish.	
Pedagogik vazifalar:	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none">MHT schyotlari tasnifini berish.Institutsional sektorlar, tarmoqlar va iqtisodiy operatsiyalarning ba'zi turlari uchun schyotlarni tuzishni tushuntirish.O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti uchun schyotlar tuzishni yoritib berish.
O'qitishning uslubi	Ma'ruza, aqliy hujum, pinbord texnikasi,
O'qitishning shakli	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash;
O'quv vositalari	Ma'ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar, flomasterlar.
O'qitish shartlari	Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik kartasi


Ishning bosqichlari vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	o‘qituvchi	talabalar
1-bosqich kirish qismi (20 min)	<p>1.1. Mavzuning nomini e’lon qiladi. Fan bo‘yicha umumiy tasavvur keltiradi. Ishning metodologik va tashkiliy xususiyatlarini yoritib beradi.</p> <p>1.2. Mavzuni, uning maqsadi o‘quv mashg‘ulotlardan kutilayotgan natijalarni ma’lum qiladi.</p> <p>1.3. Kurs davomidagi ma’ruzalar mazmuni bilan tanishtiradi. Reyting baholash mezonlari bilan tanishtiradi, yozma ish va oraliq nazoratlari hamda yakuniy nazoratlar bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p>	<p>Eshitadi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>
2-bosqich Asosiy bosqich (50 min)	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalgan etish va bilim darajalarini aniqlanish uchun tezkor savol-javob o‘tkazadi:</p> <p>1.Schyotlar deganda nimani tushunasiz?</p> <p>2.Buxgalteriya hisobida tuziladigan schyotlarning turlari va ularni tuzishning umumiy qoidalari qanday?</p> <p>3.MHTda tuziladigan schyotlarning turlari va ularni tuzishning umumiy qoidalari qanday, deb o‘ylaysiz?</p> <p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi: MHT schyotlari, ularni tuzishning umumiy qoidalari, institutsional sektorlar, tarmoqlar va iqtisodiy operatsiyalarning ba’zi turlari uchun schyotlar, yaxlit iqtisodiyot uchun schyotlar mohiyatini tushuntirib beradi.</p> <p>2.3. Taqdimotda berilgan misollar orqali schyotlarni tuzish qoidalarni ko‘rsatib beradi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga, schyotlarni tasnifi va ularni tuzish prinsiplariga diqqat qilishlarini va yozib olishlarini ta’kidlaydi.</p>	<p>O‘qiydilar</p> <p>Eshitadi hamda savollarga javob beradi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>
3-bosqich Asosiy bosqich (10 min)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa qiladi va yakuniy natijalarni e’lon qiladi.</p> <p>3.2. Talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi hamda maqsadga erishilganlik, o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi.</p> <p>3.3. Mustaqil vazifalar beriladi va talabalar tayyorgarlik darajasini baholash e’lon qilinadi.</p>	<p>Savollar beradi</p> <p>Yozib oladi.</p>

Ma’ruzaning mazmuni bo‘yicha ko‘rgazmali slaydar




3.1-rasm. MHT schyotlarini tuzishni umumiyl prinsiplari

Milliy hisoblar tizimi schyotlarining tarkibi




3.2-rasm. Milliy hisoblar tizimi schyotlarining tarkibi


Ichki iqtisodiyot va tashqi dunyo sektorlarining asosiy schyotlari



3.3-rasm. Ichki iqtisodiyot va tashqi dunyo sektorining asosiy schyotlari



3.4-rasm. MHT sektorlarida qo'llaniladigan eng asosiy schyotlar sxemasi



3.5-rasm. MHTda qoʻllaniladigan eng asosiy schyotlar sxemasi

Birlik guruhi	Tovarlar va xizmatlar schyoti	Ishlab chiqarish schyoti	Daromadlarni shakllanish schyoti	Daromadlarni birhamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlari	daromadlardan foydalanish va kapital operatsiya schyoti
Ichki iqtisodiyot	X	X	X	X	X
Sektorlar:					
Nomoliyaviy korporatsiyalar	-	X	X	X	X
Moliyaviy korporatsiyalar	-	X	X	X	X
Davlat korxonalarini	-	X	X	X	X
Uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi ijtimoiy korxonalar	-	X	X	X	X
Uy xo‘jaliklari	-	X	X	X	X
Tarmoqlar	-	X	-	-	-

3.6-rasm. MHTning ichki iqtisodiyot tarkibiga kirgan schyotlarning jadval ko‘rinishi

O‘quv materiallari

1. MHT schyotlari, ularni tuzishning umumiy qoidalari

Schyotlar milliy hisoblar tizimining asosiy elementi hisoblanadi. Ulardan korxona va tashkilotlarning amalga oshiradigan iqtisodiy operatsiyalarni hisobga olishda foydalilanadi. Shu bilan birgalikda schyotlar davlat rezidentlari norezidentlari o‘rtasidagi operatsiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

Schyotlardagi qaydlar iqtisodiyotdagi alohida operatsiyalarga aloqador bo‘lmasdan, balki iqtisodiy operatsiyalarning jamlanganligi bilan xarakterlanadi. Masalan: iste’mol, jamg‘arish, eksport.

Ba'zan, schyotlardagi ayrim qaydlar iqtisodiy operatsiyalarni bildirmaydi, ular favqulotda xolatlar (yong'in, tabiy ofat, urush va boshqalar) natijasida aktivlar qiymatining o'zgarishini tavsiflaydi.

Shunday qilib, schyotlardagi ayrim qaydlar iqtisodiy jaryonni ifodalovchi ko'rsatkichlar yig'indisini namoyon etadi. Ushbu ko'rsatkichlarning ko'p qismi schyotlarni balanslashtiruvchi ko'rsatkichlardir, masalan, qo'shilgan qiymat, jamg'arish, birlamchi daromad qoldig'i va boshqalar.

Ta'kidlab o'tilganidek, iqtisodiyotga umumiylaroqador muhim ko'rsatkichlar *agregatlar* deb ataladi. Masalan: YaIM, milliy daromad, milliy boylik.

Milliy hisoblar tizimi schyotlari o'zining tuzilishiga ko'ra buxgalteriya hisobi schyotlari bilan o'xshash. Ularning har ikkisi ham «T»-ko'rinishidagi shaklga ega. Schyotlarni balanslashtirishning ikki xil yo'li mavjud. Ayrim schyotlarni *balans moddasi* yordamida *balans metodi* bilan balanslashtiriladi. *Balans moddasi* keyingi schyotning birlamchi moddasiga aylanadi. Boshqa schyotlar esa "tarif" usuli bilan balanslashtiriladi. "Tarif" usuli bilan balanslashtiriladigan schyotlarga tovar va xizmatlar schyoti misol bo'ladi. Bu schyot tovar va xizmatlarni turli maqsadlarda jamg'arish va ishlatilishini xarakterlaydi (iste'mol, jamg'arish va boshqalar). Ushbu schyotda balanslashtiruvchi modda mavjud emas. Agar moddalar to'g'ri aniqlangan bo'lsa, schyot avtomatik tarzda balanslashadi. Agarda alohida moddalarni aniqlaganda xatoliklarga y o'l qo'yilgan bo'lsa, balans to'g'ri chiqmaydi.

Milliy hisoblar tizimi schyotlari ikki qismdan iborat, ya'ni resurslar va foydalanish qismi (buxgalteriya hisobidagi kabi debet-kredit emas). Shunisi muhimki, resurslarga aloqador qaydlar yig'indisi foydalanishga aloqador qaydlar yig'indisiga teng bo'ladi.

2. Institutsional sektorlar, tarmoqlar va iqtisodiy operatsiyalarning ba'zi turlari uchun schyotlar

Milliy hisoblar tizimida schyotlarning aniq klassifikatsiyasi mavjud, ya'ni schyotlar quyidagicha klassifikatsiyalangan:

- iqtisodiyot sektorlari;
- iqtisodiyot tarmoqlari;
- alohida iqtisodiy operatsiyalar;
- yaxlit iqtisodiyot bo'yicha.

Iqtisodiyot sektorlari uchun schyotlar o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- joriy schyotlar;
- jamg'arma schyotlari;
- aktiv va passivlar balansi.

Joriy schyotlar o'z ichiga quyidagi schyotlarni oladi;

- 1 -ishlab chiqarish schyoti;
- 2-daromadlarning shakllanishi schyoti;
- 3-daromadlarning birlamchi taqsimlanishi schyoti;
- 4-daromadlarning ikkilamchi taqsimlanishi schyoti;
- 5-pul shaklida ixtiyordagi daromadlardan foydalanish schyoti;
- 6-daromadlarni natura ko'rinishida qayta taqsimlanishi schyoti;
- 7-tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromadlardan foydalanish schyoti.

Jamg'arma schyotlari quyidagilardan iborat:

- 8-kapital bilan operatsiyalar schyoti;
- 9-moliyaviy schyot;
- 10-aktiv va passivlardagi boshqa o'zgarishlar schyoti:
 - a) aktiv va passivlarning ko'lamidagi boshqa o'zgarishlar schyoti;
 - 11-aktiv va passivlarni qayta baholash schyoti
 - 12-tovar va xizmatlar schyoti.

MHTning tarkibiga kirgan schyotlarning jadval ko‘rinishi quyidagicha:

Birlik guruhi	Mahsulot va xizmatlar schyoti	Ishlab chiqaris h schyoti	Daromadl arning shakllanis h schyoti	Daromadla rni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlari	Daromadlarda n foydala nish va kapital bilan operatsiyalar schyoti
Ichki iqtisodiyot	X	X	X	X	X
Sektorlar:	-	X	X	X	X
Nomoliyaviy korporatsiyalar	-	X	X	X	X
Moliyaviy korporatsiyalar	-	X	X	X	X
Davlat korxonalarini	-	X	X	X	X
Uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlar	-	X	X	X	X
Uy xo‘jaliklari	-	X	X	X	X
Tarmoqlar	-	X	X	-	-
Tashqi dunyo	-	X	X	X	X

Mavzuga doir testlar

1. Milliy schyotlar nimani tavsiflaydi :

- a) oqim va zaxiralar xajmlarini balansini (tengligini);
- b) u yoki bu resurslar hajmlari va ulardan foydalanish balansi (tengligini);
- c) schyot oqimlarini ifodalash uchun, balans jadvallar esa aktiv va passivlarni ifodalaydi;
- d) buxgalteriya schyotlarini.

2. Milliy schyot jadvallar balansidan nimasi bilan farqlanadi:

- a) schyotda oqimlarni ifodalash uchun, jadvallar balansida zahirani ifodalash uchun foydalilanildi;
- b) schyotda aktivlar va passivlarni ifodalash uchun, jadvallar balansida oqimlarni ifodalash uchun foydalilanildi;
- c) schyotda oqimlarni ifodalash uchun, jadvallar balansida aktivlar va passivlarni ifodalash uchun foydalilanildi;

d) hamma javoblar noto‘g‘ri.

3. MHTni tuzishda qanday umumiy uslubiy prinsiplarga asoslanadi:

- a) schyotlarni ketma-ket tuzish takror ishlab chiqarish bosqichlarga asoslangan;
- b) schyotlarni ketma-ket tuzish ishlab chiqarish jarayon bosqichlariga asoslangan;
- c) ikki yoqlama yozish prinsiplariga asoslangan bo‘lib, har bir iqtisodiy operatsiya schyotda ikki marotaba qayd etadi, bиргал “Resurs” ustunida hamda “Foydalanish” ustunida qayd etiladi;
- d) Resurslar ustunidagi ko‘rsatkichlar yig‘indisi va “Foydalanish” ustunidagi ko‘rsatkichlar yig‘indisi o‘rtasidagi tenglikni balanslashtiruvchi modda yoki ta’rif usuli orqali bajariladi.

4. “Oqim” tushunchasi nimani anglatadi:

- a) tovarlar va xizmatlar harakatlari;
- b) pul, qimmat baho qog‘ozlar va boshqa moliyaviy aktivlarni harakati;
- c) iqtisodiy aktivlarni harakatlari;
- d) oqimlar- kuzatilayotgan ma’lum, bir davrdagi iqtisodiy o‘zgarishlarni ifodalovchi operatsiyalardir.

5. “Zaxira” tushunchasi nima anglatadi va oqim, zaxira ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligi:

- a) barcha turdagи aktivlarni ma’lum davrdagi holatini ifodalovchi operatsiyalardir;
- b) barcha turdagи aktiv va passiv iqtisodiy o‘zgarishlarni ma’lum sanadagi holatini ifodalovchi operatsiyalardir;
- c) hisobot oxiridagi zaxira qiymati teng, zaxira hisobot boshidagi qiymatdan oqim qiymatini ayirmasiga;
- d) hisobot oxiridagi zaxira qiymati teng, zaxirani hisobot boshidagi qiymatiga oqim qiymatini qo‘shilganiga teng.

6. Oqimlarga kuyidagilar misol bo‘la oladi:

- a) YaIM, YaMD.
- b) mamlakatning pul-valuta rezervlari.
- c) baho indekslari.
- d) yuqorida ko‘rsatilgan barcha yo‘nalishlar.

7. Zaxiraga quyidagilar misol bo‘la oladi:

- a) YaIM, YaMD.
- b) mamlakatning pul-valuta rezervlari.
- c) baho indekslari.
- d) yuqorida keltirilgan barcha javoblar noto‘g‘ri.

8. Oqimlar, ularning mazmuni, hisoblash usullari. Quyidagi fikrlar to‘g‘ri:

- a) oqimlar davr mobaynidagi o‘zgarishlarni ifodalaydi;
- b) zaxiraning o‘zgarishi oqimlarga misol bo‘la oladi;
- c) oqimlar iqtisodiy jarayonlar natijalarini ifodalamaydi;
- d) oqimlar davr mobaynidagi o‘zgarishlarni ifodalaydi va zaxiraning o‘zgarishi hamda YaIM oqimga misol bo‘la oladi.

9. Zaxiralar, ularning mazmuni, hisoblash usullari. Quyidagi fikrlar to‘g‘ri:

- a) zaxiralar iqtisodiy jarayonlarni ma’lum bir davrdagi o‘zgarishini ifodalaydi;
- b) zaxiraning o‘zgarishi oqimlarga misol bo‘la olamaydi;
- c) zaxiralar iqtisodiy jarayonlarni ma’lum bir muddatdagi holatini ifodalaydi, unga zaxiraning davr boshi va oxiridagi holatini ifodalovchi miqdor misol bo‘la oladi;
- d) zaxiralar ko‘zatilayotgan davrdagi iqtisodiy jarayonlar natijalarini ifodalaydi.

10. MHTda zaxiralar deb, ...

- a) to‘liq ishlab chiqarishda qatnashgan asosiy kapital tushuniladi;
- b) iqtisodiy o‘zgarishlarni ma’lum bir sanadagi holatiga aytiladi;
- c) uy xo‘jaliklarining jamg‘armalariga aytiladi;
- d) joriy transfertlardagi qoldiqqa aytiladi.

11. MHTda har qanday ko‘rinishdagi aktivlar evaziga hech qanday aktiv bermay hamda majburiyatlar olmay olish va berish operatsiyalariga...

- a) tarixiy obyektlar deyiladi;
- b) transfertlar deyiladi;
- c) to‘lov balansi deyiladi;
- d) to‘g‘ri investitsiyalar deyiladi.

3.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi

<i>O‘quv mashg‘uloti shakli</i>	Amaliy mashg‘ulotlarda chuqurlashtirish va bilimni kengaytirish jarayoni.
Amaliy mashg‘ulotda muhokama qilinadigan savollar.	<ol style="list-style-type: none"> Iqtisodiyotni milliy schyotlar tarkibi va uni ko‘rsatkichlarini hisoblash, schyotlar tuzish va ko‘rsatkichlarini tahlil qilish. Iqtisodiy sektorlarni milliy schyotlar tarkibi, uni ko‘rsatkichlarini hisoblash tizimi va tahlil qilish. Tarmoq schyotlari va uni ko‘rsatkichlarini hisoblash, tuzish va tahlil qilish.
<i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i> Mavzu bo‘yicha bilimni chuqurlashtirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> Iqtisodiyotni milliy hisoblar tarkibi va uni ko‘rsatkichlarini hisoblash, schyotlar tuzish va ko‘rsatkichlarini tahlil qilishni o‘rgatish. Iqtisodiy sektorlarni milliy schyotlar tarkibi, uni ko‘rsatkichlarini hisoblash tizimi va tahlil qilishni tushuntirish. Tarmoq schyotlari va uni ko‘rsatkichlarini hisoblash, tuzish va tahlil qilishni tushuntirish. 	<i>O‘quv faoliyatning natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> Iqtisodiyotni milliy schyotlar tarkibi va uni ko‘rsatkichlarini hisoblash, schyotlar tuzish va ko‘rsatkichlarinitahlil qilishni o‘rganadi. Iqtisodiy sektorlarni milliy schyotlar tarkibi, uni ko‘rsatkichlarini hisoblash tizimi va tahlil qilishni anglaydi. Tarmoq schyotlari va uni ko‘rsatkichlarini hisoblash, tuzish to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi. Tarmoq schyotlari va uni ko‘rsatkichlarini hisoblash bo‘yicha ko‘nikma hosil qiladi.
<i>O‘quv uslubi</i>	“Doira” stol, grafik organayzer: mantiqan tizimli chizma.
<i>O‘qitish shakli</i>	Guruhlarda ishslash, frontal va jamoa, juftliklarda ishslash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar, flip-chatlar, flomasterlar.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishslash uchun mo‘ljallangan auditoriya. Yoritilgan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Mustaqil o‘rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar va vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	talaba
	o‘qituvchi	
I-bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 min.)	<p>1.1. Mavzu nomini aytadi, rejalashtirilgan natijalarni va uni o‘tkazish jarayoni bilan tanishtiradi. Birgalikda guruhlar bilan texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonini tushuntiradi. Adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Tayanch iboralar tushunchalari orqali so‘rovnoma olib boradi. Savol tashlaydi va 1-2 ta javoblarni eshitib bo‘lgach, keyingi muhokamalarni guruhlar ishlarini bajarib, natijalarni prezentatsiya jarayonida eshitishni e’lon qiladi.</p> <p>1.3. Har bir talaba individual tarzda guruhlardagi baholanish bilan birga baho oladi va guruhlarda ishslash qoidalari bilan tanishtiradi.</p>	Eshitadi va yozib boradi Munozarada qatnashadi, savollarga javob beradi. Eshitadi.
2-bosqich Guruhlarda ishslash (60 min.)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhgaga bo‘ladi. O‘quv vazifalarni tarqatadi. Qanday natijalarga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi.</p> <p>2.2. Natijaviy ko‘rsatkichlarni sharhlaydi. Qanday qo‘srimcha materiallar bilan foydalanish mumkinligini tushuntiradi (darslik, ma’ruza matnlari, o‘quv qo‘llanma).</p> <p>2.3. O‘zaro guruhlarda olingan natijalarni prezentatsiya qilish va ularni baholanishni tashkil qiladi. Qilingan ish jarayonidagi xulosalar keltiriladi va alohida e’tiborga loyiq guruhlar jarayoni ketadi.</p>	Eshitadi, ishni bajarishni boshlaydi. Hisoblaydi va tahlil qiladi. Birgalikda qilingan prezentatsiya chiqishlari ko‘rsatiladi.
3-bosqich Yakuniy bosqich (10 min.)	<p>3.1. Amaliyot natijalarini yakunlaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish mavzusini aytadi va vazifa beradi.</p>	Eshitadi aniqlashtiradi. Topshiriqni yozib oladi

Uslubiy ko‘rsatmalar va namunaviy misollar yechish

Pulli xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarda (kommunal xo‘jaliklar, maishiy xizmat korxonalari, pulli maorif sohalari va boshqa) yalpi ko‘rsatgan xizmat haqi tushumidan QQS chegirib, hisoblanadi.

Ayrim tarmoqlarda yalpi ishlab chiqarish hajmlarining hisoblashdagi ayrim xususiyatlari:

Tarmoq	Yalpi ishlab chiqarishda hisobga olinuvchi mahsulotlar turi	Yalpi ishlab chiqarish hajmini hisoblashda hisobga olinmaydigan mahsulot turlari
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>
1. Sanoat	<ul style="list-style-type: none"> *tayyor mahsulotlar; *sotilgan yarim tayyor mahsulotlar; *tashqariga ko‘rsatilgan ish va xizmatlar; *korxonaga qarashli mashina va asbob-uskunalarni kapital ta’mirlash ishlari; *hisobot davrida tugallanmagan ishlab chiqarish hajmlarining o‘zgarishi (hisobot davrining oxiridagi hajmidan hisobot davrini boshidagi hajmining qiymati ayrilganiga teng). 	<ul style="list-style-type: none"> *yaroqsiz (brak) mahsu-lotlarni sotishdan tushgan tushum; *korxona hisobidagi asbob-uskunalarni sotishdan tushgan tushum; *xolding foyda – zaxirada turgan mahsulotlarning narxini o‘zgarishi tufayli olingan daromad.
2.Qishloq xo‘jaligi	<ul style="list-style-type: none"> *dehqonchilikdan olingan tayyor mah-sulot; *chorvachilik, parrandachilik va asa-larichilikdan olingan quyidagi mahsulotlar: <ul style="list-style-type: none"> a) chorva mollaridan olingan tayyor mahsulot (go‘sht, sut, jun va boshqalar); b) chorva mollarini boqishdan olingan qiymat (tug‘ilgan buzoq, qo‘zi va vazniga qo‘shilgan qiymat) *qishloq xo‘jaligiga ko‘rsatilgan bozorga oid bo‘lmagan va pulli xizmatlar: <ul style="list-style-type: none"> a) tuproq tarkibini yaxshilash, o‘g‘itlash va boshqa agrotexnika xizmatlari haqi; 	<ul style="list-style-type: none"> *o‘rim-yig‘im paytida yo‘qotilgan hosil; *manzarali daraxtlar parvarishi xarajatlari; *tabiiy o‘suvchi daraxtlardan terib olingan mevalar va yig‘ilgan dorivorlar qiymati; *qishloq xo‘jaligi korxonasida qayta ishlab chiqarilgan mahsulotlar.

	b) veterinariya va zootexnika xizmat-lari haqi; v) mevali bog‘lar va tokzorlarni hosil qilguncha ko‘rsatilgan xizmatlar haqi (xarajatlar) *tugallanmagan ishlab chiqarish hajm-larini o‘zgarish qiymatlari; *suv xo‘jaligi korxonalarining qishloq xo‘jaligini irrigatsiyalash va sug‘orish tizimiga ko‘rsatgan xizmatlari haqi; *qishloq xo‘jalik korxonalarini chetga ko‘rsatgan pulik xizmatlari.	
3.O‘rmonchilik xo‘jaligi	*o‘rmonchilikdan olingen tovarlar mahsuloti (mevalar va dorivorlar, o‘simliklar, ko‘chatlar) *o‘rmonchilik daraxtlarini ekish va parvarish qilishda bozorga oid bo‘lмаган xizmatlar haqi.	
4.Qurilish	*qurilish-montaj ishlari qiymati *qidiruv, geologiya-razvedka va qazish ishlari; *imorat va inshootlarni kapital ta’mirlash, *pudrat korxonalar tomonidan imorat va inshootlarni joriy ta’mirlash; *uy xo‘jalik a’zolari tomonidan qu-rilgan shaxsiy binolar; *tuproq tarkibini yaxshilash, irrigatsiya va sug‘orish tizimi qurish; *hisobot davrida tugallanmagan quri-lish ishlari hajmlarining o‘zgarishi.	Asbob va uskunalarini ta’mirlash qiymati; qurilmalar, montaj qilingan materiallar qiymati;
5.Transport	*yo‘lovchi va yuklarni tashishdan olin-gan daromadlar (quyidagi transport turlari bo‘yicha): a) temir yo‘l transporti shu jumladan: tramvay va metropoliten; b) shaxsiy transport, shu jumladan trolleybus, avtomashina va shossey xo‘jaligi; v) quvur transporti; g) daryo transporti; d) havo transporti; e) boshqa tur transportlar;	

	j) yuklarni tushirish va yuklash ishlari, yuklarni saqlash xizmatlari va boshqa xizmatlar tushumi.	
6.Aloqa	*pochtani tashish xizmatlari; *telefon, radio, televideniya abonent xizmatlari haqi; *telefaks, telegraf va telefonlardan foydalanish tushumlari; *reklama daromadlari; *pochta markalari, konvertlar va otkritkalar sotishdan olingan daromad; *telefonlarni o‘rnatish xizmatlari haqi.	
7.Savdo	Savdo ustamasi: *ko‘tara va ulgurji savdolarda tovarlarni sotish va sotib olishdan farqlar tushumi.	
8.Tayyorlov	Savdo ustamasi: *tayyorlov tashkilotlari sotgan va sotib olgan tovarlar bahosining farqi (qishloq xo‘jalik mahsulotlari, dori-darmonli o‘tlar tayyorlash.	
9.Informatsiya-hisoblash xizmati	*ko‘rsatilgan xizmatlardan tushgan tushum daromadlari: a) dastur bilan ta’minlash; b) ma’lumotlar bazasini tayyorlash; v) dastur mahsulotlarini tarqatish; g) maslahatlar berish.	
10.Ko‘chmas multk operatsiyasi	*ko‘chmas multk operatsiyasidan tushgan xizmat tushumi: a) ko‘chmas multni sotish va ijara haqi; b) vositachilik xizmati tushumi.	
11.Uy-joy xo‘jaligi	*kvartira haqi; *maxalliy va davlat budgetidan berilgan subsidiya; *shaxsiy xo‘jalikka tegishli, uy-joydan foydalanganlik uchun qilingan xarajatlar; *shaxsiy turar joyning joriy ijara haqi (o‘ziga o‘xshagan kvartira haqiga tenglashtiriladi).	

12.Moliya (tijorat bank-lari va boshqa vositachilik)	*shartli moliyaviy vositachilik xizmatlar miqdori (banklar tomonidan qarz va kredit bergenligi uchun olingan daromad (foiz)lar miqdoridan banklar tomonidan olingan resurslar uchun to‘langan foizlar miqdori; *mijozlarga ko‘rsatgan pulli xizmatlar haqi (valutalarni almashtirish, qimmatbaho buyumlarni saqlab berish, maslahatlar berish xizmatlari).	*banklarning o‘z mablag‘laridan qarz va kredit berib turganligidan oladigan foiz daromad-lar; *milliy valutalarni sotishda ularning kurslarini farqidan olingan daromad.
13.Sug‘urta	*sug‘urta tashkilotlarini ko‘rsatgan xizmatlari (sug‘urta tashkilotlariga to‘langan sug‘urta badallari qiymatidan, sug‘urta tashkiloti tomonidan to‘langan sug‘urta qoplamasining ayirmasi); *sug‘urta tashkilotining sug‘urta rezervlarini investitsiya jarayonlariga jalb etib, olgan foizlari; *sug‘urta tashkilotlarining ko‘rsatgan pulli xizmatlari.	*sug‘urta texnik rezervini ko‘paytirish uchun yo‘-naltirgan foizlar.

Namunali masala

Quyidagi jadvalda mebel ishlab chiqarish firmasini ma'lumotlari berilgan. Hisobot davri joriy, shartli bahoda

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Miqdori
1	Tayyor mahsulot realizatsiyasi (R)	680
2	Firma o‘zining ehtiyoji uchun ishlab chiqargan mahsulot (I)	20
3	Tayyor mahsulotlarni natura holida almashtirilgan mahsulotlar (B)	30
4	Firma o‘z xizmatchilariga mehnat haqining natural holatida bergen mahsulot qiymati (N)	4
5	Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmlarini o‘zgarishi -hisobot davri boshida (TIChB) -hisobot davri oxirida (TIChO)	44 54
6	Tayyor mahsulotlar zaxirasining o‘zgarishi -hisobot davrining boshida (TMB) -hisobot davrining oxirida (TMO)	104 120

Mebel firmasining hisobot davri uchun yalpi ishlab chiqarilgan qiymatini hisoblang.

Yechim:

$$\begin{aligned} \text{YaICh} &= R + I + B + N + \Delta\text{TICh} + \Delta\text{TM} = R(680) + I(20) + \\ &+ B(30) + N(4) + \Delta\text{TICh} (\text{TIChO}(54) - \text{TIChB}(44)) + \Delta\text{TM} \\ &[\text{TMO}(120) - \text{TMB}(104)] = 760 \end{aligned}$$

Mustaqil ishlab uchun masalalar

3.1-masala

Quyidagi jadvalda mashinasozlik korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari berilgan (joriy bahoda, mln so'm).

T/r	Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
1	Tayyor mahsulotlar, joriy yilda sotilgan	4300	6200
2	Kontragentga tuzilgan akt bo'yicha tovar berilgan, lekin kontragent olgan tovarining pulini to'la-magan	1200	550
3	To'liq tugallanmagan texnologik jarayon mahsuloti: -hisobot davrining boshlanishi; -hisobot davrining oxiri.	250 375	635 540
4	Barterga almashtirilgan mahsulot	175	105
5	Uskunalarni kapital ta'mirlash	125	200

1. Mashinasozlik korxonalarini bazis va joriy yillarda ishlab chiqargan yalpi mahsulotini hisoblang.

2. Yalpi ishlab chiqarish qiymatlarini bazis yilga nisbatan tarkibiy siljishini tahlil qiling.

3.2-masala

Kimyo sanoati korxonalarini joriy yil yakuniy ishlab chiqarish faoliyatining ma'lumotlari quyidagicha (bozor bahosida, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Sotilgan mineral o'g'itlar	5500
2. Barter uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar	120
3. Korxonaning yordamchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari	75
4. Omborga tushirilgan tayyor mahsulot	150
5. Stanoklarni kapital ta'mirlash xarajatlari	95
6. Imoratlarni joriy ta'mirlash xarajati	45
7. Korxonani sobiq ishchilariga arzonlashtirilgan narxlarda bergen mahsulotlari	0.5
8. Kelgusi yilga mo'ljallangan kapital ta'mirlashga olingan materiallar	25

1. Korxona yalpi ishlab chiqarish va shu jumladan, bozorga oid va bozorga oid bo‘limgan ishlab chiqarish qiymatlarini hisoblang.

2. Bozorga oid va bozorga oid bo‘limgan ishlab chiqarishlarni tarkibini tahlil qiling.

3.3-masala

Sanoat qurilishi korxonalarining materiallari quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlardan iborat (joriy baholarda, mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	Bazis yil	Joriy yil
1.Tayyor mahsulotlar sotishdan tushum	6400	8100
2.Tayyor mahsulotlarni haridorga molni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida yuborilgan mahsulot, lekin hali haridor pul o‘tkazmagan	1200	900
3.Barcha ishlov bosqichlaridan to‘la o‘tmagan mahsulotlar -hisobot davrining boshida; -hisobot davrining oxirida.	270 330	315 405
4.Barterga almashtirilgan mahsulot	970	330
5.Ish mashinalarini kapital ta’mirlash	380	740

1.Korxonani bazis va joriy yillarda yalpi ishlab chiqargan mahsulot qiymatini hisoblang.

2.Joriy yilda ishlab chiqargan YaICh tarkibini bazis yilga nisbatan o‘zgarishini tahlil qiling.

3.4-masala

Mashinasozlik korxonalarining joriy yildagi iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlari (bozor baholarda, mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1.Detal va uzellarni bozor baholarda sotish	730
2.Boshqa korxonaga material uchun barter qilingan mahsulot	120
3.Yordamchi xo‘jalikdan oshxonaga berilgan mahsulotlar	35
4.Zaxiraga jo‘natilgan tayyor mahsulotlar	200
5.Stanoklarni kapital ta’mirlash sarfi	120
6.Imoratlarni joriy ta’mirlash sarfi	90
7.Korxonalarning sobiq xizmatchilariga arzonlashtirilgan mahsulotlar sotish	0.2
8.Kapital ta’mirlash uchun sotib olingan materiallar	170

1. Korxonani yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotini hisoblang.
2. Bozorga oid va bozorga oid bo'l'magan ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot tarkibini tahlil qiling.

3.5-masala

Mineral ishlab chiqaruvchi korxonalarini quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlari, mln so'm

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Hisobot davrida ishlab chiqilgan mahsulotlarni sotishdan tushum	840
2. Oldingi hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot sotishdan tushum	360
3. Debitorlik qarz ko'payishi (ortishi)	44
4. Kreditorlik qarz ko'payishi (ortishi)	65

Hisobot davrida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot qiymatini hisoblang.

3.6-masala

Lak-bo'yoq materiallari ishlab chiqaruvchi korxona ish faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlarga ega (joriy baholarda, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Bazis yil	Hisobot yil
1.Tayyor mahsulot sotishdan tushum	140	230
2.Boshqa korxonaga ko'rsatgan xizmatidan tushgan tushum	60	90
3.Barter uchun ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot	12	18
4.Korxona shohobchalarini o'zaro bir-biriga bergen yarim fabrikat mahsulotlar	30	45
5.Korxona xizmatchilarga ish haqiga berilgan mahsulotlar	2	3
6.Tugallanmagan ishlab chiqarishlar: - hisobot davrining boshida; - hisobot davrining oxirida.	8 12	20 32
7.Tayyor mahsulotlarning zaxirasi: - hisobot davrining boshida; - hisobot davrining oxirida.	80 70	110 140

1. Lak-bo‘yoq materiallar ishlab chiqaruvchi korxonaning hisobot davrida ishlab chiqqan yalpi mahsulot qiymatini hisoblang.

2. Yalpi ishlab chiqarish qiymati tarkibini va bazis davrga nisbatan o‘zgarishini tahlil qiling.

3.7-masala

Qurilish birlashmasini joriy yil ish faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma’lumotlarga ega, mln so‘m.

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1.Tugallangan va ishga tushgan qurilish obyekti	6740
2.Imoratni kapital ta’mirlash ishi	120
3.Qurilishi tugallanmagan obyektlar: - yil boshida; - yil oxirida.	60 240

Qurilish birlashmasini joriy yilda bajargan qurilish ishlari qiymatini hisoblang.

3.8-masala

Hududuy qurilish tashkilotlarini hisobot davridagi ish faoliyatini ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar (joriy bahoda, mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1. Pudratchi tashkilotlarni qurish-montaj ishlarining xizmat haqi	6250
2. Tugallangan, ishga tushgan qurilish obyekti, shu jumladan, o‘rnatilgan qurilma-uskunalarining qiymati	7750 2750
3. Pudratchi tashkilotlarni imorat va inshootlarni joriy ta’-mirlash xizmatlari	140
4. Irrigatsiya va melioratsiya ishlari xizmatlari	45
5. Tugallanmagan qurilish: - yil boshida; - yil oxirida.	30 70
6. Asosiy vositalarni kapital ta’mirlash	125
7. Korxona va tashkilotlarning xo‘jalik asosida qurgan yangi qurilishlari	140
8. Korxona va tashkilotlarning xo‘jalik asosidagi kapital ta’mirlash ishlari	210
9. Aholini o‘z turar-joylarini kapital ta’mirlash ishlari	305

- 1.Qurilish ishlarining yalpi xizmatini hisoblang.
- 2.Qurilish yalpi xizmatlar tarkibini tahlil qiling.

3.9-masala

Hududiy qurilish tashkilotlarining ish faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar (joriy bahoda, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Bazis yil	Hisobot yili
1.Bajarilgan qurilish-montaj ishlari	9500	11400
2.Geologiya-qidiruv va qazish bajarilgan ishlari	4500	6100
3.Bajarilgan loyixa-qidiruv ishlari	2100	2500
4.Imoratni kapital ta'mirlash	95	125
5.Tugallanmagan qurilish ishlarining o'zgarishi	-25	10

1. Qurilish tarmog'i ko'rsatgan yalpi xizmatlar qiymatini hisoblang.

2. Hisobot davrida bajarilgan qurilish ishlarini tarkibiy o'zgarishlar va ularni bazis yilga nisbatan o'zgarishini tahlil qiling.

3.10-masala

Hududiy tijorat banklarining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar, mln so'm.

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1.Tijorat banklar tomonidan qarz va kredit bergenligi uchun olingan foiz daromadlar	650
2.Investitsiya jarayonlariga jalb etib, olingan foizlar	140
3.Tijorat banklarning aholidan olgan depozitlariga to'lagan foizlari	455
4.Boshqa olingan majburiyatga to'langan foiz	10
5.Bankka tegishli kapitaldan berilgan kreditdan olingan daromad, foiz	125
6.Bankni mijozlarga ko'rsatgan xizmatlaridan olgan tushum	25
7.Milliy valutalarni sotish kurslari farqidan olingan daromad	135

1. Shartli moliyaviy vositachilik xizmatlar qiymatini hisoblang.

2. Tijorat banklar ko'rsatgan yalpi xizmatni hisoblang.

3.11-masala

Hududiy tijorat banklari iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi ma'lumotlar mavjud (bozor bahosida, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Kredit bergani uchun olingan foiz daromad: - o'tgan yil uchun - hisobot davri uchun	94 176
2. Boshqa investitsiyalarni jalb qilishdan olingan daromad: - o'tgan yil uchun - hisobot davri uchun	14 36
3. Jalb qilingan depozitlarga berilgan foiz daromadlar: - o'tgan yil uchun - hisobot davri uchun	66 124
4. Boshqa majburiyatlar uchun to'langan foizlar: - o'tgan yil uchun - hisobot davri uchun	15 35
5. Bankning xususiy kapitalidan berilgan kreditdan foiz daromadlar: - o'tgan yil uchun - hisobot davri uchun	40 120
6. Bank mijozlariga ko'rsatgan maslahat-xizmatlardan tushum	55
7. Bank operatsiyalari xizmatlari haqi	45
8. Milliy valutalarini sotish kurslari farqidan olingan daromadlar	75

1. Shartli moliyaviy vositachilik xizmatlari qiymatini hisoblang.

2. Hududiy tijorat banklarining yalpi ko'rsatgan xizmatlari qiymatini hisoblang.

3.12-masala

Hududiy kredit tashkilotining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi ma'lumotlar mavjud (bozor bahosida, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Kredit tashkilotlari tomonidan berilgan qarz va kredit uchun olingan foiz daromad, shu jumladan, banklararo olingan kreditlardan olingan foizlar	785 80
2. Erkin moliyaviy resurslar jalb qilganligi uchun to'langan foizlar	490
3. Qimmatbaho buyumlarni saqlashdan olingan daromad	55
4. Bank operatsiya schyotlarini boshqarish xizmatlari haqi	120

Kredit tashkilotini ko'rsatgan yalpi xizmatlar qiymatini hisoblang.

3.13-masala

Sug'urta kompaniyasining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar mavjud (mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Mijozlarni sug'urta kompaniyasiga to'lagan sug'urta badallari	480
2. Sug'urta kompaniyasi tomonidan to'langan sug'urta qoplanmasi	336
3. Sug'urta texnik rezervlarining o'zgarishi	45
4. Sug'urta badallariga investitsiyani jalb qilishdan olingan daromad	32
5. Sug'urta kompaniyasini xususiy kapitalini investitsiyaga jalb qilishdan olingan daromad	65
6. Mijozlarni ko'rgan zararini aniqlash va hujjatlashtirish xizmat-laridan olingan daromad	25

1. Shartli moliyaviy vositachilik xizmatlari qiymatini hisoblang.

2. Sug'urta kompaniyasi hisobot yil uchun ko'rsatgan yalpi xizmatlar qiymatini hisoblang.

3.14-masala

Sug'urta tashkilotini iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar mavjud (bozor bahosida, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Sug'urta kompaniyalarga to'langan barcha sug'urta badallari	380
2. Sug'urta kompaniyalarini barcha sug'urta turlarini to'lagan su-g'urta qoplanmasi	266
3. Sug'urta rezervlarini investitsiyaga jalb qilishdan olingan sof daromad	75
4. Sug'urta kompaniyasi texnik rezervining o'zgarishi	34

1. Yalpi sug'urta xizmatlar qiymatini hisoblang va uni tarkibini aniqlang.

3.15-masala

Davlat boshqaruv organlari (DBO) sektorini iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar mavjud, mln so'm.

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Oraliq iste'moli uchun sotib olingan tovarlar va xizmatlar	280
2. Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	620
3. Asosiy fondlar (kapital) iste'moli	160
4. Sof ishlab chiqarish solig'i	85
5. Ko'rsatgan pulli xizmatdan tushum	40

1. DBO sektori ko'rsatgan yalpi xizmat qiymatini hisoblang.
2. Pulli yalpi xizmatning ulushini hisoblang.

3.16-masala

O'rmon xo'jaligini iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar mavjud, mln so'm.

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1.O'rmondagi daraxtlar parvarishi xarajatlari	12
2.O'rmonga ko'chatlar ekish xarajatlari	6
3.Asosiy fond iste'moli	7

O'rmon xo'jaligi yalpi ishlab chiqarish qiymatini hisoblang.

3.17-masala

Transport korxonalarining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar mavjud (bozor bahosida, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Yuklarni tashishdan olingan daromadlar	7600
2. Yo'lovchilar va ularni yuklarini tashishdan olingan daromad	6600
3. Qo'l yuki va yuklarni omborda saqlashdan tushum	3
4. Ombor, yer va imoratlarning ijara haqlari	600
5. Yo'lovchilarga ko'rsatgan xizmatlari uchun komission yig'im	35
6. Yuklash va tushirish ishlaridan olingan daromad	80
7. Yo'lovchilar va ularning bagajlarini sug'urta qilishdan olingan daromad	60
8. Mahsulotga soliq	300
9. Mahsulotga berilgan subsidiya	120

Transport korxonalarini yalpi ishlab chiqarish qiymatini asosiy va ishlab chiqaruvchi baholarda hisoblang.

3.18-masala

Qishloq xo‘jalik tarmog‘ini iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma’lumotlar mavjud (bozor bahosida, mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1. Qishloq xo‘jalik ekinlaridan yig‘ilgan yalpi hosil	6500
2. Yosh meva va tokzorni parvarishlash xarajatlari	210
3. Sotilgan chorva mahsulotlari	5100
4. Chorva mollarini boqish (og‘irlilikning oshishi va yangi tug‘ilgan har bir boshga) daromadi	7200
5. Tugallanmagan ishlab chiqarishlar natijalarining o‘zgarishi (deh-qonchilik)	
- hisobot davri boshi	450
- hisobot davri oxiri	520
6. Tugallanmagan chorvachilik ishlab chiqarishi:	
- hisobot davri boshi	340
- hisobot davri oxiri	470

Qishloq xo‘jalik tarmog‘ini yalpi ishlab chiqarish qiymatini hisoblang va tarkibini tahlil qiling.

3.19-masala

Quyidagi ma’lumotlar asosida uy-joy xo‘jaligi tarmog‘iga yalpi ko‘rsatilgan xizmatni hisoblang.

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1. Davlat ixtiyoridagi uy-joy fondlarini ushlab turish xarajatlari	42
2. Xonodon haqi	56
3. Korxona va tashkilotlarga qarashli uy-joy fondi	38
4. Aholiga qarashli uy-joy fondlari, ming kv metr	760
5. Uy-joy fondidan ijara beriladigan uy-joy, ming kv.m.	30
6. Ijaraga beriladigan xonodon haqi 1 kv.m.so‘m	20

Uy-joy xo‘jalik tarmog‘ini yalpi ko‘rsatgan qiymatini hisoblang.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar

1. МНТ schyotlari klassifikatsiyasi qanday?
2. Joriy schyotlari qaysi schyotlardan iborat?
3. Jamg‘arma schyotlari qaysi schyotlarni o‘z ichiga oladi?
4. Tarmoqlar bo‘yicha schyotlar qaysi schyotlar asosida tuziladi?

Adabiyotlar

1. Система национальных счётов 1993. Издание ООН, 1998г. – 17-72.
2. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./ Под ред. Ю.Н.Иванова. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – С. 90-113.
3. Подмогильная В. Система национальных счетов: Учебно-практическое пособие. – Москва: РАГС, 2010. – 238 с.
4. Кремлев Н.Д. Система национальных счетов: Учебное пособие. – Курган: Курганстат, 2009. – С. 145-154.
5. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов: Учебное пособие для вузов. – Москва: Финансы и статистика, 2006. – 272 с.
6. Елесеева И., Силаева С., Щирина А. Практикум по макроэкономической статистике. – М.: Проспект, 2008. – С. 6-22.
7. Махмудов Б. Миллий ҳисобчилик асослари./Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2003. – Б. 74-76.
8. Qoraboyev A.R. Milliy hisoblar tizimi fanidan masalalar to’plami. O’quv uslubiy qo’llanma. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – В. 22-45.
9. А.Абдуғаффоров, М.Зокирова, А.Қорабоев. Миллий ҳисоблар тизими. Тошкент “Молия” 2002. Б.80

IV mavzu. IQTISODIY FAOLIYATNI NATIJAVIY KO'RSATKICHLARINI HISOBGA OLİSH VA HISOBLASH USULLARI

4.1. Ma'ruza mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi

O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<p>1. Iqtisodiy faoliyat haqida tushuncha.</p> <p>2. Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ularni hisobga olish.</p> <p>2.1. Mikrodarajada iqtisodiy faoliyat natijaviy ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usullari.</p> <p>2.2. Makrodarajadagi iqtisodiy faoliyat natijaviy ko'rsatkichlarini hisobga olish, hisoblash usullari.</p> <p>3. Mikrodarajadagi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlaridan makroiqtisodiy tahlilda foydalanish.</p>
<p>O'quv mashg'ulotining maqsadi: Tarmoq va sektorlarda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari: yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'mol xarajatlari, yalpi qo'shilgan qiymat, yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlarini hisoblash usullarini o'rGANISH va ko'nikmalar hosil qilish.</p>	
Pedagogik vazifalar:	<p><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Iqtisodiy faoliyat va uning turlari haqida tushuncha berish. • Ishlab chiqarish , xizmat ko'rsatish va ularni hisobga olishni tushuntirish. • Tarmoq va sektorlarda yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'mol xarajatlari, yalpi qo'shilgan qiymatni hisoblashning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish. • Yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlarini hisoblash usullarini o'rgatish.
O'qitishning uslubi	Ma'ruza, aqliy hujum, blits-so'rov.
O'qitishning shakli	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
O'quv vositalari	Ma'ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari.
O'qitish shartlari	Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlardan ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki savollar, o'quv vazifalari, test savollari, mustaqil ishlar.

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik kartasi

Bosqich-lar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
1-bosqich Kirish	1.1. Mavzuni, uning maqsadi o‘quv mashg‘ulotlardan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.	Eshitadi, yozib oladi
2-bosqich. Asosiy	<p>2.1.Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o‘tkazadi:</p> <p>1.Bozor va bozorga oid bo‘lmagan (nobozor) ishlab chiqaruvchilar deganda nimani tushunasiz?</p> <p>2.Bozor uchun ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?</p> <p>3.Bozorga oid bo‘lmagan ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz?</p> <p>4.Iqtisodiy ishlab chiqarish nima?</p> <p>5.Ishlab chiqarish deganda nimani tushunasiz.</p> <p>6.Ishlab chiqarish chegarasi deganda nimani tushunasiz.</p> <p>7.Oraliq iste’mol, tovar, xizmat, qo‘shilgan qiymat deganda nimani tushunasiz.</p> <p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi.</p> <p>Ishlab chiqarish va uni chegarasini, iqtisodiyot tarmoqlarida yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste’moli tarkibini aniq ma’lumotlar bilan bayon etadi.</p> <p>2.3. Taqdimotda beriladigan misollar orqali ishlab chiqarish schyoti mohiyati tushuntirib beriladi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga, ishlab chiqarish schyotining ko‘rsatkichlariga diqqat qilishlarini va yozib olishlarini ta’kidlaydi.</p>	<p>2.1.Eshitadi, navbat bilan bir-birini takrorlamay savollar javobini bilib oladi, o‘ylaydi va yozib oladi.</p> <p>2.2. Sxema va jadvallar mazmuni muhokama qilinadi.</p> <p>2.3. Ta’riflarni yod oladi va eslab qoladi.</p> <p>2.4. Keltirilgan misollarni eslab qoladi va yozadi.</p>
3-bosqich yakuniy	3.1.Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e’tiborini asosiy masalalarga qaratadi, faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantiradi.	3.1.Eshitadi aniqlashtiradi
	3.2.Mustaqil ish uchun vazifani beradi: turli tarmoqlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash; iqtisodiyotda tarmoqlarni yalpi qo‘shilgan qiymat dinamikasini va tuzilmasidagi siljishlarni o‘rganish; iqtisodiy tarmoqlar, sektorlar va yaxlit iqtisodiyotni ishlab chiqarish schyoti tuzishni farqlari eslatib o‘tiladi.	3.2.Topshiriqni yozib oladi

Ma’ruzaning mazmuni bo‘yicha ko‘rgazmali slaydlar


Iqtisodiy ishlab chiqarish – ishlab chiqaruvchi birlik tomonidan, mehnat, sarmoya, yer, tovar va xizmat sarflash natijasida yangi boshqa turdag'i tovar yoki xizmatlarni yaratib, iste'molchiga (pulga yoki tekinga) etkazib berish jarayonidir.

Iqtisodiy ishlab chiqarish chegarasi

Yalpi ichki mahsulot va yalpi milliy daromad yaratuvchi barcha sohalar

- Tovarlar ishlab chiqarish shu jumladan o’zini iste’moli uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar.
- Iste’molchini talabi asosida ko’rsatilgan pulli xizmatlar
- Moliyaviy vositachilik faoliyati (banklar, sug’urta va boshqa moliya tashkilotlari)
- Mamlakat aholisiga nobozor xizmatlar ko’rsatish (mudofaa, militsiya, sud, ijtimoiy ta’minot, maorif, tibbiyot, madaniyat, san’at, axborot vositalari va h.k.). Ular aholi talabini qondirish maqsadida va mamlakat qoidalarida belgilangan tartibda individual yoki jamoa iste’moli uchun nobozor tovar va xizmatlarni ishlab chiqaradilar.
- Uy xo’jaligiga xizmat ko’rsatuvchi notijorat tashkilotlari tomonidan aholiga individual va jamoa iste’molini qondirish uchun ko’rsatilgan nobozor xizmatlar
- Yollanma ishchi xodimlarning ko’rsatgan xizmati (oshpaz, shofer, bog’bon va x.k)
- Uy-joy egalari uylarining holatini saqlash va yaxshilash bo'yicha yuritadigan faoliyati.
- Yashirin iqtisodiyot

4.1-rasm. Iqtisodiy ishlab chiqarish va uning chegarasi



4.2-rasm. MHTda iqtisodiy ishlab chiqarish chegarasi va xufyona iqtisodiyot

Yalpi ishlab chiqarish va uni hisoblash algoritmi

Yalpi ishlab chiqarish (YaICh) - iqtisodiy hududda ishlab chiqaruvchi rezident birliklari tomonidan hisobot davrida ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlar qiymati yig'indisidan iborat.

Farqlovchi xususiyatlari

Yalpi ishlab chiqarish (YaICh)

- bu, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri, ya'ni bu ko'rsatkich barcha
- ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati yig'indisidan iborat, shu sababli, bu ko'rsatkichning tarkibida ishlab chikarish davrida xarajat sifatida ishlatalgan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mollar) bor.
- bu ko'rsatkich xalqaro amaliyotda natijaviy ko'rsatkich deb e'tirof etilmasada, lekin YaIM va boshqa ko'rsatkichlarni hisoblashda boshlang'ich asosiy ko'rsatkich bo'lib hizmat qiladi.
- bu ko'rsatkich asosiy va ishlab chiqaruvchini bozor baholarida hisoblanadi.
- iqtisodiyotning tarmoqlar va sektorlarida YaICh ko'rsatkichini hisoblash usuli turlichadir.

Iqtisodiyotning YaIChni hisoblash algoritmi

1. $YaICh = YaICh_T + YaICh_X$


bunda **YaICh**, - iqtisodiyot bo'yicha ishlab chiqqan tovarlar qiymati;
YaICh_X, - iqtisodiyot bo'yicha ishlab chiqqan xizmatlar qiymati.

2. $YaICh = \Sigma ; YaICh_{tar} = YaICh_S$

bunda **YaICh_{tar}** – iqtisodiy tarmoqlarida yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichlar yig'indisi;
YaICh_S – iqtisodiy sektorda yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yig'indisi.


4.3-rasm. Yalpi ishlab chiqarish va uni hisoblash algoritmi

**Nomoliyaviy va moliyaviy korxonalar sektorlarining
YaIChni hisoblash algoritmi**




**4.4-rasm. Nomoliyaviy va moliyaviy korxonalar sektorining
YaIChni hisoblash algoritmi**

**Davlat boshqaruv idoralari, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi
notijorat tashkilotlari va uy xo'jaliklari sektorlarining
YaIChni hisoblash algoritmi**




4.5-rasm. Davlat boshqaruv idoralari, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar va uy xo'jaliklari sektorlarining YaIChni xisoblash algoritmi


Xizmatlar bu – istemolchi talabi asosida bajariladigan har xil iqtisodiy faoliyat natijasidir, ammo moddiy buyum shaklida bo’lmaydi.



4.6-rasm. Xizmatlar tasnifi



4.6-rasm. Xizmatlar tasnifi davomi



4.7-rasm. Davlat boshqaruv idoralarining iste'mol xarajatlari tasnifi

Ayrim tarmoqlarda yalpi ishlab chiqarish (YaICh)ning hajmlarini hisoblashdagi farqlovchi xususiyatlar

Yalpi ishlab chiqarish (YaICh)ni tarkibi va uning komponentlarining nisbati

Tovarlar ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot – korxonadagi ishlab chiqarishning barcha texnologik jarayoni o‘tib bo‘lgan hamda texnika nazorati bo‘limi tomonidan qabul qilingan mahsulotdir.

Yarim fabrikatlar – turli xil bosqichda ishlab chiqarish jarayoni butunlay tugatilib, shu bosqichda boshqa hech qanday ishlov berish kerak bo‘lmasigan, korxonaning keyingi o‘tkazilishi yoki chetga sotilishi mumkin bo‘lgan mahsulotdir.

Tugallanmagan ishlab chiqarish – barcha ishlov bosqichlaridan to‘liq o‘tib bo‘lmagan va texnika nazorati tomonidan tekshirib qabul qilinmagan mahsulotdir.

Tugallanmagan qurilish – quruvchilar tomonidan tugallangan va iste’molchi tomonidan qurilish ishlarining ayrim qismlariga to‘la haq to‘langan.

Xizmatlar ko‘rsatish

Pulli xizmatlar – iste’molchi talabi asosida bajariladigan pulli xizmatlardir, ya’ni uning bahosi eng kamida ishlab chiqarish sarf-xarajatining 50%dan iborat (transport xizmati, aloka, savdo, uy-joy communal va boshqalar).

Nobozor xizmatlar – mamlakat aholisiga nobozor xizmatlar ko‘rsatish (mudofaa, militsiya, sud, maorif, tibbiyot, ma’daniyat, san’at, axborot vositalari va boshqalar)dan iborat

Moliyaviy vositachilik (bilvosita) xizmatlari – banklar kredit bergenligi uchun olingan foizlar miqdoridan banklar tomonidan olingan resurslar uchun to‘langan foizlar miqdori.

Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish "xufyona va yashirin" iqtisodiyotda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish qonunda ruxsat berilgan, lekin davlat soliq organlaridan berkitiladi. Bundan maqsad, soliq, ijtimoiy ajratmalarni to‘lashdan, xavfsizlikni ta’minlashdan yashirinish.

4.8-rasm. Yalpi ishlab chiqarish (YaICh)ning tarkibi

Yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) — qiymat, u ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan (sarflangan) tovarlar va xizmatlar qiymatlariga qo'shilgan qismdir.



Farqlovchi xususiyatlari

- * YaQQ - ko'rsatkich, u iqtisodiy jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik birlikning natijasini xarakterlovchi ko'rsatkichdir
- * Ko'rsatkichda "yalpi" so'zini ishlatalishiga asosiy sabab, bu ko'rsatkichni hisoblaganda uni tarkibidagi asosiy fond iste'moli (AFI) ko'rsatkichi qo'shib hisoblangan
- * YaQQni kiymatlar ko'rinishidagi tarkibi, mehnat haqi, ishlab chiqarish sof solig'i, (ishlab chiqarish uchun to'langan soliqdan, ishlab chiqarishdan olingan subsidiyalarning ayirmasidan iborat) yalpi foyda va aralash daromadlardan iborat
- * MHTda YaQQ, asosiy baho va ishlab chiqaruvchini bozor bahosida baholanadi



Hisoblash algoritmi

$$YaQQ = YaICh_{A,b} - OI_{x,b}$$

Bunda: $YaICh_{A,b}$ - yalpi ishlab chiqarish asosiy bahoda;
 $OI_{x,b}$ - oraliq iste'mol xaridor bahosida;

$$yakki_{A,b} = yaich_{i,b} - Oi_{xb}$$

Bunda: $yaich_{i,b}$ — yalpi ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchi bahosida;

$$SQQ = YaQQ - AFI$$

Bunda: SQQ – sof qo'shilgan qiymat;
AFI - asosiy fondlar iste'moli

4.9-rasm. **Yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) va uni hisoblash algoritmi**

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) va uni hisoblash algoritmlari

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) - mamlakatda ma'lum davr oralig'ida ishlab chikarilgan pirovard (iste'molga tayyor) tovarlar va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymatidir, ya'ni rezidentlar tomonidan iqtisodiy hududda ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlarning bozor bahosidagi kiymatidir

Farqlovchi xususiyatlari

- * YaIM - eng asosiy makroiqtisodiy ko'rstkichdir. U mamlakatni ma'lum bir davrdagi iqtisodiy faoliyatlarini natijasini ifodalaydi. Hamda bu ko'rsatkich orqali mamlakatni ma'lum davrlarda rivojlanish barqarorligini va iqtisodiy o'sish sur'atini kuzatib borish imkonini beradi.
- * YaIM ko'rsatkichi jami ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatining yig'indisiga teng, ya'ni unda takror-takror hisobga olinuvchi tovar va xizmatlarning qiymati (oralik iste'moli yuq).
- * YaIM ko'rstkichi ichki iqtisodiyotga tegishli, sababi iqtisodiy hududda ishlab chiqarilgan va u mamlakat rezidentlari va norezidentlarining ishlab chiqarish faoliyati natijasidir.
- * YaIM ko'rsatkichida "yalpi" so'zining ishlatalishiga sabab, bu ko'rsatkichni hisoblaganda uning tarkibida asosiy fondlar iste'moli (AFI) ko'rsatkichi qo'shib hisoblanadi. Agar YaIM ko'rsatkichidan AFI ko'rsatkichini ayirsak, sof ichki mahsulot (SIM) ko'rsatkichi hosil bo'ladi.
- * YaIM ko'rsatkichi bozor baholarda hisoblanadi.

Hisoblash algoritmi

$$\begin{aligned} \text{YaIM} &= \text{YaICh-OI} \\ \text{SIM} &= \text{YaIM-AFI} \end{aligned}$$

Bunda: SIM - sof ichki mahsulot
AFI - asosiy fondlar iste'moli

4.10-rasm. Yalpi ichki mahsulot - MHTning markaziy makroiqtisodiy ko'rsatkichi

Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari

Ishlab chiqarish usuli

$$1. YaIM = \sum YAQQ_{A,T} + SN_M S_M \quad (1)$$

Bunda: $\sum YAQQ_{A,T}$ - iqtisodiyotning barcha tarmoqlar yoki sektorlaridagi qo'shilgan qiymatlar yig'indisi, asosiy bahoda; $SN_M S_M$ - mahsulot sof solig'i (N_m - mahsulot uchun soliqdan S_m - mahsulot uchun berilgan subsidiyaning ayirmasi).

$$YaIM = \sum YaQQ_{i,b} + SN_i S_i + QQS_{i,b} \quad (2)$$

Bunda: $\sum YaQQ_{i,b}$ - iqtisodiyotning barcha tarmoqlar yoki sektorlaridagi qo'shilgan qiymatlar yig'indisi, ishlab chiqaruvchining bozor bahosida;

SNISI- import sof solig'i (Ni-import uchun soliqdan S_i - import uchun berilgan subsidiyaning ayirmsiga teng); QQS - qushilgan qiymat solig'i.

$$YaIM = \sum YaQQ_{ab} - MVXX + SN_M S_M \quad (3)$$

Bunda: $\sum YaQQ_{ab}$ - tarmoqlar yoki sektorlarni yalpi qo'shilgan qiymatlar yig'indisi; MVXX - moliyaviy vositachilik xizmatlar haqi; $SN_M S_M$ - mahsulot sof solig'i.

$$YaIM = YaICh_{A,B} - OI + SN_M S_M \quad (4)$$

Bunda: $YaICh_{A,B}$ - iqtisodiyotni yalpi ishlab chiqarish qiymati asosiy bahoda; OI - iqtisodiyotning oraliq iste'moli, moliyaviy vositachilik xizmatlar haki qo'shilgan xolda.

$$YaIM = YaICh_{i,b} - PP + QQS + SN_i S_i \quad (5)$$

Bunda: $YaICh_{i,b}$ - iqtisodiyotni yalpi ishlab chiqarish qiymati ishlab chiqaruvchi bahosida; PP - iqtisodiyotning oraliq iste'moli, moliyaviy vositachilik xizmatlar haki qo'shilgan xolda; $SN_i S_i$ - import sof solig'i.

Xulosa: YaIMni ishlab chiqarish usuli asosida har bir tarmok, har bir sektorning YaIMga qo'shgan ulushini hisobga olish mumkin.

Taqsimlash usuli

$$YaIM = MH + SIIN + YaF + YaAD$$

Bunda:

MH - mehnat xaqi;

SIIN - ishlab chiqarish va import sof solig'i (ishlab chiqarish va import solig'idan ishlab chiqarish va import subsidiyasi ayirmsiga teng);

YaF - iqtisodiyotni yalpi foydasi;

YaAD - yalpi aralash daromad.

Xulosa: YaIMni taqsimlash usuli asosida uning tarkibini va daromadlarining tarkibini, hamda YaIMni yaratuvchi ishlab chiqarish omillari o'rtaida daromadlarning taqsimlanishini tahlil qilish mumkin.

Pirovard iste'mol usuli

$$YaIM = PI + YaJ + E - I$$

Bunda:

PI - iqtisodiyotni pirovard iste'moli;

YaJ - iqtisodiyotni yalpi jamg'armasi;


E - eksport;

I - import.

Xulosa: YaIMni pirovard iste'mol usuli asosida hisoblash iqtisodiy sektorlarning pirovard iste'moli tarkibini va iqtisodiyotning milliy boylik ko'rsatkichining o'sishini aniqlashga imkon beradi.

4.11-rasm. YaIMni hisoblash usullari

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibi - ishlab chiqarishni tashkil etuvchi komponentlarning nisbati, daromadlar manbai va ulardan foydalanish tarkibidir




4.12-rasm. Yalpi ichki mahsulotning tarkibi

Ishlab chiqarish schyoti sxemasi

Ishlab chiqarish schyoti – bu schyot moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlari (yalpi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, oraliq iste'moli, qo'shilgan qiymat) ning hosil bo'lislini ifodalaydi. Schyotning ko'rsatkichlari yordamida, yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usuli orqali hisoblash mumkin:

Iqtisodiy sektorlar va tarmoqlarning ishlab chiqarish schyoti		Iqtisodiyotning ishlab chiqarish schyoti	
Foydalanish	Resurslar	Foydalanish	Resurslar
2. Oraliq iste'moli 3. Yalpi qo'shilgan qiymat (T.3=T.1-T.2)	1. Tovarlar va xizmatlarni yalpi ishlab chiqarish, asosiy bahoda	5. Oraliq iste'moli 6. Yalpi ichki mahsulot, bozor bahosida (T.6=T.4-T.5)	1. Tovarlar va xizmatlarni yalpi ishlab chiqarish, asosiy bahoda 2. Mahsulot uchun soliq 3. Mahsulot uchun subsidiya (-) 4. Tovar va xizmatlarni yalpi ishlab chiqarish, bozor bahosida (T.4=T.1+T.2-T.3)
Jami: (T.2+T.3)	Jami: (T.1)	Jami: (T.4+T.5)	Jami: (T.4)



- * Ishlab chiqarish tarkibi va iqtisodiyotni tarkibiy siljishini tahlili.
- * Ishlab chiqarishga soliq yukini tahlili.
- * Ish unumdorligini tahlili.
- * Ishlab chiqarish samaradorlik tahlili.
- * Ishlab chiqarishga turli omillari ta'sirini o'rganish va uni tahlili.

4.13-rasm. Ishlab chiqarish schyoti

O‘quv materiallari

1. Ishlab chiqarish haqida tushuncha, uning chegarasi, bozorga oid va nobozor ishlab chiqarish

MHTda ishlab chiqarish chegarasi XXB tizimiga nisbatan kengroq ma’noda tushuniladi. Ishlab chiqarish deganda, ishlab chiqaruvchi birlik tomonidan mehnat, mablag‘, tovar va xizmat sarflash natijasida boshqa turdag'i tovar va xizmatlar yaratib iste'molchiga (pul yoki tovar evaziga (barter) yoki bepul) yetkazib berish jarayoni tushuniladi. MHTda ishlab chiqarish chegarasi iqtisodiy faoliyatga nisbatan tor ma'noga ega bo'lib, unga quyidagilar kiritiladi:

- bozorda sotishga mo'ljallangan yoki boshqa usullar bilan o'zga institutsional birliklarga o'tishi ko'zda tutilgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish;
- ishlab chiqaruvchi tomonidan o'zining pirovard iste'moli uchun yoki jamg'arish uchun qoldiriladigan tovarlarni ishlab chiqarish;
- shaxsiy yakuniy iste'moli uchun uy xizmatkorlari tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar.

MHT 1993-yildagi andozasida pinxoniy iqtisodiyot sohasida ishlab chiqarilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati, bundan tashqari, o'z uyida istiqomat qilganligi uchun to'lanadigan "shartli ijara xizmati" qiymati ham ishlab chiqarish chegarasiga kiritiladi va MHTning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlashda hisobga olinadi.

Xarakteri iqtisodiy faoliyat nuqtai nazaridan ma'noga ega bo'lмаган jarayonlar iqtisodiy ishlab chiqarish hisoblanmaydi, ya'ni:

- inson ishtirokisiz tabiiy jarayonlar natijasida ne'matlarning ko'payishi;
- insonning o'zidan o'zga bajara olmaydigan faoliyatlar (ovqat yejish, uqlash, o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish va hokazolar.)

Bunday ne'matlар va xizmatlarga quyidagilar kiradi: dengiz, tabiiy ko'llardagi baliqlar, tog'da o'sgan dori-darmon o'tlar, yong'oqlar, uyda ovqat tayyorlash, bolalarni tarbiyalash, uyjogni ta'mirlash xizmatlari va boshqalar.

Iqtisodiy ishlab chiqarish bozor va nobozor ishlab chiqarishga bo‘linadi. Agar mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish bozorda bozor baholarida, ya’ni talab va taklif natijasida shakllangan baholarda sotishga mo‘ljallangan bo‘lsa, bunday ishlab chiqarsh – *bozorga oid ishlab chiqarishdir* (bozor ishlab chiqarish). Bozorga oid ishlab chiqarishdan maqsad – ishlab chiqaruvchi tomonidan daromad olishdir. Bozorga oid ishlab chiqarishga quyidagilar kiradi:

- 1) bozor bahosida sotilgan mahsulot va xizmatlar;
- 2) barter yo‘li bilan almashtirilgan tovarlar va xizmatlar;
- 3) korxona o‘z xizmatchilariga ish haqi sifatida bergen natura ko‘rinishidagi mahsulot va xizmatlar;
- 4) korxona muassasalarining o‘zaro bir-biriga bergen mahsulot va xizmatlar qiymati;
- 5) sotishga mo‘ljallangan tayyor mahsulotlarni hisobot davridagi zahirasining o‘zgarishi;
- 6) hisobot davrida tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi.

Agar ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar tekinga berilsa, yoki bozor bahosidan past, ya’ni “ijtimoiy yo‘naltirilgan” baholarda sotilsa, bunday ishlab chiqarish – *nobozor ishlab chiqarish* deyiladi. Nobozor ishlab chiqarishga quyidagilar kiradi:

- 1) o‘zining pirovard iste’moli va asosiy fondlarni yalpi jamg‘armasi uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati;
- 2) boshqa institutsional birliklar uchun bepul yoki tannarxidan past qiymatda berilgan mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlar;
- 3) o‘z uyida istiqomat qilgani uchun “shartli ijara xizmati”ning qiymati.

Nobozor ishlab chiarishga kirdigan xizmatlar individual va jamoa xizmatlar ko‘rinishida bo‘ladi. Individual xizmatlar alohida institutsional birliklar tomonidan iste’mol qilinadi, masalan, maorif, meditsina, aloqa, maishiy xizmatlar. Jamoa xizmatlar butun jamiyatga yoki institutsional birliklar guruhibiga ko‘rsatiladi: modofaa, boshqaruv, atrof-muhit muhofazasi va boshqalar.

2. Yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste'mol, yalpi qo'shilgan va sof qo'shilgan qiymat hajmini hisoblash

Ishlab chiqarish schyoti MHTda markaziy o'rinni egallaydi. Bu schyot iqtisodiy siklning ishlab chiqarish bosqichiga tegishli bo'lib, daromadlarning hosil bo'lishi va taqsimlanishi, iste'moli va jamg'arilishi bosqichlarining asosi hisoblanadi. Faqatgina ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat natijasi taqsimlanishi va iste'mol qilinishi mumkin. Shuning uchun YaIMni ishlab chiqarish usulida hisoblash MHTning asosi hisoblanadi. Ishlab chiqarish schyoti tarmoqlar bo'yicha, sektorlar va yahlit iqtisodiyot bo'yicha tuziladi. Bu schyotni tuzishdan maqsad iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi, tarmoqlar va sektorlar tarkibiga kiruvchi birliklarning xarajatlari va faoliyat natijalarini aks ettirishdir. Ishlab chiqarish schyotining asosiy unsurlari bo'lib, ishlab chiqarish, oraliq iste'moli va asosiy kapital iste'moli hisoblanadi.

Ishlab chiqarish schyoti resurslar hamda foydalanish qismidan iborat. Ishlab chiqarish schyotining resurs qismi o'z ichiga mahsulot va xizmatlarni yalpi ishlab chiqarish (YaMX), mahsulotlarga sof soliq, importga sof soliq ko'rsatkichlarini oladi. Ishlab chiqarish schyotining foydalanish qismi oraliq iste'moli va hisobning balanslashtiruvchi moddasi – bozor narxlaridagi yalpi ichki mahsulotdan yoki yalpi qo'shilgan qiymatdan iboratdir.

Foydalanish	Resurslar
5. Oraliq iste'moli 6. Bozor bahosidagi yalpi ichki mahsulot yoki yalpi qo'shilgan qiymat	1. <i>Yalpi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish (YaMX, asosiy bahoda)</i> 2. <i>Mahsulot sof solig'i</i> 3. <i>Import sof solig'i</i> 4. <i>YaMX – bozor bahosida</i>
Jami: 5+6	Jami: 4

1-rasm. Ishlab chiqarish schyoti sxemasi

YaMX ko'rsatkichi rezidentlarning ish faoliyati natijasida ishlab chiqarilgan bozorga oid va nobozor mahsulotlar va xizmatlarning pul ko'rinishidagi qiymatidir.

I. Yalpi mahsulotlarga quyidagilar kiradi:

1. Realizatsiya qilingan mahsulotlar (R)

2.Tugallanmagan ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi (Δ TICh)

3.Korxonalar o‘z extiyojlari uchun ishlab chiqargan mahsulotlari, (K.M.)

4.Qurilish maqsadlari uchun ishlataladigan mahsulotlar, (+.M.)

5.Barter uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar, (B)

6.Zahiradagi tayyor mahsulotlar miqdorining o‘zgarishi; (Δ TZ)

7.Uy xo‘jaliklarining o‘z iste’moli uchun ishlab chiqargan qishloq xo‘jalik mahsulotlari (vino, pivo, musallas, o‘simplik yog‘i va hokazo.

8.Yashirincha ishlab chiqarilgan mahsulotlar (Ya).

II. Yalpi mahsulot va xizmatlar 2 xil bo‘ladi:

1.Pulli xizmatlar

2.Nobozor xizmatlar.

Nobozor xizmatlar quyidagi xarajatlarning yig‘indisidan iborat:

- mehnat haqi
- oraliq iste’mol xarajatlari(OI)
- asosiy kapital iste’moli(AKI)
- ishlab chiqarish va import soliqlari.

Yalpi mahsulot va xizmatlar asosan quyidagicha baholanadi:

1.Asosiy baho (mehnat haqi + oraliq iste’moli + yalpi foyda + ishlab chiqarish sof solig‘i).

2.Ishlab chiqaruvchi bahosi (mehnat haqi+oraliq iste’moli + yalpi foyda + ishlab chiqarish sof solig‘i + mahsulot sof solig‘i).

3.Bozor bahosi yoki haridor bahosi (mehnat haqi + oraliq iste’moli + yalpi foyda + ishlab chiqarish sof solig‘i + mahsulot sof solig‘i + transport va savdo ustamasi).

Oraliq iste’moli. Biron buyumni yasash yoki boror xizmatni bajarish uchun muayyan sarf-xarajatlar qilish zarur. Bunda mehnat, xomashyo va mehnat qurollari kerak bo‘ladi. Bulardan ishlab chiqarish xarajati sifatida to‘liq iste’mol qilingan tovar va xizmatlar qiymati oraliq iste’molni tashkil qiladi.

Oraliq iste’moli quyidagi asosiy elementlardan iborat:

1) material xarajatlar;

- 2) nomoddiy xizmatlar haqi;
- 3) safar xarajatlari (kundalik xarajatdan tashqari)
- 4) boshqa oraliq iste'mol elementlari.

1. Material xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- xomashyo elementlari;
- ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan materiallar;
- yoqilg'i, barcha turlari;
- energiya, barcha turlari;
- ishlab chiqarish jarayonida boshqa korxonalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlari qiymati;
- korxonalarga mahsulotlarni tashish uchun sarf etilgan transport xarajatlari;
- hisoblash markazlarining xizmatlari;
- qadoqlash materiallari xarajatlari;
- mehmonxona, restoran, kafelarga sotib olingan oziq-ovqat mahsulotlari, tamaki mahsulotlari;
- mudofaa vazirligini qurollantirish uchun qilingan xarajatlar;
- armiyani kiyintirish va ovqatlantirish xarajatlari;
- aholi turar-joylarining joriy ta'mirlash xarajatlari uchun sotib olingan materiallar qiymati;
- mahsulotlarni sotish xarajatlari;
- kafolat ishlari uchun ta'mirlash va xizmat qilish xarajatlari;
- laboratoriyalarni ishchi holatda ushlab turish xarajatlari;
- mehmonlarni kutib olish va shaharni sayr qildirish xarajatlari;
- ishchilarni uydan ishxonaga olib kelish uchun transport xarajatlari (agarda korxona jamoa transportidan uzoqda joylashgan bo'lsa).
- ishchilarni mutaxassislikka tayyorlash xarajatlari.

2. Nomoddiy xizmatlar haqiga quyidagilar kiradi:

- mahsulot sifatini nazorat qilish haqi;
- ilmiy va tajriba xarajatlari haqi;
- malakali ishchilarni tayyorlash uchun o'quv yurtlariga to'lanadigan haq;
- imorat, mashina va asbob uskunalarni ijarasi uchun to'lanadigan haq;

- kommunal xizmatlar haqi;
- kredit uchun to‘lanadigan xaq;
- reklama uchun to‘lanadigan xaq;
- o‘t o‘chiruvchilar va qorovul uchun to‘lanadigan haq;
- yuridik xizmatlar haqi.

3. Safar xarajatlari:

- yo‘l xarajati
- mehmonxona xarajatlari (kundalik ovqatlanish xarajatlari kiritilmaydi).

Oraliq iste’moliga quyidagi xarajatlar kirmaydi:

-kapital ta’mirlash (imorat, mashina); bu xarajatlar asosiy fondlar jamg‘armasiga kiradi.

-xonadonni joriy ta’mirlash (bo‘yoq, oboy va boshqa materiallar); agarda uyni egasi bajarsa, bu xarajatlar uy xo‘jaligining pirovard iste’moliga kiradi;

-korxonaning o‘z xizmatchilariga ish haqi o‘rniga natura holatda beriladigan mahsulot va xizmatlar qiymati;

-xizmatchilarni uydan ish joyiga olib borish xarajatlari; bu xarajatlar uy xo‘jaligining pirovard iste’moliga kiradi;

-natura holida beriladigan ijtimoiy nafaqalar, bular joriy transfertlar, bular uy xo‘jaligining pirovard iste’moliga kiritiladi;

-yerdan foydalanish uchun to‘lov, bu mulkdan olingan daromadga kiritiladi;

-ijtimoiy-madaniy soha uchun xarajatlar, bu joriy transfert va uy xo‘jaligining pirovard iste’moliga kiritiladi;

-davlat tomonidan rezervga olingan tovarlar.

Oraliq iste’moli sotib olingan mahsulotlar va xizmatlarning sotuvchi bahosida, agarda korxona o‘zi ishlab chiqargan bo‘lsa, haqiqiy tannarxda baholanadi.

Qo‘shilgan qiymat – yaratilgan boylikdir. *Yalpi qo‘shilgan qiymat* – ishlab chiqarish faoliyatidan olingan daromadlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, ishlab chiqarishda qatnashgan ishtirokchilarga tegishlidir:

Yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) institutsional sektorlar yoki tarmoqlar miqyosida ishlab chiqarish schyotining balanslan-tiruvchi moddasi bo‘lib hisoblanadi. Yalpi qo‘shilgan qiymat ishlab chiqarilgan qiymatdan oraliq iste’mol qiymatini ayirib

tashlash natijasida hosil bo‘ladi va u birlamchi daromadlar yig‘indisini aks ettiradi. Yalpi qo‘shilgan qiymat asosiy bahoda baholanadi.

Yahlit iqtisodiyot uchun ishlab chiqarish schyotining muvoza-natlashtiruvchi moddasi YaIM bo‘lib, uni aniqlash uchun mahsulot va xizmatlarni yalpi ishlab chiqarish ko‘rsatkichiga mahsulot va import sof solig‘i qo‘shiladi va oraliq iste’moli ayriladi.

Mahsulot va import sof solig‘ini aniqlash uchun mahsulot va import solig‘idan mahsulot va importga berilgan subsidiya ayriladi.

Asosiy kapitalning iste’moli – hisobot davrida asosiy kapitalning eskirish natijasini hisobga oluvchi qiymati. Uning miqdori asosiy kapitalning eskirishini tiklashga ketadigan xarajat miqdorida hisoblanadi.

Asosiy kapital iste’moli 3 qismdan iborat:

- tiklash (amortizatsiya) ajratmalari;
- muddatdan oldin ro‘yxatdan chiqarilgan asosiy fondlar iste’moli;
- qoramolni majburiy so‘yishdagi balans qiymati va go‘shtning qiymati orasidagi farq.

Shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, amortizatsiya bu – buxgalteriya ko‘rsatkichi bo‘lib, uni hisoblashda asosiy fondlarning boshlang‘ich balans qiymati asos qilib olinadi. MHTda asosiy kapitalning iste’moli kapital yemirilishi yig‘indisini ifodalab, qayta tiklash qiymatida baholanadi. Asosiy kapitalning iste’molini baholashda MHT metodologiyasi talabiga ko‘ra, “uzluksiz inventarizatsiyalash usuli” qo‘llanilib, bu asosan statistika qo‘mitasi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Asosiy kapital iste’molini baholashda vujudga keladigan qiyinchiliklar, makromiqyosda asosan, “yalpi” ko‘rsatkichlar hisobini olib borishga sabab bo‘ladi.

3. Iqtisodiyotning tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasi sektorlarida yalpi ishlab chiqarish hajmini hisoblash xususiyatlari

Mahsulot va xizmatlarni yalpi ishlab chiqarish ko‘rsatkichi sektorlar va tarmoqlar bo‘yicha hisoblashning o‘ziga xos xususi-

yatlariga ega. Quyida sektorlar bo'yicha YaMXni hisoblash usullarini ko'rib chiqamiz. Nomoliyaviy korxonalarini yalpi mahsuloti quyidagi tenglama orqali hisoblanadi:

$$P = R + S \quad (1)$$

Bunda: P - yalpi mahsulot;

R -realizatsiya qilingan mahsulot qiymati;

S -tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarish zahirasining o'zgarishi.

Zahirani o'zgarishi quyidagi tenglama orqali hisoblanadi:

$$S = S_1 - S_0 \quad (2)$$

S_1 - hisob davri oxiridagi zahira qiymati.

S_0 - hisob davri boshidagi zahira qiymati.

Yalpi mahsulot va xizmat qiymatini baholashda realizatsiya qilingan davrdagi baho emas ishlab chiqarilgan davrdagi baho olinadi. Inflyatsiya holatida zahiraning o'zgarishi quyidagi tenglama orqali hisoblash tavsiya etiladi:

$$S = L - M \quad (3)$$

L – tovarning zahiraga yuborilayotgan davrdagi qiymati. U mahsulot ishlab chiqarilgan davridagi baho bilan baholangan.

M – tovarki zahiradan olinayotgan davrdagi qiymati.

Faraz qilaylik, korxona 100 dona mahsulot ishlab chiqardi. Bu vaqtida har bir dona mahsulotning bahosi 5 so'mdan bo'lgan. Bu davrda mahsulot realizatsiya qilinmadni va tayyor mahsulotlar omboriga tushirildi. Ma'lum vaqtidan so'ng har bir donasi 10 so'mdan realizatsiya qilindi. Bunda yalpi mahsulot qiymati 1000 so'mga teng bo'ladi (100×10).

Ushbu ma'lumotlar asosida zahira qiymatining o'zgarishini (3-formula bo'yicha) va yalpi mahsulot qiymatini hisoblaymiz (1-formula bo'yicha):

$$S = 500 - 1000 = -500 \quad (4)$$

$$P = 1000 + (500 - 1000) = 500 \quad (5)$$

Bunda 500 so'm xolding foydasini hosil qiladi.

1-formula bo'yicha davlat boshqaruvi organlari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan nobozor xizmatlar qiymatini hisoblash uchun tavsif etilmaydi. Bu sektorlar bo'yicha yalpi mahsulot va xizmatlarni hisoblash qo'yidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

YaMX = Oraliq iste'moli uchun sotib olingan tovar va xizmatlar qiymati + mehnat haqi + boshqa ishlab chiqarish solig'i + asosiy fondlar iste'moli (amortizatsiya)

Ayrim nobozor xizmatlar uchun aholi tomonidan qisman xaq to'lanadi. Bunga bog'cha xizmatlari misol bo'ladi. U holda yalpi mahsulot va xizmatlar qiymati jami xarajatlar yig'indisidan to'langan xizmat haqining ayirmasiga teng bo'ladi.

Moliyaviy korxonalarning yalpi mahsulot va xizmatlari qiymatini hisoblash ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, quyida bu usullarni ko'rib chiqamiz.

Banklarning yalpi xizmatlari qiymati quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$P = (T_1 - T_0) + X \quad (6)$$

Bu yerda T_1 – banklar tomonidan olinadigan foiz ko'rinishidagi daromad;

T_0 – bank tomonidan jalg qilingan moliya resurslari uchun to'lanadigan foiz;

X – moliya korxonalari tomonidan turli ko'rsatilgan xizmatlari qiymati, ya'ni mijozlarning qimmatbaho buyumlarini saqlash, valyutani ayriboshlash, investitsiya bo'yicha maslahat xizmatining qiymati va boshqalar.

Moliyaviy korxonalar sektoriga kiruvchi sug'urta tashkilotlarining yalpi ishlab chiqarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$P_s = R - K + Q - N \quad (7)$$

Bu yerda P_s – sug'urta tashkilotlarining yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichi;

R – sug'urta tashkilotlariga to'langan sug'urta mukofoti;

K – sug'urta tashkilotlari tomonidan to'langan sug'urta qoplovi to'lovi;

Q – sug'urta rezervlarini investitsiyalash natijasida olingan foiz daromadlar;


N – sug'urta texnik rezervlarining o'zgarishi.

4. Pinxoniy ishlab chiqarish va ularni hisobga olish usuli
Pinxoniy iqtisodiyot faoliyati ikkiga bo'lib o'rganiladi:

1. Rasmiy

2. Norasmiy.

Ishlab chiqarish faoliyat turi



2-rasm. Ishlab chiqarish faoliyat turlari

Qonunga hilof ishlab chiqarish - qonun bilan ma'n etilgan bo'lib, u quyidagi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi:

1. Qonunga hilof tovar va xizmatlar ishlab chiqarish. Bunga narkotik moddalarni ishlab chiqarish, sotish va tarqatish, kontrabanda, qimor uyinlari va boshqalar kiradi.

2. Tovar ishlab chiqarish va xizmat qilish qonunda ruhsat berilgan bo'lib, lekin bu faoliyat qonunga zid ravishda olib boriladi. Masalan, diplomi yuq tibbiyot hodimlarining xizmati.

3. Yashirin ishlab chiqarish – bu ishlab chiqarish faoliyati qonuniy bo'lib, lekin u davlat soliq organlaridan yashiriladi. Yashirishdan maqsad soliq to'lashdan, ijtimoiy ajratiladigan mablag'larni to'lashdan qochish hisoblanadi.

Pinxoniy iqtisodiyot hajmlarini hisoblashning quyidagi usullari mavjud:

1. Tovarlar oqimi usuli. Bu usulda tovar ishlab chiqarilgan joydan to undan foydalanishgacha kuzatib boriladi. Bunda tovar turlari oraliq iste'molga, pirovard iste'molga, yalpi jamg'armaga bo'linishi har xil yullar bilan taqiqланади;

2. Uy xo'jaligi a'zolarini kuzatish asosida olgan daromadlari va xarajatlarini hisoblash yo'li bilan aniqlash. Bunda maxsus savol-javob tuzilgan bo'lib, uni uy xo'jaligi a'zosi to'ldirishi kerak bo'ladi;

3. Hozirgi kunda ijtimoiy usul bilan aniqlash ko‘proq qo‘llanilmoqda. Bu usuldan kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohasida ayniqsa samarali foydalanilmoqda.

Mavzuga doir testlar

1. Ishlab chiqarish schyoti tuziladi:

- a) tarmoqlar, sektorlar va yaxlit iqtisodiyot uchun;
- b) sektorlar va yaxlit iqtisodiyot uchun;
- c) tarmoqlar va yaxlit iqtisodiyot uchun;
- d) yaxlit iqtisodiyot uchun.

2. Ishlab chiqarish schyotini tuzishdan maqsad:

- a) nomoddiy ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy operatsiyalarni ifodalash uchun;
- b) moddiy ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy operatsiyalarni qayd etish uchun;
- c) takror ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy operatsiyalarni ifodalash uchun;
- d) moddiy ishlab chiqarish sohalar va nomoddiy xizmat ko‘rsatuvchi sohalarini natijaviy ko‘rsatkichlarini operatsiyalar orqali ifodalash uchun.

3. Qo‘shilgan qiymat qancha bo‘ladi?

Sotish hajmi-5000; hisobot davri boshida zahira-1000; hisobot davri oxirida zahira-1500; ishlab chiqarishga ishlataligan tovarlar qiymati-1000; xizmatlar-1000

- a) 4500;
- b) 3000;
- c) 3500;
- d) 5000.

4. Yalpi ishlab chiqarish qancha bo‘ladi? Sotish hajmi-5000; hisobot davri boshida zahira-1000; hisobot davri oxirida zahira-1500; ishlab chiqarishga ishlataligan tovarlar qiymati-1000; xizmatlar-1000

- a) 6500;
- b) 5000;

- c) 7500;
- d) 6000.

5. Quyidagi ma'lumotlar asosida iqtisodiyotning yig'ma ishlab chiqarish schyotini balanslashtiruvchi ko'rsatkichini hisoblang: (mln so'mda)

YaICh (as.bahoda) 6143604,9; mahsulot va import solig'i 428979,3; mahsulot va import un subsidiya 21337,9; oraliq iste'mol 3295679,6

- a) 3850059,2 mln so'm;
- b) 327604,6 mln so'm;
- c) 2847925,3 mln so'm;
- d) 3255566 mln so'm.

6. Iqtisodiyotni ishlab chiqarish schyotining resurslar ustunida quyidagi ko'rsatkichlar mavjud:

- a) yalpi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish qiymati bozor bahosi;
- b) faqat oraliq iste'moli;
- c) faqat mahsulot solig'i;
- d) faqat mahsulot uchun subsidiyalar.

7. Quyidagi ma'lumotlar asosida boshqa ishlab chiqarishda yalpi foyda va aralash daromad ko'rsatkichini hisoblang:(mln so'm)

1.YaIM bozor bahoda 4925269,8; oraliq iste'mol 4984048,1; mahsulot va import solig'i 612393,8; mahsulot va import subsidayasi 28323,9

- a) 4341017,9 mln so'm;
- b) 584069,9 mln so'm;
- c) 28323,9 mln so'm;
- d) 58778,3 mln so'm.

8. Iqtisodiyotni ishlab chiqarish schyotini resurslardan foydalanish qismida quyidagi ko'rsatkichlar mavjud

- a) oraliq iste'mol qiymati va YaIM;
- b) faqat mahsulot solig'i;
- c) faqat mahsulot uchun subsidiya (-);
- d) yalpi ichki mahsulot.

9. Quyidagi ma'lumotlar asosida mahsulot va import solig'ini hisoblang:(mln so'm)

1.YaIM bozor bahoda 7450234,6; boshqa ishlab chiqarish solig‘i 335333,4; boshqa ishlab chiqarish subsidiyasi 119721,4; YaIM asosiy bahoda 8492756,4

- a) 7564700,8 mln so‘m;
- b) 826900,8 mln so‘m;
- c) 7785568,0 mln so‘m;
- d) 8120901,4 mln so‘m.

10. Iqtisodiy tarmoqlar va sektorlarning ishlab chiqarish schyotining balanslantiruvchi ko‘rsatkichi:

- a) yalpi ichki mahsulot;
- b) oraliq iste’moli;
- c) yalpi ishlab chiqarish;
- d) yalpi qo‘silgan qiymat.

11. Quyidagi ma’lumotlar asosida YaIMni asosiy bahoda hisoblang: mln s o‘m

1.Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining YaQQ asosiy bahoda 204,0; sanoat tarmog‘ining YaQQ 310,0; nobozor xizmat ko‘rsatuvchi tarmog‘ining YaQQ 170,0; ishlab chiqarish va import solig‘i 67,0; ishlab chiqarish va import subsidiyasi 27,0

- a) 514,0 mln so‘m;
- b) 684,0 mln so‘m;
- c) 724,0 mln so‘m;
- d) 554,0 mln so‘m.

12. Quyidagi ma’lumotlar asosida oraliq iste’mol qiymatini hisoblang(mln so‘m)

1.YaIM bozor bahoda 7450234,6; mahsulot va import solig‘i 975967,2; mahsulot va import subsidiyasi 37951,0; YaICh bozor bahosida 14010637,4

- a) 13265602,8 mln so‘m;
- b) 7498519,0 mln so‘m;
- c) 6660402,8 mln so‘m;
- d) 6512218,4 mln so‘m.

13. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish schyotini balanslantiruvchi ko‘rsatkichi:

- a) yalpi qo‘silgan qiymat;;
- b) yalpi foyda va yalpi aralash daromadlar;
- c) yalpi ichki mahsulot;

d) yalpi milliy daromad.

14. Quyidagi ma'lumotlar asosida sektorning ishlab chiqarish schyotini balanslashtiruvchi ko'rsatkichini hisoblang: (mln so'm)

1. Yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar as.bahoda 915,0; oraliq iste'mol 405, mahsulot solig'i 75,0; import solig'i 10,0; mahsulot va import subsidiyasi 15,0; yollangan xizmatchilarining mehnat haqi 182,0

- a) 510,0 mln so'm;
- b) 465,0 mln so'm;
- c) 647,0 mln so'm;
- d) 475,0 mln so'm.

15. Quyidagi ma'lumotlar asosida iqtisodiyotning YaIMini hisoblang.

Ma'lumotlar: hisobot davrida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot va xizmatlar qiymati, asosiy bahoda -6143604,9 mln so'm; mahsulot va import uchun soliq-428979,3 mln so'm; mahsulot va import uchun subsidiyalar-21337,9 mln so'm; oraliq iste'moli 3295679,6 mln so'm.

- a) 3255566.7 mln so'm;
- b) 3250570.1 mln so'm;
- c) 3250566.1 mln so'm;
- d) 6055666.1 mln so'm.

16. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichini quyidagi hisoblash usullari mavjud:

- a) sarf-xarajatlar, ishlab chiqarish va daromadlar usullari;
- b) ishlab chiqarish, iste'mol va daromadlar bo'yicha hisoblash usullari;
- c) ishlab chiqarish va iste'mol usullari;
- d) faqat iste'mol va daromadlar bo'yicha hisoblash usuli bor.

17. YaIM ko'rsatkichi quyidagi institutsion birliklar yig'indisiga teng:

- a) barcha institutsion birliklarning xaridor bozor baholaridagi qo'shilgan qiymatlari yig'indisidan iborat;
- b) barcha institutsion birliklarning joriy baholardagi qo'shilgan qiymatlari yig'indisidan iborat;

- c) barcha institutsion birliklarning asosiy baholaridagi qo'shilgan qiymatlari yig'indisidan iborat;
- d) barcha institutsion birliklarning omillar baholaridagi qo'shilgan qiymatlari yig'indisidan iborat.

18. YaIM ko'rsatkichi ishlab chiqarish usulida quyidagicha aniqlanadi: agarda yalpi ishlab chiqarish va qo'shilgan qiymat asosiy baholarda hisoblangan bo'lsa...

- a) YaIM mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlar bozor bahosidagi yig'indisiga teng;
- b) YaIM - barcha institutsional birliklar qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlari yig'indisi;
- c) YaIM – aholi iste'moli + jamg'armalar yig'indisi;
- d) YaIM – barcha tarmoqlar qo'shilgan qiymatlari + import bojlari + mahsulot uchun soliqlar – subsidiyalar yig'indisidan iborat.

19. YaIM ko'rsatkichi iste'mol (sarf-xarajatlar) usulida quyidagicha aniqlanadi:

- a) uy-xo'jaligi, davlat boshqaruv organlari, notijorat ijtimoiy tashkilotlar (uy xo'jaligiga xizmat qiluvchi) iste'moli + asosiy kapital yig'ilmasi – aylanma mablag'lar zahirasining o'zgarishi+eksport-import;
- b) mamlakat bo'yicha iste'mol qilingan barcha tovarlar va xizmatlar qiymatlari yig'indisi;
- c) mamlakat bo'yicha iste'mol qilingan barcha tovarlar va xizmatlar qiymati + asosiy kapital yig'ilmasi;
- d) faqat davlat boshqaruv organlari, iste'mol qilingan barcha tovarlar va xizmatlar yig'indisi.

20. Tayyor mahsulot zahirasini o'zgarishini baholashda asosiy qoida etib...

- a) mahsulotni ishlab chiqarilgan vaqtidagi baholarda baholash belgilangan;
- b) mahsulotni zahiradan olib sotilayotgan vaqtidagi qiymati bo'yicha baholash belgilangan;
- c) zahiradan olingan mahsulotni tannarxi miqyosida baholash belgilangan;
- d) mahsulot o'rtacha bahoda belgilanadi.

21. Mahsulotni ishlab chiqarilgan va sotish vaqtleri uzoq bo‘lganda inflyatsiya ta’siri natijasida ishlab chiqarilgan va sotish vaqtlaridagi baholarda tafovut bo‘ladi. Bu tafovut MHT da...

- a) qo‘silgan qiymat tarkibiga kiritiladi;
- b) “xolding foydasi”, deb yuritilib, u ishlab chiqarish hamiga qo‘silmaydi;
- c) korxona foydasi deb hisoblanadi;
- d) u ishlab chiqarish hajmiga qo‘siladi.

22. Ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish muddati uzoq bo‘lib, bir necha hisobot davrlarini tashkil qilishi mumkin. Bunday hollarda ishlab chiqarish hajmi...

- a) mahsulot sotishga tayyor bo‘lgunga qadar tugallanmagan ishlab chiqarish (TICh) sifatida har bir hisobot davrida bajarilgan ish hajmiga qarab aniqlanadi;
- b) mahsulot tayyor bo‘lganidan keyin ishlab chiqarish hajmiga qo‘siladi;
- c) alohida hisobot davrlarida hisoblanmaydi;
- d) alohida hisobot davrlarida xaridor bozor bahosida hisoblanadi.

23. Sotish hajmini o‘lchash vaqtini etib...

- a) mahsulotni sotish vaqtini;
- b) sotilgan mahsulotga pul o‘tkazilgan vaqt belgilangan;
- c) mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste’molchi olgan vaqtini belgilangan;
- d) mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga egalik huquqi o‘tish vaqtini belgilangan.

24. Hisobot davrida ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol bo‘lmagan mahsulotlar...

- a) oraliq iste’mol hisoblanmaydi, ular asosiy kapital hisoblanadi;
- b) asosiy kapital (fond)ni tashkil qiladi;
- c) oraliq iste’mol hisoblanmaydi, ular moddiy iste’mol hisoblanadi;
- d) baribir oraliq iste’moli hisoblanadi.

25. Oraliq iste’mol uchun ishlatalilgan tovar va xizmatlar quyidagi baholarda hisoblanadi:

- a) sotib olingan vaqtidagi baholarda hisoblanadi;
- b) to‘langan pul miqdori hisoblanadi;
- c) ishlab chiqarishda ishlatalgan davrida hisoblanib, sotib olingan va ishlatalgan davrlardagi baholar o‘rtasidagi tafovut natijasida hosil bo‘lgan qiymat xolding foydasi (yoki zarari) deb yuritiladi;
- d) omillar bahosida.

26. Oraliq iste’mol uchun ishlataladigan mahsulotlar zahirasi o‘zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

- a) zahiraning o‘zgarishi = hisobot davrida sotib olingan mahsulotlar – (minus) ishlab chiqarishga olingani;
- b) zahiraning o‘zgarishi = hisobot davri boshigacha zahiradagi mahsulot miqdori + hisobot davrida sotib olingan mahsulotlar – (minus) ishlab chiqarishga olingani;
- c) zahiraning o‘zgarishi = hisobot davri boshigacha zahiradagi mahsulot miqdori + hisobot davrida sotib olingan mahsulotlar – (minus) yaroqsiz va yo‘qolgan mahsulotlar;
- d) zaxiraning o‘zgarishining hisobot davrida bahoda hisoblanadi.

27. Korxona ayrim tovar va xizmatlarni ishchi-xizmatchilar iste’moli uchun sotib oladi...

- a) agarda bu tovar va xizmatlar ishchi tomonidan ishi bilan bog‘liqmas holatda iste’mol qilinsa, bu ish haqi (natura bilan) hisoblanadi;
- b) agarda bu tovar va xizmatlar xarajati oraliq iste’moliga qo‘shiladi;
- c) agarda bu tovar va xizmatlar ishchi tomonidan ishi bilan bog‘liq holatda iste’mol qilinsa, bu ish haqi (natura bilan) hisoblanadi;
- d) agarda bu tovar va xizmatlarga joriy transfertlar hisoblanadi.

4.2. Amaliy mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi

<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	Amaliy mashg‘ulotlarda chuqurlashtirish va bilimni kengaytirish jarayoni.
<i>Amaliy mashg‘ulot rejasi:</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mikroiqtisodiy faoliyati natijasining asosiy ko‘rsatkichlari va ularni o‘rganish obyektlari. 2. Makroiqtisodiy faoliyati natijasining asosiy ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash. 3. Real tarmoqlarni ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash.
<i>O‘qitish maqsadi:</i> ishlab chiqarish schyoti ko‘rsatkichlarini hisoblashni o‘rganish va tahlil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Yalpi ishlab chiqarish, oraliq iste’moli, yalpi qo‘silgan qiymat hajmlarini hisoblashni o‘rgatadi. ▪ Nobozor xizmatlar hajmini hisoblashni o‘rgatadi. ▪ Turli tarmoqlarda yalpi qo‘silgan qiymatlarni hisoblashga oid amaliy mashqlarni tushuntiradi. 	<i>Talabalarning o‘quv faoliyati natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> ▪ Iqtisodiyotda yalpi ichki mahsulotni hisoblash va natijasini tahlil qilish. ▪ Iqtisodiy tarmoq va sektorlarda yaratilgan boylikni, ya’ni yalpi qo‘silgan qiymatni ko‘rsatkichlarini iqtisodiy tahlil qilish, o’sish darajalarini hisoblash ko‘nikmalarini hosil qilish.
<i>O‘quv uslubi</i>	Xabar berish orqali o‘qitish, diskussiya, “Doira” stol, grafik organayzer: mantiqan tizimli chizma.
<i>O‘qitish shakli</i>	Guruhlarda ishslash, frontal va jamoa, juftliklarda ishslash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Ma’ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishslash uchun mo‘ljallangan auditoriya. Yoritilgan xona.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	Talaba
	O‘qituvchi	
1-bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish	<p>1.1. Mavzu nomini aytadi, rejalashtirilgan natijalarini va uni o‘tkazish jarayoni bilan tanishtiradi. Birgalikda guruhlar bilan texnologiyalarini qo‘llagan holda dars jarayonini tushuntiradi. Adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Mavzu bo‘yicha bilimlarni jonlantirish uchun berilgan savollarga javob beradi.</p>	Eshitadi, javob beradi
2-bosqich. Guruhlarda ishlash	<p>2.1. Masalalar yechishni kalkulyator yoki kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda amalga oshirish</p> <p>2.2. Talabalar to‘rtta guruhga ajratadi, (guruh bilan ishlash qoidalarini eslatadi, har biriga vazifa beradi).</p> <p>2.3. Vazifani berishda o‘quv materiallari (ma’ruza matni va o‘quv qo‘llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi.</p> <p>Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi.</p> <p>2.4. Talabalar natijalarini eshitadi, xulosalarga e’tibor beradi, aniqlik kiritadi.</p>	Eshitadi, ishni bajarishni boshlaydi. Hisoblaydilar va tahlil qiladilar Birgalikda qilingan prezentatsiya chiqishlari ko‘rsatiladi.
3-bosqich. Yakuniy bosqich	<p>3.1. Mashg‘ulni yakunlaydi, mavzu bo‘yicha umumiylarini shakllantiradi. Guruhlarga umumiylarini ball beradi. Talabalarni baholaydi va rag‘batlantiradi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash sifatida topshiriqlar beradi.</p>	Eshitadilar. Topshiriqni oladilar.

Uslubiy ko‘rsatmalar va namunaviy misollar yechish

Milliy hisoblar tizimining birinchi va asosiy schyoti – ishlab chiqarish schyotidir. Uning asosida oylik, chorak va yillik ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni iqtisodiy ko‘rsatkichlari ifodalanadi. Ishlab chiqarish schyotlari tarmoqlar, hududlar, sektorlar va iqtisodiyot bo‘yicha tuziladi.

Iqtisodiyotni ishlab chiqarish schyoti

Foydalanish	Resurslar
5.Oraliq iste’mol	1. Yalpi ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar, asosiy bahoda
6. Yalpi ichki mahsulot bozor bahosida (1+2-3+4-5)	2. Mahsulotga soliq
	3. Mahsulot subsidiyasi
	4. Import sof soliq
Jami: (5+6)	Jami: (1+2+3+4)

Tarmoqlarni ishlab chiqarish schyoti

Foydalanish	Resurslar
2.Oraliq iste’mol	1. Yalpi ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar
3. Yalpi qo‘shilgan qiymat (3=1-2)	
Jami: (2+3)	Jami: 1

Yalpi ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini va oraliq iste’mol qiymatini hisoblash 1 va 2 boblarda berilgan, shuning uchun ishlab chiqarish schyotining qolgan ko‘rsatkichlari mahsulot va import solig‘i hamda mahsulot va importlarga berilgan subsidiyalarga to‘xtalib o‘tamiz.

MHTda jami soliqlar joriy va kapital soliqlarga bo‘linadi. Joriy soliqlar o‘z navbatida ikki guruhga bo‘linadi.

- ishlab chiqarish va import uchun soliq
- daromad va moddiy boylik uchun soliq

Ishlab chiqarish va import solig‘i – bu institutsional birliklar tomonidan davlat boyliklaridan majburiy qonun va normativ hujjatlar asosida to‘lanadigan to‘lovlarga soliqlar deyiladi. Bu soliqlar davlat boshqaruvi idoralari sektorini birlamchi daromadi deyiladi. Ishlab chiqarish va import solig‘i ikki xil soliqlardan iborat.

- mahsulot uchun soliq;
- boshqa ishlab chiqarish uchun soliq;

Mahsulot uchun soliq – ishlab chiqaruvchi birliklarning tovar va xizmatlarning boshqa institutsional birliklarga sotish vaqtida, mahsulot va xizmatlarni miqdor birliklariga proportsional miqdorda solinadigan soliqlar.

Boshqa ishlab chiqarish uchun soliq esa ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni miqdoriga bog‘liq emas. Bu soliq ishlab chiqarish omillari (er, mol-mulk, mehnat, tabiiy resurslar va boshqalar) uchun solinadi.

Subsidiyalar – davlat budgetidan institutsional birliklarga ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot va xizmatlarni sotish va boshqa faoliyatlaridagi xarajatlarni qisman qoplash uchun to‘lanadigan va qaytarib olinmaydigan to‘lovlardan iborat.

Schyotni balanslashtiruvchi ko‘rsatkichi iqtisodiyot schyotida yalpi ichki mahsulot, tarmoqlar va sektorlarda esa yalpi qo‘shilgan qiymatdir. U yalpi ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatidan oraliq iste’mol qiymatini chegirilganiga teng.

Ishlab chiqarish schyotining tahlili

Ishlab chiqarish schyotining ko‘rsatkichlar tahlili quyidagi yo‘-nalishdan iborat:

- ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni yalpi ishlab chiqarish va yalpi ichki mahsulotdagi ulushini aniqlash orqali iqtisodiy faoliyatdagi rivojlantirish darajasini aniqlash mumkin;

- yalpi qo‘shilgan qiymatning (YaQQ), yalpi ishlab chiqarishdagi ulushini, iqtisodiy faoliyat natijasi samaradorligini

aniqlash mumkin. Agar YaQQni yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi oshgan bo'lsa, bu oraliq iste'mol xarajatlari elementlaridan juda ham samaradorlik bilan foydalanganlikni bildiradi.

- Soliqlarning YaQQ ulushiga qarab, soliq bojini aniqlashga imkoniyat beradi hamda bir birlik mahsulotga soliq ko'payganini yoki kamayganini aniqlash mumkin.

- YaQQni tarkibiy siljish va ayrim ishlab chiqarish omillari indeksini YaQQni dinamikasiga ta'sirini o'rganish mumkin.

- Yalpi qo'shilgan qiymat quyidagi ko'rsatkichlarni ko'paytmasi deb qarash mumkin.

1. Ishlovchilar soni yoki mehnat xarajati (T), bir ishlovchini ishlab chiqqan mahsuloti (V) va YaQQni yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi (U):

$$YaQQ = \sum T^* V^* d YaQQ$$

Agar biz YaQQni hisobot davridagi qiymatini bazis davrdagiga solishtirsak, ular o'rtasidagi farq mutlaq va nisbiy o'zgarishi mumkin. Tahlil qilishda zanjirsimon indeksdan foydalaniлади.

Indekslar mutlaq o'zgarishi quyidagi ko'rinishga ega

$$\Delta YaQQ = \sum YaQQ_1 - \sum YaQQ_0 = \sum T_1 V_1 d YaQQ_1 - \sum T_0 V_0 d YaQQ_0$$

YaQQni absolyut o'zgarishi.

Har bir omillarning o'zgarishiga ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$\Delta YaQQ = \Delta YaQQ(T) + \Delta YaQQ(V) + \Delta YaQQ(d YaQQ)$ bunda:

$\Delta YaQQ(T) = \sum T_1 V_1 d YaQQ_0 - \sum T_0 V_0 d YaQQ_0$ - YaQQni o'zgarishi, mehnat harakatini (T) o'zgarishi ta'siri bo'lgan.

$\Delta YaQQ(V) = \sum T_1 V_1 d YaQQ_1 - \sum T_0 V_0 d YaQQ_0$ - YaQQni o'zgarishi mehnat unumdorligining (V) o'zgarishi ta'sirida bo'ladi.

$\Delta Y_{aQQ} (d Y_{aQQ}) = \sum T_1 V_1 d Y_{aQQ_1} - \sum T_1 V_1 d Y_{aQQ_0}$. Y_{aQQ} ni o‘zgarishi ayrim tarmoqlarni va sektorlarni Y_{aQQ} ni umumiy qiyamatidagi ulushi ($d Y_{aQQ}$) ta’sirida bo‘ladi.

Namunali masala

Hududning iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi shartli ma’lumotlar berilgan.

Nº	Ko‘rsatkichlar	Miqdor
1.	Moddiy ishlab chiqaruvchi tarmoqni yalpi ishlab chiqarishi, asosiy bahosida	12613,0
2.	Pulli xizmatlardan tushum, asosiy bahosida	6015,0
3.	Davlat budget tashkilotini saqlash xarajati	1236,0
4.	Yalpi faoliyat ko‘rsatuvchilardan tushum	102,0
5.	Oraliq iste’mol (OI)	9985,0
6.	Mahsulotga soliq (MN)	870,0
7.	Mahsulotga subsidiya (MS)	250,0
8.	Importga sof soliq (ISS)	120,0

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqarish schyotini asosiy ko‘rsatkichlarini hisoblang.

1. Hududdagi yalpi ishlab chiqarish, asosiy bahosida
2. Hududning ichki mahsuloti
3. Hududning ishlab chiqarish schyotini tuzing.

Yechish:

1. Hududni yalpi ishlab chiqarishining (Y_{aICh})=qator 1($12613,0$)+
 $+qator2(6015,0)+qator3(1236,0)+qator4(102,0)=19966,0$ mln so‘m

2. Hududni ichki mahsuloti= $Y_{aICh}(19966,0)-OI(9985,0)+$
 $+MN(870,0)- S(250)+ISS(120)=10721$ mln so‘m

Hududda ishlab chiqarish schyoti

Foydalanish		Resurslar	
6.Oraliq iste'moli	9985,0	1.Yalpi ishlab chiqarish, asosiy bahosida	19966,0
7.Hududiy ichki mahsulot, bozor bahosi (7=5-6)	10721	2. Mahsulot solig'i	870
		3. Mahsulot subsidiyasi	250
		4. Import sof solig'i	120
		5.Yalpi ishlab chiqarish, bozor bahosida	20706
Jami; (6+7)	20706	Jami;(1+2-3+4)	20706

Mustaqil ishlash uchun masalalar

4.1-masala

“A” hududning n-yildagi iqtisodiy faoliyati natijalarini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Ko'rsatkichlar	Miqdori
Tovar-mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqning yalpi ishlab chiqarishi	22150,0
Uning oraliq iste'moli	10120,0
Davlat budget tashkilotini saqlash xarajatlari	4200,0
Uning oraliq iste'moli	1200,0
Yakka tartibdagи tadbirdorlikdan olingan tushum	140,0
Uning oraliq iste'moli	65,0
Import sof solig'i	85,0

Aniqlang:

1. “A” hududning n- yilda yalpi ishlab chiqarishi.
2. “A” hududning ishlab chiqarish schyotini tuzing va uni tahlil qiling.

4.2-masala

“B” hududning n-yildagi iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Ko'rsatkichlar	Miqdori
Moddiy ishlab chiqaruvchi tarmoqning yalpi ishlab chiqarishi	24800,0
Pulli xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning yalpi ishlab chiqarishi	11200,0
Davlat budget tashkilotini ushlab turish xarajati	3420,0
Yakka tartibdagи tadbirkorlardan tushum	201,0
Oraliq iste'moli:	
- moddiy ishlab chiqaruvchi tarmoqlar;	11950,0
-pulli xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar;	4225,0
- davlat budget tashkilotlari;	660,0
- yakka tartibdagи tadbirkorlar.	72,0
Mahsulot uchun soliq	7500,0
Mahsulot uchun subsidiya	3900,0
Import sof solig'i	850,0

“B” hududning ishlab chiqarish schyoti ko'rsatkichlarini hisoblang:

1. “B” hududning yalpi ishlab chiqarishi
2. “B” hududning yalpi hududiy mahsuloti
3. “B” hududni va tarmoqlarni ishlab chiqarish schyotlarini tuzing va tahlil qiling.

4.3-masala

O‘zbekiston Respublikasining ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsuloti ko‘rsatkichini ifodalovchi quyidagi ma’lumotlar berilgan (joriy bahoda mln so‘m)

Ko‘rsatkichlar	n- yil	n+1 yil	n+3 yil	n+4 yil
Yalpi ishlab chiqilgan tovarlar va xizmatlar (asosiy bahoda)	6143604,9	9325248,0	14010634,4	18234420,6
Shu jumladan, ishlab chiqarilgan mahsulot	3910824,5	5940329,6	8963506,0	11721181,8
Ishlab chiqarilgan xizmat-lar	2232780,4	3384918,4	5047131,4	6513238,8
Shundan; pulli xizmatlar	1571916,2	2359137,9	3542776,4	4643432,8
Oraliq iste’mol	3295679,6	4984048,1	7498419,0	9741661,2
Sof ishlab chiqarish va import solig‘i	407641,4	584069,9	938016,2	1345081,3

Jadvaldagи ma’lumotlarga asoslanib, hisoblang:

1. Yalpi ichki mahsulotni
2. Yalpi ishlab chiqarishni bozor bahosida
3. Ko‘rsatkichlarning yalpi ishlab chiqarishdagi ulushlarini aniqlang va tahlil qiling.

4.4-masala

Iqtisodiyotni sektorlarini n-yilgi faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar berilgan (joriy bahosida, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Miqdori
Nomoliyaviy korxonalarining yalpi ishlab chiqarishi	3685741,8
Moliya tashkilotlarining yalpi ko'rsatgan xizmati	141351,3
Davlat boshqaruv idoralarining yalpi ko'rsatgan xizmati	643308,9
Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilot-larining yalpi ko'rsatgan xizmati	33761,3
Uy xo'jaliklarning yalpi ishlab chiqarishi	1639441,6
Oraliq iste'moli	
Shu jumladan: - nomoliyaviy korxonalar	2451641,1
Moliya tashkilotlari	18020,9
Davlat boshqaruv idoralari	261325,3
Uy xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilot-lari	13011,1
Uy xo'jaligi	485105,3
Mahsulot va import uchun soliq	428979,3
Mahsulot va import uchun subsidiya	21337,9

Jadvalagi ma'lumotlarga asoslanib, hisoblang:

1. Iqtisodiyot sektorlarini yalpi qo'shilgan qiymatini.
2. Iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotini.
3. Iqtisodiyot va sektorlarning ishlab chiqarish schyotini tuzing
4. Iqtisodiyotni yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichiga nisbatan sektorlarning yalpi ishlab chiqarishi, yalpi qo'shilgan qiymat, ko'rsatkichlari ulushini aniqlang va tahlil qiling.

4.5-masala

Iqtisodiyot sektorlarining n-yilgi ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar berilgan (joriy bahosida, mln so'm)

Ko'rsatkichlar	Miqdori
Yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar Shu jumladan: moliyaviy korxonalar sektori	5659914,2
Moliya tashkilotlari sektori	222383,8
Davlat boshqaruv idoralari sektori	944525,0
Uy xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	47480,0
Uy xo'jaligi sektori	2450945,0
Oraliq iste'mol xarajatlari Shu jumladan: nomoliyaviy korxonalar sektori	3719280,3
Moliya tashkilotlari sektori	25970,3
Davlat boshqaruv idoralari sektori	379112,1
Uy xo'jaliklarga xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlar sektori	17552,7
Uy xo'jalik sektori	742038,9
Mahsulotlar va import uchun soliqlar	612393,8
Mahsulotlar va import uchun subsidiyalar	28323,9

Jadvaldagи ma'lumotlarga asoslanib hisoblang:

1. Iqtisodiyot sektorlarining YaQQni;
2. Iqtisodiyotning YaIMni;
3. Iqtisodiyot va sektorlarning ishlab chiqarish schyotlarini tuzing.
4. Iqtisodiyotni yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichiga nisbatan sektorlarning yalpi ishlab chiqarish, yalpi qo'shilgan qiymati ko'rsatkichlari ulushini aniqlang va tahlil qiling.

4.6-masala

Iqtisodiyot sektorlarining n-yilgi ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar berilgan (joriy bahosida, mln so'm)

	Ko'rsatkichlar	Miqdori
1	Nomoliyaviy korxonalar yalpi ishlab chiqargan mahsulotlar va xizmatlar	5659914,2
2	Nomoliyaviy korxonalar sektorining oraliq iste'moli	222383,8
3	Moliya tashkilotlari yalpi ko'rsatgan xizmatlari	
4	Moliya tashkilotlari oraliq iste'moli	
5	Davlat boshqaruv idoralari sektorining yalpi xizmatlari	944525,0
6	Davlat boshqaruv idoralari sektorining oraliq iste'moli	
7	Uy xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarni yalpi ko'rsatgan xizmatlari	47480,0
8	Uy xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarni oraliq iste'moli	18042,4
9	Uy xo'jalik sektori	2450945,0
10	Uy xo'jalik sektorining oraliq iste'moli	3719280,3
11	Mahsulotlar va import uchun soliqlar	612393,8
12	Mahsulotlar va import uchun subsidiyalar	28323,9

Jadvalagi ma'lumotlarga asoslanib, hisoblang:

1. Sektorlarning yalpi qo'shilgan qiymatini.
2. YaIMni.
3. Iqtisodiyot va sektorlarning ishlab chiqarish schyotlarini tuzing.
4. Iqtisodiyotni yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichiga nisbatan sektorlarning yalpi ishlab chiqarish, yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlari ulushini aniqlang va tahlil qiling.

4.7-masala

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1.Sektorlar ishlab chiqqan mahsulotlar va xizmatlar qiymati:	11538372,0
1.1 Nomoliyaviy korxonalar	
1.2 Moliya tashkilotlari	332152,0
1.3 Davlat boshqaruv idoralari	1721981,5
1.4 Uy-xo'jaliklar	4533292,3
1.5 Uy-xo'jaliklarga xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlar.	108621,8
2.Sektorlarning oraliq iste'mol qiymati:	
2.1 Nomoliyaviy korxonalar	7376034,5
2.2 Moliya tashkilotlari	45609,5
2.3 Davlat boshqaruv idoralari	674348,1
2.4 Uy xo'jaliklar	1479896,0
2.5 Uy-xo'jaliklarga xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlar.	40644,8
3. Mahsulot va import uchun soliq	1374117,8
4. Mahsulot va import subsidiyasi	29036,5

Jadvaldagagi ma'lumotlarga asoslanib, hisoblang:

1. Iqtisodiy sektorning yalpi qo'shilgan qiymatini;
2. Iqtisodiyotni yalpi ichki mahsulotini;
3. Iqtisodiyot va sektorlarni ishlab chiqarish schyotlarini;
4. Iqtisodiyotni yalpi ishlab chiqarish ko'rsatkichiga nisbatan sektorlarni yalpi ishlab chiqarishi, yalpi qo'shilgan qiymatini toping va tahlil qiling.

4.8-masala

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqilgan yalpi ichki mahsulotni quyidagi ma’lumotlarda berilgan joriy bahosida, mln so‘m.

Ko‘rsatkichlar	n- yil	n+1 yil
Yalpi ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlar, asosiy bahosida	6143604,9	9325248,0
Mahsulot va import solig‘i	428979,3	612393,8
Mahsulot va import uchun subsidiya	21337,9	28323,9
Oraliq iste’mol	3255566,7	4925269,8

Jadvaldagi ma’lumotlarga asosan hisoblang:

1. Yalpi ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlar qiymatini bozor bahosida;
2. Yalpi ichki mahsulotni yalpi ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlar qiymatidagi ulushi;
3. Iqtisodiyotni ishlab chiqarish schyotini tuzing.

4.9-masala

O‘zbekiston Respublikasida n-(n+2)-yillarda ishlab chiqilgan yalpi ichki mahsulotning quyidagi ma’lumotlari berilgan (joriy bahoda, mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	n- yil	n+1 yil	n+2 yil
Yalpi ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlar, asosiy bahosida	14010637,4	18234420,6	22777353,3
Oraliq iste’mol	7498419,0	9741661,2	12241283,3
Mahsulot va import solig‘i	975967,2	1374117,8	1741783,3
Mahsulot va import uchun subsidiya	37951,0	29036,5	16863,7

Jadvaldagi ma’lumotlarga asosan hisoblang:

1. Yalpi ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlar qiymatini bozor bahosida hisoblang.
2. Yalpi ichki mahsulot va uning yalpi ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlar qiymatidagi ulushi.

3. Iqtisodiyotni ishlab chiqarish schyotini tuzing.

4.10-masala

Shartli hududning n-(n+2)-yillarda ishlab chiqqan yalpi mahsuloti quyidagi ma'lumotlarda berilgan (joriy bahoda mln so'm).

Ko'rsatkichlar	n- yil	n+1 yil	n+2 yil
Yalpi ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlar, asosiy bahoda	4640,5	8236,0	12314,1
Mahsulot uchun soliq	342,8	613,9	980,9
Mahsulot uchun subsidiya	99,4	118,5	147,7
Oraliq iste'mol	2118,9	38545.	5845,1

Aniqlang:

1. Yalpi ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlar qiymatini bozor bahosida.
2. Yalpi hududiy mahsulotni va uning yalpi ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlar qiymatidagi ulushini.
3. Hududning ishlab chiqarish schyotini tuzing.

4.11-masala

O'zbekiston Respublikasida n-(n+1)-yillarda ishlab chiqilgan yalpi qo'shilgan qiymatning tarkibiy ma'lumotlari berilgan (joriy bahoda, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	n- yil	n+1 yil
1.Tarmoqlarda yalpi ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlar qiymati, asosiy bahoda		
1.1 Tovarlar ishlab chiqish	3910824,5	5940329,6
1.2 Pullik xizmatlar ko'rsatish	1571916,2	2359137,9
1.3 Nobozor xizmatlar ko'rsatish	660864,2	1025780,5
2. Tarmoqlarda oraliq iste'moli:		
2.1 Tovarlar ishlab chiqishda	2265765,5	3469935,8
2.2 Pullik xizmatlar ko'rsatishda	715782,8	1033114,7
2.3 Nobozor xizmatlar ko'rsatishda	247555,4	380903,8
3. Mahsulot va import uchun soliq	428979,3	612393,8
4. Mahsulot va import uchun subsidiya	21337,9	28323,9
5.Moliya vositachilik xizmatlari	66575,9	100093,8

Aniqlang:

1. Iqtisodiyot va tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymatini hisoblang.
2. Sof mahsulot va import solig'ini hisoblang.
3. Iqtisodiyotni yalpi ichki mahsulotini bozor bahosida hisoblang.
4. Yalpi ichki mahsulotlarning tarkibiy siljishini aniqlang va xulosa chiqaring.

4.12-masala

Respublikaning n-(n+1)-yillarda ishlab chiqilgan yalpi qo'shilgan qiymatini tarkibiy ma'lumotlari berilgan (joriy bahoda, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	n- yil	n+1 yil
1.Tarmoqlarda yalpi ishlab chiqilgan mahsulotlar va xizmatlar qiymati, asosiy bahosida		
1.1 Tovarlar ishlab chiqish	8963506,0	11721181,8
1.2 Pullik xizmatlar ko'rsatish	3542776,4	4643432,8
1.3 Nobozor xizmatlar ko'rsatish	1504355,0	1869806,0
2. Tarmoqlarda oraliq iste'moli:		
2.1 Tovarlar ishlab chiqishda	5258288,5	6893429,9
2.2 Pullik xizmatlar ko'rsatishda	1568406,9	2048712,1
2.3 Nobozor xizmatlar ko'rsatishda	566070,1	674390,9
3. Mahsulot va import uchun soliq	975967,2	1374117,8
4. Mahsulot va import uchun subsidiya	37951,0	29036,5
5.Moliya-vositachilik xizmatlari	105653,5	125128,3

Aniqlang:

- 1.Iqtisodiyot va tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymatini hisoblang.
- 2.Sof mahsulot va import solig'ini hisoblang.
- 3.Yalpi ichki mahsulotni bozor bahosida hisoblang.
- 4.Yalpi ichki mahsulotlarning tarkibiy siljishini aniqlang va xulosa chiqaring.
5. Masala 3.11 va masala 3.12 larni birgalikda tahlil qiling.

4.13-masala

Mamlakatning iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar berilgan (joriy bahoda, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	n- yil	n+1 yil	n+3 yil	n+4 yil
1.Yalpi ishlab chiqilgan mahsulot va xizmatlar, asosiy bahoda	6143604,9	9325248,0	14010637,4	18234420,6
2. Mahsulot va import uchun soliq	428979,3	612393,8	975967,2	1374117,8
3. Mahsulot va import uchun subsidiya	21337,9	28323,9	37951,0	29036,5
Yalpi ichki mahsulot, bozor bahosida	3255566,7	4925269,8	7450234,6	9837840,7

Aniqlang:

1. Iqtisodiyotni oraliq iste'molini hisoblang va tahlil qiling.
2. Oraliq iste'molni yalpi ishlab chiqilgan mahsulot va xizmatlarning qiymatidagi ulushini yillar bo'yicha aniqlang.
3. Yalpi ichki mahsulotni asosiy bahoda hisoblang.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar

1. Ishlab chiqarish deganda nima tushuniladi va u qanday chegaralanadi?
2. Yalpi ishlab chiqarish qanday hisoblanadi va qanday baholanadi?
3. Oraliq iste'moli nima va u qanday unsurlardan tashkil topadi?
4. Asosiy kapital (fond) iste'moli deganda nimani tushunasiz va u qanday unsurlardan iborat?
5. Yalpi qo'shilgan va sof qo'shilgan qiymatlarni farqi va ularni hisoblash.
6. MHT da baholar tizimi qanday va bir-biridan farqi?

7. Soliqlar nima va ular qanday klassifikatsiyalanadi?
8. Subsidiyalar nima va ular qanday klassifikatsiyalanadi?
9. DBO da yalpi ko‘rsatilgan xizmat qanday hisoblanadi?
10. Tayyor mahsulotlar zaxirasini o‘zgartirishini hisobga olishni tununtirib bering.

Adabiyotlar

1. Система национальных счётов 1993. Издание ООН, 1998 г. – С. 123-160.
2. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./ Под ред. Ю.Н.Иванова. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – С. 92-97.
3. Подмогильная В. Система национальных счетов: Учебно-практическое пособие. – Москва: РАГС, 2010. – 238 с.
4. Кремлев Н.Д. Система национальных счетов: Учебное пособие. – Курган: Издательство Курганстат, 2009. – С. 156-160.
5. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов: Учебное пособие для вузов. – Москва: Финансы и статистика, 2006. – 272 с.
6. Елесеева И., Силаева С., Щирина А. Практикум по макроэкономической статистике. – М.: Проспект, 2008. – С. 45-69.
7. Махмудов Б. Миллий ҳисобчилик асослари./Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2003. – Б. 76-84.
8. Qoraboyev A.R. Milliy hisoblar tizimi fanidan masalalar to’plami. O’quv uslubiy qo’llanma. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – В. 46-67.
9. А.Абдуғаффоров, М.Зокирова, А.Қорабоев. Миллий ҳисоблар тизими. Тошкент “Молия” 2002.

V mavzu. DAROMADLARNI SHAKLLANISHI, TAQSIMLASH VA QAYTA TAQSIMLASH JARAYONLARINI IQTISODIY KO'RSATKICHLARINI HISOBGA OLISH VA ULARDAN MAKROIQTISODIY TAHLILDA FOYDALANISH

5.1. Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi

Vaqti-2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Axborot, vizual ma’ruza
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasি	<p>1. Daromadlar to‘g‘risidagi umumiy (DJ XIKS, P. LIPPE) konsepsiya va MHT da daromadlarning ko‘rsatkichlari.</p> <p>2. Qo‘silgan qiymatning tarkibiy qismlari: mehnat haqi, ishlab chiqarish va importga solingan soliqlar va subsidiyalar, ularning klassifikatsiyasi.</p> <p>3. Mulk daromadlari; foizlar, korporatsiyalarning taqsimlanadigan foydasi, dividentlar, renta va boshqalar. Daromadlarni birlamchi taqsimlash schyoti va ko‘rsatkichlarini hisoblash.</p> <p>4. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyotidagi asosiy operatsiyalar. Transfertlar: joriy va kapital transfertlar, pul va natura shaklidagi transfertlar. Daromadlarga solingan soliqlar va boshqa joriy soliqlar. Ijtimoiy sug‘urta ajratmalar, ijtimoiy nafaqalar va yordamlar. Boshqa joriy transfertlar. qayta taqsimlashning pul va natura shakllari. Ixtiyordagi daromad. Milliy ixtiyoridagi daromad.</p>
<p>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Milliy hisobchilikda daromadlarni shakllanishi va taqsimot schyotlari tuzishni o‘rganish va ularning asosiy ko‘rsatkichlariga oid tahlilni amalga oshirish</p>	

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<p>1. Daromadlar to‘g‘risidagi umumiy (DJ XIKS, P. LIPPE) konsepsiya va MHT da daromadlarning ko‘rsatkichlarini yoritib berish.</p> <p>2. Qo‘silgan qiymatning tarkibiy qismlari: mehnat haqi, ishlab chiqarish va importga solingan soliqlar va subsidiyalar, ularning klassifikatsiyasi to‘g‘risida tushuncha berish.</p> <p>3. Mulk daromadlari; foizlar, korporatsiyalarning taqsimlanadigan foydasi, dividentlar, renta va boshqalar. Daromadlarni birlamchi taqsimlash schyoti va ko‘rsatkichlarini hisoblashni o‘rgatish.</p> <p>4. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyotidagi asosiy operatsiyalar. Transfertlar: joriy va kapital transfertlar, pul va natura shaklidagi transfertlar. Daromadlarga solingan soliqlar va boshqa joriy soliqlar. Ijtimoiy sug‘urta ajratmalari, ijtimoiy nafaqalar va yordamlar. Boshqa joriy transfertlar. Qayta taqsimlashning pul va natura shakllari. Ixtiyordagi daromad. Milliy ixtiyoridagi daromad ko‘rsatkichlarini yoritib berish va hisoblanishni tushuntirish.</p>	<p>1. Daromadlar to‘g‘risidagi umumiy (DJ XIKS, P. LIPPE) konsepsiya va MHT da daromadlarning ko‘rsatkichlari to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish.</p> <p>2. Qo‘silgan qiymatning tarkibiy qismlari: mehnat haqi, ishlab chiqarish va importga solingan soliqlar va subsidiyalar, ularning klassifikatsiyasi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish.</p> <p>3. Mulk daromadlari; foizlar, korporatsiyalarning taksimlanadigan foydasi, dividentlar, renta va boshqalar. Daromadlarni birlamchi taqsimlash schyoti va ko‘rsatkichlarini hisoblashni o‘rganish.</p> <p>4. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyotidagi asosiy operatsiyalar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish.</p>
<i>O'qitishning uslubi</i>	Ma’ruza, aqliy hujum, blits-so‘rov.
<i>O'qitishning shakli</i>	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
<i>O'quv vositalari</i>	Ma’ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari, flomasterlar, multimedya.
<i>O'qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya.

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik kartasi

Ishning bosqichlari vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	o‘qituvchi	talabalar
1-bosqich kirish qismi (20 min)	<p>1.1. Mavzusining nomi e’lon qiladi. Fan bo‘yicha umumiy tasavvur keltiradi. Ishning uslubiy va tashkiliy xususiyatlarini yoritib beradi.</p> <p>1.2. Mazuni, uning maqsadi o‘quv mashg‘ulotlardan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.</p> <p>1.3. Kurs davomidagi ma’ruzalar mazmuni bilan tanishtiradi. Reiting baholash mezonlari bilan tanishtiradi, yozma ish va oraliq nazoratlari hamda yakuniy nazoratlar bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p>	<p>Eshitadi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>
2-bosqich Asosiy bosqich (50 min)	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlanish uchun tezkor savol javob o’tkazadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Daromad deganda nimani tushunasiz? • Birlamchi daromadlarning turlari to‘g‘risida nima bilasiz? • Mehnat haqi, ishlab chiqarish va importga solingan soliqlar va subsidiyalar to‘g‘risida qanday tasavvurga egasiz? • Mulk daromadlari; foizlar, korporatsiyalarning taksimlanadigan foydasi, dividentlar, renta to‘g‘risida nimalar bilasiz? • Daromadlarning shakllanish schyotini qanday tuzish mumkin deb o‘ylaysiz? • Daromadlarni birlamchi taqsimlash schyotini qanday tuzish mumkin deb o‘ylaysiz • Daromadlarning ikkilamchi taqsimlanish schyotini qanday tuzish mumkin, deb o‘ylaysiz 	<p>O‘qiydilar</p> <p>Eshitadi hamda savollarga javob beradi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>

	<p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi: daromadlar to‘g‘risidagi umumiy konsepsiya, mehnat haqi, ishlab chiqarish va importga solingan soliqlar va subsidiyalar, mulk daromadlari: foizlar, korporatsiyalarning taqsimlanadigan foydasi, dividentlar, renta, joriy va kapital transfertlar, pul va natura shaklidagi transfertlar, joriy soliqlar. Ijtimoiy sug‘urta ajratmalar, ijtimoiy nafaqalar va yordamlar, boshqa joriy transfertlar, ixtiyoridagi daromad, milliy ixtiyoridagi daromad kategoriyalarning mohiyatini tushuntirib beradi.</p> <p>2.3. Taqdimotda berilgan yalpi foyda va yalpi aralash daromadlar, milliy daromad, milliy ixtiyoridagi daromad ko‘rsatkichlarining hisoblanishini ko‘rsatib beradi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga, daromad oqimlarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlariga diqqat qilishlarini va yozib olishlarini ta’kidlaydi.</p>	
3-bosqich Asosiy bosqich (10 min)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa qiladi va yakuniy natijalarni e’lon qiladi.</p> <p>3.2. Talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi hamda maqsadga erishilganlik o‘zlashtirish darajasi aniqlaydi.</p> <p>3.3. Mustaqil vazifalar beradi va talabalar tayyorgarlik darajasini baholashni e’lon qiladi.</p>	<p>Savollar beradi</p> <p>Yozib oladi.</p>

Ma’ruzaning mazmuni bo‘yicha ko‘rgazmali slaydlar

Iqtisodiyotning yalpi foydasi (IYaF) va uni hisoblash algoritmi

Iqtisodiyotning yalpi foydasi (IYaF)* - ishlab chiqarish faoliyati natijasida institutsional birlik ixtiyorida qoladigan qiymat, ya’ni YaQQdan to’langan mehnat haqi va davlat byudjetiga o’tkazilgan ishlab chiqarish va import solig’idan qolgani qismi.

* (IYaF) -yalpi aralash daromad bilan birlashtirilganda

Farqlovchi xususiyatlari

IYaF - asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlardan biri bo’lib, u olingan daromadni sarflangan xarajatdan oshganligini ifodalaydi.

IYaF ko’rsatkichini hisoblash algoritmi

$$1. \text{ IYaF} = \text{YaIM-MH-SINN} = \text{YaIM-MH-IIN} + \text{IIS}.$$

bunda:

MH - mehnat haqi;

IIN - ishlab chiqarish va import solig’i;

IIS - ishlab chiqarish va import uchun subsidiya;

SIIN - ishlab chiqarish va import soʻf solig’i.

$$2. \text{ IYaF} = \sum \text{YaF}_t = \sum \text{YaF}_s$$

bunda:

$\sum \text{YaF}_t$ - iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining yalpi foyda yig’indisi;

$\sum \text{YaF}_s$ - iqtisodiyotning barcha sektorlarining yalpi foyda yig’indisi.

$$\text{ISF} = \text{IYaF-AFI}$$

bunda: ISF - iqtisodiyotning soʻf foydasi;

AFI - asosiy fondlar iste’moli.

* (IYaF) -yalpi aralash daromad bilan birlashtirilganda

5.1-rasm. Iqtisodiyotning yalpi foydasi (IYaF) va uni hisoblash algoritmi

Yalpi milliy daromad (YaID) va uni hisoblash algoritmi

Yalpi milliy daromad (YaMD) - birlamchi daromadlar yig'indisi (mulkdan olingen daromadlar birgalikda), bu mamlakat rezidentlari shu mamlakatning yalpi ichki mahsulotini va boshqa mamlakat yalpi ichki mahsulotini yaratishda ishtiroki uchun olgan daromadlari yig'indisidir.

Farqlovchi xususiyatlari

- YaMD - muhim makroiqitsodiy ko'rsatkich bo'lib, u mamlakat rezidentlari shu mamlakatni YaIMni va boshqa davlatni YaIMni yaratishda ishtiroklari uchun olgan (ma'lum qismi nerezidentlarga to'lanadi) birlamchi daromadlar oqimini o'rganishda foydalaniladi.
- YaMD va YaIM ko'rsatkichlari bir-biridan rezident birliklarning nerezident birliklardan va nerezident birliklarning rezidentlardan olgan birlamchi daromadlari ayirmasiga (chet eldan olingen sof birlamchi daromadga) farq kiladi. Odatda, rivojlanayotgan mamlakatlarning YaMD ko'rsatkichi YaIM ko'rsatkichidan kichik (YaMD<YaIM), iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, aksincha (YaMD>YaIM) bo'ladi. Sababi rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarga moliya kiritib, shu mamlakatning YaIMni yaratishda qatnashadilar va birlamchi daromadlar oladilar. Natijada, nerezidentlar mamlakatlarining YaMD ko'rsatkichi YaIMga nisbatan ko'proq bo'ladi.
- YaMD ko'rsatkichida "yalpi" so'zining ishlatalishiga sabab, bu ko'rsatkich tarkibida "asosiy fondlar iste'moli" ko'rsatkichining qiymati bor. Agar uning qiymatini ayirsak, sof milliy daromad ko'rsatkichi hosil bo'ladi.

YaMDni hisoblash algoritmi

$$\text{YaMD} = \text{YaIM} + \Delta\text{BD}$$

Bunda: ΔBD - birlamchi daromadlarning koldig'i bo'lib, u rezidentlar nerezidentlardan olingani va berilgani farqi.

$$\text{SMD} = \text{YaIM} - \text{AFI}$$

Bunda:


SMD - sof milliy daromad;

AFI - asosiy fondlar iste'moli

5.2-rasm. Yalpi milliy daromad (YaID) va uni hisoblash algoritmi

Daromadlarning shakllanish schyoti – bu schyot ishlab chiqarish bilan bevosita bog’liq iqtisodiy operatsiyalarni taqsimlashni ifodelaydi. Schyotning ko’rsatkichlari asosida yalpi ichki mahsulotni taqsimlash usuli bilan hisoblash mumkin.

Iqtisodiy sektorlar va tarmoqlarning daromadlarning shakllanish schyoti		Iqtisodiyotning daromadlarning shakllanish schyoti	
Foydalanish	Resurslar	Foydalanish	Resurslar
2. Yollangan xizmatchilarni mehnat haqi 3. Boshqa ishlab chiqarish solig’i 4. Boshqa ishlab chiqarish uchun subsidiya (-) 5. Yalpi foyda va aralash daromad (T.5=T.1-T.2-T.3+T.4)	1. Yalpi qo’shilgan qiymat	2. Yollangan xizmatchilarni mehnat haqi 3. Ishlab chiqarish va import solig’i 4. Ishlab chiqarish va import uchun subsidiya 5. Yalpi foyda va aralash daromad (T.5=T.1-T.2-T.3+T.4)	1. Yalpi ichki mahsulot
Jami: (T.2+T.3-T.4+T.5)	Jami: (T.1)	Jami: (T.2+T.3-T.4+T.5)	Jami: (T.1)




- * YaIMni daromadlar bo'yicha tahlil, yalpi foydani shakllanish jarayonini va davlatni soliq siyosatini tahlil qilish.
- * Mehnat haqini yalpi ichki mahsulotdagi ulushini baholash
- * Mehnat haqini sektorlari va tarmoqlardagi ulushini va yillar bo'yicha siljishini tahlili
- * Iqtisodiyot, sektorlar va tarmoqlarda daromadlarni (mehnat haqi, soʻf soliq va yalpi foyda va aralash daromadlar) dinamikasini tahlili.

5.3-rasm. Daromadlarning shakllanish schyoti

Birlamchi daromadlarning taqsimlash schyoti – bu schyot tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishdan hosil bo’lgan daromadlarni, ishlab chiqarish jarayonida bevosita va bilvosita (aktivlar egalari) ishtirok etuv o’rtasidagi taqsimlash operatsiyalarni ifodalaydi. Schyotni ko’rsatkichlari asosida yalpi milliy daromad (YaMD) hisoblanadi


Iqtisodiy sektorlarning birlamchi daromadlarning taqsimlash schyoti		Iqtisodiyotning birlamchi taqsimlash schyoti	
Foydalanish	Resurslar	Foydalanish	Resurslar
6. Boshqa sektorlarga, rezidentlarga va tashqi dunyoga berilgan mulk daromadlari 7. Yalpi birlamchi daromadlarning sadosi ($T.7=T.1+T.2+T.3-T.4-T.6$)	1. Yalpi foyda va aralash daromad 2. Yollangan xizmatchilarni mehnat haqi 3. Ishlab chiqarish va import solig’i 4. Ishlab chiqarish va import uchun subsidiya (-) 5. Boshqa sektorlardan, rezidentlardan va tashqi dunyodan olingan mulk daromadlari	6. Tashqi dunyoga berilgan mulk daromadlari 7. Yalpi milliy daromad ($T.7=T.1+T.2+T.3-T.4-T.6$)	1. Yalpi foyda va aralash daromad 2. Yollangan xizmatchilarni mehnat haqi 3. Ishlab chiqarish va import solig’i 4. Ishlab chiqarish va import uchun subsidiya (-) 5. Tashqi dunyodan olingan mulk daromadlari
Jami: ($T.6+T.7$)	Jami: ($T.1+T.2+T.3-T.4+T.5$)		



- * YaMDning birlamchi daromadlar tarkibiy tahlili va sektorlar bo'yicha birlamchi daromadlarni taqsimlanishi tahlili
- * iqtisodiy sektorlarni olgan birlamchi daromadlarni tarkibi va ularni YaQQ nisbatini tahlili
- * schyot ko'rsatkichlari dinamikasini tahlili (real holatida)

5.4-rasm. Birlamchi daromadlarning taqsimlash schyoti


Yalpi milliy ixtiyordagi daromad (YaMID) va uni hisoblash algoritmi



5.5-rasm. Yalpi milliy ixtiyordagi daromad (YaMID) va uni hisoblash algoritmi

Daromadlarning ikkilamchi taqsimlash schyoti – bu schyotda institutsional birliklar va sektorlar o’rtasi olingen va berilgan joriy transfertlar (daromad va mulk uchun joriy soliqlar, ijtimoiy sug’urta ajratmalari, ijtimoiy to’lovlar, sug’urta mukofotlari va to’lovlar, jarimlar, nafaqalar, insonparvarlik yordamlar va h.k.) sifatida qayta taqsimlash natijasida ixtiyordagi daromadlarning hosil bo’lishi jarayoni aks ettiladi. Daromadlarning ikkilamchi taqsimlash schyotini ko’rsatkichlari orqali iqtisodiyotni yalpi milliy ixtiyordagi daromadni hisoblanadi.


Iqtisodiy sektor daromadlarining ikkilamchi taqsimlash schyoti		Iqtisodiyotning daromadlarining ikkilamchi taqsimlash schyoti	
Foydalanish	Resurslar	Foydalanish	Resurslar
3. Boshqa sektorlar, rezidentlar va tashqi dunyo berilgan joriy transfertlar 4. Yalpi ixtiyoridagi daromad (T.4=T.1+T.2-T.3)	1. Yalpi birlamchi daromadlarning saldosi 2. Boshqa sektorlar, rezidentlar va tashqi dunyodan olingen doriy transfertlar	3. Tashqi dunyoga berilgan joriy transfertlar 4. Yalpi milliy ixtiyoridagi daromad (T.4=T.1+T.2-T.3)	1. Yalpi milliy doxod 2. Tashqi dunyodan olingen joriy transfertlar
Jami: (T.3+T.4)	Jami: (T.1+T.2)	Jami: (T.3+T.4)	Jami: (T.1+T.2)



- * Tovarlar va xizmatlarga bo’lgan yalpi talabni qondirish, iste’mollarga bo’lgan aniq potentsial imkoniyatlarini aniqlash;
- * Soliq siyosatini tahlili; sektorlar o’rtasi qanchalik optimal soliq to’lov taqsimlanishi va uni daromadlarga bog’liqligi aniqlash;
- * Aholi turmush darajasini aniqlash, jon boshiga to’g’ri keladigan yalpi ixtiyoridagi daromadlarni tahlili (real va nominal qiymatlarda)

5.6-rasm. Daromadlarning ikkilamchi taqsimlash schyoti

Natura holatidagi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti – bu schyotda uy xo'jalik sektori, davlat va uy xo'jaligi xizmat ko'rsatuvchilardan (bergani) olingan natura holatidagi transferlarni olishi natijasida ixtiyordagi daromadi, tuzatish kiritilgan ixtiyoridagi daromadlarni hosil bo'lishini ifodalaydi. Bu schyotni ko'rsatkichlari asosida yalpi milliy tuzatilgan ixtiyoridagi daromadlarni hisoblanadi.



- * Natura holatidagi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti ko'rsatkichlari orqali uy xo'jaligini turmush darajasini qanday o'zgarayotganligini tahlil etish imkoniyati yaratiladi;
- * Davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari aholi himoya qilish maqsadida uy xo'jaligini iste'moliga ajratilgan moliyaviy resurslarni tahlil qilish mumkin

5.7-rasm. Natura holatidagi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti

O‘quv materiallari

1. Daromadlar to‘g‘risidagi umumiy konsepsiya va MHTda daromadlar ko‘rsatkichlari

Bozor munosabatlari amal qilayotgan iqtisodiyotda daromad kategoriyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni ikki miqyosda ko‘rib chiqish mumkin: makromiqyosda va mikromiqyosda. Mikromiqyosdagi daromadlar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy jarayonlarda qatnashishi natijasida olgan ixtiyoriy daromadlardan iborat bo‘lib, ularning hisobi buxgalteriya hisobida to‘liq aks ettiriladi. Makromiqyosdagi daromadlar buxgalteriya hisobidagi daromadlarga mos kelmaydi va ularni mikromiqyosdagi daromadlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘sish orqali hosil qilib bo‘lmaydi.

MHT-93 da qo‘llaniladigan daromad konsepsiyasi ingliz olimi Jon Xiksning daromad ta’rifiga asoslanadi. Uning “Qiymat va kapital” asarida keltirilgan daromad ta’rifining asosiy mohiyati quyidagicha: “Ma’lum davr boshida mavjud bo‘lgan kapitalning qiymatini davr oxirida saqlab qolgan holda iste’mol uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan barcha mablag‘larning maksimal yig‘indisi – shu davrda hosil bo‘lgan daromaddir”. Ya’ni aholining qashshoqlashmasdan yoki qarz bo‘lмаган holda iste’moli va jamg‘arishi uchun sarflanadigan mablag‘lardir.

Jon Xiks nazariy tahlilga daromadning ikki kategoriyasini kiritadi, ya’ni kutilgan tushumlar (ex-ante) va haqiqiy tushumlar (ex-post). Uning fikriga ko‘ra makroiqtisodiy tahlilda daromadlarning 1-kategoriyasidan foydalanish zarur, chunki kutilgan tushumlar real daromadlarni aks ettirib, haqiqiy tushumlardan inflyatsiya va boshqa omillar natijasida aktivlar qiymatining o‘zgarishi natijasida hosil bo‘ladi.

Jon Xiksning daromadlar konsepsiyasidan bir necha xulosalar kelib chiqadi.

Birinchidan, har qanday pul tushumlari daromad bo‘la olmaydi. Albatta mahsulot sotishdan tushgan tushumning ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash uchun sarflangan qismini daromad deb bo‘lmaydi.

J.Xiks konsepsiyasining daromad ta’rifida faqat takror ishlab chiqariladigan kapitalni hisobga olinadi. Masalan, biror kishi sotilgan uyidan olingan mablag‘ni bankka qo‘yib, shu mablag‘dan tushgan foiz hisobiga yashyotgan bo‘lsa, uyni sotishdan olingan mablag‘ daromab bo‘la olmaydi, chunki bu holda aktivlar shaklining o‘zgarishi sodir bo‘ladi, ya’ni aktiv moddiy shakldan moliyaviy shaklga o’tadi. Bankdan olingan foizlar esa, aynan daromad hisoblanadi.

Agar sotilgan uyidan olingan mablag‘ning bir qismi iste’mol tovarlarini sotib olishga sarflansa, bu holda daromad nolga teng bo‘ladi va jamg‘arma shu sarf etilgan qismga kamayadi. Agar iste’mol tovarlarini sotib olish uchun qarz yoki kredit olingan bo‘lsa, bu holda ham daromad nol darajada qayd etiladi.

Ikkinchidan, naqd pullarning ko‘payishi, yoki bankdag‘i depozitlar va boshqa moliyaviy aktivlarning ko‘payishini jamg‘armaning ko‘payishiga tenglashtirib bo‘lmaydi, chunki moliyaviy aktivlarning ko‘payishi, yoki aktiv shaklining o‘zgarishi sababli ro‘y berishi mumkin. Masalan, naqd pulning ko‘payishi aksiyalarni sotish evaziga yoki qarz olish evaziga ko‘payishi mumkin, yoki jamg‘armaning bir qismi moddiy aktivlarni sotib olishga sarflanishi mumkin. Bu holda ixtiyordagi daromad tarkibida pirovard iste’mol xarajatlari hajmining ortishi va jamg‘arma hajmining kamayishi sodir bo‘ladi.

Uchinchidan, tasodify sabablar ta’sirida yoki tashqi omillar ta’sirida kapital qiymatining ortishi daromad bo‘lib hisoblanmaydi, masalan, inflyatsiya natijasida aktivlar qiymatining ortishi, metro qurilganligi sababli uning yonida joylashgan uy bahosining qimmatlashishi va boshqalar.

Demak, har qanday moddiy aktivlarning moliyaviy aktivlariga aylanishi, moliyaviy aktivlar shaklini o‘zgarishi, aktivlar qiymatining inflyatsiya natijasida o‘zgarishi daromad bo‘lib hisoblanmaydi.

BMTning MHT 1993-yildagi yangi variantida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning yangi ta’rifi va klassifikatsiyasi qo‘llaniladi: YaIM, milliy daromad, ixtiyoridagi daromad, jamg‘arma va boshqalar.

Milliy daromad (tashqi aloqani hisobga olmaganda) iqtisodiyotning qo'shilgan qiymatiga teng yoki barcha iqtisodiy sektorlar yaratgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisiga teng. Shu sababdan daromadga quyidagilar kirmaydi:

- aktivlar qiymatining o'zgarishi;
- inflyatsiya sababli mol-mulk qiymatining oshishi.

Inflyatsiya tufayli mahsulot qiymatining oshishiga xolding foydasi deyiladi.

Masalan, yil boshida bir korxona 100 birlik mahsulotni har birini 5 so'mdan ishlab chiqardi va uni 3 oydan keyin 8 so'mdan, jami 800 so'mga sotdi. Bunda 300 so'm xolding foydasi bo'ladi.

Xolding foydasini hisobga olib, MHT 1993-yilda ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$P = R + L - M \quad (1)$$

Bunda:

P - *yalpi mahsulot qiymati*;

R - *realizatsiya qilingan mahsulot qiymati*;

L - *mahsulotning zahiraga jo'natilgan paytdagi qiymati*;

M - *mahsulotning zahiradan olingan paytdagi qiymati*

$$P = R + L - M = 800 + 500 - 800 = 500.$$

MHTda daromad ko'rsatkichlari. J.Xiks konsepsiyaga muvofiq daromad ko'rsatkichlari quyidagilar:

- birlamchi daromadlar;
- pul shaklidagi joriy transfertlar;
- mavjud ixtiyordagi daromadlar;
- natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar;
- tuzatish kiritilgan ixtiyoridagi daromadlar;
- yalpi milliy ixtiyordagi daromad.

Birlamchi daromadlar - ishlab chiqarish va institutsional birlik ixtiyorida bo'lgan kapitalni tasarruf etish jarayonida hosil bo'ladigan daromadlardir. Ularga mehnat haqi, foyda, aralash daromad, mulkdan olingan daromad, ishlab chiqarish va import soliqlari kiradi. Soliqlar davlatning birlamchi daromadi hisoblanadi.

2. Daromadlarning shakllanish schyoti va uning ko'rsatkichlari

Daromadlarning shakllanish schyoti. Daromadlarning shakllanish schyotining asosiy vazifasi ishlab chiqarish natijasida qanday turdag'i birlamchi daromadlar hosil bo'lishini aks ettirishdan iborat. Schyotning resurs qismida, ishlab chiqarish schyotini balanslashtiruvchi ko'rsatkich YaIM (YaQQ), ishlab chiqarish va importga berilgan subsidiyadan iborat. Schyotni foydalanish qismidagi YaIM (YaQQ)ni birlamchi taqsimlash elementlari: xizmatchilarning mehnat haqi, ishlab chiqarish va import solig'i, yalpi foyda va yalpi aralash daromaddan iborat. Yalpi foyda va yalpi aralash daromad ushbu schyotning balanslashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, sof holda ham hisoblanadi, ya'ni yalpi foydadan asosiy kapital iste'molini ayirish orqali. Daromadlarni shakllanish schyotining umumiy ko'rinishi quyidagicha (rasm 1.).

Foydalanish	Resurslar
<p>4. Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi</p> <p>5. Ishlab chiqarish va import solig'i.</p> <p>5.1. Mahsulot solig'i.</p> <p>5.2. Boshqa ishlab chiqarish solig'i.</p> <p>5.3. Import solig'i</p> <p>6. Yalpi foyda va yalpi aralash daromad (3-4-5)</p> <p>7. Asosiy kapital iste'moli</p> <p>8. Sof foyda va sof aralash daromad (6-7)</p>	<p>1. YaIM (bozor bahosida)</p> <p>2. Ishlab chiqarish va importga berilgan subsidiya</p> <p>2.1 Mahsulotga berilgan subsidiya (import ham ichida)</p> <p>2.2 Ishlab chiqarishga berilgan subsidiya</p>
Jami: 4 + 5 + 6	Jami: 1+2

1-rasm. Daromadlarning shakllanish schyoti sxemasi

Daromadlarni birlamchi taqsimlash schyoti. Ushbu schyot sektorlar va butun iqtisodiyot bo'yicha tuziladi. Schyotning umumiy tuzilishi quyidagi rasmda berilgan (2-rasm).

<i>Foydalanish</i>	<i>Resurslar</i>
6. Mulkdan daromad (berilgani) 7. Norezidentlarning mehnat haqi. 8. Yalpi milliy daromad (birlamchi daromad qoldig'i) 1+2+3+4+5— 6—7	1. Yalpi foyda va yalpi aralash daromad. 2. Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi 3. Ishlab chiqarish va importga solingan soliqlar. 4. Ishlab chiqarishga berilgan subsidiyalar 5. Mulkdan daromad (olingani)
Jami: 6+7+8	Jami: 1 + 2 + 3 + 4 + 5.

2-rasm. Daromadlarni birlamchi taqsimlash schyoti sxemasi

Ushbu schyotdagi ishlab chiqarish va importdan olinadigan soliqlar davlat tashkilotlarining oladigan birlamchi daromadi hisoblanadi. Daromad va boylikdan olinadigan soliqlar esa daromadlarning ikkilamchi taqsimlash schyotida hisobga olinib, transfertlar tarkibiga kiritiladi.

Mulkdan olingan daromad - bir institutsional birlikning o‘ziga tegishli bo‘lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa institutsional birlikka foydalanishga berishdan olinadigan daromadlar. Mulkdan olingan daromadga quyidagilar kiradi:

- foizlar;
- dividendlar;

-chet eldan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya qilish natijasida olinadigan reinvestitsion daromad;

- renta;
- sug‘urta polisidan olinadigan daromad.

Mehnat haqiga quyidagilar kiradi:

- yalpi ish haqi;
- haqiqiy ijtimoiy sug‘urta ajratmalari;
- shartli ijtimoiy sug‘urta ajratmalari.

Mulk daromadi YaQQdan rezidentlarga va norezidentlarga beriladi. Bularning farqi esa chetdan kelgan sof birlamchi daromad deyiladi.

Quyidagi jadvalda sektorlarning birlamchi daromadlar qoldig‘ini hisoblash usuli ko‘rsatilgan:

1-jadval

Sektorlar bo‘yicha birlamchi daromadlar qoldig‘ining shakllanishi

	Nomoliyaviy korxona	Moliyaviy korxona	Davlat boshqaruv i organi	Uy xo‘jaligi	UXXKNT T
1. Mehnat haqi	-	-	-	A14	-
2. Sof foyda	A21	A22	A23	A24	A25
3. Sof aralash daromad	-	-	-	A34	-
4. Ishlab chiqarishga va importga to‘lanadigan soliq	-	-	A43	-	-
5. Ishlab chiqarishga beriladigan subsidiya	-	-	A53	-	-
6. Mulkdan foydalanganlik uchun olingan daromad	A61	A62	A63	A64	A65
7. Mulkdan foydalanganlik uchun to‘langan daromad	A71	A72	A73	A74	A75
Birlamchi daromad qoldig‘i	A21+A61-A71	A22+ A62 - A72	A23 + A43 - A53 + A63-A73	A14+ A24 + A34+ A64 - A74	A25+A65 - A75

Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyoti va uning ko‘rsatkichlari. Birlamchi daromadlar – mehnat haqi, foyda, aralash daromad, ishlab chiqarish va import soliqlari hamda mulk daromadlari MHTda institutsional birliklarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashganlari uchun berilgan daromad deb qaraladi. Keyingi bosqichda sektorlarning birlamchi daromadlarini qayta o‘zaro taqsimlash operatsiyasi yuzaga keladi. Bunday operatsiyalar bir tomonlama yo‘nalgan bo‘lib, transfertlar deb ataladi. Transfertlar ikki xil bo‘ladi:

- joriy transfertlar;

- kapital transfertlar.

Transfertlarga misol qilib, joriy mol-mulk va daromad soliqlari, ijtimoiy sug‘urta ajratmalar, byudjetdan beriladigan ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalar, ehsonlar, ixtiyoriy to‘lovlar, muruvvat yordami, jarima va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Sektorlararo qayta taqsimlash natijasida bir sektorda birlamchi daromad ko‘payadi, boshqasida esa kamayadi va bu schyotda quyidagicha qayd etiladi (rasm 3.)

Foydalanish	Resurslar
6. Daromad, boylik va boshqalar uchun joriy soliq. 7. Ijtimoiy sug‘urta ajratmasi. 8. Ijtimoiy nafaqa (natura shaklidagi ijtimoiy transfertdan tashqarii). 9. Boshqa joriy transfertlar 10. Ixtiyordagi daromad (1+2+3+4+5-6-7-8-9).	1. Birlamchi daromad qoldig‘i. 2. Daromad, boylik va boshqalar uchun joriy soliq 3. Ijtimoiy sug‘urta ajratmasi 4. Ijtimoiy nafaqa (natura shaklidagi ijtimoiy tansfertdan tashqari) 5. Boshqa joriy tarnsfertlar
Jami (6+7+8+9+10)	Jami (1+2+3+4+5)

3-rasm. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyoti sxemasi

Iqtisodiyotning chet eldan olgan joriy transfertlari qiymati chet elga berilgan joriy transfertlari qiymatiga teng emas. Shuningdek, ichki iqtisodiyot sektorining olgan va bergen joriy transfertlari saldosi nolga teng emas. Asosan uy-xo‘jaligi sektorida musbat, nomoliyaviy va moliyaviy sektorda manfiy. Davlat sektorida saldo nolga yaqin, sababi davlat boshqaruvi organlari sektorining asosiy vazifasi olgan joriy transfertlarini aholiga tarqatishdan iborat.

Ixtiyordagi daromad takror taqsimlanuvchi daromad hisobida balanslantiruvchi ko‘rsatkichdir. Bu ko‘rsatkich institutsional birlik yoki sektorlarning birlamchi daromadi qoldig‘iga barcha joriy transfertlarni (sektorning natura shaklidagi ijtimoiy transferti bundan mustasno) qo‘shish hamda bu birliklar va sektorlar tomonidan pul shaklida to‘lanadigan transfertlarni chegirib tashlash natijasida hosil bo‘ladi.

Barcha iqtisodiy sektorlar olgan ixtiyordagi daromadlari yig‘indisi milliy ixtiyordagi daromadga (yalpi yoki sof) tengdir.

Iqtisodiyotning yalpi milliy ixtiyordagi daromadi (YaMID) YaMDdan chet eldan olingan joriy transferlar saldosiga ko‘pdir.

Mavzuga doir testlar

1. Uy xo‘jaligi sektorining daromadlari quyidagicha aniqlanadi:

- a) yollanma ishchi-xizmatchilar ish haqi + ish beruvchilarning ijtimoiy sug‘urtaga ajratmasi + aralash daromad;
- b) ishchi-xizmatchilar tomonidan olingan pul daromadlari, moddiy va xizmat ko‘rinishdagi olgan daromadlari hamda aralash daromad yig‘indisi tushuniladi;
- c) yollanma ishchi-xizmatchilar ish haqi hamda moddiy va xizmat ko‘rinishidagi olgan daromadlaridan iborat;
- d) ish haqi+aralash daromad +oligan transferlar.

2. Daromadlarni shakllanish schyoti tuziladi:

- a) sektorlar va iqtisodiyot bo‘yicha;
- b) tarmoqlar, sektorlar va iqtisodiyot bo‘yicha;
- c) tarmoqlar va sektorlar bo‘yicha;
- d) faqat iqtisodiyot bo‘yicha.

3. Daromadlarni shakllanish schyotini tuzishdan maqsad:

- a) ishlab chiqarish jarayonini ifodalash va u bilan bog‘liq daromadlarni taqsimlash uchun;
- b) daromadlarni shakllanishi bilan bog‘liq iqtisodiy operatsiyalarni tavsiflash uchun;
- c) to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq iqtisodiy operatsiyalarni taqsimlanishi tavsiflash uchun;
- d) yalpi ichki mahsulotni daromadlarni taqsimlash usulida hisoblash uchun.

4. Daromadlarning shakllanishi yig‘ma schyotini resurs ustuni qanday ko‘rsatkichlardan iborat?

- a) yalpi milliy ixtiyordagi daromad;
- b) yalpi qo‘shilgan qiymat;
- c) yalpi milliy daromad;

d) yalpi ichki mahsulot.

5. Daromadlarning shakllanishi yig‘ma schyotini foydalanish ustunida qanday ko‘rsatkichlar aks ettiriladi?

- a) yollangan xizmatchilarni mehnat haqi, ishlab chiqarish va import so‘f solig‘i, yalpi foyda va aralash daromad;
- b) faqat ishlab chiqarish va import so‘f solig‘i;
- c) faqat ishlab chiqarish va import uchun subsidiya;
- d) faqat yalpi milliy ixtiyordagi daromad.

6. Tarmoq va sektorlarning daromadlarning shakllanish schyotini balanslantiruvchi ko‘rsatkichi:

- a) yalpi foyda va yalpi aralash daromad;
- b) yalpi qo‘shilgan qiymat;
- c) yalpi milliy daromad;
- d) yalpi ixtiyoridagi daromad.

7. Iqtisodiyot bo‘yicha daromadlarni shakllanish schyotining balanslantiruvchi ko‘rsatkichi:

- a) yalpi milliy daromad;
- b) yalpi ichki mahsulot;
- c) iqtisodiyotni yalpi yalpi foydasi va aralash daromadi;
- d) yalpi milliy ixtiyordagi daromad.

8. Daromadlarni birlamchi taqsimlash schyoti tuziladi:

- a) sektorlar va yaxlit iqtisodiyot uchun;
- b) tarmoqlar, sektorlar va yaxlit iqtisodiyot uchun;
- c) tarmoqlar va sektorlar uchun;
- d) yaxlit iqtisodiyot uchun.

9. Daromadlarni birlamchi taqsimlash yig‘ma schyotini “foydalanish” ustuni qanday iqtisodiy ko‘rsatkichlardan tashkiltopgan:

- a) tashqi dunyoga berilgan mulk daromadi;
- b) tashqi dunyodan olingan mulk daromadi;
- c) yalpi milliy daromad, tashqi dunyoga berilgan mulk daromadi;
- d) birlamchi daromad qoldig‘i.

10. Iqtisodiy sektorlarni daromadlarni birlamchi taqsimlash schyotini balanslantiruvchi ko'rsatkichi-bu:

- a) yalpi milliy daromad;
- b) yalpi ixtiyoridagi daromad;
- c) birlamchi daromadlar qoldig'i (yalpi);
- d) yalpi milliy ixtiyoridagi daromad.

11. Quyidagi ma'lumotlar asosida iqtisodiyotni yollangan xizmatchilarni mehnat haqi ko'rsatkichini hisoblang: (mln so'mda)

1.YaIChaso as. bahoda 3831,83; mahsulot va import solig'i-269,1; mahsulot va import uchun subsidiya 86,61; oraliq iste'mol 1868,66; boshqa ishlab chiqarish sof solig'i 108,17; iqtisodiyotning yalpi lpi foyda va yalpi aralash daromadi 790,82

- a) 1064,18 mln so'm;
- b) 977,57 mln so'm;
- c) 869,4 mln so'm;
- d) 579,08 mln so'm.

**12. Quyidagi shartli ma'lumotlar asosida daromadlarning shakllanish schyotini,mehnat haqi ko'rsatkichini hisoblang.
Ma'lumotlar shartli mln so'mda**

Ish haqi 101,0; xizmatchilarni mukofotlash haqi 22; haqiqiy sug'urta ajratma to'lovi 24,9; xizmatchilarga ovqatlanish un berilgan dotatsiya 0,5; shartli sug'urta ajratma to'lovi 12; dam olish uylariga berilgan yo'llanma haqlari 2,0; Ishlovchi pensionerlarga to'langan nafaqa 1,0; vaqincha kasallik sababli berilgan nafaqa 7,0

- a) 140,0 mln so'm;
- b) 180,4 mln so'm;
- c) 173,4 mln so'm;
- d) 162,4 mln so'm.

13. Iqtisodiyotni daromadlarni birlamchi taqsimlash yig'ma schyotini balanslantiruvchi ko'rsatkichi-bu:

- a) yalpi milliy ixtiyoridagi daromad;
- b) birlamchi daromad qoldig'i (yalpi);
- c) yalpi ixtiyoridagi daromad;
- d) yalpi milliy daromad.

14. Daromadlarning ikkilamchi taqsimlash schyoti tuziladi:

- a) tarmoqlar va iqtisodiyot bo'yicha;

- b) tarmoqlar, sektorlar va iqtisodiyot bo'yicha;
- c) sektorlar va iqtisodiyot bo'yicha;
- d) faqat iqtisodiyot bo'yicha.

15. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyotini tuzishdan maqsad:

- a) ikkilamchi daromadlarni institutsional birliklar va iqtisodiy sektorlar o'rtasi pul ko'rinishidagi joriy transfertlar olish va berish operatsiyalarini ifodalash uchun tuziladi;
- b) ikkilamchi daromadlarni institutsional birliklar va iqtisodiy sektorlar o'rtasida natura holida qayta taqsimlash operatsiyalarini ifodalash uchun tuziladi;
- c) ikkilamchi daromadlarni institutsional birliklar va iqtisodiy sektorlar o'rtasida pul va natura holidagi joriy transfertlarni olish va berish operatsiyalarini ifodalash uchun tuziladi;
- d) yalpi milliy daromad ko'rsatkichini hisoblash uchun tuziladi.

16. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash yig'ma schyotini resurslar ustuni qanday ko'rsatkichlardan tashkil topgan?

- a) yalpi ixtiyoridagi daromad;
- b) yalpi milliy daromad va olingan joriy transfertlar;
- c) tashqi dunyodan olingan joriy transfertlar;
- d) tashqi dunyoga berilgan joriy transfertlar.

17. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash yig'ma schyotini foydalanish ustuni qanday ko'rsatkichlardan tashkil topgan?

- a) tashqi dunyoga berilgan joriy transfertlar va yalpi milliy ixtiyoridagi daromaddan;
- b) tashqi dunyodan olingan joriy transfertlardan;
- c) yalpi ixtiyoridagi daromaddan;
- d) yalpi milliy ixtiyoridagi daromaddan.

18. Iqtisodiy sektorlarning "Daromadlarnng ikkilamchi taqsimlash schyotini blanslashtiruvchi ko'rsatkichi" bu:

- a) yalpi tuzatilgan ixtiyoridagi daromad;
- b) yalpi milliy ixtiyoridagi daromad;
- c) yalpi ixtiyoridagi daromad;
- d) yalpi milliy tuzilgan ixtiyoridagi daromad.

19. Iqtisodiyotning daromadlarni ikkilamchi taqsimlash yig‘ma schyotini balanslashtiruvchi ko‘rsatkichi: bu-

- a) yalpi tuzatilgan ixtiyoridagi daromad;
- b) yalpi milliy daromad;
- c) yalpi milliy ixtiyoridagi daromad;
- d) yalpi milliy sof daromad.

20. Quyidagi ma’lumotlar asosida “Daromadlarning ikkilamchi taqsimlash schyotini tuzing va schyotni balanslashtiruvchi ko‘rsatkich yalpi milliy ixtiyoridagi daromadni hisoblang:mln so‘m

YaMD-14233,2; tashqi dunyodan olingan joriy transfertlardan-45,4; tashqi dunyoga berilgan joriy transfertlardan-41,6

- a) 14237,0 mln so‘m;
- b) 14191,6 mln so‘m;
- c) 14278,6 mln so‘m;
- d) 14320,2 mln so‘m.

21. Natura holatidagi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti:

- a) sektorlar va iqtisodiyot bo‘yicha tuziladi;
- b) tarmoqlar,sektorlar va iqtisodiyot bo‘yicha tuziladi;
- c) uy xo‘jaligi,uy xo‘jaliklariga xizmat qiluvchi tashkilotlar va davlat boshqaruva tashkilotlari sektorlari bo‘yicha tuziladi;
- d) yaxlit iqtisodiyot bo‘yicha tuziladi.

22. Natura holatidagi daromadlarni qayta taqsimlash schyotini tuzishdan maqsad:

a) uy xo‘jaligi sektori, davlat boshqaruva idoralar va uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlaridan natura ko‘rinishida olingan va berilgan joriy transfert tufayli, tuzatilgan ixtiyoridagi daromad ko‘rsatkichiga ega bo‘lishini ifodalash uchun;

b) uy xo‘jaligi sektori,davlat boshqaruva idoralar va uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlaridan joriy transferti pul ko‘rinishida olib,tuzatilgan ixtiyoriy daromadini shakllantirishni ifodalash uchun;

c) uy xo‘jaligi sektori,davlat boshqaruva idoralar va uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlaridan pul va natura ko‘rinishida olingan va berilgan joriy transferti tufayli,tuzatilgan ixtiyoridagi daromadlar ko‘rsatkichini ifodalash uchun;

d) milliy ixtiyoridagi daromad ko‘rsatkichini hisoblash uchun.

23. Natura holatidagi daromadlarni qayta taqsimlash yig‘ma schyotining resurslar ustuni qanday ko‘rsatkichlardan iborat?

- a) tashqi dunyodan olingan natura ko‘rinishda joriy transfert;
- b) yalpi milliy daromad ijtimoiy natura ko‘rinishdagi transfertlarni tashqi dunyodan olingan;
- c) yalpi milliy ixtiyoridagi daromad, tashqi dunyodan olingan ijtimoiy natura ko‘rinishdagi transfertlar;
- d) tashqi dunyoga berilgan natura ko‘rinishdagi transfertlar.

24. Natura holatidagi daromadlarni qayta taqsimlash yig‘ma schyotini foydalanish ustuni qanday ko‘rsatkichlardan iborat?

- a) yalpi milliy tuzatilgan ixtiyoridagi daromad va tashqi dunyoga berilgan natura holatida joriy transfertlar;
- b) yalpi milliy daromaddan va tashqi dunyoga berilgan natura ko‘rinishdagi joriy transfertlar;
- c) tashqi dunyodan natura holatida olingan ijtimoiy transfertlar;
- d) tashqi dunyoga natura holatida berilgan ijtimoiy transfertlar.

25. Quyidagi ma’lumotlar asosida “Natura holatidagi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti” ning yalpi milliy tuzatish kiritilgan daromadni hisoblang.

Yalpi milliy ixtiyoridagi daromad 14237,0; tashqi dunyodan olingan natura holatidagi ijtimoiy transfertlar 30,0; tashqi dunyoga berilgan natura holatidagi ijtimoiy transfert 20,0

- a) 14247,0 mln so‘m;
- b) 14257,0 mln so‘m;
- c) 14220,0 mln so‘m;
- d) 14347,0 mln so‘m.

5.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi

<i>Talabalar soni 25-30 gacha</i>	<i>vaqtি 2-soat</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	<i>Amaliy mashg‘ulotlarda chuqurlashtirish va bilimni kengaytirish jarayoni.</i>
<i>Amaliy mashg‘ulotda muhokama qilinadigan savollar.</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Daromadlar to‘g‘risida tushanchalar va ularni tasnifi. 2. Birlamchi daromadlar va ularni tarkibi, hisoblash usullari. 3. Daromadlarni shakllanish schyotini tuzishga oid mashqlar. 4. Yalpi milliy daromad, uni tarkibi va uni hisoblash. 5. Yalpi milliy ixtiyordagi daromad, uni tarkibi va uni hisoblash.
<i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i> Mavzu bo‘yicha bilimni chuqurlashtirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyatning natijalari:</i>
<ol style="list-style-type: none"> 1. Mehnat haqi va uning tarkibiy qismini hisobga olish va hisoblash usullarini tushuntirish. 2. Asosiy kapital(fond) iste’moli hisoblash usulini o‘rgatish. 3. Daromadlarning shakllanish schyotini tuzishga oid mashqlarni tushuntirish. 4. Daromadlarni birlamchi taqsimlash, schyotini tuzishga oid mashq, daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyotini tuzishga oid mashqlarni bajarishtirish. 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Mehnat haqi va uning tarkibiy qismini hisobga olish hamda hisoblash usullarini tushunish. 2. Asosiy kapital(fond) iste’moli hisoblash usulini o‘rganish. 3. Daromadlarni shakllanish schyotini tuzishga oid mashqlarni bajara olish. 4. Daromadlarni birlamchi taqsimlash schyotini tuzishga oid mashq, daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyotini tuzishga oid mashqlarni bajara olish.
<i>O‘quv uslubi</i>	“Doira” stol, grafik organayzer: mantiqan tizimli chizma.
<i>O‘qitish shakli</i>	Guruhlarda ishslash, frontal va jamoa, juftliklarda ishslash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar, flip-chatlar, flomasterlar.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishslash uchun mo‘ljallangan auditoriya. Yoritilgan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Mustaqil o‘rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar va vaqt	<i>Faoliyat mazmuni</i> o‘qituvchi	talaba
1-bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 min.)	<p>1.1. Mavzu nomini aytadi, rejalashtirilgan natijalarni va uni o‘tkazish jarayoni bilan tanishtiradi. Birgalikda guruhlar bilan texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonini tushuntiradi. Adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Tayanch iboralar tushunchalari orqali so‘rovnoma olib boradi. Savol tashlaydi va 1-2 ta javoblarni eshitib bo‘lgach, keyingi muhokamalarni guruhlar ishlarini bajarib, natijalarni prezentatsiya jarayonida eshitishni e’lon qiladi.</p> <p>1.3. Har bir talaba individual tarzda guruhlardagi baholanish bilan birga baho olishini va guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi.</p>	<p>Eshitadi va yozib boradi</p> <p>Munozarada qatnashadi, savollarga javob beradi.</p> <p>Eshitadi.</p>
2-bosqich Guruhlarda ishlash (60 min)	<p>2.1. Talabalarni 4 guruhga bo‘ladi. O‘quv vazifalarni tarqatadi. Qanday natijalarga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi.</p> <p>2.2. Natijaviy ko‘rsatkichlarni sharhlaydi. Qanday qo‘srimcha materiallar bilan foydalanish mumkinligini tushuntiradi (darslik, ma’ruza matnlari, o‘quv qo’llanma).</p> <p>2.3. O‘zaro guruhlarda olingan natijalarni prezentatsiya qilish va ularni baholanishni tashkil qiladi. Qilingan ish jarayonidagi xulosalar keltiriladi va alohida e’tiborga loyiq guruhlar jarayoni ketadi.</p>	<p>Eshitadi, ishni bajarishni boshlaydi.</p> <p>Hisoblaydilar va tahlil qiladilar.</p> <p>Birgalikda qilingan prezentatsiya chiqishlari ko‘rsatiladi.</p>
3-bosqich Yakuniy bosqich (10 min)	<p>3.1. Amaliyot natijalarini yakunlaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish mavzusini aytadi va vazifa beradi: “Daromadlarni shakllanishi, taqsimlanishi, ikkilamchi taqsimlanishi schyotlarini tuzishga oid mashqlar”.</p>	<p>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.</p> <p>3.2. Topshiriqni yozib oladi</p>

Uslubiy ko‘rsatmalar va namunaviy misollar yechish

MHT tizimining afzalliklaridan biri ishlab chiqarish bilan birga, taqsimlash va qayta taqsimlash operatsiyalarini ham ko‘rib chiqadi. Bu operatsiyalar daromadlarning shakllanishi, birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlarida yoritiladi.

Daromadlarning shakllanish schyoti

Daromadlarning shakllanishi schyoti ishlab chiqarishda ishtirok etuvchilarning birlamchi daromadlarini hosil bo‘lish jarayonini ifodalaydi. Birlamchi daromadlar YaQQ ko‘rsatkichini tashkil qiluvchi ko‘rsatkichlar tarkibini ifodalaydi.

Schyotni umumiyoq ko‘rinishi quyidagicha:

Foydalanish	Resurslar
3. Mehnat haqi 3.1. Yollangan xizmatchilarni ish haqi 3.2. Ijtimoiy sug‘urta ajratmasi	1. YaIM (YaQQ)
4. Ishlab chiqarish va import uchun soliq	2. Ishlab chiqarish va import uchun subsidiya
5. Yalpi foyda (aralash daromad) (5=1+2-3-4)	
6. Asosiy kapital (fondlar) iste’moli	
7. Sof foyda (aralash daromad) (7=5-6)	
Jami: (3+4+7)	Jami: (1+2)

Schyotning “resurslar” qismida iqtisodiyot darajasida YaIM, tarmoqlar va sektorlar darajasida esa YaQQ ko‘rsatkichi bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish schyotini foydalanish qismidan tushiriladi hamda davlat tomonidan ishlab chiqarish va import uchun berilgan subsidiyadan iborat.

Schyotning “resurslardan foydalanish” qismida ishlab chiqarishda yaratilgan YaQQ (YaIM) va uni yaratuvchilarga taqsimlash jarayoni ifodalanadi.

▫ Ishlab chiqarishda qatnashgan yollangan xizmatchilarga to‘langan mehnat haqidan iborat. U ish haqi va ijtimoiy sug‘urta ajratmasidan tashkil topadi.

▫ Ishlab chiqarish va import uchun soliq bu – ishlab chiqarishda qatnashgan ishlab chiqarish omillariga (mehnat, tabiiy resurs) berilgan majburiy to‘lovlardan iborat.

▫ Schyotni balanslashtiruvchi ko‘rsatkichi-bu, yalpi foyda yoki aralash daromaddir. Agarda daromadlarning shakllanishi schyoti uy xo‘jaliklari sektori bo‘yicha tuzilayotgan bo‘lsa, schyotni balanslashtiruvchi ko‘rsatkichi aralash daromad deyiladi. Sababi uy xo‘jaligi sektorida ish haqi bilan foydaning egasi bitta – uy xo‘jaliklari bo‘ladi.

Yalpi foyda yoki aralash daromadlarni hisoblash algoritmi quyidagicha:

Iqtisodiyot uchun:

Yalpi foyda (aralash daromad) = YaIM + ishlab chiqarish va import uchun subsidiya – mehnat haqi – ishlab chiqarish va import uchun soliq;

Sektorlar va tarmoqlar uchun:

Yalpi foyda (aralash daromad) =YaQQ + boshqa ishlab chiqarish uchun subsidiya – mehnat haqi – boshqa ishlab chiqarish uchun soliq

Daromadlarning shakllanish schyotining ko‘rsatkichlarini tahlil qilishning asosiy yo‘nalishi.

Daromadlarning shakllanish schyotini ko‘rsatkichlarini tahlil qilish quyidagi yo‘nalishda olib boriladi:

▫ Iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlaridagi mehnat haqining YaQQdagi ulushining tahlili;

▫ Mehnat haqi bilan YaQQ o‘sish darajasini taqqoslangan tahlili orqali qo‘l mehnatining samaradorligini tahlili;

▫ YaQQdagi yalpi foydani o‘zgarishini soliq yukini o‘zgarmasligi hamda mehnat haqlarini YaQQdagi ulushlarini o‘zgarishiga solishtirib, tahlil qilish

▫ Mehnat unumdorligi bilan mehnat haqini solishtirma taqqoslab, tahlil qilish.

Daromadlarni birlamchi taqsimlash schyoti

Daromadlarning birlamchi taqsimlash schyotini tuzishdan maqsad, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan birlamchi daromadlarni ishlab chiqarishda qatnashganlarni ulushiga qarab taqsimlash operatsiyasini qayd etishdir. Birlamchi daromad deganda institutsional birliklarni ishlab chiqarishda qatnashganliklari tufayli to‘lashlari lozim bo‘lgan daromadlardan va o‘zlariga qarashli mulklardan boshqa birliklardan foydalanib, olgan daromadlari tushuniladi. Bularga foizlar, dividendlar, renta, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya qilish natijasida olinadigan reinvestitsiya daromadi hamda sug‘urta polisidan olinadigan daromad va boshqalar kiradi.

Shunday qilib, nomoliyaviy va moliyaviy sektorlarning birlamchi daromadga, yalpi foya + sof mulkdan olingan daromad (mulkdan olingan daromadlardan, mulkdan foydalanganligi uchun berilgan mulk daromadi farqi) bo‘ladi.

DBO sektorining birlamchi daromadlari: sof ishlab chiqarish va import uchun soliq, sof mulk daromadi va DBO tegishli nokorporativ korxonalarni foydalarining yig‘indisiga teng.

Uy xo‘jaliklarini birlamchi daromadlari mehnat haqi, aralash daromadlar va mulk daromadlar yig‘indisiga teng.

Uy xo‘jaliklariga xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlarning birlamchi daromadlari sof mulk daromadlaridan iborat.

Iqtisodiyot uchun daromadlarni birlamchi taqsimlash schyoti

<i>Foydalanish</i>	<i>Resurslar</i>
5.Tashqi dunyoga berilgan mulk daromadi	1.Yalpi foyda (aralash daromad)
6.Yalpi milliy daromad (6=1+2+3+4-5)	2.Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi 3.Sof ishlab chiqarish va import uchun soliq 4. Tashqi dunyodan olingan mulk daromadi
Jami:(5+6)	Jami:(1+2+3+4)

Daromadlarni birlamchi taqsimlash schyotining tuzilishi sektorlarning birlamchi daromadiga qarab, turli ko‘rinishda bo‘ladi.

Nomoliyaviy korxonalarining daromadlarini birlamchi taqsimlash schyotini umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

<i>Foydalanish</i>	<i>Resurslar</i>
3.To‘langan mulkiy daromadlar 4.Birlamchi daromad qoldig‘i (4=1+2-3)	1.Yalpi foyda 2.Olingan mulkiy daromadlar
Jami: (3+4)	Jami: (1+2)

Davlat boshqaruv organlarining daromadni birlamchi taqsimlash schyotining umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

<i>Foydalanish</i>	<i>Resurslar</i>
4. To‘langan mulkiy daromadlar 5. Birlamchi daromadlar qoldig‘i (5=1+2+3-4)	1. Yalpi foyda 2. Sof ishlab chiqarish va import uchun soliq 3. Olingan mulkiy daromadlar
Jami: (4+5)	Jami :(1+ 2+3)

Uy xo‘jaliklari sektorining daromadlarini birlamchi taqsimlash schyotini umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

Foydalanishi	Resurslar
4.Berilgan mulkiy daromadlar 5. Birlamchi daromad qoldig‘i (5=1+2+3-4)	1.Aralash daromadlar 2.Olingan mulkiy daromadlar 3.Mehnat haqi .
Jami: (4+5)	Jami :(1+2+3)

Yuqoridagi schyotlarni umumiy ko‘rinishidan ma’lumki, schyotni balanslashtiruvchi ko‘rsatkichi iqtisodiyotda yalpi milliy daromad, sektorlarda esa birlamchi daromad qoldig‘idir.

Yalpi ichki mahsulot tovarlar va xizmatlar oqimini, yalpi milliy daromad esa daromadlar oqimini o‘lchaydi. YaIM bilan YaMDning farqi tashqi dunyodan olingan va tashqi dunyoga berilgan birlamchi daromadlarni ayirmasiga teng.

Daromadlarning ikkilamchi taqsimlash schyoti

Schyotni tuzishdan maqsad institutsion sektorlar birlamchi daromadlarining joriy transfertlar sifatida sektorlar o‘rtasida qayta taqsimlash natijasida ixtiyoridagi yalpi daromadning hosil bo‘lishi jarayoni aks ettiriladi. Sektorlar o‘rtasidagi daromadlarning qayta taqsimlash operatsiyalarini transfertlar orqali amalga oshiradi.

Transfertlar - bir tomonlama iqtisodiy operatsiyalardan iborat bo‘lib, bunda institutsion birlikning ikkinchi institutsion birlikka tovar xizmatlar va aktivlarni (bepul) berib, evaziga ekvivalent tovar, xizmatlar va aktivlarni olmaslik jarayoni aks ettiriladi. Transfertlar joriy va kapital transfertlarga bo‘linadi. Transfertlarni joriy va kapitalga ajratilishining sababi ularning qay tarzda ishlatilishiga bog‘liq. Agarda transfertlar sifatida berilayotgan yoki olinayotgan aktivlar ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatilsa, bunday aktivlar kapital transfertlar, agarda oraliq yoki pirovard iste’mol sifatida ishlatilsa – joriy transfertlar hisoblanadi.

MHTda joriy transfertlar pul va natura holatida berilishi mumkin. Joriy transfertlarga quyidagilar kiradi:

- daromad va mulk uchun joriy soliqlar;
- ijtimoiy sug‘urta ajratmalar;
- ijtimoiy to‘lovlar;
- sug‘urta badallari va qoplamlari;
- ijtimoiy nafaqalar;
- turli qayta taqsimlash to‘lovlar (jarimalar, penyalar, xayr ehsonlar va h.k.).

Iqtisodiyotda daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyoti

<i>Foydalanish</i>	<i>Resurslar</i>
3.Tashqi dunyoga berilgan joriy transfertlar 4. Yalpi milliy ixtiyordagi daromad ($4=1+2-3$)	1.Yalpi milliy daromad 2.Tashqi dunyodan olingan joriy transfertlar
Jami:(3+4)	Jami: (1+2)

Schyotni balanslashtiruvchi ko‘rsatkichi iqtisodiyotda yalpi milliy ixtiyordagi daromad, sektorlardagi yalpi ixtiyordagi daromad ko‘rsatkichidir.

Shuni aytish lozimki, qayta taqsimot jarayonlari pul ko‘rinishidagi transfertlardan tashqari natura shaklidagi transfertlar orqali ham bo‘ladi. Bu transfertlar uy xo‘jaliklarning ayrim oilalarini ijtimoiy himoyalash va yordam maqsadida amalga oshiriladi. Bularni natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar deyiladi. Bu schyotning umumiy tuzilish chizmasi quyidagicha:

Natura shaklidagi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti

<i>Foydalanish</i>	<i>Resurslar</i>
3. Berilgan natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar 4. Tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromad ($4=1+2-3$)	1. Yalpi ixtiyordagi daromad 2. Olingan natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar
Jami: (3+4)	Jami: (1+2)

Natura shaklidagi transfertlarning oluvchisi faqat uy xo‘jaligi sektoridir, beruvchilar esa davlat boshqaruv organlari va uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektoridan iborat. Shu sababli bu schyot faqat shu sektorlar uchun tuziladi. Agarda uy xo‘jaliklari sektorining yalpi ixtiyordagi daromadiga natura shaklidagi olgan ijtimoiy transfertlarni qo‘sksak, ularning tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromadi bo‘lib, bu schyotni balanslashtiruvchi ko‘rsatkichidir.

Nomoliya va moliya korxonalari sektorining tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromadlari pul shaklidagi ixtiyordagi daromadlariga teng bo‘ladi. Sababi, bu sektorlar natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar olmaydilar va bermaydilar. Ular o‘rtasidagi natura shaklida olingan (berilgan) transfertlar joriy va kapital transfertlar sifatida qayd etiladi.

Ko‘rsatmali uslubiy masala

Iqtisodiyotning tovar ishlab chiqaruvchi korxonasingning ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar haqida ma’lumotlar berilgan. Shu ma’lumotlar asosida ishlab chiqarish, daromadlarning shakllanishi, daromadlarning birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlarini tuzing. *Ma’lumotlar shartli birlikda keltirilgan.*

Ko‘rsatkichlar	Miqdori
<i>Yalpi ishlab chiqarish</i>	150
Oraliq iste’mol xarajatlari	70
Boshqa ishlab chiqarish uchun soliq	10
Ishlab chiqarish uchun subsidiya	3
Yollanganlarning ish haqi	40
Haqiqiy ijtimoiy sug‘urta ajratmasi	8
Shartli ijtimoiy sug‘urta to‘lovlar	2
Tiklash amortizatsiyasi ajratmalari	6
Erdan foydalanganligi uchun to‘langan ijara haqi	9
Olingan dividendlar	7
Daromad solig‘i	6
Ijtimoiy sug‘urta to‘lovlar	2
Olingan boshqa joriy transfetlar	4

Jadvaldagি ma'lumotlardan foydalangan holda tovar ishlab chiqaruvchi nomoliyaviy korxonalar sektorining schyotlarini tuzamiz:

Ishlab chiqarish schyoti

Foydalanish		Resurslar	
2. Oraliq iste'moli	70	1.Yalpi ishlab chiqarilgan tovarlar	150
3. Yalpi qo'shilgan qiymat (3=1-2)	80		
Jami(2+3)	150	Jami (1)	150

2. Daromadlarning shakllanishi schyoti

Foydalanish		Resurslar	
3. Mehnat haqi	50	1. Yalpi qo'shilgan qiymat	80
3.1 Ish haqi	40	2. Ishlab chiqarish uchun subsidiya	3
3.2 Ijtimoiy sug'urta ajratmasi	10		
3.2.1 Haqiqiy ijtimoiy sug'urta ajratmasi	8		
3.2.2 Shartli ijtimoiy sug'urta ajratmasi	2		
4. Boshqa ishlab chiqarish solig'i	10		
5. Yalpi foyda (1+2-3-4)	23		
6. Asosiy fondlar iste'moli	6		
7. Sof foyda (5-6)	17		
Jami: (3+4+5+7)	83	Jami: (1+2)	83

3. Daromadlarni birlamchi taqsimlash schyoti

Foydalanish		Resurslar	
3. Berilgan mulk daromadi	9	1.Sof foyda	17
3.1 Renta	9	2. Olingan mulk daromadi	7
4. Sof birlamchi daromad qoldig'i (1+2-3)	15	2.1 Olingan dividendlar	7
Jami: (3+4)	24	Jami:	24

4. Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyoti

<i>Foydalanish</i>		<i>Resurslar</i>	
3.Berilgan joriy transfertlar	18	1.Sof birlamchi daromad qoldig‘i	15
3.1 Daromad solig‘i	6	2. Boshqa joriy transfertlar	4
3.2 Ijtimoiy sug‘urta to‘lovlar	12	2.1 Olingan joriy transfertlar	4
4. Sof ixtiyordagi daromad (1+2-3)	1		
Jami: (3+4)	19	Jami: (1+2)	19

Mustaqil ishlash uchun masalar

5.1-masala

Shartli mamlakatni daromadlar yig‘indisi usuli bilan bog‘liq quyidagi jadvalda yalpi ichki mahsulotning tarkibiy qiymati mavjud (joriy bahoda mlrd. so‘m).

№	Ko‘rsatkichlar	n-yil	(n+1) yil	(n+2)yil
1.	Yollangan xizmatchilar mehnat haqi	1711,2	2519,6	3143,1
2.	Mahsulot va import solig‘i	612,4	976,0	1374,1
3.	Boshqa ishlab chiqarish solig‘i	159,0	277,0	335,3
4.	Mahsulot va import subsidiyalar	28,3	37,9	29,0
5.	Boshqa ishlab chiqarish subsidiyalari	80,3	82,9	119,7
6.	Yalpi foyda va yalpi aralash daromad	2551,2	3812,1	5161,1

Yillarning har biri bo‘yicha aniqlang:

1. Ishlab chiqarish va import sof solig‘i
2. Yalpi ichki mahsulotni

5.2-masala

Mamlakatimiz iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar quyidagi ma’lumotlardan iborat (joriy baholarda, mlrd so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
1.	Yalpi ishlab chiqarish (asosiy bahoda)	6143,6
2.	Oraliq iste’mol	3295,7
3.	Mahsulot va import solig‘i	429,0
4.	Mahsulot va import subsidiyasi	21,3
5.	Rezidentlar mehnat haqi	1142,9
6.	Boshqa ishlab chiqarish solig‘i	58,9
7.	Boshqa ishlab chiqarish subsidiyalari	58,9

- Iqtisodiyotning yalpi foyda ko‘rsatkichini hisoblang;
- Ishlab chiqarish va daromadni shakllantirish schyotlarini tu-zing va tahlil qiling.

5.3-masala

Davlatning iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar quyidagi ma’lumotlardan iborat (joriy baholarda, mlrd. so‘m):

№	Ko‘rsatkichlar	n- yil	(n+1) yil	(n+2) yil
1.	Yalpi ishlab chiqarish (asosiy bahoda)	9325,2	14010,6	18234,4
2.	Oraliq iste’mol	4984,0	7498,4	9741,6
3.	Mahsulot va import solig‘i	612,4	976,0	1374,1
4.	Boshqa ishlab chiqarish solig‘i	159,0	277,0	335,3
5.	Mahsulot va import subsidiyasi	28,3	37,9	29,0
6.	Boshqa ishlab chiqarish subsidiyalari	80,3	82,9	119,7
7.	Mehnat haqi	1711,2	2519,6	3143,1
8.	Yalpi ichki mahsulot deflyatori, %	145,2	146,8	124,3

- Iqtisodiyotning yalpi foydasini hisoblang;
- Ishlab chiqarish va daromadning shakllanish schyotlarini tuzing va tahlil qiling.
- Yalpi ichki mahsulotni va yillar bo‘yicha o‘sish darajasini aniqlang.

5.4-masala

Quyidagi jadvalda iqtisodiy sektorlarning birlamchi daromadlari berilgan, (joriy bahoda, mlrd. so‘m).

№	Iqtisodiy sektorlar	YaQQ	Mehnat haqi	Boshqa ishlab chiqarish soʻsolig‘i	Yalpi foyda va aralash daromad
1.	<i>Nomoliyaviy korxonalar</i>	1940,6	950,1	70,1	920,4
2.	Moliya tashkilotlari	196,4	43,4	5,7	147,3
3.	Davlat boshqaruв idoralari	565,4	490,9	2,6	72,0
4.	Uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlar	29,9	24,6	0,2	5,1
5.	Uy xo‘jaliklari	1708,9	202,2	0,2	1506,5

Iqtisodiy sektorlarni birlamchi daromadlarini, iqtisodiyotning birlamchi daromadlardagi ulushini aniqlab, o‘zingiz xulosa chiqaring.

5.5-masala

Iqtisodiyotni ayrim tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarini birlamchi daromadlari tarkibi quyidagi jadvalda berilgan, (joriy baholarda, mlrd. so‘m).

№	Tarmoqlar	YaQQ	Mehnat haqi	Boshqa ishlab chiqarish soʻsolig‘i	Yalpi foyda va aralash daromad
1.	Sanoat	462,4	221,0	59,2	182,2
2.	Qishloq xo‘jaligi	976,5	228,1	-28,2	776,6
3.	O‘rmon xo‘jaligi	0,7	0,5	-0,9	1,1
4.	Baliq xo‘jaligi	1,2	0,3	0,02	0,88
5.	Qurilish	196,2	130,0	8,6	57,6
6.	Boshqa turdagи tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar	7,9	6,1	0,3	1,5

Aniqlang:

1. Tarmoqlarda birlamchi daromadlarning ulushini;
2. Qaysi tarmoqda mehnat haqi ulushi boshqa tarmoqqa nisbatan katta?

3. Qaysi tarmoqda boshqa ishlab chiqarish soliq yuki kam?
4. O‘zingiz xulosa chiqaring.

5.6-masala

Quyidagi jadvalda iqtisodiyotning iqtisodiy ko‘rsatkichlari berilgan, (joriy baholarda, mld. so‘m).

№	Ko‘rsatkichlar	n-yil	(n+1) yil	(n+2) yil
1.	Yalpi ichki mahsulot, bozor bahosida	4925,3	7450,2	9837,8
2.	Yollangan xizmatchilarining mehnat haqi	1711,2	2505,9	3116,0
3.	Ishlab chiqarish va importga berilgan sub-sidiyalar	108,6	120,9	148,8
4.	Yalpi foyda va aralash daromad	2551,2	3812,1	5161,5

Aniqlang :

1. Ishlab chiqarish va import solig‘ini yillar bo‘yicha hisoblang;
2. Soliq yuki (n+2) yili n- yilga nisbatan qanday o‘zgardi?
3. Qaysi yili mehnat haqining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi katta bo‘lgan?

5.7-masala

Mamlakatning ayrim tarmoqlarini birlamchi daromadlar ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda berilgan, (joriy baholarda, mlrd.so'm).

Nº	Ko'rsatkichlar	n-yil	(n+1) yil	(n+2)yil
<i>Savdo, umumiy ovqatlanish, tanlov</i>				
1.	Yollangan xizmatchilarining mehnat haqi	128429,7	174336,0	208508,9
2.	Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	16317,2	66184,6	80327,7
3.	Yalpi foyda va aralash daromad	443782,6	600402,2	731171,2
<i>Umumiy tijorat faoliyati tizimida</i>				
4.	Yollangan xizmatchilarining mehnat haqi	3731,5	5220,5	5641,9
5.	Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	1259,8	2614,9	2681,6
6.	Yalpi foyda va aralash daromad	12195,0	17339,3	19770,2
<i>Geologiya va yer osti boyliklarini izlash</i>				
7.	Yollangan xizmatchilarining mehnat haqi	5567,5	8617,5	12121,0
8.	Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	351,9	555,3	433,3
9.	Yalpi foyda va aralash daromad	1081,9	1880,7	3307,9
<i>Madaniyat va san'at sohasi</i>				
10.	Yollangan xizmatchilarining mehnat haqi	10306,7	15717,5	20709,7
11.	Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	213,7	414,4	533,3
12.	Yalpi foyda va aralash daromad	5366,9	8358,0	10428,4
<i>Sog'lijni saqlash, ijtimoiy ta'minot</i>				
13.	Yollangan xizmatchilarining mehnat haqi	94875,6	138502,0	183225,2
14.	Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	814,6	1415,6	1291,7
15.	Yalpi foyda va aralash daromad	22389,3	38481,8	54813,7

Tarmoqlar yalpi qo'shilgan qiymatini hisoblang.

5.8-masala

Quyidagi jadvalda iqtisodiy tarmoqlarning faoliyatini ifoda-lovchi ma'lumotlar berilgan, (joriy bahoda, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	n- yil	(n+1) yil	(n+2) yil
Sanoat			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	330504,4	506330,6	658529,4
Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	85921,3	124146,8	159336,0
Yalpi foyda va aralash daromad	279713,6	448795,7	735465,0
Qishloq xo'jaligi			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	325883,0	509257,2	594117,4
Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	-51815,1	-48152,7	-71167,1
Yalpi foyda va aralash daromad	1199495,4	1779757,8	2285478,6
O'rmon xo'jaligi			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	789,4	1223,9	1541,9
Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	-946,6	30,5	13,7
Yalpi foyda va aralash daromad	1270,9	337,4	544,0
Baliq xo'jaligi			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	357,5	432,3	382,8
Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	21,8	21,8	21,2
Yalpi foyda va aralash daromad	1199,7	1332,3	1690,0
Transport va aloqa			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	1333302,5	200856,0	273330,0
Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	7667,8	23520,0	14007,0
Yalpi foyda va aralash daromad	230288,8	388492,2	636362,2
Qurilish			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	190504,2	248202,0	277976,7
Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	11875,4	16669,0	19336,8
Yalpi foyda va aralash daromad	84109,8	100291,7	145078,2

1. Iqtisodiy tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymatini hisoblash

2. Tarmoqlarning YaQQ tarkibiy o‘zgarishlarini tahlil qiling va xulosa bering.

3. Tarmoqlarning “Daromadlarning shakllanish schyoti”ni har yil uchun tuzing.

5.9-masala

Quyidagi jadvalda mamlakatning tarmoqlari faoliyatini ifodalovchi ma’lumotlar berilgan, (joriy bahoda, mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	n- yil	(n+1)yil	(n+2)yil
Informatsion hisoblash xizmatlari			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	1243,0	1802,4	2053,2
Boshqa ishlab chiqarish sof solig‘i	231,7	524,7	631,9
Yalpi foyda va aralash daromad	2334,3	3405,4	3742,5
Uy-joy xo‘jaligi			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	8480,7	1463,6	16963,4
Boshqa ishlab chiqarish sof solig‘i	141,5	268,7	237,3
Yalpi foyda va aralash daromad	118025,6	167672,8	196667,8
Kommunal xo‘jalik va maishiy xizmat-lar			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	34955,4	54582,4	69899,9
Boshqa ishlab chiqarish sof solig‘i	-2122,5	-948,1	-2471,5
Yalpi foyda va aralash daromad	42774,6	67029,0	103693,9
Xalq ta’limi			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	228027,0	330714,3	436104,7
Boshqa ishlab chiqarish sof solig‘i	452,0	970,5	1372,5
Yalpi foyda va aralash daromad	26748,4	48967,8	75702,4
Sog‘lijni saqlash, jismoniy madaniyat va ijtimoiy ta’minot			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	94875,6	138502,0	183225,2
Boshqa ishlab chiqarish sof solig‘i	814,6	1415,6	1291,7
Yalpi foyda va aralash daromad	22389,3	38481,8	54813,7
Fan va ilmiy xizmatlar			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	10337,9	14853,2	18211,2
Boshqa ishlab chiqarish sof solig‘i	303,4	478,8	514,0
Yalpi foyda va aralash daromad	1864,3	2740,1	5347,4
Moliya, kredit, sug‘urta va nafaqa ta’minoti			
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	43431,6	56810,1	68029,7
Boshqa ishlab chiqarish sof solig‘i	5680,6	1588,1	2221,2
Yalpi foyda va aralash daromad	147301,3	19218,6	216291,6

1. Iqtisodiy tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymatini har bir yil uchun hisoblash.
2. Tarmoqlarning YaQQ tarkibiy o'zgarishlarini tahlil qiling va xulosa bering.
3. Tarmoqlarni "Daromadlarning shakllanish schyoti"ni har yil uchun tuzing.

5.10-masala

Quyidagi jadvaldagi ma'lumotlar asosida tarmoqlarda ishlab chiqarilgan bir birlik mahsulot uchun soliq yukini hisoblang, (joriy bahoda, mln so'm).

Iqtisodiy tarmoqlar	Yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar		Boshqa ishlab chiqarish so'lig'i	
	n-yil	(n+1) yil	n-yil	(n+1) yil
Sanoat	193447,4	6213321,5	59218,2	159336,0
<i>Qishloq xo'jaligi</i>	1464104,5	4305620,3	-28184,7	-71167,1
Baliqchilik xo'jaligi	2365,9	3561,3	23,6	21,2
Transport va aloqa	49074,13	1773669,1	4923,7	14007,0
Qurilish	493650,1	1150373,1	8623,7	19336,8
Savdo, umumovqatlanish va tayyorlov	626386,5	1688933,2	10806,4	803277
Umumiy tijorat faoliyati sohasi	15218,7	41984,4	843,4	2681,6
Boshqa moddiy ishlab chiqarish sohasi	14970,9	44806	288,9	803,9
Uy-joy xo'jaligi	110656,2	300478,9	82,1	237,3
Sog'lijni saqlash, jismoniy madaniyat va ijtimoiy ta'mi-not	125925,6	364561,2	553,8	1291,7
Xalq ta'limi	232237,7	670003,4	507,0	1372,5
Boshqaruv	186909,2	538255,0	482,9	3575,8
Birlashgan jamoat tashkilotlari	7819,7	24294,8	62,4	146,8

5.11-masala

Birlamchi daromadlar tarkibidan shakllangan YaIM qiymatlarini quyidagi jadvalda berilgan (haqiqiy joriy bahoda, % da).

Ko'rsatkichlar	n-yil	(n+1)- yil	(n+2)-yil	(n+3)-yil
Yalpi ichki mahsulot, ming so'm	325566,7	4925269,8	7450234,6	9837840,7
Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	35,1	34,7	33,6	31,7
Mahsulot va import solig'i	13,2	13,2	13,1	14,0
Boshqa ishlab chiqarish solig'i	3,9	20,6	3,7	3,4
Mahsulot va import subsidiyasi	0,6	1,6	0,5	0,3
Boshqa ishlab chiqarishga subsidiya	1,8		1,1	1,2

1. Yillar bo'yicha yalpi foyda va aralash daromad qiymatini hisoblang.
2. Yillar bo'yicha iqtisodiyotning daromadning shakllanish schyotini tuzing va tahlil qiling.

5.12-masala

Quyidagi jadvalda shartli mamlakat YaIM ko'rsatkichini tashkil qiluvchi birlamchi daromadlar ko'rsatkichlarini ifodalovchi ma'lumotlar mavjud (haqiqiy amaldagi bahoda, %).

Ko'rsatkichlar	n-yil	(n+1)- yil	(n+2)- yil	(n+3)- yil	(n+4)- yil	(n+4)- yil
Yalpi ichki mahsulot, mln. rub	14285	2007,8	2629,6	4823,2	9040,8	10863,4
Rasmiy yollangan xizmatchilarning mehnat haqi	37,7	40,0	37,8	29,2	31,6	34,6
Yollangan xizmatchilarning yashirinigan mehnat haqi	7,7	11,0	10,3	10,9	11,1	11,5
Ishlab chiqarish va import sof solig'i	11,9	14,2	16,0	15,7	15,4	13,6
Asosiy fondlar iste'moli, mln. rub	369,7	384,1	416,6	476,7	687,0	734,0

1. Iqtisodiyot yalpi va sof foyda va aralash daromadini hisoblang

2. Iqtisodiyotni yillar bo'yicha daromadni shakllantirish schyotlarini tuzing va tahlil qiling.

5.13-masala

Quyidagi jadvalda shartli mamlakatning “Daromadlarni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlari” ko'rsatkichlarining ma'lumoti berilgan (shartli bahoda, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	n-yil	(n+1)-yil	(n+2)-yil	(n+3)-yil
Yalpi foyda va aralash daromad	1636323,5	2551226,1	3812192,0	5161150,4
Yollangan xizmatchilarning meh-nat haqi	1142946,1	1711226,6	2505924,6	3115997,0
Ishlab chiqarish va import solig'i	556572,4	771430,2	1252998,9	1709451,2
Ishlab chiqarish importiga sub-sidiya (-)	80275,3	108613,1	120880,9	148757,9
Tashqi dunyodan olin-gan mol-mulk daromadi	11036,0	15408,5	5617,4	4177,0
Tashqi dunyoga berilgan mulk daromadi	60056,6	102388,5	130107,1	143377,1
Tashqi dunyodan olingan joriy transfertlar	3086,9	18284,0	92340,0	361065,6
Tashqi dunyoga berilgan joriy transfertlar	0,0	0,0	0,0	51580,8

1. Iqtisodiyotning yalpi milliy daromadi va yalpi milliy daromad ixtiyordagi ko'rsatkichlarini hisoblang.

2. Iqtisodiyotning “Daromadlarni birlamchi taqsimlash” schyotini yillar bo'yicha tuzing va tahlil qiling.

3. Iqtisodiyotning “Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash” schyotini yillar bo'yicha tuzing va tahlil qiling.

5.14-masala

Quyidagi jadvalda iqtisodiyot sektorlarining birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlarining ma'lumotlari berilgan (joriy baholarda, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Nomo-liyaviy korxonalar	Moliya tashkilotlari	Davlat boshqaruv idoralari	Uy xo'jaligi	Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsa-tuvchi notijorat tashkilot
Yalpi foyda va aralash daromad	3046394,7	240905,8	196528,5	3244184,2	13212,1
Yollangan ishchi-xizmatchilar mehnat haqi	2153453,8	86680,8	1022268,4	332436,1	64721,9
Boshqa ishlab chiqarish sof solig'i	229497,5	2961,5	4448,2	29842,8	422,7
Mulkka olingan daromad	105195,1	276215,0	69836,3	92309,3	1414,7
Mulordan foydalanganligi uchun to'langan daromad	346320,0	148357,2	153072,0	26023,4	343,1
Olingan joriy transfertlar	38942,1	7201,9	1639978,1	1649616,4	168512,4
Berilgan joriy transfertlar	52969,5	42802,5	1223755,6	1345193,2	1600,1
Iqtisodiyot sektorning mahsulot va import sof solig'i = 1741783,3					

Tuzing:

1. Iqtisodiyotni «Daromadning shakllanishi, daromadni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlari»ni tuzing.
2. Nomoliyaviy korxonalar sektorining «Daromadning shakllanishi, daromadni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlari»ni tuzing.
3. Moliyaviy tashkilotlar sektorining «Daromadining shakllanishi, daromadni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlari»ni tuzing.
4. Davlat boshqaruv idoralari sektorining «Daromadning shakllanishi, daromadni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlari»ni tuzing.
5. Uy xo'jalik sektorining «Daromadlarning shakllanishi, daromadni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlari»ni tuzing.
6. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorini «Daromadlarning shakllanishi, daromadni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlari»ni tuzing.

5.15-masala

Shartli mamlakatning daromadning shakllanish, birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlarini ma'lumotlari berilgan. Shu ma'lumotlar asosida:

1. Shartli mamlakatning yalpi milliy va yalpi milliy ixtiyordagi daromadlarini hisoblang.
2. Shartli mamlakatning «Daromadni birlamchi taqsimlash schyoti»ni tuzing.
3. $n, n+1, n+2, n+3, n+4$ yillar schyotlarining ko'rsatkichlar tarkibidagi o'zgarishlarini tahlil qiling va izoh bering.

Ko'rsatkichlar	n-yil	(n+1)-yil	(n+2)-yil	(n+3)-yil	(n+4)-yil
1. Yalpi foyda va aralash daromad	1636323,5	2551226,1	3812192,0	5161150,4	6609336,3
2. Yollangan ishchi-xizmatchilar mehnat haqi	1142946,1	1711226,6	2519606,3	3143098,7	3738556,8
3. Mahsulot va import solig'i	428979,3	612393,8	975967,2	1374117,8	1751793,9
4. Boshqa ishlab chiqarish solig'i	127593,1	159036,4	277031,7	335333,4	374669,7
5. Mahsulot va import subsidiyasi	21337,9	28323,9	37951,0	29036,5	26874,3
6. Boshqa ishlab chiqarish subsidiyasi	58937,4	80289,2	82929,9	119721,4	107497,0
7. Tashqi dunyodan olingan mulk daromadi	11036,0	15408,5	5617,4	4177,0	544970,4
8. Tashqi dunyoga berilgan mulk daromadi	60056,6	102388,5	130107,1	143377,1	674115,7
9. Tashqi dunyodan oliban joriy transfert	3086,9	18287,0	92340,0	361065,6	428208,0
10. Tashqi dunyoga berilgan joriy transfert	0,0	0,0	0,0	51580,8	66968,0

5.16-masala

Shartli mamlakat iqtisodiy sektorining quyidagi ma'lumotlari asosida sektorlarni yalpi ixtiyordagi daromadini hisoblang (joriy bahoda, mln so'm).

Ko'rsat-kichlar	Nomo-liyaviy korxo-nalar	Moliya-viy tashki-lotlar	Davlat boshqaruv tashki-lotlari	Uy xo'jaligi	Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar
1. Birlamchi daromad qoldig'i	285269,8	236874,6	2105385,1	7049026,9	-
2. Olingan joriy transfertlar	-	-		-	-
2.1 Daromad solig'i			663938,8		
2.2 Mol-mulk solig'i	-	-	52906,8	-	-
2.3 Ijtimoiy sug'urta ajratmasi	27810,9	2858,5	824286,2	-	-
2.4 Ijtimoiy nafaqa	-	-	-	1254172,1	-
2.5 Sof sug'urta mukofoti	-	3946,4	-	-	-
2.6 To'lagan su-g'urta qoplamasi	1940,4	397,0	548,4	1058,4	2,2
2.7 Xalqaro hamkorlik joriy transfertlar	-	-	73593,5	354614,5	-
2.8 Boshqa joriy transfertlar	9190,8	0,0	24704,4	39771,4	168510,2
3. Berilgan joriy transfertlar:					

3.1 Daro-mad so-lig‘i	300465,3	23746,8	-	338424,4	1302,4
3.2 Mol-mulk solig‘i	-	-	-	52906,8	-
3.3 Ijtimoiy sug‘urta ajratmasi	-	-	-	854955,6	-
3.4 Ijtimoiy nafaqa	27810,9	2858,5	1223207,2	-	295,5
3.5 Sof sug‘urta mukofoti	1940,4	397,0	548,4	1058,4	2,2
3.6 To‘la-gan su-g‘urta qop-lamasi	-	3946,3	-	-	-
3.7 Xalqaro hamkorlik joriy trans-fertlari	-	-	66968,0	-	-
3.8 Boshqa joriy trans-fertlar	199442,9	11853,9	-	30880	-

Jadvaldagи ma'lumotlarga asosan, har bir sektorning “Daromadning ikkilamchi taqsimlash schyoti”ni tuzing.

5.17-masala

«Daromadlarni birlamchi taqsimlash» va «Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash» schyotlarini shartli hududning quyidagi ma'lumotlari asosida:

- a) Yalpi milliy daromad va yalpi milliy ixtiyordagi daromad ko'rsatkichlarini n, (n+1), (n+2) – yillar uchun hisoblang;
- b) Daromadlarni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlarini tuzing.
- v) Schyotlar ko'rsatkichlaridagi tarkibiy siljishlarni aniqlang va izohlang.

№	Ko‘rsatkichlar	n-yil	(n+1)-yil	(n+2)-yil
1.	Yalpi foyda va aralash daromad	10878	1523,0	1681,4
2.	Yollangan ishchi-xizmatchilar mehnat haqi	960,6	1241,0	1425,2
3.	Ishlab chiqarish va import solig‘i	469,0	561,0	577,2
4,	Ishlab chiqarish va import subsidiyasi	265,8	321,6	341,8
5.	Tashqi dunyoga berilgan kreditdan tushgan foizlar	8,6	8,0	9,8
6.	Er ijarasidan olingan sof renta	5,6	5,6	6,4
7.	Tashqi dunyodan olingan patentlar, avtorlik huquqi va savdo belgisidan foydalanganligi uchun berilgan daromad	2,2	2,6	3,2
8.	Xorijiy investorlarga aktsionerlik kapitalida qatnashganligi uchun berilgan daromad	12,1	11,6	11,2
9.	Tashqi dunyodan olingan joriy transfertlar	20,4	26,4	22,8
10	Tashqi dunyoga berilgan joriy transfertlar	13,8	14,0	15,4

5.18-masala

«Daromadlarni birlamchi taqsimlash» va «Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash» schyotlarini shartli hududning quyidagi ma'lumotlari asosida:

1. Yalpi milliy daromad va yalpi milliy ixtiyordagi daromad ko‘rsatkichlarini n, (n+1), (n+2) – yillar uchun hisoblang;
2. Daromadlarni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlarini tuzing.
3. Schyotlar ko‘rsatkichlaridagi tarkibiy siljishlarni aniqlang va izohlang.

№	Ko‘rsatkichlar	n-yil	(n+1)-yil	(n+2)-yil
1.	Iqtisodiyotni yalpi foydasi va aralash daromad	900,6	1380,4	1520,6
2.	Yollangan ishchi-xizmatchilar mehnat haqi	800,2	1120,2	1291,6
3.	Ishlab chiqarish va import solig‘i	390,8	500,0	520,8
4.	Ishlab chiqarish va import subsidiyasi	221,6	280,0	300,6
5.	Xorijdan olingan kreditni foiziga berilgan eksport tovarlar	7,0	6,6	9,0
6.	Xorijdan foydalanishga olingan erni ijara sof rentasi	2,6	5,0	5,8
7.	Boshqa mamlakatlarda foydali qazilmalar zaxirasini ishlab chiqarish haqi	1,0	1,4	1,2
8.	Boshqa mamlakatda ishlab chiqilan patent, avtorlik huquqi va savdo belgisidan foydalanligi uchun berilgan haq	2,0	2,4	2,8
9.	Xorijga berilgan kreditdan olingan foizlar	8,4	10,4	10,2
10.	Xorijdan olingan joriy transfertlar	14,0	24,0	20,6
11.	Xorijga berilgan joriy transfertlar	11,2	12,8	14,0

5.19-masala

Shartli hududning «Daromadlarni birlamchi taqsimlash» va «Daromadlarni ikkilamchi taqsimlash» schyotlarining quyidagi ma'lumotlari asosida:

1. Shartli hududning n, (n+1), (n+2) – yillar uchun «Daromadlarni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlari»ni tuzing.
2. Shartli hududning n, (n+1), (n+2) – yillar uchun «Yalpi milliy daromad va yalpi milliy ixtiyordagi daromad ko‘rsatkichlari»ni hisoblang.

3. Schyotlar ko‘rsatkichlaridagi tarkibiy siljishlarni aniqlang va izohlang (joriy baho, mln so‘m).

Nº	Ko‘rsatkichlar	n-yil	(n+1)-yil	(n+2)-yil
1.	Iqtisodiyotni yalpi foydasi va aralash daromad	401,0	621,4	691,2
2.	Yollangan ishchi-xizmatchilar mehnat haqi	261,8	501,2	581,0
3.	Ishlab chiqarish va import solig‘i	181,6	221,2	236,8
4,	Ishlab chiqarish va import subsidiyasi	110,8	131,2	136,6
5.	Tashqi dunyodan olingan mulk daromadi	3,2	3,0	4,0
6.	Tashqi dunyoga berilgan mulk daromadi	5,2	4,2	4,6
7.	Xorijiy siyosiy tashkilotlarning doimiy to‘laydigan badallari	0,4	0,6	0,6
8.	Xorijiy davlat boshqaruв tashkilotlarini pasport yig‘im to‘lovleri	0,8	1,0	1,2
9.	Aholining xorijdan o‘tkazilgan pullari	3,8	4,8	4,6

5.20-masala

1. Shartli hududning n, (n+1), (n+2) – yillar uchun “Daromadlarni birlamchi va ikkilamchi taqsimlash schyotlarini” tuzing.

2. Shartli hududining n, (n+1), (n+2) – yillar uchun “Yalpi milliy daromad va yalpi milliy ixtiyordagi daromad ko‘rsatkichlarini” hisoblang.

3. Schyotlar ko‘rsatkichlaridagi tarkibiy siljishlarni aniqlang va izohlang (joriy baho. mln so‘m).

Nº	Ko‘rsatkichlar	n-yil	(n+1)-yil	(n+2)-yil
1.	Iqtisodiyotni yalpi foydasi va aralash daro-mad	350,0	400,8	540,4
2.	Yollangan ishchi-xizmatchilarning mehnat haqi	310,4	420,6	461,8
3.	Ishlab chiqarish va import solig‘i	151,2	151,6	180,6
4,	Ishlab chiqarish va import subsidiyasi	81,6	80,6	110,0
5.	Xorijga berilgan kreditdan tushgan foizlar	2,8	2,2	3,2
6.	Xorij davlatlarning erdan foydalanganligi uchun to‘lagan rentasi	2,2	1,4	2,0
7.	Xorijda olingan patent, avtorlik huquqi va savdo belgisidan foydalanganligi uchun berilgan daromad	0,8	0,6	1,0
8.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga to‘lagan reinvestitsiya daromadi	4,0	3,0	3,6
9.	Xorijiy sug‘urta korxonasi tomonidan to‘langan sug‘urta qoplamasi	1,8	2,8	1,6
10.	Xorijiy sug‘urta korxonasini ko‘rsatgan xizmat (mehnat) haqi	2,4	2,6	2,8
11.	Tabbiy ofatlar zararini qoplash maqsadida xorijiy davlatlarni qaytarib olish sharti bilan bergen yordami	0,6	1,0	1,8

5.21-masala

Shartli mamlakatning “Natura ko‘rinishidagi daromadlarni qayta taqsimlash schyoti” ning quyidagi ma’lumotlari asosida sektorlarning tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromadini hisoblang va sektorlarning “Natura ko‘rinishidagi daromadlarni qayta taqsimlash schyot”larini tuzing (joriy baho, mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	Nomo-liyaviy korxo-nalar	Moliya-viy tashki-lotlar	Davlat boshqaruв tashki-lotlari	Uy xo‘jaligi	Uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar
Yalpi ixtiyordagi daromad	284842,9	58445,3	833874,9	1992798,2	39671,7
Natura shaklidagi olingan joriy transfertlar	-	-	-	334028,8	-
Natura shaklida berilgan joriy transfertlar	-	-	302814,8	-	31214,0

Mavzuga doir savol va topshiriqlar

1. Nomoliyaviy korporatsiyalarni birlamchi daromadlari nimaga teng?
2. Moliyaviy korporatsiyalarni birlamchi daromadi nimaga teng?
3. DBO larni birlamchi daromadi nimaga teng?
4. Uy xo‘jaligini birlamchi daromadi nimaga teng?
5. Transfertlar nima va ular qanday klassifikatsiyalanadi?
6. Mulk daromadlari nima?
7. Qo‘silgan qiymatning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?
8. Milliy ixtiyordagi daromadni qismlari nimalardan iborat?
9. Ixtiyordagi daromadni hisoblash usullari qanday?
10. Daromadlarni ikkilamchi taqsimoti schyotlardagi asosiy operatsiyalarini tushuntirib bering.

Adabiyotlar

1. Система национальных счётов 1993. Издание ООН, 1998г. – С. 161-210.
2. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./ Под ред. Ю.Н.Иванова. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – С. 97-101.
3. Подмогильная В. Система национальных счетов: Учебно-практическое пособие. – Москва: РАГС, 2010. – 238 с.
4. Кремлев Н.Д. Система национальных счетов: Учебное пособие. – Курган: Издательство Курганстат, 2009. – С. 160-168.
5. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов: Учебное пособие для вузов. – Москва: Финансы и статистика, 2006. – 272 с.
6. Махмудов Б. Миллий ҳисобчилик асослари./Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2003. – Б. 85-99.
7. Qoraboev A.R. Milliy hisoblar tizimi fanidan masalalar to’plami. O’quv uslubiy qo’llanma. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – В. 68-89.

8. А.Абдуғаффоров, М.Зокирова, А.Қорабоев. Миллий ҳисоблар тизими. Тошкент “Молия” 2002.

9. Qoraboyev A.R. Milliy hisoblar tizimi fanidan masalalar to‘plami. O‘quv uslubiy qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – B. 68-89.

VI mavzu. DAROMADLARDAN FOYDALANISH JARAYONLARI KO'RSATKICHLARINI HISOBGA OLISH, ULARNI HISOBLASH USULLARI

6.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi


Vaqti-2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O'quv mashg'u-lotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<p>1. Daromadlardan foydalanish schyotlari va uning asosiy ko'rsatkichlari.</p> <p>2. Pirovard(yakuniy) iste'mol. Uy xo'jaligi, uy xo'jaligi xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlarning pirovard iste'moli. Tovar va xizmatlarning davlat xaridi va uning klassifikatsiyasi (individual, jamoa, umum davlat boshqarish).</p> <p>3. Jamg'arish - kapital sarflarni moliyalashtirishning asosiy manbalari.</p>
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Milliy hisobchilikda daromadlardan foydalanish schyotlarini tuzishni o'rganish va ularning asosiy ko'rsatkichlariga oid tahlilini amalga oshirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> • Daromadlardan foydalanish schyotlarini tuzishni tushuntirish va uning asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot berish. • Pirovard iste'molning mohiyatini tushuntirish. • Uy xo'jaligi, uy xo'jaligi xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlarning pirovard iste'moli to'g'risida ma'lumot berish. • Tovar va xizmatlarning davlat xaridi va uning klassifikatsiyasi (individual, jamoa, umum davlat boshqarish) ni yoritib berish. • Jamg'arish - kapital sarflarni moliyalashtirishning asosiy manbalari ekanligini asoalash. 	<ul style="list-style-type: none"> • Daromadlardan foydalanish schyotlarini tuzishni tushuntirish va uning asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish. • Pirovard iste'molning mohiyatini tushunish va oraliq iste'molidan farqlay olish. • Uy xo'jaligi, uy xo'jaligi xizmat qiluvchi notijoriy tashkilotlarning pirovard iste'moli to'g'risida ma'lumot berish. • Tovar va xizmatlarning davlat xaridi va uning klassifikatsiyasi (individual, jamoa, umum davlat boshqarish) ni tushunish.
<i>O'qitishning uslubi</i>	Ma'ruza, aqliy hujum, blits-so'rov.
<i>O'qitishning shakli</i>	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
<i>O'quv vositalari</i>	Ma'ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari, flomasterlar, multimedya.
<i>O'qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlар bilan ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki savollar, o'quv vazifalar, test savollari, mustaqil ishlar.

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik kartasi

Ishning bosqich- lari vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	talabalar
	o‘qituvchi	
1- bosqich kirish qismi (20 min)	<p>1.1. Mavzuning nomini e’lon qiladi. Fan bo‘yicha umumiy tasavvur keltiradi. Ishning metodologik va tashkiliy xususiyatlarini yoritib beradi.</p> <p>1.2. Mazuni, uning maqsadi o‘quv mashg‘ulotlardan kutilayotgan natijalarni ma’lum qilinadi.</p> <p>1.3. Kurs davomidagi ma’ruzalar mazmuni bilan tanishtiradi. Reyting baholash mezonlari bilan tanishtiradi, yozma ish va oraliq nazoratlari hamda yakuniy nazoratlar bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p>	<p>Eshitadi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>
2- bosqich Asosiy bosqich (50 min)	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlanish uchun tezkor savol javob o’tkazadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Pirovard iste’mol deganda nimani tushunasiz? 2. Qaysi sektor a’zolari pirovard iste’molga xarajat qiladilar? 3. Tovar va xizmatlarning davlat xaridi va uning klassifikatsiyasi to‘g‘risida qanday tasavvurga egasiz? 4. Yakka, jamoa iste’moli to‘g‘risida nimalar bilasiz? 5. Daromadlardan foydalanish schyotlari qanday tuzish mumkin deb o‘ylaysiz? <p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi: pirovard iste’moli, pirovard iste’molga xarajat, tovar va xizmatlarning davlat xaridi va uning klassifikatsiyasi, individual, jamoa iste’moli kabi tushuncha va kategoriyalarning mohiyatini tushuntirib beradi.</p>	<p>Eshitadi hamda munozarada qatnashadi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>


	<p>2.3. Taqdimotda berilgan misollar orqali pul ko‘rinishidagi ixtiyordagi daromadlardan foydalanish schyoti, tuzatilgan ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyoti va ularning ko‘rsatkichlarini hisoblanishini ko‘rsatib beradi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga, daromadlardan foydalanish schyotlarining ko‘rsatkichlariga diqqat qilishlarini va yozib olishlarini ta’kidlaydi.</p>	Tinglaydi va yozib oladi.
3-bos-qich Asosiy bosqich (10 min)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa qiladi va yakuniy natijalarni e’lon qiladi.</p> <p>3.2. Talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi hamda maqsadga erishilganlik o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi.</p> <p>3.3. Mustaqil vazifalar beriladi va talabalar tayyorgarlik darajasini baholash e’lon qilinadi.</p>	<p>Savollar beradi</p> <p>Yozib oladi.</p>

Ma’ruzaning mazmuni bo‘yicha ko‘rgazmali slaydlar



6.1-rasm. Pirovard(yakuniy) iste’mol va uni tarkibi


Yalpi milliy jamg'arma va uni hisoblash algoritmi



6.2-rasm. Yalpi milliy jamg'arma va uni hisoblash algoritmi

Pul ko'inishidagi ixtiyordagi daromadlardan foydalanish schyoti – bu schyotda uy xo'jaliklari, davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlari pul ko'inishidagi ixtiyordagi daromadlarni pirovard iste'mol va jamg'arishga sarflanishini ifodalaydi. Bu schyotni ko'rsatkichlari asosida yalpi milliy jamg'arish (YaMJ)ni hisoblanadi.


Iqtisodiy sektorlarning pul ko'inishidagi ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyoti		Iqtisodiyotning pul ko'inishidagi ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyoti	
Foydalanish	Resurslar	Foydalanish	Resurslar
3. Pirovard iste'mol xarajatlari: 3.1. uy xo'jaligini, 3.2. davlat boshqaruv idoralarini, 3.3. uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarini, 4. Yalpi jamg'arish ($T.3=T.1+T.2-T.3$)	1. Yalpi ixtiyoridagi daromad 2.Nafaqa jamg'armalarida aktivlarni sof qiymati o'zgarishi tufayli kiritiladigan tuzatish	3. Pirovard iste'mol xarajatlari: 3.1. uy xo'jaligini, 3.2. davlat boshqaruv idoralarini, 3.3. uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarini, 4. Yalpi milliy jamg'arish ($T.4=T.1+2T-T.3$)	1. Yalpi milliy ixtiyoridagi daromad 2.Nafaqa jamg'armalarida aktivlarni sof qiymati o'zgarishi tufayli kiritiladigan tuzatish
Jami: ($T.3+T.4$)	Jami: ($T.1+T.2$)	Jami: ($T.3+T.4$)	Jami: ($T.1+T.2$)



- * Ixtiyordagi daromaddan tarkibiy foydalanish tahlili, ya'ni pirovard iste'mol va jamg'arish xarajatlari;
- * iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlarini daromad va boshqa omillarga bog'liqligini tadqiqot qilish;
- * Iqtisodiy sektorlar ixtiyordagi daromadlarida pirovard iste'mol va yalpi jamg'arishni ulushlarini tahlili;
- * Yalpi ixtiyordagi daromadni tarkibiy o'zgarish dinamikasini pirovard ist'mollar va yalpi jamg'arish orqali tahlili;
- * Pirovard iste'mol xarajatlarni tarkibiy o'zgarishiga turli omillarni ta'sirini tadqiqoti
- * Pirovard iste'mol va yalpi jamg'arishni dinamikasini tahlili (real va nominal)

6.3-rasm. Ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyoti

Tuzatilgan ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyoti – bu schyotda tuzatilgan ixtiyordagi daromadlarning haqiqiy pirovard iste'molga va jamg'arishga bog'liq operatsiyani ifodalarydi. Bu schyotning ko'rsatkichlari asosida yalpi milliy tuzatish kiritilgan jamg'arish (YaMTJ) hisoblanadi



6.4-rasm. Tuzatilgan ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyoti

O'quv materiallari

1. Daromadlardan foydalanish schyotlari va uning asosiy ko'rsatkichlari

Daromadlardan foydalanish schyotlariga quyidagi schyotlar kiradi:

-ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyoti.

-daromadni natura holatda qayta taqsimlash schyoti.

-tuzatish kiritilgan ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyoti.

Daromadlardan foydalanish schyotlari – uy xo'jaligi, davlat boshqaruvi organlari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar (UXXKNTT) ixtiyordagi yalpi milliy daromadni pirovard milliy iste'mol va yalpi milliy jamg'arish uchun qay tarzda foydalanishni ko'rsatadi.

Ixtiyordagi daromadlardan foydalanish schyoti – ixtiyordagi daromaddan institutsional birliklarning iste'mol tovarlari va xizmatlari uchun sarflangan qismi va natijada hosil bo'lgan jamg'arishni ifodalaydi.

Ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyotining resurs qismida ixtiyordagi daromad ko'rsatkichi, schyotning foydalanish qismida pirovard iste'mol uchun xarajatlar qayd etiladi va natijada jamg'arish ko'rsatkichi hosil qilanadi (rasm 1.).

Foydalanish	Resurslar
3.Pirovard iste'mol xarajatlari 3.1.Uy xo'jaligi sektorining pirovard iste'mol xarajatlari. 3.2.Davlat boshqaruvi organlarining pirovard iste'mol xarajatlari. 3.3.Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari pirovard iste'mol xarajatlari. 4. Pensiya jamg'armalarida aktivlar sof qiymati o'zgarishi tufayli kiritiladigan tuzatish 5. Yalpi jamg'arish	1.Ixtiyordagi daromad. 2.Pensiya jamg'armalarida aktivlar sof qiymatining o'zgarishi tufayli kiritiladigan tuzatish

1-rasm. Ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyoti

MHTda nomoliyaviy va moliyaviy korxonalar tomonidan pirovard iste'mol uchun xarajatlar amalga oshirilmaydi va hisoblanmaydi. Uy xo'jaligi pensiya fondi haqining egasi hisoblanib, moliyaviy aktivga egadir. Shu sababli, fondga

tushadigan mablag'lar transfert hisoblanmaydi, balki moliyaviy aktivlarning ko'payishi yoki kamayishiga olib keladi. Bunday ajratmalar juda kichik bo'lganligi sababli hozirgi tuzilayotgan schyotlarda hisobga olinmaydi.

Jamg'arma – ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyotining balanslantiruvchi moddasi. Bu modda mavjud daromadning tovar va xizmatlarning pirovard iste'moli uchun ham sarflanmagan qismini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich pirovard iste'mol xarajatlari mavjud daromaddan ortiq yoki kam bo'lishiga qarab manfiy va musbat bo'lishi mumkin.

Pirovard iste'moli.

Uy xo'jaligining pirovard iste'moli. Bu xarajatlar rezident uy xo'jaliklari tovar va xizmatlarning pirovard iste'moli uchun qiladigan xarajatlaridan tarkib topadi. Unga quyidagilar kiradi:

1. Sotib olingan iste'mol tovarlari (uy va kvartiradan tashqari)
2. Sotib olingan iste'mol xizmatlari.

3. Mehnat haqiga berilgan natura ko'rinishidagi mahsulot va xizmatlar.

4. Uy xo'jaligining o'z pirovard iste'moli uchun ishlab chiqargan mahsulotlari.

5. Rezidentlarning tashqi dunyodan sotib olgan mahsulotlari va xizmatlari.

6. Norezidentlarning iqtisodiy hududidan sotib olingan tovar va xizmatlar.

Uy xo'jaligini pirovard iste'moliga quyidagilar kirmaydi:

- uy, kvartira sotib olish;
- arenda haqi;
- joriy ta'mirlash xarajatlari;
- safardan sotib olinadigan tovar va xizmatlar. (oraliq iste'mollari)

-moddiy punkt, sport zal va boshqalar (bular oraliq iste'molga kiradi).

Uy xo'jaligining pirovard iste'moliga kiruvchi mahsulot va xizmatlar bozor bahosida baholanadi, ya'ni haridor bahosida. Haridor bahosiga tovarni uyga olib borish xarajatlari ham kiritiladi, bunga kredit xizmatlari xarajatlari kiritilmaydi.

Davlat boshqaruvi tashkilotlarining pirovard individual va jamoa iste'moli xarajatlari davlat byudjetidan olinadi.

Davlat boshqaruvi tashkilotlarining pirovard individual iste'mol xarajatlariga quyidagilar kiradi: maorif, madaniyat, sport, tibbiyot, sotsial va pension fondlari.

Davlat boshqaruvi tashkilotlarining pirovard jamoa iste'moli xarajatlariga umumiyl davlat boshqaruvi xarajatlari kiradi:

- umumdavlat boshqaruvi;
- tartib saqlash va milliy xavfsizlik tashkiloti;
- mudofaa;
- fond boshqaruvi va ilmiy xizmati;
- yo'l xo'jaligi.

Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning qilgan xarajatlar nobozor xizmatlari bo'lib, u joriy xarajatlar va asosiy fondni iste'moliga teng bo'ladi.

Haqiqiy pirovard iste'moli. Uy xo'jalingining haqiqiy pirovard iste'moliga sotib olingan tovar va xizmatlar hamda davlat boshqaruvi tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladigan individual iste'mol xarajatlari kiradi. Uy xo'jalingining haqiqiy pirovard iste'moliga quyidagi xarajatlar kiritiladi:

1. Uy xo'jalingining pirovard iste'mol xarajatlari.
 2. Davlat boshqaruvi tashkilotlarining individual pirovard iste'mol xarajatlari.
 3. UXXKNTTlarini pirovard iste'mol xarajatlari.
- Davlat boshqaruvi tashkilotlari sektorining haqiqiy pirovard iste'moliga jamoa xizmat xarajatlari kiritiladi. UXXKNTning haqiqiy pirovard iste'mol xarajatlari mavjud emas.

Mavzuga doir testlar

1. Pul ko'rinishda ixtiyoriy daromadlardan foydalanish schyoti tuziladi:

- a) sektorlar va iqtisodiyot bo'yicha;
- a) tarmoqlar, sektorlar bo'yicha;
- b) tarmoqlar, sektorlar va iqtisodiyot bo'yicha;
- c) iqtisodiyot bo'yicha.

2. Pul ko'rinishidagi ixtiyoriy daromaddan foydalanish schyotini tuzishdan maqsad:

- a) pul ko'rinishidagi ixtiyoriy daromadlarni pirovard iste'molga sarflanish operatsiyalarini ifodalash;
- b) ixtiyoriydagи daromadni pirovard iste'mol va kapital yig'ilmasiga sarflash operatsiyalarini qayd qilish uchun;

- c) pul ko‘rinishidagi ixtiyoriy daromadlarni pirovard iste’mol va jamg‘arishga sarflanish operatsiyalarni ifodalash;
- d) yalpi jamg‘arish ko‘rsatkichini hisoblash uchun.

3. Pul ko‘rinishidagi ixtiyoriy daromaddan foydalanish yig‘ma schyotini “resurslar” ustunini qanday ko‘rsatkichlar tashkil etadi:

- a) yalpi ichki mahsulot;
- b) yalpi milliy ixtiyordagi daromad;
- c) yalpi milliy daromad;
- d) yalpi milliy tuzatilagan ixtiyoriy daromad.

4. Pul ko‘rinishidagi ixtiyoriy daromaddan foydalanish yig‘ma schyotini “foydalanish” ustunini qanday ko‘rsatkichlar tashkil etadi:

- a) pirovard iste’mol;
- b) haqiqiy pirovard iste’mol;
- c) yalpi milliy jamg‘arish, pirovard iste’mol ko‘rsatkichlari;
- d) yalpi milliy tuzatilgan ixtiyordagi daromad.

5. Pul ko‘rinishidagi ixtiyoriy daromaddan foydalanish yig‘ma schyotini balanslantiruvchi ko‘rsatkichi –bu:

- a) pirovard iste’moli;
- b) yalpi jamg‘arishi;
- c) yalpi milliy ixtiyordagi daromad;
- d) yalpi milliy jamg‘arish.

6. Quyidagi ma’lumotlar asosida “Pul ko‘rinishidagi ixtiyoriy daromadlardan foydalanish” yig‘ma balanslantiruvchi ko‘rsatkich hisoblang: Ma’lumotlar:

yalpi milliy ixtiyordagi daromad -14237 mln so‘m; uy xo‘jaligini pirovard iste’moli-6590,4 mln so‘m; davlat boshqaruv tashkilotlarni pirovard iste’moli-2205 mln so‘m;

uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlarni pirovard iste’moli-158,2 mln so‘m

- a) 5383,4 mln so‘m;
- b) 7646,6 mln so‘m;
- c) 5283,4 mln so‘m;
- d) 7546,6 mln so‘m.

7. Tuzatilgan ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyotini tuzishdan maqsad:

a) tuzatilgan ixtiyordagi daromadlarning haqiqiy pirovard iste’mol va yalpi jamg‘arishni ko‘rsatkichlarni ifodalash uchun;

a) tuzatilgan ixtiyordagi daromadlarning, haqiqiy pirovard iste’mol va kapital yig‘ilmasiga bog‘liq iqtisodiy operatsiyalarni ifodalash;

- b) tuzatilgan ixtiyordagi daromadlarning haqiqiy pirovard iste'molga ishlatish operatsiyalarni ifodalash uchun;
- c) yalpi milliy tuzatilgan jamg'arish ko'rsatkichini hisoblash uchun.

8. Tuzatilgan ixtiyordagi daromaddan foydalanish yig'ma schyotini "resurslar" ustuni qanday ko'rsatkichlardan tashkil topgan:

- a) yalpi milliy tuzatilgan ixtiyordagi daromad;
- a) yalpi milliy daromad;
- b) yalpi milliy ixtiyordagi daromad;
- c) yalpi ichki mahsulot.

9. Tuzatilgan ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyotini "foydalanish" ustuni qanday ko'rsatkichlardan tashkil topgan:

- a) haqiqiy pirovard iste'mol va yalpi milliy tuzatilgan jamg'arish ko'rsatkichlardan;
- a) pirovard iste'mol xarajatlardan;
- b) yalpi milliy jamg'arish va pirovard iste'mol;
- c) yalpi milliy tuzatilgan jamg'arish.

10. Tuzatilgan ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyotini foydalanish yig'ma schyotini balanslantiruvchi ko'rsatkichi-bu:

- a) yalpi tuzatilgan jamg'arish;
- b) yalpi milliy tuzatilgan jamg'arish;
- c) yalpi milliy jamg'arish;
- d) yalpi jamg'arish.

11. Pul ko'rinishidagi ixtiyordagi daromaddan foydalanish schyot natijaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilishni asosiy yo'naliishlari:

- a) ixtiyoriy daromaddan foydalanish tarkibiy tahlili;
- b) ixtiyoriy daromaddan tarkibiy foydalanish tahlili ya'ni pirovard iste'mol va kapital yig'ilmasi;
- c) pirovard iste'molni tarkibiy tahlili;
- d) yalpi jamg'arishni dinamikasini tahlili.

12. Tuzatilgan ixtiyordagi daromadlardan foydalanish schyot ko'rsatkichni tahlil qilishning asosiy yo'naliishi quyidagicha:

- a) tuzatilgan ixtiyordagi daromadlarning haqiqiy pirovard istemoli va yig'ilmaga sarflashni tarkibiy tahlili;
- b) tuzatilgan ixtiyordagi daromadlarning haqiqiy pirovard iste'moliga sarflashni tarkibiy tahlili;
- c) pirovard iste'molni tarkibiy tahlili;
- d) jamg'arishlarni tarkibiy tahlili.

6.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi

<i>Talabalar soni 25-30 gacha</i>	<i>vaqtি 2-soat</i>
<i>O‘quv mashg‘uloti shakli</i>	Amaliy mashg‘ulotlarda chuqurlashtirish va bilimni kengaytirish jarayoni.
Amaliy mashg‘ulotda muhokama qilinadigan savollar.	<p>1. Pirovard iste’mol va uning tasnifi.</p> <p>2.Uy xujaligi sektorining pirovard iste’moli va uni hisoblash.</p> <p>3.DBI sektorini pirovard iste’moli va uni hisoblash.</p> <p>4.Iqtisodiyotni daromadlardan foydalanish schyoti, ko’rsatkichlarini hisoblash va natijasini tahlil qilish.</p> <p>5.Iqtisodiy sektorni daromaddan foydalanish ko’rsatkichlarini hisoblash va natijasini tahlil qilish.</p>
<i>O‘quv mashg‘uloiningi maqsadi:</i> Mavzu bo‘yicha bilimni chuqurlashtirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> 1. Pirovard iste’mol va uning tasnifi, uy xujalik sektorini pirovard iste’mol xarajatlari, davlat boshqaruv organlari pirovard iste’mol xarajatlari, uy xo‘jaligiga hizmat ko’rsatuvchi notijorat tashkilotlarining pirovard iste’moli xarajatlari, haqiqiy pirovard iste’mol xarajatlari, natura shaklidagi ijtimoiy transfertlarga kiruvchi tovarlar va hizmatlarini aniqlash va hisoblashga oid mashqlarni yechishni tushuntirish. 2. Ixtiyoriy daromaddan foydalanish, daromadni qayta natura shaklida taqsimlash, tuzatish kiritilgan ixtiyoriy daromaddan foydalanish schyotlarini tuzishga oid mashqlarni echib ko’rsatish.	<i>O‘quv faoliyatning natijalari:</i> 1. Pirovard iste’mol va uning tasnifi, uy xo‘jalik sektorini pirovard iste’mol xarajatlari, davlat boshqaruv organlari pirovard iste’mol xarajatlari, uy xo‘jaligiga xizmat ko’rsatuvchi notijorat tashkilotlarining pirovard iste’mol xarajatlari, haqiqiy pirovard iste’mol xarajatlari, natura shaklidagi ijtimoiy transfertlarga kiruvchi tovarlar va xizmatlarini aniqlash va hisoblashga oid mashqlarni yechha oladi. 2. Ixtiyoridagi daromaddan foydalanish, daromadni qayta natura shaklida taqsimlash, tuzatish kiritilgan ixtiyoridagi daromaddan foydalanish schyotlarini tuza oladi.

<i>O‘quv uslubi</i>	“Doira” stol, grafik organayzer: mantiqan tizimli chizma.
<i>O‘qitish shakli</i>	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar, flip-chatlar, flomasterlar.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya. Yoritilgan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Mustaqil o‘rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar va vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	talaba
	o‘qituvchi	
1-bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 min.)	<p>1.1. Mavzu nomini aytadi, rejalshtirilgan natijalarni va uni o‘tkazish jarayoni bilan tanishtiradi. Birgalikda guruuhlar bilan texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonini tushuntiradi. Adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Tayanch iboralar tushunchalari orqali so‘rovnoma olib boradi. Savol tashlaydi va 1-2 ta javoblarni eshitib bo‘lgach, keyingi muhokamalarni guruuhlar ishlarini bajarib, natijalarni prezentatsiya jarayonida eshitishni e’lon qiladi.</p> <p>1.3. Har bir talaba individual tarzda guruhlardagi baholanish bilan birga baho olishini va guruhlarda ishslash qoidalari bilan tanishtiradi.</p>	Eshitadi va yozib boradi Munozarada qatnashadi, savollarga javob beradi. Eshitadi.
2-bosqich Guruhlarda ishlash (60 min.)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhgaga bo‘ladi. O‘quv vazifalarni tarqatadi. Qanday natijalarga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi.</p> <p>2.2. Natijaviy ko‘rsatkichlarni sharhlaydi. Qanday qo‘srimcha materiallar bilan foydalanish mumkinligini tushuntiradi (darslik, ma’ruza matnlari, o‘quv qo‘llanma).</p> <p>2.3. O‘zaro guruhlarda olingan natijalarni prezentatsiya qilish va ularni baholanishni tashkil qiladi. Qilingan ish jarayonidagi xulosalar keltiriladi va alohida e’tiborga loyiq guruuhlar jarayoni ketadi.</p>	Eshitadi, ishni bajarishni boslaydi. Hisoblaydilar va tahlil qiladilar. Birgalikda qilingan prezentatsiya chiqishlari ko‘rsatiladi.
3-bosqich Yakuniy bosqich (10 min.)	<p>3.1. Amaliyot natijalarini yakunlaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish mavzusini aytadi va vazifa beradi: “Ixtiyoriy daromaddan foydalanish, daromadni qayta natura shaklida taqsimlash, tuzatish kiritilgan ixtiyoriy daromaddan foydalanish schyotlarini tuzishga oid mashqlar”.</p>	Eshitadi aniqlashtiradi. Topshiriqni yoziб oladi

Uslubiy ko‘rsatmalar va namunaviy misollar yechish

Daromadlaridan foydalanish schyotlari pul shaklidagi ixtiyoriy daromaddan foydalanish va tuzatish kiritilgan ixtiyoriy daromaddan foydalanish schyotlaridan iborat.

Pul shaklidagi ixtiyoriy daromaddan foydalanish schyotini tuzishdan maqsad – uy xo‘jaligi, davlat boshqaruv tashkilotlari va uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlarining pul ko‘rinishidagi ixtiyoriy daromadlarini qancha qismini iste’molga, qanchasini jamg‘arishga taqsimlash operatsiyasini qayd qilish va uni natijasini tahlil etishdan iborat.

Pul shaklidagi ixtiyoriy daromaddan foydalanish schyoti

Foydalanish	Resurslar
3. Pirovard iste’mol xarajatlari	1. Ixtiyordagi daromad (pul shakli-dagi)
3.1 Uy xo‘jalinining pirovard iste’mol xarajatlari	2. Nafaqa jamg‘armalarida aktivlar-ni sof qiymati o‘zgarishi tufayli kiritiladigan tuzatish.
3.2 Davlat boshqaruv tashkilotlarining pirovard iste’mol xarajatlari	
3.3 Uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuv-chi notijorat tashkilotlarining pi-rovard iste’moli	
4. Nafaqa jamg‘armalarida aktiv-larni sof qiymati o‘zgarishi tufayli kiritiladigan tuzatish	
5. Yalpi jamg‘arish ($5=1+2-3-4$)	
Jami 3+4+5	Jami 1+2

Uy xo'jaligi nafaqa jamg'armasining egasi hisoblanib, moliyaviy aktivga egadir. Shu sababli jamg'armaga tushadigan mablag'lar transfert to'lovlari emas, ular moliya aktivlarini ko'payishi yoki kamayishiga olib keladi. Shu kunlarda jamg'arma juda kichik bo'lgani uchun, hozirgi tuzilayotgan schyotlarda hisobga olinmaydi.

Schyotdagi birinchi ko'rsatkich – pul shaklidagi ixtiyordagi daromad ko'rsatkichi o'zidan oldingi schyotni balanslantiruvchi ko'rsatkich bo'lib, schyotga resurs sifatida o'tgan.

Ikkinci ko'rsatkich – pirovard iste'mol bo'lib, u uy xo'jaliklari, davlat boshqaruv idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektorlariga kiruvchi birliklarning kuzatilayotgan (hisobot) davrda o'zlarining iste'moli uchun qilgan sarf – xarajatlari (aholini xarajatlari) va o'z faoliyatlarini yuritish mobaynida qilgan harakatlaridan (davlat idoralari, uy xo'-jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar) iboratdir.

Pirovard iste'mol – individual va jamoa ehtiyojlarini qondirish uchun sarflangan tovarlar va xizmatlar qiymatidir. Pirovard iste'mol tushunchasi oraliq iste'mol tushunchasidan tubdan farq qiladi. Oraliq iste'mol – bu ishlab chiqarish uchun sarflangan tovarlar va xizmatlar qiymatidir. Masalan, qandolatchi tort pishirib sotish uchun un, yog', tuxum sotib oldi. Bu oraliq iste'moldir. Xuddi shu mahsulotlarni uy bekasi sotib olib, oila a'zolari iste'moli uchun tort pishirib bersa – bu pirovard iste'moldir.

Uy xo'jaligining pirovard iste'moliga o'z ixtiyoridagi daromaddan tashqari tovarlar va xizmatlar (transport, aloqa, dam olish, stadionga olingan bilet, sartaroshxona xizmati, kimyo tozalash xizmatlari, uy-joy va kommunal xizmatlar) haqlari kiradi. Ular quyidagi jadvalda ifodalangan.

Tez iste'mol qilinadigan tovarlar (oziq – ovqatlar va xizmatlar)	Uzoq muddat xizmat qiladigan to-varlar
- shaxsiy iste'mol uchun (PI)	- shaxsiy iste'mol uchun (PI)
- ishlab chiqarish uchun (OI)	- ishlab chiqarish uchun (YaJ)

Shuni qayd etish lozimki, nomoliyaviy va moliyaviy sektorlar birliklari uchun pirovard iste'mol bo'lmaydi. Garchi bu korxonalar o'z ishchi – xizmatchilari uchun tovarlar va xizmatlarni pirovard iste'mol uchun bergen bo'lsalar ham, bu tovarlar xizmatlar qiymati ishchi – xizmatlarga berilgan natural shaklidagi ish haqi deb hisob-lanadi. Shu sababli sektorlarning daromadlarni ikkilamchi taqsimlash schyotidagi balanslantiruvchi ko'rsatkichi – “ixtiyordagi daromadi” bu schyotning yalpi jamg‘armasiga teng bo'ladi.

Keyingi – yalpi jamg‘arma ko'rsatkichi bu schyotning balanslashtiruvchi ko'rsatkichi hisoblanadi. Jamg‘arma, odatda, ishlab chiqaruvchi korxonalarning ishlab chiqarishlarini kengaytirish va takomillashtirish bilan bog‘liq bo'lgan sarf-xarajatlarga ishlatiladi.

Daromadlardan foydalanish schyot ko'rsatkichlarini tahlil qilishning asosiy yo'naliishi

Daromadlardan foydalanish schyot ko'rsatkichlarini tahlil qilishning asosiy yo'naliishi:

– yalpi ixtiyordagi daromadni tarkibiy o'zgarish dinamikasini pirovard iste'mollar va yalpi jamg‘arish orqali tahlili. Bunda yalpi ixtiyoriy daromadda pirovard iste'mol va yalpi jamg‘arishni ulushi hisoblanadi. Agarda yalpi jamg‘arishni ulushi kamaysa, u holda iqtisodiyot investitsiya oqimini kamayishini bildiradi.

– uy xo'jaligiga, davlat boshqaruvi tashkilotlariga va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarni pirovard iste'mol xarajatlarini yalpi ixtiyordagi daromaddan ulushi va tarkibiy ishlarini tahlil qilish.

Ko'rsatmali uslubiy masala

Mamlakatni yalpi milliy ixtiyoriy daromadlardan qanday foydalanganligini ifodalovchi ma'lumot berilgan, (joriy bahoda, mln so'm).

Ko‘rsatkichlar	n yil
1. Yalpi milliy ixtiyordagi daromad	3209633,0
2. Pirovard iste’mol xarajatlar:	2623650,9
2.1. Uy xo‘jaligi	1985172,2
2.2. Davlat boshqaruv tashkilotlari	607264,7
2.3. Uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlar	31214,0

1. Iqtisodiyotni yalpi jamg‘arish ko‘rsatkichini.

2. Iqtisodiyotni “Daromadlardan foydalanish schyoti”ni tuzing.

Yechish:

1. $Yaj=YaMID - PI = YaMID (3209633.0) - PI (2623650,9) = 585982,1$

2. Iqtisodiyotni “Daromadlardan foydalanish schyoti”

Foydalanish		Resurslar	
2. Pirovard iste’mol	2623650,9	1. Yalpi milliy ixtiyordagi daromad	3209633,0
2.1. Uy xo‘jaligi	1985172,2		
2.2. Davlat boshqaruv tashkilotlari	607264,7		
2.3. Uy xo‘jaligiga xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlar	31214		
3. Yalpi jamg‘arish (1-2)	585982,1		
Jami (2+3)		Jami (1)	

Mustaqil ishslash uchun masalar

6.1-masala

Quyida mamlakatning yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari va uni hisoblashning pirovard iste'mol xarajatlar usuliga oid ma'lumotlar berilgan (joriy baholarda, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Bazis yil	Hisobot yili
1. Yalpi ichki mahsulot shu jumladan	3209633,0	7450234,6
2. Pirovard iste'mol	2623650,9	5827629,4
2.1. Uy xo'jaligining pirovard iste'moli	1985172,2	4417891,8
2.2. Davlat boshqaruva tashkilotining pirovard iste'moli	607264,7	1339170,3
2.3. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijo-rat tashkilotlarning pirovard iste'moli	31214,0	70567,3
3. Yalpi jamg'arish		
3.1. Asosiy fondlar jamg'arishi	780991,0	1648529,6
32. Moddiy aylanma mablag'lar zaxirasining o'zgarishi	65951,8	285233,2

1. Har yil uchun aniqlang:

a) tovarlar va xizmatlar sof eksportini;

b) pirovard iste'mollar va yalpi jamg'arishning tarkibiy qismini.

2. YaIMni tarkibini aniqlang, tahlil qiling va izohlang.

6.2-masala

Quyida mamlakatning yalpi ichki mahsulotini hisoblashning pirovard iste'mol usuliga oid ma'lumotlar berilgan (joriy baholarda mln so'm.)

Ko'rsatkichlar	Bazis yil	Hisobot yili
1. Yalpi ichki mahsulot, shu jumladan	7148,7	13561,2
2. Pirovard iste'mol xarajatlari	4920,5	8847,0
2.1. Uy xo'jaligini pirovard iste'moli	3780,2	6744,0
2.2. Davlat boshqaruva idoralari	1054,2	1938,8
2.3. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tash-kilotlarning pirovard iste'moli	86,3	164,2
3. Yalpi jamg'arish	1051,1	2991,1
3.1. Asosiy fondlar jamg'arishi	1025,0	2414,2
32. moddiy aylanma mablag'lar zaxirasining o'zgarishi	26,1	576,9

1. Har yil uchun hisoblang:
 - a) tovarlar va xizmatlar sof eksportini;
 - b) pirovard iste'mollar va yalpi jamg'arishni tarkibini aniqlang va izohlang.
2. YaIMni tarkibiy ko'rsatkichlarini aniqlang va izohlang.

6.3-masala

Mamlakatning uy xo'jaligini haqiqiy pirovard iste'mol tarkibini n – yil, $(n+1)$ – yil $(n+2)$ yillarini ma'lumotlari berilgan, (bozor bahoda mln so'm).

Ko'rsatkichlar	n-yil	(n+1)yil	(n+2)yil
Haqiqiy pirovard iste'mol shu jumladan	1307,4	?	9651,3
Uy xo'jaligini pirovard iste'mol xarajatlari	1080	2193,5	?
Tovar sotib olishga	898,4	?	5561,6
Xizmatlar uchun	?	673,8	1616,1
Natura holatda iste'mol qilgan tovarlar va xizmatlar	116,8	189,7	636,8
Rezidentlarni tashqi dunyodan sof sotib olingan tovarlar va xizmatlar	47,06	15,6	-311,3
DBO lari va uy xo'jaligi xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning natura holatida berilgan ijtimoiy transfertlar, shu jumladan tarmoqlar bo'yicha:	?	394,8	1527,7
Ta'lim	88,2	150,0	?
Madaniyat va san'at	29,0	?	206,6
Sog'lijni saqlash, jismoniy madaniyat va ijtimoiy ta'minot	?	218,2	821,8
Uy-joy kommunal xo'jaliklar	2,0	6,2	102,2

1. So'roq qo'yilgan ko'rsatkichni hisoblang.
2. Uy xo'jaligini yillar bo'yicha qilgan sarf xarajatlarini o'zgarishini izohlab bering.
3. Tarmoqlar bo'yicha ijtimoiy transfertlarni tarkibiy qismlarini tahlil qiling va izohlang.

6.4-masala

Mamlakatning n, n+1, n+2, n+3 yillardagi pirovard iste'mol va haqiqiy iste'mol xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni ma'lumotlari berilgan (joriy baholarda mln so'm).

Ko'rsatkichlar	n-yil	(n+1) yil	(n+2)yil	n-yil
1. Uy xo'jaligining pirovard iste'moli	1985,2	2986,1	4417,9	?
2. Davlat idoralarining pirovard iste'moli	?	906,8	1339,1	1717,4
2.1 Individual tovarlar va xizmatlar iste'moli	302,8	452,7	667,6	?
2.2 Jamoa xizmatlari	304,4	?	671,5	857,1
3. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tash-kilotlarning pirovard iste'moli	31,2	46,3	70,6	107,9
4. Natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar	334,0	499,0	?	968,2
5. Uy xo'jaligining haqiqiy pirovard iste'mol xarajati	2319,2	?	5156,1	6335,1
6. Davlat idoralarini haqiqiy pirovard iste'moli	304,4	454,1	?	

1. Har yil uchun hisoblang.
 - a) so'roq qo'yilgan ko'rsatkichlarni hisoblang;
 - b) uy xo'jaligi va davlat boshqaruv idoralarining pirovard va haqiqiy iste'mollari tarkibini aniqlang va izohlang.

6.5-masala

Quyidagi shartli hududning n, n+1, n+2 yillardagi pirovard iste'mol xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar berilgan.

Uy xo'jaligini haqiqiy pirovard iste'molini yillar bo'yicha aniqlang va uning yalpi ixtiyordagi daromadga o'zgarishini izohlab bering. Olingan natijalarni tahlil qiling.

Ko'rsatkichlar	n-yil	(n+1)yil	(n+2)yil
Pirovard iste'mol xarajatlari	1016,6	2003,8	7397,1
Uy xo'jaligining pirovard iste'moli	719,8	1462,3	5417,1
Davlat boshqaruv idoralari	272,5	492,6	1836,8
Individual tovarlar va xizmatlar xarajati	127,5	214,3	873,9
Jamoa xizmatlari xarajati	145,0	278,4	962,9
Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarni pirovard iste'moli	24,3	48,9	143,2
Natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlar	151,8	263,2	1017,2
Uy xo'jaligi haqiqiy pirovard iste'mol xarajati	?	?	?
Davlat idoralarini haqiqiy pirovard iste'moli	?	?	?
Yalpi ixtiyordagi daromad	2445,2	3584,1	10248,2

1. Jadvaldagi so'roqlarni aniqlang.
2. Shartli hudud sektorlarining yalpi jamg'arish ko'rsatkichlarini hisoblang.
3. Yalpi jamg'arish ulushini yalpi ixtiyordagi daromadga nisbatan hisoblang va n, n+1, n+2 yillardagi o'zgarish dinimikasini izohlang.

6.6-masala

Hududni pirovard iste'mollar xarajati tarkibini ifodalovchi ma'lumotlar berilgan (joriy baholarda mln so'm).

Ko'rsatkichlar	n-yil	(n+1)yil	(n+2)yil
Haqiqiy pirovard iste'mol	1834,2	4312,2	9651,3
Uy xo'jaligi haqiqiy pirovard iste'mol xarajati	1511,7	3789,3	?
Sotib olingan tovar xarajati	1048,5	2618,0	5561,6
Sotib olingan xizmat xarajati	306,7	682,6	1616,1
Natura ko'rinishidagi iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar	146,1	388,8	636,8
Rezidentlarning tashqi dunyodan sof sotib olingan tovarlari va xizmatlari	10,4	99,9	-311,3
Davlat idoralari va uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tishkilotlarni natura ko'rinishidagi ijtimoiy transfertlari	299,0	478,5	1525,7

Ta'lim sohasi	123,9	195,2	395,1
Madaniyat va san'at	21,0	26,3	?
Sog'lijni saqlash, jismoniy madaniyat va ijtimoiy ta'minot	154,1	246,2	821,9
Uy – joy kommunal xo'jaliklari	-	10,8	102,2

1. So'roq qo'yilgan ko'rsatkichni hisoblang.
2. Uy xo'jaligining haqiqiy pirovard iste'mol ko'rsatkichlarini tarkibiy o'zgarishlarini aniqlang va izohlang.
3. Iqtisodiy tarmoqlarda ijtimoiy transfertlarni tarkibini o'zgarishini aniqlang va izohlang.

6.7-masala

Shartli hududning quyidagi ma'lumotlariga asosan hududni pirovard iste'mol xarajatlarini n, n+1, n+2 yillardagi tarkibiy qismlarini tahlil qilib, ko'rsating.

Uy xo'jalik sektorini haqiqiy pirovard iste'molini hisoblang va yalpi ixtiyordagi daromadga nisbatan ulushini o'zgarish dinamikasini ifodalab bering.

Natijaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilib ko'ring (mln so'm).

Ko'rsatkichlar	n-yil	(n+1)yil	(n+2)yil
1. Pirovard iste'mol xarajati	1435,9	2003,8	7397,1
1.1. Uy xo'jaligining	1007,8	1462,3	5417,1
1.2. Davlat boshqaruv organlari	391,4	492,6	1836,8
1.2.1. individual tovarlar xarajati	178,3	214,3	873,9
1.2.2. jamoa xizmatlar xarajati	213,1	278,4	962,9
1.2.3. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	36,7	48,9	143,2
2. ijtimoiy transfertlar	149,9	260,2	1017,2
3. yalpi ixtiyordagi daromad	2960,1	3584,1	10248,8

6.8-masala

Mamlakatning “Davlat boshqaruv idoralari sektorining ixtiyordagi yalpi foydalanish ko‘rsatkichlarini ifodalovchi ma’lumotlari” berilgan (joriy bozor bahosida mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	n-yil	(n+1) yil	(n+2)yil	n-yil
Yalpi ixtiyordagi daromad	833874,9	1141874,5	1725250,4	2183839,9
Pirovard iste’mol xarajat	607264,7	906810,2	1339170,3	1717376,4
Individual pirovard iste’mol xarajat	302814,8	452662,4	667626,7	860282,3
Jamoa pirovard iste’mol xarajat	304449,9	454148,1	671543,6	857094,1

1. Davlat boshqaruv idoralari sektorining yillar bo‘yicha yalpi jamg‘arish ko‘rsatkichini hisoblang.
2. Davlat boshqaruv idoralari sektorining “Daromadlardan foydalanish schyotlari”ni tuzing
3. Yalpi jamg‘arish va pirovard iste’molni yalpi ixtiyordagi daromaddagi ulushini va yillarda siljishlarini aniqlang.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar

1. Daromadlardan foydalanish schyotlari qaysi schyotlardan tashkil topgan?
2. Pirovard iste’mol xarajatlari qaysi sektorlarda hisobga olinadi?
3. Uy xo‘jaligini pirovard iste’moliga nimalar kiradi?
4. Uy xo‘jaligini haqiqiy pirovard iste’moli xarajatlaridan farqi nimaga teng?
5. Daromadlardan foydalanish schyotlarni balanslashtiruvchi ko‘rsatkichlari nimalardan iborat?

Adabiyotlar

1. Система национальных счётов 1993. Издание ООН, 1998 г. – С. 211-224.
2. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./ Под ред. Ю.Н.Иванова. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – С. 101-104.
3. Подмогильная В. Система национальных счетов: Учебно-практическое пособие. – Москва: РАГС, 2010. – 238 с.
4. Кремлев Н.Д. Система национальных счетов: Учебное пособие. – Курган: Издательство Курганстат, 2009. – С. 168-171.
5. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов: Учебное пособие для вузов. – Москва: Финансы и статистика, 2006.– 272 с.
6. Елесеева И., Силаева С., Щирина А. Практикум по макроэкономической статистике. – М.: Проспект, 2008. – С. 91-106.
7. Махмудов Б. Миллий ҳисобчилик асослари / Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2003. – Б. 99-101.
8. Qoraboyev A.R. Milliy hisoblar tizimi fanidan masalalar to'plami. O'quv uslubiy qo'llanma. – Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. – В. 90-108.
9. А.Абдуғаффоров, М.Зокирова, А.Қорабоев. Миллий ҳисоблар тизими. Тошкент "Молия" 2002.

VII mavzu. KAPITAL BILAN OPERATSIYALARINI HISOBGA OЛИSH, UNING KO‘RSATKICHLARINI HISOBLASH USULLARI VA UNDAN MAKROIQTISODIY TAHLILDA FOYDALANISH

7.1. Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi

Vaqti-2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Axborot, vizual ma’ruza
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	<ol style="list-style-type: none">Iqtisodiy aktivlar haqida tushuncha.Asosiy kapitalning yalpi va sof jamg‘arilishi, yalpi jamg‘arilishini hisobga olish, baholash va qayta baholash, asosiy kapitalni iste’moli. Kapital transfertlar (kapitalga soliq, investitsiya, subsidiyalar va boshqalar).Kapital bilan qilinadigan operatsiyalar schyoti va uning ko‘rsatkichlari; asosiy kapital, moddiy aylanma vositalarining zaxirasi, qimmatbaho buyumlar, sof kredit, sof qarz.Moliya va boshqa schyotlar.Aktiv va passivlar balansi. Balansning aktivi va passividagi o‘zgarishlar.Aktivlarning klassifikatsiyasi.Milliy boylik-iqtisodiyotning barcha sektorlarining o‘ziga tegishli sof kapitalning yig‘indisi sifatida.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:	Milliy hisobchilikda jamg‘arma schyotlarini tuzish, bu schyotlar ko‘rsatkichlarini hisoblash usullarini o‘rganish va asosiy ko‘rsatkichlariga oid tahlilni amalga oshirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none">Kapital transfertlar va ularning tarkibini tushuntirish.Kapital bilan qiladigan operatsiyalar schyoti va uning ko‘rsatkichlarini yoritib berish.Sof o‘zlashtirish ishlab chiqarilgan nomoliyaviy	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none">Kapital transfertlari va ularni tarkibini to‘g‘risidagi tushunchaga ega bo‘ladi.Kapital bilan qiladigan operatsiyalar schyotini tuza oladi.Sof o‘zlashtirish ishlab chiqarilgan nomoliyaviy aktivlar

aktivlarto‘g‘risida ma’lumot berish. <ul style="list-style-type: none"> • Moliya va boshqa schyotlar hamda ularning asosiy ko‘rsatkichlari. • Aktiv va passivlar balansi va ularni tasnifini misollar asosida tushuntirish. • Aktivlar va passivlardagi boshqa o‘zgarishlar schyotni yorib berish. 	to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladi. <ul style="list-style-type: none"> • Moliya schyoti, aktiv va passivlar balansi, aktivlar va passivlardagi boshqa o‘zgarishlar schyotlarini tuza oladi va tahlil qiladi.
<i>O‘qitishning uslubi</i>	Ma’ruza, aqliy hujum, blits-so‘rov.
<i>O‘qitishning shakli</i>	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Ma’ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari, flomasterlar, multimedya.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki savollar, o‘quv vazifalar, test savollari, mustaqil ishlar.

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik kartasi


Ishning bosqichlari vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i> o‘qituvchi	talabalar
1-bosqich kirish qismi (20 min)	<p>1.1. Mavzusining nomi e’lon qiladi. Fan bo‘yicha umumiylasavvur keltiradi. Ishning metodologik va tashkiliy xususiyatlarini yoritib beradi.</p> <p>1.2. Mazuni, uning maqsadi o‘quv mashg‘ulotlardan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.</p> <p>1.3. Kurs davomidagi ma’ruzalar mazmuni bilan tanishtiradi. Reyting baholash mezonlari bilan tanishtiradi, yozma ish va oraliq nazoratlari hamda yakuniy nazoratlar bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p>	<p>Eshitadi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>
2-bosqich Asosiy bosqich (50 min)	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlanish uchun tezkor savol javob o‘tkazadi:</p> <p>1. Asosiy kapital jamg‘arish va uning tarkibi, asosiy fondlar, aylanma mabllag‘lar va ularning tarkibi, sof qimmatbaho buyumlar to‘g‘risida qanday tasavvurga egasiz?</p> <p>2. Kapital bilan qiladigan operatsiyalar to‘g‘risida nimalar bilasiz?</p> <p>3. Moliya schyotlarini qanday tuzish mumkin deb o‘ylaysiz?</p> <p>4. Aktivlar va passivlardagi boshqa o‘zgarishlar schyoti to‘g‘risida nima bilasiz?</p> <p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi: asosiy kapital jamg‘arishi, uning tarkibi, asosiy fondlar, aylanma mabllag‘lar va ularning tarkibi, sof qimmatbaho buyumlar, kapital transfertlar, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar, sof kreditlash yoki qarz, aktiv va passivlar balansi, milliy boylik</p>	<p>O‘qiydilar</p> <p>Eshitadi hamda savollarga javo beradi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>

	<p>ko‘rsatkichlarining mohiyatini tushuntirib beradi.</p> <p>2.3. Taqdimotda berilgan misollar orqali kapital operatsiyalar, moliya schyotlari, aktiv va passivlar balansi, balansning aktivi va passividagi o‘zgarishlarni hisoblanishini ko‘rsatib beradi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga, ishlab chiqarish schyotining ko‘rsatkichlariga diqqat qilishlarini va yozib olishlarini ta’kidlaydi.</p>	Tinglaydi va yozib oladi.
3-bosqich Asosiy bosqich (10 min)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa qiladi va yakuniy natijalarni e’lon qiladi.</p> <p>3.2. Talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi hamda maqsadga erishilganlik o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi.</p> <p>3.3. Mustaqil vazifalar beriladi va talabalar tayyorgarlik darajasini baholash e’lon qilinadi.</p>	Savollar beradi Yozib oladi.

Ma’ruzaning mazmuni bo'yicha ko'rgazmali slaydlar

Sarmoya bilan operatsiyalar schyoti

Sarmoya bilan operatsiyalar schyoti – bu schyotda kapital xarajatlar uchun moliyaviy resurslarni shakllanishi bilan va ularni asosiy kapitalga, moddiy aylanma mablag'lari va nomoddiy ishlab chiqarilmagan aktiqlarni sotib olish bilan bog'liq operatsiyalarni ifodalaydi.



- * Investitsiyalashni moliyalashtirishning tarkibiy tahlili
- * Investitsiya jalb qilish siyosati tahlili
- * Iqtisodiy sektorlar va iqtisodiyotni iqtisodiy moliyaviy faoliyat natijalarining tahlili

7.1-rasm. Sarmoya bilan operatsiyalar schyoti

Sof kreditlash yoki sof qarz ko'rsatkichi va uni hisoblash algoritmi

Sof kreditlash (SK) yoki sof qarzlar (SZ) - bu ko'rstanich investitsiya uchun ajratilgan moliyaviy manba sof nomoliyaviy aktivlarni sotib olish xarajatalaridan ortiq yoki etishmasligini (defitsit) bildiradi.

Farqlovchi xususiyatlari

SK yoki SZ - bu makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u chet davlatga qisqa muddatli kredit bergenligi yoki qisqa muddatga chet eldan qarz olganligini ifodalaydi.

Sof kreditlash yoki sof qarzni hisoblash algoritmi

$$SK \text{ yoki } SZ = YaMJ - YaJ + \Delta KT$$

Bunda:

YaMJ - yalpi milliy jamg'arma;

YaJ - yalpi jamg'arish;

ΔKT - bu kapital transfert koldig'i bo'lib, u norezidentlardan olingan va berilgan kapital transferlarning farqi.

7.2-rasm. Sof kreditlash yoki sof qarz ko'rsatkichi va uni hisoblash algoritmi

Moliya schyoti

Moliya schyoti – bu schyotda iqtisodiyot sektorlarining kuzatilayotgan davrdagi moliyaviy majburiyatlari va o‘z aktivlaridagi o‘zgarishlari hamda moliyaviy aktivlarini o‘zgarishi bilan bog’liq operatsiyalarni ifodalaydi.

Iqtisodiy sektorlar va iqtisodiyotning moliya schyotlari	
Aktivlarning o‘zgarishi	Majburiyatlarining o‘zgarishi va sof xususiy kapitalining o‘zgarishi
3. Sof o‘zlashtirilgan moliyaviy aktivlar: 3.1. Monetar oltin va qarz olish huquqi (SPZ) 3.2. Naqd pullar va depozitlar 3.3. Qimmatbaho qog‘ozlar (aktsiyalardan tashqari) 3.4. Aktsiyalar 3.5. Kreditlar va qarzlar 3.6. Sug‘urta tashkilotlarining texnik rezervlari 3.7. Boshqa debtor qarzlar Jami: (T.3)	1. Sof kreditlash yoki sof qarzlar 2. Sof olingan moliyaviy majburiyatlar: 2.1. Naqd pullar va depozitlar 2.2. Qimmatbaho qog‘ozlar (aktsiyalardan tashqari) 2.3 Aktsiyalar 2.4. Kreditlar va qarzlar 2.5. Sug‘urta tashkilotlarining texnik rezervlari 2.6. Boshqa kreditor qarzlar Jami: (T.1+T.2)

Farqlovchi xususiyatlari

* Boshqa schyotlaridan farqi bu schyotda balanslashtiruvchi ko‘rsatkichi yo’q. Schyotda aktivlarning o‘zgarishi va majburiyatlar o‘zgarishi qiymatlarining yig’indisi nazariy jihatdan bir-biriga teng bo‘lishi kerak, lekin amaliyotda bular bir-biriga teng emas. Sababi ikkalasida olinadigan ma’lumotlari manbai turlicha. Shu sababli schyotlarni resurslar va foydalanish qismlarini tenglashtirish asosiy muammolardan hisoblanadi.

Tahlil qilishning asosiy yo’nalishi

* Iqtisodiyot sektorlari o‘rtasida moliyaviy resurlarni qayta taqsimlash operatsiyalarning tahlili;
 * Moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashda moliyaviy aktivlarning rolini aniqlash

7.3-rasm. Moliya schyoti

Aktivlar hajmlarida boshqa o'zgarish schyoti

Aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyoti – bu schyotda tabiiy ofatlar, urush va to's-to'polonlar, yong'inlar sodir bo'lishi natijasida institutsional birliklarning aktiv va passivlari holatidagi ma'lum o'zgarishlarni ifodalaydi

Sektorlar va iqtisodiyotning aktiv va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyotlari	
Aktivlarning o'zgarishi	Majburiyatlar va sof kapital qiymatini o'zgarishi
2. Nomoliyaviy aktiv 2.1. Ishlab chiqarilgan aktiv 2.1.1. Naf keltirishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarilgan aktiv 2.1.2. Falokat natijasida yo'qotilgan; 2.1.3. Kompensatsiya qilinmaydigan musodara 2.1.4. Boshqa nomoliyaviy aktivlar hajmlarini o'zgarishi 2.2. Ishlab chiqarilmagan aktiv 2.2.1. Naf keltirishga ega bo'lgan ishlab chiqarilmagan aktiv 2.2.2. O'zlashtirilmagan erlearning biologik resursini tabiiy o'sishi 2.2.3. Mshlab chiqarilmagan aktivlarda iqtisodiy nafsizlanishi 2.2.4. Falokat natijasida yo'qotilgan 2.2.5. Kompensatsiya qilinmaydigan musodara 2.2.6. Boshqa nomoliyaviy aktivlar hajmlarini o'zgarishi 3. Moliyaviy aktivlar 3.1. Falokat natijasida yo'qotilgan; 3.2. Kompensatsiya qilinmaydigan musodara 3.3. Boshqa nomoliyaviy aktivlar hajmlarini o'zgarishi	1. Moliyaviy majburiyatlar 1.1. Falokat natijasida yo'qotilgan qiymat 1.2. Boshqa moliyaviy aktivlar va passivlarni hajmlaridagi o'zgarishi 1.3. Kompensatsiya qilinmaydigan musodara 4. Sof kapitalni o'zgarishi $(T.4=T.2+T.3-T.1)$
Jami: (T.2+T.3)	Jami: (T.1+T.4)

7.4-rasm. Aktivlar hajmlarida boshqa o'zgarish schyoti

Qayta baholash schyoti

Qayta baholash schyoti – inflyatsiya jarayonlari natijasida aktivlar, majburiyatlar va sof kapitallarning haqiqiy qiymat (xolding foyda yoki zararining chegirilgan holatidagi) miqdorini aniqlash.

Iqtisodiy sektorlar va iqtisodiyotning qayta baholash schyotlari	
Aktivlarning o'zgarishi	Majburiyat va sof kapital qiymatining o'zgarishi
3. Nomoliyaviy aktivlar 4. Moliyaviy aktivlar 5. Nominal xolding foyda (-), zarar (+) 5.1. Neytral xolding foyda (-), zarar (+) 5.2. Real xolding foyda (-), zarar (+)	1. Moliyaviy majburiyatlar 2. Nominal xolding foyda (-), zarar (+)* 2.1. Neytral xolding foyda (-), zarar (+)** 2.2. Real xolding foyda (-), zarar (+)*** 6. Nominal xolding foyda (-), zarar (+)ga bog'liq kapitalni sof qiymatni o'zgarishi (T.6=T.3+T.4-T.5-T.1-T.2) 6.1. Neytral xolding foyda (-), zarar (+)ga bog'liq kapitalni sof qiymatni o'zgarishi (T.6.1=T.3+T.4-T.5-T.1-T.2.1) 6.2. Real xolding foyda (-), zarar (+)ga bog'liq kapitalni sof qiymatni o'zgarishi (T.6.2=T.3+T.4-T.5-T.1-T.2.2)
Jami: (T.3+T.4+T.5)	Jami: (T.1+T.2+T.6)

Nominal (neytral,real) xolding foyda (zarar)ga bog'liq kapitalni sof qiymatini o'zgarishi

Tahlil qilishning asosiy yo'nalishi

Inflyatsiya jarayonlari natijasida aktiv va majburiyat qiymati o'zgarishining tahlili

* Nominal xolding foyda (zarar) – bu, hisobot davrini boshidan to oxirigacha bo'lgan davrda aktivlar (majburiyatlar)ni o'zgarishi tufayli kreditor va qarzdorlardan undiriladigan qiymat

** Neytral xolding foyda (zarar) – shu davrda aktivlarning to'lov qobiliyatini ushlab turish uchun kerakli bo'ladigan xolding foyda miqdori yoki aktivlar bahosini ma'lum bir darajada ushlab turish uchun kerak bo'ladigan xolding foyda

*** Real xolding foyda (zarar) – bu, aktiv qiymat nominal va neytral xolding foyda (zarar)ni farqlari natijasida hosil bo'ladi.

7.5-rasm. Qayta baholash schyoti

Tovarlar va xizmatlar yig'ma scheti



Tovarlar va xizmatlar yig'ma schyoti – bu schyot iqtisodiyot bo'yicha ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning qanday maqsadlarda foydalanilganligi ifodalovchi operatsiyalarni qayd etadi. Schyotning ko'rsatkichlari yuqorida qayd etilgan schyotlar ko'rsatkichlari bilan (ishlab chiqarish, daromaddan foydalanish va kapital bilan operatsiya schyotlar) uzviy bog'langan.

Iqtisodiyotning tovarlar va xizmatlar yig'ma schyoti

Foydalanish

4. Oraliq istemol xarajati
5. Pirovard istemol xarajati
6. Asosiy katitalni yalpi jamg'arishi.
7. Moddiy aylama mablag'lar zaxirasining o'zgarishi.
8. Tovarlar va xizmatlar eksporti
9. Statistik xatolar

Resurslar

1. Yalpi ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (asosiy baholarda)
2. Tovarlar va xizmatlar importi
3. Mahsulot uchun sof soliq

Farqlovchi xususiyatlari

Schetning ko'rsatkichlari negzida yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini ikki xil usulda yani pirovord istemol va ishlab chiqarish usullarida hisoblash mumkin, yani pirovard istemol usuli bilan quyidagicha hisoblash mumkin:

$$YaIM = T.5 + T.6 + T.7 + T.8 - T.2$$

Ishlab chiqarish usuli orqali esa quyidagicha aniqlanadi:

$$YaIM = T.1 - T.4 + T.3$$

YaIMni hisoblashda turli malumotlan manbaidan foydalanilganligi sababli, ikki usulda hisoblangan YaIM bir biriga teng bo'lmasligi mumkin. Buni statistik xato deyiladi. Bu xatolik YaIM ni ë 5% dan oshmasa, hisoblar qoniqarli deyiladi.

Tahlil qilishning asosiy yo'nalishi

*YaIM ni pirovard va ishlab chiqarishi usullari ko'rsatkichlarining tarkibiy o'zgarishlari dinamikasini tahlil qilish mumkin.

* Schyotning ko'rsatkichlari negzida ishlab chiqarilgan tovarlar xizmatlarning nimalarga ishlatilganligi tahlil qilish mumkin.

7.6-rasm. Tovarlar va xizmatlar yig'ma scheti

1-jadval

**MHTning tovarlar va xizmatlar yig‘ma schyoti
ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqligi**

Nº	Tovarlar va xizmatlar schyotining ko‘rsatkichlari va qismi	Schyotlar korrespondentsiyasi	Schyotning qismlari
1.	<i>Resurslar:</i> Tovar va xizmatning yalpi ishlab chiqarishi, asosiy bahoda	Ishlab chiqarish schyoti	Resurslar
2.	Tovarlar va xizmatlar importi.	Tashqi dunyo sektorining tovarlar va xizmatlar schyoti	Resurslar
3.	Sof mahsulot solig‘i.	Ishlab chiqarish schyoti	Resurslar
4.	<i>Foydalanish:</i> Oraliq istemol	Ishlab chiqarish schyoti	Foydalanish
5.	Pirovard istemol	Pul ko‘rinishida ixtiyordagi daromadlardan foydalanish schyoti	Foydalanish
6.	Asosiy kapital jamg‘arishi	Kapital bilan operatsiyalar schyoti	Foydalanish
7.	Moddiy aylanma mablag‘lar zaxirasining o‘zgarishi	Kapital bilan operatsiyalar schyoti	Foydalanish
8.	Tovar va xizmatlar eksporti	Tashqi dunyo sektorining tovarlar va xizmatlar schyoti	Foydalanish

Aktivlar va passivlar balansi



Aktivlar va passivlar balansi – uchta balans jadvallardan iborat bo’lib, uni hisobot davri boshi, oxiri, xamda yakuniy aktivlar va passivlarni holati va ularning bu davrda o’zgarishini ifodalaydi.



Umumiy xususiyatlari

* Aktivlar va passivlar iqtisodiy sektor va yaxlit iqtisodiyot bo'yicha hisobot davri boshi va oxiri uchun joriy baholarda tuzilib, unda mavjud resurslarning (aktivlar) hamda moliya majburiyatlarining tarkibi va miqdori, shu bilan birga o'z kapitalining sof qiymati miqdori ko'rsatiladi.

* Balansning balanslashtiruvchi moddasi sof kapital qiymati bo'lib, u aktivlar va passivlar qiymatlarining ayirmasiga teng. Bu ko'rsatkich iqtisodiy sektorlarni mavjud mol mulkini hamda iqtisodiyotning malum davrdagi milliy boyligini ifodalaydi.

* Aktivlarning hisobot davrining boshi va oxiridagi ko'rsatkichlarni qiymatlarni o'zaro bog'liqligini va shu davrda aktivlarni qiymatini o'zgarishi jamg'arma schetlarda ifodalanadi va u quyidagicha:

$$Ax.b + As + Ach + Ab + XF = Axo$$

bunda :

Ax.b – aktivni hisobot davridagi qiymati;

As – sotib olingan aktivning qiymati;

Ach – hisobdan chiqarilgan aktivni qiymati;

Ab – miqdorlarida boshqa o'zgarishi sababli aktiv qiymatining o'zgarishi;

XF – xolding foyda;

Axo – aktivning hisobot oxiridagi qiymati.

Xuddi shunday o'zaro bog'liqligi ko'rsatkichlar passivlar va sof foyda kapitalga ham tegishli.

7.7-rasm. Aktivlar va passivlar balansi

1. Aktivlar va passivlarning boshlang'ich balansi	
Aktivlar	Majburiyatlar va sof kapital qiymati
1. Nomoliyaviy aktivlar 1.1. Ishlab chiqarilgan aktivlar 1.2. Ishlab chiqarilmagan aktivlar 2. Moliyaviy aktivlar	1. Moliyaviy majburiyatlar 2. Sof kapital qiymati (T.4=T.1+T.2-T.3)
Jami: (T.1+T.2)	Jami: (T.3+T.4)

2. Aktivlar va passivlar balansini o'zgarishi	
Aktivlar	Majburiyatlar va sof kapital qiymati
1. Nomoliyaviy aktivlar 1.1. Ishlab chiqarilgan aktivlar 1.2. Ishlab chiqarilmagan aktivlar 2. Moliyaviy aktivlar	1. Moliyaviy majburiyatlar 2. Sof kapital qiymati (T.4=T.1+T.2-T.3)
Jami: (T.1+T.2)	Jami: (T.3+T.4)

3. Aktivlar va passivlar yakuniy balansi	
Aktivlar	Majburiyatlar va sof kapital qiymati
1. Nomoliyaviy aktivlar 1.1. Ishlab chiqarilgan aktivlar 1.2. Ishlab chiqarilmagan aktivlar 2. Moliyaviy aktivlar	1. Moliyaviy majburiyatlar 2. Sof kapital qiymati (T.4=T.1+T.2-T.3)
Jami: (T.1+T.2)	Jami: (T.3+T.4)

↓ ↓

Tahlil qilishning asosiy yo'nalishi

- * Milliy boylik uy xo'jaliklar o'rtaida taqsimlanishini tahlil qilish;
- * Pirovard iste'mol bilan jamg'arish o'rtaсидаги тақсимлаш омилларини тадқиқот qilish;
- * Iqtisodiyotni real va moliya sektorlar o'rtaida investitsion jarayonlarni tadқiқot qilish;
- * Iqtisodiyotning iqtisodiy resurslar baholash negizida tashqi debitorklik (kreditorlik) holatlarni aniqlash;
- * Iqtisodiy oborotga jalb qilingan tabiiy resurslarni baholash.

7.8-rasm. Aktivlar va passivlar balansi va uni tahlil qilishni asosiy yo'nalishlari

O‘quv materiallari

1.Iqtisodiy aktivlar haqida tushuncha va ularning tasnifi

Aktivlar - bu institutsional birliklar qo‘lidagi mulk bo‘lib, unga egalik qilish va undan foydalanish huquqi tufayli egalari ulardan iqtisodiy daromad oladilar. Ular mulk obyekti bo‘lganligi sababli zahiradagi qiymat ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Mulkning qiymat ifodasi MHTda iqtisodiy aktiv ma’nosini beradi. Iqtisodiy aktivning miqdori (ko‘lami) olingan iqtisodiy daromad hajmiga, shuningdek, muayyan davrda ulardan foydalanganlik darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Aktivlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ◆ nomoliyaviy aktivlar;
- ◆ moliyaviy aktivlar.

Nomoliyaviy aktivlar o‘z navbatida ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarilmagan aktivlarga bo‘linadi (1-jadval). Ishlab chiqarilgan nomoliyaviy aktivlar tarkibiga asosiy fondlar, moddiy aylanma mablag‘lar zahirasi, qimmatli buyumlar kiradi.

1-jadval

MHT-1993 da aktivlar tasnifi

Nomoliyaviy aktivlar	Moliyaviy aktivlar
<p>1. Ishlab chiqarilgan aktivlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. 1. Asosiy fondlar <ol style="list-style-type: none"> 1.1.1. Moddiy asosiy fondlar: <ul style="list-style-type: none"> - yashash binolari; - boshqa bino va inshoatlar; - mashina va jihozlar; - yetishtiriladigan aktivlar. 1.1.2. Nomoddiy asosiy fondlar: <ul style="list-style-type: none"> - foydali qazilmalarni qidirish ishlari; - EHM dasturiy ta’minoti; - ko‘ngil ochar janrga oid, adabiyot va san’at asarlari; - boshqa nomoddiy asosiy fondlar. 1.2. Moddiy aylanma mablag‘lar zahirasi 1.3. Qimmatli buyumlar <p>Ro‘yxatdan tashqari: Uzoq muddat xizmat ko‘rsatuvchi iste’mol tovarlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 2. Ishlab chiqarilmagan aktivlar 2.1. Moddiy aktivlar <ol style="list-style-type: none"> 2.1.1. Yer 2.1.2. Yer osti resurslari 	<p>1. Monetar oltin va qarz olishning maxsus huquqi</p> <ol style="list-style-type: none"> 2. Naqd pul va depozitlar 3. Qimmatli qog‘ozlar (aktsiyadan tashqari) 4. Ssudalar 5. Aksiya va kapitalda ishtirok etishning boshqa turlari 6. Sug‘urta texnik rezervlari 7. Debitor va kreditor qarzlar

2.1.3. Yetishtirilmaydigan biologik resurslar 2.1.4. Suv resurslari 2.2. Nomoddiy aktivlar: 2.2.1. Patentlangan obyektlar 2.2.2. Ijara to‘g‘risidagi bitimlar 2.2.3. Sotib olingan “gudvill” 2.2.4. Boshqa nomoddiy ishlab chiqarilmagan aktivlar	
---	--

Asosiy fondlar ham o‘z navbatida ikki guruh aktivlardan iborat:

- ◆ Moddiy aktivlar, ya’ni yashash joylari, ishlab chiqarish binolari va qurilish ishlari, uskunalar, ishlab chiqarishga jalg qilingan tabiiy resurslar, badiiy asarlar;

- ◆ nomoddiy aktivlar, ya’ni tadqiqotlar va izlanishlar, kompyuter dasturlari, adabiyot hamda san’at asarlari va x.k.

Moddiy aktivlar jamiyatning moddiy ehtiyojini qondiruvchi va aniq moddiy ashyoviy shakldagi aktivdir. Nomoddiy aktivlar moddiy ko‘rinishida bo‘lsa-da, ular nomoddiy ehtiyojni qondiradi.

Moddiy aylanma mablag‘lar va moddiy-tovar mablag‘lari zahiralari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ◆ ishlab chiqaruvchilarning tayyor mahsuloti va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmlari;

- ◆ oraliq iste’moli uchun chetdan sotib olingan xom-ashyo, mablag‘ va yarim fabrikatlar hajmi;

- ◆ muomaladagi tovar g‘amlamalari va davlat ixtiyoridagi zahiralar.

Iqtisodiyotning sof aktivi, ya’ni xususiy kapitalning o‘zgarishi juda ham murakkab va kompleks miqdor bo‘lib, u quyidagi qator omillar ta’sirida shakllanadi:

- ◆ jamg‘arma va sof transfert kapital;
- ◆ aktivlar tarkibidagi turli o‘zgarishlar;
- ◆ xoldingning nominal foydasi yoki zarari.

Kapital jamg‘arma shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Uning miqdori mavjud (ixtiyordagi) daromaddan foydalanish balansining qoldig‘iga bog‘liq. U mavjud daromad bilan pirovard iste’mol o‘rtasidagi farqqa teng. Kapital bilan operatsiyalar schyotida sof jamg‘arma (iste’mol qilingan asosiy fondlarning qiymatini ayirib tashlagandan keyingi umumiyl

jamg‘arma miqdori) xususiy kapitalning o‘zgarishida birinchi va hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Kapital transfert asosan kapitalning shakllanishiga ta’sir kiluvchi ikkinchi omil bo‘lib hisoblanadi. U vositalarning bir yoqlama harakatini tovarlarning qarama-qarshi oqimsiz aks ettiradi. Kapitalni shakllanishini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tarkibida kapital transfert ikki tomonlama hisobga olinadi:

- ◆ olingan kapital transfert (+);
- ◆ berilgan kapital transfert (-).

Olish va berish o‘rtasidagi farq transfert kapitalning sof miqdorini tashkil qiladi. Jamg‘armaning sof miqdori va sof transfert kapital miqdoran quyidagi algebraik jamlamaga teng:

- 1) asosiy kapital yalpi jamg‘armasining qo‘sishma o‘sishi;
- 2) iste’mol qilingan asosiy kapital (ayirib tashlanadi);
- 3) moddiy aylanma mablag‘lar zahirasidagi o‘zgarishlar;
- 4) sotib olingan va sotilgan nomoliyaviy tiklanmaydigan aktivlar o‘rtasidagi farq;
- 5) sof kreditlash (+), sof qarz olish (-).

2. Kapital bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar schyoti

Nomoliyaviy aktivlarning jamg‘arilishi yoki ularning qandaydir sabalarga ko‘ra hadya qilinishi kapital operatsiyalar schyotida aks ettiriladi. Bu schyot sektor va butun iqtisodiyot bo‘yicha hisoblanadi.

Kapital operatsiyalar schyoti sxemasi quyida tasvirlangan:

Foydalaniш	Resurslar
4. Asosiy fondlarning yalpi jamg‘arilishi. 5. Moddiy aylanma mablag‘lar zahirasining o‘zgarishi. 6. Qimmatbaho tovarlar sotib olish yoki sotish 7. Sof sotib olingan ishlab chiqarilmagan nomoddiy aktivlar. 8. Asosiy fondlar iste’moli. 9. Sof kreditlash yoki sof qarz olish.	1. Yalpi jamg‘arma. 2. Boshqa davlatlardan olingan kapital transfertlar 3. Boshqa davlatlarga berilgan kapital transfertlar

1-rasm. Karital operatsiyalar schyotining sxemasi

Sof kreditlash yoki sof qarz olish schyotning balanslash-tiruvchi moddasidir. Ushbu qiymat musbat bo'lsa, u holda bu institutsional birlik boshqa institutsional birlikka kredit berish qobiliyatiga egadir, va aksincha.

Moddiy aylanma malag'lar zahirasini o'zgarishiga quyida-gilar kiradi:

- xomashyo materiallari;
- yoqilg'i mahsulotlari;
- mayda ishlab chiqarish qurollari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va so'yishga berilgan so'qim;
- tayyor mahsulotlarning realizatsiya qilinishi;
- qayta sotishga mo'ljallangan tovarlar;

Sof xarid qilingan qimmatbaho buyumlar (KBB) – bu yalpi iqtisodiy kategoriya bo'lib milliy hisoblar tizimida 1993 yildan boshlab qo'llana boshlagan. Qimmatbaho buyumlar ishlab chiqarish yoki iste'mol maqsadida emas, balki ulardagi qimmatning qadrini saqlab qolish maqsadida xarid qilinadi.

Qimmatbaho buyumlarning qadri vaqt o'tishi bilan kamaymaydi. Bularga qimmatbaho metallar, toshlar, zargar buyumlar, antikvarlar, har xil kolleksiyalar va boshqalar kiradi.

Moliya schyoti qanday qilib sof kreditorlar ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladigan foydani sof qarzdorlar ixtiyoriga berishni ko'rsatadi.

Foydalanish	Resurslar
8. Monetar oltin va SPZ-maxsus qarz olish huquqi 9. Naqd pullar va depozitlar 10. Qimmatli qog'ozlar (aktsiyadan) tashqari 11. Ssuda 12. Aksiya va kapitalda qatnashishning boshqa shakllari 13. Sug'urta texnik rezervlari 14. Boshqa debitor qarzlar	1. Sof kreditlash yoki sof qarz 2. Naqd pullar va depozitlar 3. Qimmatli qog'ozlar (aktsiyalardan tashqari) 4. Ssuda 5. Aksiya va kapitalda qatnashishning boshqa shakllari 6. Sug'urta texnik rezervlari 7. Boshqa kreditor qarzlar

2-rasm. Moliya schyoti sxemasi

Shuni qayd qilish kerakki, moliya schyoti moliyaviy aktivlar yoki moliyaviy majburiyatlarni qiymatlarni hisobga olmasdan, balki ularni hisobot davrda o‘zgarishini hisobga oladi.

Aktivlar va passivlardagi boshqa o‘zgarishlar schyoti. Bu schyotni hisoblashdan maqsad turli tuman tabiiy ofatlar natijasida aktivlar va passivlarni qiymatini o‘zgarishini ko‘rsatib berish.

Tabiiy ofatlar – urush, yer qimirlashi, yong‘in, suv toshqini natijasida aktiv va passivlar qiymatlarining o‘zgarishini hisobga oladi:

Foydalanish	Resurslar
2. Tabiiy ofatlar natijasida aktivlarni qiymatini o‘zgarishi.	1. Tabiiy ofatlar natijasida passivlar qiymatini o‘zgarishi.

4-rasm. Aktivlar va passivlardagi boshqa o‘zgarishlar schyoti

Foydalanish	Resurslar
3. Moliyaviy majburiyatlar 4. Shaxsiy kapital sof qiymati 4 = 1 = 2 – 3	1. Nomoliyaviy aktivlar 2. Moliyaviy aktivlar

5-rasm. Aktivlar va passivlar hisobot boshida (oxirida) balansi

Ushbu balans hisobot davri uchun davr boshida va oxirida tuziladi. Aktivlarning qiymatini hisobga olish ularning umumiy miqdorini aniqlash imkonini beradi. Aktivlarning (A) umumiy qiymatdan (P) passivlarni ayirib tashlasak, u holda institutsional birliklarning xususiy kapitali (XK) kelib chiqadi:

$$XK = A - P \quad (1)$$

Makroiqtisodiyot miqyosida xususiy kapital *sof aktivlar* deb yuritiladi. U mamlakatning milliy boyligini ifodalaydi.

Moliyaviy aktiv – bu jamg‘arma vositasi bo‘lib, u egasiga daromad keltiradi. Masalan, aksiya va qimmatli qog‘ozlar o‘z egalariga daromad, shuningdek, xolding foydasini olib keladi.

Jadval-1 da keltirilganidek, moliyaviy aktivlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ◆ monetar oltin va SDR ;
- ◆ naqd pullar va depozitlar;
- ◆ qimmatli qog‘ozlar (aktsiyalardan tashqari);

- ◆ ssuda
- ◆ aksiya va kapitalda qatnashishning boshqa shakllari
- ◆ sug‘urta texnik rezervlari
- ◆ boshqa debitor va kreditor qarzlar

Monetar oltin va SDRdan tashqari barcha qayd qilingan moliyaviy aktivlar passivlar unsuri tariqasida ham hisobga olinadi. Ular moliyaviy qarzdorlikni bildiradi.

Moliyaviy aktivlar o‘z tarkibiga monetar oltin va Xalqaro Valyuta fondi (XVF)ning qarz olishning maxsus huquqini (SDR) o‘z ichiga oladi. Monetar oltin va XVFning SDR bo‘yicha bajarilgan majburiyat bo‘lmaydi. Probadagi oltin tanga, oltin yombi (slitok) yoki to‘rt burchak qilib kuyilgan (brusok) oltin monetar oltin deb hisoblanadi.

SDR XVF tomonidan chiqariladi va uning a’zolariga tarqatiladi. SDR egalari undan o‘z aktivlarini xalqaro zahiralar fondi hisobidan to‘ldirish uchun foydalanadilar. SDRga ega bo‘lgan XVF a’zolari uning oldida shak-shubhasiz majburiyatli emaslar. Aksincha, ular konvertirlangan chet el valyutasidan zahiradagi o‘z aktivini to‘ldirish uchun kafolatli huquq bilan ta’milnanadilar.

Sof moliyaviy aktiv iqtisodiyotning sof aktivlarini yoki xususiy kapitalni hisoblash uchun zarurdir. U quyidagicha aniqlanadi:

$$SMA = MA - MM \quad (2)$$

Bu yerda *SMA* – sof moliyaviy aktiv;

MA – moliyaviy aktiv;

MM – moliyaviy majburiyat.

Moliyaviy majburiyat kreditorlar va qarzdorlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma munosabatlari natijasida vujudga keladi. Agar aktsiya yoki boshqa turdagи qimmatli qog‘ozlar egasi, ya’ni moliyaviy aktiv egasi bo‘lmish kreditor mazkur mulkidan daromad topish uchun da’vogar bo‘lsa, u holda qimmatli qog‘ozlar emitenti qarzdor rolini bajaradi va qimmatli kog‘ozlar ushlovchilarga (ularga to‘lashi lozim bo‘lgan) daromadni to‘lash bo‘yicha majburiyatli bo‘ladi. Shunday qilib, moliyaviy aktivlar qarzdorlarning moliviy talabalaridan tashkil topib kreditorlarga ular bo‘yicha to‘lov olish huquqini beradi.

Moliyaviy majburiyat – bu qarzdorlarning o‘z kreditorlari talablarini to‘lash bo‘yicha majburiyatidir.

Aktivlar va passivlar balansi. Aktivlar va passivlar balansi odatda yil boshi va yil oxiridagi holati bilan hisobga olinadi. Shunga qarab mutanosib ravishda aktivlar va passivlar balansi boshlangich hamda yakuniy ko‘rinishlarida tuziladi. Bu balanslar MHT tarkibidagi to‘rtinchi toifa schyotlar bo‘lib, ularda aktivlar elementlarining tarkibi, majburiyat va xususiy kapitalning muayyan vaqtdagi holati aks ettiriladi. Aktivlar va passivlar balansi uchta balansdan iborat:

Aktiv va passivlarning boshlangich balansi

Aktivlar	Majburiyatlar va xususiy kapital
1. Nomoliyaviy aktivlar: a) tiklanadigan; b) tiklanmaydigan; 2. Moliyaviy aktivlar	3. Majburiyatlar 4. Xususiy kapital

Aktiv va passiv balansdagi o‘zgarishlar

Aktivlardagi o‘zgarishlar	Majburiyatlar va xususiy kapitallardagi o‘zgarishlar
1. Nomoliyaviy aktivlarda: a) tiklanadigan; b) tiklanmaydigan. Moliyaviy aktivlarda	3. Majburiyatlardagi o‘zgarishlar 4. Xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar

Aktiv va passivlarning yakuniy balansi

Aktivlar	Majburiyatlar va xususiy kapital
1. Nomoliyaviy aktivlar: a) tiklanadigan; b) tiklanmaydigan. 2. Moliyaviy aktivlar	3. Majburiyatlardagi o‘zgarishlar; 4. Xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar

Boshlang‘ich va yakuniy balanslardagi majburiyatlar yil boshidagi va oxiridagi qarzdorlikni xarakterlaydi. Nomoliyaviy va moliyaviy aktivlar yig‘indisidan majburiyatlar ayirib tashlansa (1-qator+ 2-qator— 3-qator) xususiy kapital kelib chiqadi, ya’ni:

$$\boxed{Xususiy\ kapital = Nomoliyaviy\ aktivlar + Moliyaviy\ aktivlar - Majburiyatlar}$$

Boshlangich va yakuniy balanslarning elementlari o‘rtasida quyidagicha bog‘liqlik mavjud:

Yakuniy aktiv = boshlang‘ich aktiv + aktivdagi o‘zgarishlar

Yakuniy majburiyat = boshlang‘ich majburiyat + majburiyatdagi o‘zgarishlar

Yakuniy balansdagi xususiy kapital = boshlang‘ich xususiy kapital+ xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar

Xususiy kapital ayrim institutsional birliklar bo‘yicha hisoblanadi. Iqtisodiyotning sof aktivni barcha sektorlarning sof aktivlari yig‘indisiga teng:

$$\text{ISA} = \Sigma \text{SA} \quad (3)$$

Bu yerda: ISA – iqtisodiyotning sof aktivni; ΣSA – sektorlar sof aktivlarining yig‘indisi.

Iqtisodiyotning sof aktivni boshqa usulda ham hisoblanishi mumkin:

$$\text{ISA} = \text{MMA} + \text{ChE SMA} \quad (4)$$

Bu yerda MMA – moddiy moliyaviy aktivlar;

ChE SMA – chet el sof moliyaviy aktivlari.

Chet el moliyaviy aktivlari mamlakatning chet ellar bo‘yicha aktiv va passiv balanslariga asoslanib hisoblanadi. Bu balansning aktiv qismida quyidagilar hisobga olinadi:

1) chet el valyutasi g‘amlamasi;

2) xorijiy investitsiya va qimmatli qog‘ozlar;

3) to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyasi;

4) eksport bo‘yicha kechiktirilgan to‘lovlar uchun berilgan kredit;

5) xorijiy davlatlarning qarzları;

6) xalqaro tashkilotlarga berilgan badallar;

7) boshqa tashqi aktivlar (buning tarkibiga valyuta banklarining qisqa muddatli chet el aktivlari va korporatsiyalarning chet el aktivlari kiradi).

Balansning passiv qismida quyidagi unsurlar hisobga olinadi:

1) ichki qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar (buning tarkibiga qisqa va uzoq muddatli obligatsiyalar ham kiradi;

2) ichki iqtisodiyotga qilingan investitsiyalar;

3) import bo‘yicha kechiktirilgan to‘lovlar uchun berilgan kredit;

4) xorijiy davlatlardan qarzlar;

5) boshqa tashqi qarzlar (buning tarkibiga valyuta banklarining qisqa muddatli tashqi qarzi va korporatsiyalarning tashqi qarzlari kiradi).

Jami moliyaviy aktiv bilan jami moliyaviy passiv o'rtasidagi tafovut sof chet el moliyaviy aktivini tashkil qiladi:

$$ChE\ sma = \Sigma MA - \Sigma MP \quad (5)$$

Bu yerda ChE sma – chet el sof moliyaviy aktivi;

MA – jami moliyaviy aktiv;

MP-jami moliyaviy passiv.

Chet el sof moliyaviy aktivi iqtisodiyotning sof aktivini hisoblash uchun qo'llaniladi.

Mavzuga doir testlar

1. Jamg'arma schyotlarini tuzishdan maqsad nima va tarkibi qanday schyotlardan tashkil topgan :

a) aktiv-passivlarni barcha o'zgarishlari va hisobot davrda kapitalni sof qiymatlarni barcha o'zgarishlarni ifodalash va kapital bilan qilinadigan operatsiyalar, moliya, aktiv va passivlarda boshqa o'zgarishlar va qayta baholash schyotlaridan iborat;

b) hisobot davrda kapitalni sof qiymatini barcha o'zgarishlarini ifodalaydi va u kapital bilan operatsiyalar, moliya, aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyotlaridan iborat;

c) hisobot davrda aktivlarni barcha o'zgarishlarni ifodalaydi va unga kapital bilan operatsiyalar schyoti, moliya schyoti, aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyoti, qayta baholash schyotlaridan iborat;

d) passivlarning barcha o'zgarishlari va kapital bilan qilinadigan operatsiyalar schyotidan iborat.

2. Kapital bilan operatsiyalar schyoti tuziladi:

a) yaxlit iqtisodiyot uchun;

b) tarmoqlar va yaxlit iqtisodiyot uchun;

c) tarmoqlar, sektorlar va yaxlit iqtisodiyot uchun;

d) sektorlar va yaxlit iqtisodiyot uchun.

3. Kapital bilan operatsiyalar schyoti tuzishdan maqsad:

a) kapital xarajatlar uchun moliyaviy, resurslarini shakllanishi bilan va ularni asosiy kapital yig'ilmasiga, aylanma moddiy

mablag'lariga va nomoddiy ishlab chiqarilmagan aktivlarni sotib olish bilan bog'liq operatsiyalarni ifodalaydi kapital xarajatlar uchun moliyaviy resurslarni shakllanishini va ularni kapital yig'ilmasiga sarflash operatsiyalarini qayd etish uchun;

b) kapital xarajatlar uchun moliyaviy resurslarni shakllanishi bilan va ularni asosiy kapital, yig'ilmasiga, moddiy yig'ilmasiga, moddiy aylanma mablag'lariga sarflash operatsiyalarni qayd etish uchun;

c) asosiy fondlar yig'ilmasi, aylanma mablag'lar sotib olish bilan bog'liq operatsiyalarni ifodalaydi.

4. Kapital bilan operatsiyalar yig'ma schyoti "resursslari" ustuni qanday ko'rsatkichlardan tashkil topgan?

- a) pirovard iste'mol;
- b) yalpi milliy jamg'arish va tashqi dunyodan olingan va berilgan kapital transfertla;
- c) tashqi dunyoga berilgan kapital transfertlar(-);
- d) sof kredit (+) yoki sof qarz (-).

5. Iqtisodiy sektorlar va iqtisodiyotni "Kapital bilan operatsiyalar" schyotini balanslantiruvchi ko'rsatkich-bu:

- a) sof kredit (+) yoki sof qarz (-);
- b) sof milliy jamg'arish;
- c) yalpi milliy ixtiyordagi daromad;
- d) sof kredit.

6. Iqtisodiyotning quyidagi ma'lumotlari asosida "Kapital bilan operatsiyalar schyotinni tuzing va balanslashtiruvchi ko'rsatkichi sof kredit (+) yoki sof qarz (-) ko'rsatkichlarini hisoblang:mln so'm

Yalpi milliy jamg'arish-5283,2; tashqi dunyodan olingan kapital transfertlar-637,4; tashqi dunyoga berilgan kapital transfertlar-37,2; asosiy kapitalning yalpi yig'ilmasi(sof sotib olingan qimmatbaho buyumlar)-246,4; aylanma moddiy mablag'larini zahirasining o'zgarishi-267,4

- a) 3152,0 mln so'm;
- b) 3226,4 mln so'm;
- c) 5369,2 mln so'm;
- d) 6423,7 mln so'm.

7. Moliya schyoti tuziladi:

- a) iqtisodiyot bo'yicha;
- b) tarmoqlar, sektorlar va iqtisodiyot bo'yicha;

- c) tarmoqlar va iqtisodiyot bo'yicha;
- d) sektorlar va iqtisodiyot bo'yicha.

8. Moliya schyotini tuzishdan maqsad:

- a) moliyaviy instrumentlar bilan bo'ladigan iqtisodiy operatsiyalar va moliyaviy aktivlarni yig'ilishi va uni molialashtirish manbayini ifodalash uchun;
- b) moliyaviy instrumentlar bilan bo'ladigan iqtisodiy operatsiyalar ifodalash uchun;
- c) moliyaviy instrumentlar bilan bo'ladigan iqtisodiy operatsiyalar va moliyaviy aktivlarni yig'ilish jarayonlarni ifodalash uchun;
- d) barcha moliyaviy aktivlar va passivlarni ma'lum bir davrda o'zgarishini ifodalaydi.

9. Moliya schyotini balanslantiruvchi ko'rsatkichi –bu:

- a) sof olingan moliyaviy majburiyatlar;
- b) sof o'zlashtirilgan moliyaviy aktivlar;
- c) balanslashtiruvchi ko'rsatkichi yo'q, resurs va foydalanish ustun ko'rsatkichlari "ta'rif" asosida balanslashadi;
- d) sof kreditlash.

10. Aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyoti tuziladi:

- a) tarmoqlar, sektorlar va iqtisodiyot bo'yicha;
- b) sektorlar va iqtisodiyot bo'yicha;
- c) tarmoqlar va iqtisodiyot bo'yicha;
- d) tarmoqlar va sektorlar bo'yicha.

7.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi

<i>Talabalar soni 25-30 gacha</i>	<i>vaqtি 2-soat</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	Amaliy mashg‘ulotlarda chuqurlashtirish va bilimni kengaytirish jarayoni.
Amaliy mashg‘ulotda muhokama qilinadigan savollar.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Yalpi jamg‘arish va uni hisoblash. 2. Sof kapital transfertni hisobga olish va uni hisoblash. 3. Asosiy kapital yalpi jamg‘armasini tarkibi va ularni hisoblash. 4. Sof kredit yoki sof qarz ko‘rsatkichlarini hisoblash va uni tahlil qilish. 5. Kapital bilan qilinadigan operatsiyalar schyoti ko‘rsatkichlarini hisoblash va uni tahlil qilish.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Mavzu bo‘yicha bilimni chuqurlashtirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Aktivlar va uni tarkibiga kiruvchi resurslarni tushuntirish. • Moddiy (nomoliyaviy) moliyaviy resurslar va ularni tarkibini tushuntirish. • Moddiy aylanma mablag‘larning zaxiralardagi o‘zgarishni hisoblashni o‘rgatish. • Sof qimmatbaho tovarlarni hisoblashni o‘rgatish. • Kapital bilan qilinadigan operatsiyalar schyotini, moliya schyotini tuzishga oid mashqlarni tushuntirish. 	<i>O‘quv faoliyatning natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Aktivlar va uni tarkibiga kiruvchi resurslarni to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi. • Moddiy (nomoliyaviy) moliyaviy resurslar va ularni tarkibi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi. • Moddiy aylanma mablag‘larning zaxiralardagi o‘zgarishni hisoblashni o‘rganadi. • Sof qimmatbaho tovarlarni hisoblashni o‘rganadi. • Kapital bilan qilinadigan operatsiyalar schyotini, moliya schyotini tuzishga oid mashqlarni bajara oladi.
<i>O‘quv uslubi</i>	“Doira” stol, grafik organayzer: mantiqan tizimli chizma.
<i>O‘qitish shakli</i>	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar, flip-chatlar, flomasterlar.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlар bilan ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya. Yoritilgan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Mustaqil o‘rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar va vaqtি	Faoliyat mazmuni o‘qituvchi	talaba
1-bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 min.)	<p>1.1. Mavzu nomini aytadi, rejalashtirilgan natijalarni va uni o‘tkazish jarayoni bilan tanishtiradi. Birgalikda guruhlar bilan texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonini tushuntiradi. Adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Tayanch iboralar tushunchalari orqali so‘rovnama olib boradi. Savol tashlaydi va 1-2 ta javoblarni eshitib bo‘lgach, keyingi muhokamalarni guruhlar ishlarini bajarib, natijalarni prezentatsiya jarayonida eshitishni e’lon qiladi.</p> <p>1.3. Har bir talaba individual tarzda guruhlardagi baholanish bilan birga baho oladi va guruhlarda ishslash qoidalari bilan tanishtiradi.</p>	<p>Eshitadi va yozib boradi</p> <p>Munozarada qatnashadi, savollarga javob beradi.</p> <p>Eshitadi.</p>
2-bosqich Guruhlarda ishlash (60 min)	<p>2.1. Talabalarni 4 guruhgaga bo‘ladi. O‘quv vazifalarni tarqatadi. Qanday natijalarga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi.</p> <p>2.2. Natijaviy ko‘rsatkichlarni sharhlaydi. Qanday qo‘srimcha materiallar bilan foydalanish mumkinligini tushuntiradi (darslik, ma’ruza matnlari, o‘quv qo‘llanma).</p> <p>2.3. O‘zaro guruhlarda olingan natijalarni prezentatsiya qilish va ularni baholanishni tashkil qiladi. Qilingan ish jarayonidagi xulosalar keltiriladi va alohida e’tiborga loyiq guruhlar jarayoni ketadi.</p>	<p>Eshitadi, ishni bajarishni boshlaydi.</p> <p>Hisoblaydi va tahlil qiladi.</p> <p>Birgalikda qilingan prezentatsiya chiqishlari ko‘rsatiladi.</p>
3-bosqich Yakuniy bosqich (10 min)	<p>3.1. Amaliyot natijalarini yakunlaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish mavzusini aytadi va vazifa beradi: “Kapital bilan qilinadigan operatsiyalar schyotini, moliya schyotini tuzishga oid mashqlar”.</p>	<p>Eshitadi, aniqlashtiradi. Topshiriqni yozib oladi</p>

Uslubiy ko'rsatmalar va namunaviy misollar yechish **Kapital operatsiyalar schyoti**

Kapital operatsiyalar schyotini tuzishdan maqsad asosiy fondlarni va aylanma mablag'larni real jamg'arish jarayonlarini ifodalash hamda ularni moliyalash manbalarini aniqlashdan iborat. Schyotni umumiyligi ko'rinishi quyidagi kapital operatsiyalar schyotini asosiy ko'rsatkichlaridir.

Foydalanish	Resurslar
4. Yalpi asosiy fondlar jamg'armasi	1. Yalpi jamg'arish
5. Aylanma moddiy mablag'lar zaxirasining o'zgarishi	2. Tashqi dunyodan olingan kapital transfertlar
6. Sof sotib olingan qimmatbaho buyumlar	3. Tashqi dunyoga berilgan kapital transfertlar (-)
7. Sof sotib olingan yer va nomoddiy aktivlar	
8. Sof kredit (+) yoki sof qarz (-)	
Jami 4+5+6+7+8	Jami 1+2+3

Bu schyotda jami iqtisodiyot sektorlarida moliyaviy aktivlar bilan bog'liq operatsiyalarni va ularni o'zgarishlari schyotini foydalanish qismida qayd etiladi. Moliyaviy aktivlarni tarkibi asosiy fondlarning yalpi jamg'armasi, moddiy aylanma mablag'lar zaxirasining o'zgarishi, sotib olingan qimmatbaho buyumlar sof miqdori, sof olingan yer va ishlab chiqarilmagan nomoddiy aktivlardan iborat.

Bu operatsiyalarni moliyalashtirish manbayi schyotni resurs qismidagi yalpi jamg'arish va sof kapital transfertdan iborat. Bunda moliyalashtirishni asosiy manbayi daromaddan foydalanish schyotidan o'tgan yalpi jamg'arish bo'ladi. Moliyalashtirishni yana boshqa manbayi tashqi dunyodan olingan va tashqi dunyoga berilgan kapital transfertlarni ayirmasi hisoblanadi.

Kapital transfertlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

– Kapital uchun soliq (institutsion birliklar mol-mulklarini bir-birlariga bergenliklari uchun to'lanadigan to'lovlar, meros

uchun qoldiraladigan uy-joy uchun to‘lanadigan to‘lovlar kiradi).

— Investitsiya subsidiyalar — davlat budgetida rezident yoki norezident birliklariga qaytib olmaslik sharti bilan sotib olib berilgan asosiy vositalar, qurib berilgan uy — joylar asosiy maqsad yalpi asosiy fondlar jamg‘armasini tashkil qilish.

— Boshqa kapitall transfetlar, tabiiy ofatlardan ko‘rgan zararlarni qoplash uchun berilgan subsidiyalar, korxonalarni, qarzlarini yopib yuborishini keltirishi mumkin.

Schyotning foydalanish qismida quydagilar ifodalanadi:

— asosiy fondlarni yalpi jamg‘arma ko‘rsatkichi yangi (hisobot davrida) qurilgan uy-joy va inshootlar, sotib olingan mashinalar, qurilmalar, transport vositalari, stanok qiymatidan va shularga o‘xhash asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymatlarining ayirmasini yig‘indasidan iborat.

— moddiy aylanma mablag‘lar zaxirasining o‘zgarishi, ya’ni moddiy aylanma mablag‘larning (xomashyo, butlovchi materiallar, yoqilg‘i, mayda asbob-uskunalar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlarning hisobot boshidan oxiriga qadar miqdorlarning o‘zgarishlari) yoziladi.

— sof sotib olingan qimmatbaho buyumlar ko‘rsatkichi barcha sotib olingan qimmatbaho (zebu-ziynat, san’at asarlari, oltin va kumush kabi metallar, boshqa o‘z qiymatini uzoq vaqt yo‘qotmaydigan buyumlar) buyumlar qiymatidan sotilgan qimmatbaho buyumlar qiymatlarini ayirmasi yoziladi.

— sof sotib olingan yer va ishlab chiqarilgan nomoddiy aktivlar (patentlar, litsenziyalar mualliflik huquqlari) qiymati kiradi.

— sof kredit yoki sof qarz schyotini balanslantiruvchi ko‘rsatkichdir.

Agarda kapital operatsiyalar schyotini balanslantiruvchi ko‘rsatkichi (+) bo‘lsa sof kredit, agarda manfiy (-) bo‘lsa sof qarz bo‘ladi. Bu sof nomoliyaviy aktivlarni o‘zlashtirish uchun sarflangan mablag‘, moliyalashtiriladigan manbayining mablag‘i ortiqligi (+) yoki etmaganligini (-) bildiradi. Iqtisodiyot bosqichida bu ko‘rsatkich sof kreditlash yoki sof qarz resurs

miqdorini ifodalaydi ya’ni mamlakat tashqi dunyoga berishini yoki tashqi dunyo mamlakatga bergan mablag‘ni ifodalaydi.

Kapital operatsiyalar schyotining ko‘rsatkichlarini tahlil qilishni asosiy yo‘nalishlari.

Kapital operatsiya schyotini ko‘rsatkichlari asosida:

– investitsiyani shakllanishi tarkibiy asoslarining tahlili. Buning uchun yalpi jamg‘arishni va ulushini umumiylashtirilgan investitsiyaga nisbatan hisoblanadi;

– investitsiya jalb qilish siyosati tahlil qilinadi. Buning uchun tashqi dunyodan olingan kapital transfertlarni tashqi dunyoga berilgan kapital transfertlari nisbati hisoblanadi;

– schyotni balanslantiruvchi ko‘rsatkichi tahlil qilinadi. Ya’ni, kapital operatsiya schyotini qoldig‘i musbat (+) bo‘lsa, iqtisodiyotni sof krediti, kapitalni tashqi dunyoga olib chiqib ketganligi yoki iqtisodiy birliklarni moliyaviy resursslarni moddiy fondlar jamg‘armasiga jalb qilmasa ham oshganligini ifodalaydi.

Tovarlar va xizmatlar schyoti

Tovarlar va xizmatlar schyoti MHTni yakunlovchi schytidir. Bu schyotni ko‘rsatkichlari o‘zidan oldinga schyotlar ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘lib, schyot resurs qismida mamlakat bo‘yicha ishlab chiqqan yalpi mahsulot va xizmatlar qiymati va olingan import, mahsulotlarning soliq qiymati, foydalanish qismida esa, tovar va xizmatlarni qanday maqsadlarda ishlatilganligi qayd etiladi. Bu schyot ta’rif usulida balanslanadi. Schyotni umumiylashtirishni quyidagicha:

Foydalanish	Resurslar
5. Oraliq iste’mol	1. Yalpi ishlab chiqarish
6. Pirovard iste’mol	2. Tovarlar va xizmatlar importi
7. Asosiy fondlar yalpi jamg‘armasi	3. Mahsulot sof solig‘i
8. Moddiy aylanma mablag‘lar zaxirasining o‘zgarishi	4. Import sof solig‘i
9. Tovarlar va xizmatlar eksporti	
10. Statistik xatolik	
Jami (5+6+7+8+9+10)	Jami (1+2+3+4)

Statistik xatolik schyotni resurslar qismi bilan foydalanish qismidagi ko'rsatkichlar miqdorini farqiga teng bo'ladi. Bu farq qancha kichik bo'lsa hisob va ma'lumotlar to'g'riligini bildiradi. Bu xatolik YaIMga nisbatan 5 %dan oshmasligi kerak.

Ko'rsatkichli uslubiy masala

Quyidagi jadvalda mamlakatning iqtisodiyotini yalpi jamg'a-rish ko'rsatkichlarini ifodalovchi ma'lumotlar berilgan (joriy baho, mln so'm).

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Yalpi jamg'a-rish (YaJ)	896,2
2. Tashqi dunyodan olingan kapital transfertlar (KT _O)	17,0
3. Tashqi dunyoga berilgan kapital transfertlar (-) (KT _B)	30,0
4. Asosiy fondlar jamg'armasi, sof qimmatbaho buyumlar bilan birgalikda (AFJ)	398,0
5. Moddiy mablag'lar zaxirasining o'zgarishi (Δ MAB)	70,4

1. Sof kreditni (sof qarzini) hisoblang.
2. "Kapital bilan operatsiyalar schyoti"ni tuzing.

Yechish:

$$\text{Sof kredit} = \text{YaJ} (896,2) + [\text{KT}_o(17) - \text{KT}_b(30)] - \text{AFJ} (398,0) - \Delta\text{MAB}(70,4) = 414,8 \text{ mln so'm.}$$

Shartli mamlakatning "Kapital operatsiyalar schyoti"

Foydalanish		Resurslar	
3. Asosiy fondlar jamg'armasi	398,0	1. Yalpi jamg'a-rish	896,2
4. Moddiy mablag'lar zaxirasining o'zgarishi	70,4	2. Olingan kapital transfertlar	17,0
5. Berilgan kapital taransfert	30,0		
6. Sof kredit (6=1+2-3- 4-5)	414,8		
Jami (3+4+5+6)	913,2	Jami (1+2)	913,2

Mustaqil ishlash uchun masalalar

7.1-masala

O‘zbekiston Respublikasi birinchi chorak n yil va birinchi chorak n+1 yilni yalpi ichki mahsulotni pirovard iste’mol yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar berilgan (joriy baholarda mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	n-yil 1-chorak	n+1 yil 1-chorak	Defl- yator %
1. Yalpi ichki mahsulot	1619953,3	2080734,1	122,5
2. Pirovard iste’mol xarajatlari:	1116353,0	?	113,2
2.1. Uy xo‘jaligini pirovard iste’moli	891470,5	1026773,6	108,8
- tovarlar sotib olish xarajati	536041,5	600038,3	106,5
- xizmatlar sarf-xarajati	176537,4	225699,0	118,1
- xususiy uy-joyning shartli xizmati	42825,9	52673,0	120,7
2.2. Davlat boshqaruva organlari	213664,8	282678,5	131,6
2.3. Uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi notijorat tashkilotlari	11217,7	14779,9	130,1
3. Yalpi jamg‘arish	273721,3	450758,7	-
3.1. Asosiy fondlar jamg‘armasi	374785,3	451201,3	121,7
3.2. Aylanma moddiy mablag‘lar zaxirasining o‘zgarishi	-101064,0	-442,6	-
4. Sof eksport	?	?	-
4.1. Tovarlar va xizmatlar eksporti	891589,9	1199032,3	109,4
4.2. Tovarlar va xizmatlar eksporti	661710,9	893288,9	109,9

1. So‘roq qo‘yilgan ko‘rsatkichni hisoblang.
2. n yil I-choragini va n+1 yilni I-choragiga ko‘rsatkichlarini o‘sish (kamayish) darajasini aniqlang.
3. Ko‘rsatkichlarni yalpi ichki mahsulotga nisbatan I-chorak n yil va n+1 yillardagi ulushini hisoblang.
4. Aylanma moddiy mablag‘lar zaxirasini manfiylik sababini izohlab bering.

7.2-masala

Shartli mamlakatni n, n+1, n+2, va n+3 yillar uchun yalpi ichki mahsulotni iste'mol xarajatlari yig'indisi usuli bilan hisoblashga oid ma'lumotlar berilgan (joriy baholarda mln so'm).

Ko'rsatkichlar	n	n+1	n+2	n+3
1. Pirovard iste'mol xarajatlari:	2623,6	?	?	?
1.1. uy xo'jaligini	1985,1	2986,1	4417,9	5366,9
1.2. davlat boshqaruv organlari	607,3	906,8	1339,2	1717,4
1.2.1. individual tovarlar xarajati	302,8	452,7	667,6	860,3
1.2.2. jamoa xizmatlar xarajati	304,5	454,1	671,6	857,1
1.3. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlari	31,2	46,3	70,5	107,9
2. Yalpi jamg'arish	846,9	?	?	?
2.1. asosiy fondlar jamg'armasi	781,0	1375,4	1648,5	2069,1
2.2. aylanma moddiy mablag'lar zaxirasining o'zgarishi	65,9	237,0	285,2	403,5
3. Eksport tovarlar va xizmatlar	864,0	1517,5	2352,6	3630,7
4. Import tovarlar va xizmatlar	869,3	1582,4	2308,9	3027,7
5. Yalpi milliy ixtiyordagi daromad	3209,6	4856,6	7431,8	10035,2

1. So'roq qo'yilgan ko'rsatkichni hisoblang.
2. Yillar bo'yicha shartli mamlakatni yalpi ichki mahsulotini hisoblang.
3. Shartli mamlakatning yillar bo'yicha "Daromaddan foydalanish schyotlari" ni tuzing.
4. Ko'rsatkichlarni tarkibiy siljishini aniqlang.

7.3-masala

Mamlakatning YaIM va YaMD ko‘rsatkichlarini ifodalovchi ma’lumotlar mavjud.

Ko‘rsatkichlar	n	n+1	n+2	n+3
Yalpi milliy daromad	3206546,1	4838289,8	7339426,6	9725742,3
Xorijdan olingan mulk daromadi	11036,0	15408,5	5617,4	4177,0
Xorijga berilgan mulk daromadi	60056,6	102388,5	130107,1	143377,1
Pirovard iste’mol xarajati	2623650,9	3939266,9	5827629,4	7192136,6
Uy xo‘jaligini	1985172,2	2886117,5	4417891,8	5366891,4
Davlat boshqaruв organlari	607264,7	906810,2	1339170,3	1717376,4
Uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsa-tuvchi notijorat tashkilotlari	31214,0	46339,2	70567,3	107868,8
Yalpi jamg‘arish	?	?	?	?
Asosiy fondlar jamg‘armasi	780991,0	1375378,3	1648529,6	2069069,7
Aylanma moddiy mablag‘lar zaxirasining o‘zgarishi	65951,8	237018,6	285233,2	403500,6

Masala ma’lumotlariga asosan:

1. So‘roq belgi qo‘yilgan ko‘rsatkichlarni miqdorini aniqlang.
2. Har yil uchun yalpi ichki mahsulotni va sof eksportni aniqlang.
3. Har bir ko‘rsatkichni o‘zgarish dinamikasini aniqlang va izohlang.
4. Yalpi ichki mahsulotga nisbatan har bir ko‘rsatkichni ulushi dinamikasini aniqlang va izohlang.

7.4-masala

Ko'rsatkichlar	n	n+1	n+2	n+3	n+4
Yalpi ichki mahsulot	64877,6	x	559071,6	x	1358781,4
Pirovard iste'mol xarajatlar	55464,7	220627,5	X	794140,3	1196823,9
shu jumladan: - uy xo'jaligi	40906,0	151564,6	30424,9	x	890770,4
- davlat boshqaruv idoralari	13773,3	67404,3	X	200242,1	294155,6
jumladan: - Individual xizmatlar	6876,8	38218,9	86430,8	x	157137,5
-jamoa xizmatlari	6896,5	x	57158,2	95368,1	x
- uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar	785,4	1658,6	4347,2	7950,6	x
Yalpi jamg'arish	11863,1	x	128773,8	185057,8	185057,8
shu jumladan: - asosiy kapital	17021,8	99889,1	X	329990,1	430230,2
- aylanma moddiy mablag'lar zaxirasining o'zgarishi	-5203,7	-26979,2	-77441,8	-146043,4	x
- sof sotib olingan qimmatbaho buyumlar	45,0	435,2	521,4	1110,8	-
sof eksport	-2450,2	x	-1887,8	-2367,9	x
jumladan: - eksport	10883,6	95628,9	X	291482,4	335670,1
- import	13333,8	86814,3	193158,7	x	311770,2

Jadvaldagi ma'lumotlarga asosan:

1. So'roq belgi qo'yilgan ko'rsatkichlar miqdorini aniqlang.

2. Sektorlarni pirovard iste'mol xarajatlarining o'zgarish dinamikasini aniqlang va izohlang.

7.5-masala

Shartli mamlakatning jamg'arish jarayonini ifodalovchi n, n+1, n+2 yillarni quyidagi ma'lumotlari majud.(joriy bahoda mln so'm)

Ko'rsatkichlar	n	n+1	n+2
Yangi sotib olingan qurilma, imorat, transport vositasi	161,4	305,4	413,4
Dastur bilan ta'minlash uchun, ishlab chiqarish va sotib olish xarajatlari	14,3	20,0	48,0
Er va ko'chmas mulk bilan bo'ladigan vositachilik operatsiyalari xizmat haqi	2,7	13,0	7,8
Ro'yxatdan chiqqan asosiy vositalarni sotishdan tushgan tushum	4,9	57,1	15,3
Moddiy aylanma mablag'lar zaxirasining o'zgarishi	32,1	128,4	100,5
Sotib olingan yer va nomoddiy aktivlar	9,5	50,8	67,4
Sotilgan yer va nomoddiy aktivlar	3,2	30,0	11,3
Norezident tashkilotlarga to'langan kapital solig'i	5,7	22,5	40,5
Tashqi mamlakatga xayriya qilingan asosiy fondlar	6,2	25,5	46,5
Iqtisodiyotni yalpi jamg'arishi	325,2	606,1	741,3

Jadvaldagи ma'lumotlarga asosan:

1. Mamlakatni sof krediti yoki sof qarzlarini hisoblang.
2. Kapital bilan qilinadigan operatsiya schyotini tuzing va ko'rsatkichlarni tahlil qiling.

7.6-masala

Shartli hududni jamg‘arish jarayonini ifodalovchi n, n+1, n+2 yillarning quyidagi ma’lumotlari mavjud (joriy bahoda mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	n y.	n+1y.	n+2 y.
Hududni yalpi jamg‘arishi	1501,2	1890,5	1456,7
Sotib olingan imoratlar, asbob- uskunalar, transport vositalari	777,8	947,0	1116,2
Dasturlarni yaratish va sotib olish xarajatlari	67,5	84,0	129,6
Ko‘chmas mulk va yer bilan bog‘liq vositachilik operatsiyalarining xizmat haqi	12,0	13,7	21,0
Ro‘yxatdan chiqqan asosiy vositalarni sotishdan tushgan qiymat	22,0	28,3	42,0
Sotib olingan patentlar, savdo belgisi, avtorlik huquqlari	10,4	15,6	20,7
Sotilgan, olingan patentlar, savdo belgisi, avtorlik huquqlari	4,3	7,2	10,4
Sof sotib olingan yer va nomoddiy aktivlar	28,5	43,7	66,9
Norezident tashkilotlarga to‘langan kapital solig‘i	27,9	24,6	49,5
Boshqa hududga hadya etilgan asosiy vositalar	28,4	29,7	55,5

Jadvaldagi ma’lumotlarga asosan:

1. Shartli hududni sof krediti yoki sof qarzlarini hisoblang.
2. Kapital bilan qilinadigan operatsiya schyotini tuzing va izohlang.

7.7-masala

Mamlakatni nomoliyaviy korxonalar sektorini yalpi jamg‘arish jarayonini ifodalovchi n, n+1, n+2 yillarning ko‘rsatkichlari mavjud (joriy bahoda mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	n y.	n+1y.	n+2 y.
Sotib olingan asosiy vositalar	324,0	366,2	438,9
Asosiy vositalarning kapital ta’mirlash xa-rajatlari	11,1	12,8	15,0
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq vositachilik operatsiyalarining xizmat haqi	2,4	3,0	3,3
Asosiy kapital iste’moli	26,7	37,1	36,5
Aylanma mablag‘lar zaxirasi: - yil boshida	66,8	76,8	90,1
- yil oxirida	93,8	107,8	127,5
Sotib olingan savdo belgisi	4,8	5,9	6,7
Sotilgan savdo belgisi	1,8	2,3	2,4
Davlat budgeti hisobidan sotib olingan asosiy vositalar	11,6	13,5	15,4
Davlat budgetidan ajratilgan natura ko‘rinishidagi investitsiya subsidiyasi	7,7	8,9	10,4
Yalpi jamg‘arish	520,5	580,6	590,4

Jadvaldagi ma’lumotlarga asosan:

1. Nomoliyaviy korxonalar sektorining sof krediti yoki sof qarzlarini hisoblang.
2. Nomoliyaviy korxonalar sektorining kapital bilan qilinadigan operatsiya schyotini tuzing va izohlang.

7.8-masala

Hududni nomoliyaviy korxonalar sektorini yalpi jamg‘arish jarayonini ifodalovchi n, n+1, n+2 yillarni ko‘rsatkichlari mavjud (joriy bahoda mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	n y.	n+1y.	n+2 y.
Sotib olingan asosiy fondlar	94,0	116,2	138,0
Asosiy vositalarni kapital ta’mirlash xarajatlari	3,2	4,5	4,7
Ro‘yxatdan chiqqan asosiy fondlar qiymati	0,7	1,2	1,1
Asosiy fondlar iste’moli	8,7	11,8	13,4
Aylanma mablag‘lar zaxirasi:			
-yil boshida	19,3	24,4	33,5
-yil oxirida	27,2	34,2	47,2
Sotib olingan savdo belgisi	1,4	1,9	2,5
Sotilgan savdo belgisi	0,6	0,8	0,9
Davlat budgeti hisobidan sotib olingan asosiy fondlar	3,3	4,3	5,8
Boshqa sektor korxonalariga hadya etilgan asosiy fondlar	2,2	2,4	3,9
Yalpi jamg‘arish	185,8	228,9	311,5

Jadvaldagi ma’lumotlarga asosan:

1. Nomoliyaviy korxonalar sektorining sof krediti yoki sof qarzlarini hisoblang.
2. Nomoliyaviy korxonalar sektorini kapital bilan qilinadigan operatsiya schyotini tuzing va izohlang.

7.9-masala

Mamlakatning davlat boshqaruv idoralari sektorini yalpi jamg‘arish jarayonini ifodalovchi n, n+1, n+2 yillarni ko‘rsatkichlari mavjud (joriy bahoda mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	n y.	n+1y.	n+2 y.
Kapital qo‘yilmalar	39,5	59,1	66,3
Asosiy vositalarni kapital ta‘mirlash xarajatlari	7,1	10,7	11,9
Sotib olingan asbob-uskunalar, jihozlar, xo‘jalik inventarlari va kutubxonaga olingan kitoblar	4,2	6,0	6,8
Asosiy fondlar iste’moli	18,5	27,2	30,5
Dasturlarni yaratish va sotib olish, ma’lumotlar bazasini yaratish	2,9	4,2	6,8
Ro‘yxatdan chiqarilgan asosiy vositalar	6,3	9,4	10,6
Aylanma mablag‘lar zaxirasining o‘zgarishi	1,7	2,7	3,0
Sof sotib olingan qimmatbaho buyumlar	0,5	0,9	1,1
Davlat budgeti hisobidan imoratlarni kapital ta‘mirlash xarajati	16,2	23,3	26,1
Boshqa sektorlarga berilgan kapital transfertlar	186,5	262,8	294,0
Yalpi jamg‘arish	205,5	314,1	337,8

Jadvaldagи ma’lumotlarga asosan:

1. Mamlakatni davlat boshqaruv idoralari sektorining sof kreditlash yoki sof qarzini hisoblang.
2. Davlat boshqaruv idoralari sektorining kapital bilan operatsiyalar schyotini tuzing va uni ko‘rsatkichlarini izohlang.

7.10-masala

Hududni davlat boshqaruv idoralar sektorining yalpi jamg‘arish jarayonini ifodalovchi n, n+1, n+2 yillarni iqtisodiy ko‘rsatkichlari mavjud (joriy bahoda mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	n y.	n+1y.	n+2y.
Kapital qo‘yilmalar	154,6	210,6	237,4
Binolarni kapital ta‘mirlash	27,2	39,4	49,6
Kutubxonalarga sotib olingan kitoblar va xo‘jalik inventarlari	16,2	26,5	31,2
Asosiy kapital iste’moli	72,4	103,0	114,0
Dasturlarni yaratish va sotib olish va ma’lumotlar bazasini tashkil qilish	11,8	17,4	27,1
Ro‘yxatdan chiqarilgan asosiy kapital	22,5	33,4	40,2
Moddiy aylanma mablag‘lar zaxirasining o‘zgarishi	8,7	11,3	12,3
Sotib olingan zargarlik buyumlari	2,6	5,1	6,2
Sotilgan noyob kitoblar	1,2	6,2	4,2
Davlat budgeti hisobidan asosiy vositalarni ta‘mirlash xarajati	55,6	84,7	92,3
Berilgan kapital transfertlar	640,8	911,3	1017,4
Yalpi jamg‘arish	724,2	1110,5	1210,6

Jadvalagi ma’lumotlarga asosan:

1. Mamlakatni davlat boshqaruv idoralar sektorining sof kreditlash yoki sof qarzini hisoblang.
2. Davlat boshqaruv idoralar sektorini kapital bilan operatsiyalar schyotini tuzing va uni ko‘rsatkichlarini izohlang.

7.11-masala

Quyida O‘zbekiston Respublikasini tovarlar va xizmatlar schyotining resurs qismini n, n+1, n+2, n+3 yillardagi ma’lumotlari mavjud (joriy baholarda mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	n y.	n+1y.	n+2 y.	n+3 y.
Resurslarni jami	7420523,9	11481708,5	17257569,9	22607256,2
Shu jumladan: Mahsulot solig‘i	428979,3	612393,8	975967,2	1374117,8
Mahsulotga berilgan subsidiya	21337,9	28323,9	37951,0	29036,5

1. Import tovarlar va xizmat qiymatini.
2. Ko‘rsatkichlarni resurslarning hammasiga nisbatan tarkibini aniqlang va ularni yillar bo‘yicha o‘zgarishini izohlang.

7.12-masala

Quyida O‘zbekiston Respublikasini tovarlar va xizmatlar schyoti foydalanish qismi ko‘rsatkichlarining n, n+1, n+2, n+3 yillardagi ma’lumotlari mavjud (joriy baholarda mln so‘m).

Ko‘rsatkichlar	n y.	n+1y.	n+2 y.	n+3 y.
Foydalanish, jami	7420523,9	11481708,5	17257569,9	22607256,2
shu jumladan: - pirovard iste’mol xarajati	2623650,9	3939266,9	5827629,4	7192136,6
- yalpi jamg‘arish	846942,8	1612396,9	1933762,8	2472570,3
- tovarlar va xizmatlar eksporti	863987,2	1517478,1	2352606,6	3630737,1
Statistik farqi	-209736,6	-571481,5	-354847,9	-429849,0

Aniqlang:

1. Iqtisodiyotni oraliq iste’mol ko‘rsatkichining miqdorini aniqlang.
2. Schyotning foydalanish qismi ko‘rsatkichlarini jamiga nisbatan ulushini aniqlang va ular o‘zgarishini izohlang.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar

1. Kapital transfertga ta’rif bering va ular kapital operatsiyalar schyotidan qanday hisobga olinadi?
2. Sof kredit yoki sof qarz qanday hisoblanadi?
3. Aktivlar tarkibiga nimalar kiradi?
4. Moliya schyotini hisoblashdan maqsad nima?
5. Sof moliyaviy aktiv qanday hisoblanadi?
6. Moliyaviy majburiyat deganda nima tushuniladi?
7. Xususiy kapital namaga teng?

Adabiyotlar

1. Система национальных счётов 1993. Издание ООН, 1998 г. – С. 225-324.
2. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./ Под ред. Ю.Н.Иванова. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – С. 104-108.
3. Подмогильная В. Система национальных счетов: Учебно-практическое пособие. – Москва: РАГС, 2010. – 238 с.
4. Кремлев Н.Д. Система национальных счетов: Учебное пособие. – Курган: Издательство Курганстат, 2009. – С. 170-178.
5. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов: Учебное пособие для вузов. – Москва: Финансы и статистика, 2006. – 272 с.
6. Елесеева И., Силаева С., Щирина А. Практикум по макроэкономической статистике. – М.: Проспект, 2008. С. 91-108.
7. Махмудов Б. Миллий ҳисобчилик асослари./Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2003. – Б. 101-106.
8. Qoraboyev A.R. Milliy hisoblar tizimi fanidan masalalar to’plami. O’quv uslubiy qo’llanma. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – В. 90-135.
9. А.Абдуғаффоров, М.Зокирова, А.Қорабоев. Миллий ҳисоблар тизими. Тошкент “Молия” 2002.

VIII mavzu. MILLIY IQTISODIYOTNI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI IFODALOVCHI IQTISODIY OPERATSIYALAR KO'RSATKICHLARINI HISOBGA OLISH VA UNDAN MAKROIQTISODIY TAHLILDA FOYDALANISH USULLARI

8.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti-4 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O'quv mashg'u-lotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<p>1.MHT da tashqi iqtisodiy faoliyat va uning tarkibiy qismi</p> <p>2.Tashqi aloqa tovarlar va xizmatlar schyoti, uning asosiy ko'rsatkichlari hamda hisoblash usuli</p> <p>3.Tashqi birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyoti</p> <p>4.Tashqi kapital operatsiyalar schyoti</p> <p>5.Tashqi moliya schyoti</p> <p>6.Tashqi qayta baholash schyoti</p> <p>7.Tashqi aktivlar va majburiyatlar schyoti</p>
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Milliy hisobchilikda tashqi aloqalar sektorining schyotlari va ularning asosiy ko'rsatkichlariga oid tahlilni amalga oshirish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<p>1.MHT da tashqi iqtisodiy faoliyati va uni tarkibiy qismlarini tushuntiradi.</p> <p>2.Tashqi aloqa tovarlar va xizmatlar schyoti hamda asosiy ko'rsatkichlari, ularni hisoblash usuli va baholashni tushuntiradi.</p> <p>3.Tashqi birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyotini, tashqi kapital operatsiyalar schyoti, tashqi moliya schyoti tuzishni o'rgatadi.</p> <p>4.Tashqi qayta baholash schyoti va tashqi aktivlar va majburiyatlar schyotlarini tuzishni o'rgatadi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> – MHT da tashqi iqtisodiy faoliyati va uni tarkibiy qismlarini to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi. – Tashqi aloqa tovarlar va xizmatlar schyoti va asosiy ko'rsatkichlari va ularni hisoblashni o'rganadi. – Tashqi birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyotini, tashqi kapital operatsiyalar schyoti, tashqi moliya schyoti tuzish ko'nikmalarini hosil qiladi. – Tashqi qayta baholash schyoti va tashqi aktivlar va majburiyatlar schyotlarini tuzish ko'nikmalarini hosil qiladi.
<i>O'qitishning uslubi</i>	Ma'ruza, aqliy hujum, blits-so'rov.
<i>O'qitishning shakli</i>	Guruhlarda ishslash, frontal va jamoa, juftliklarda ishslash.
<i>O'quv vositalari</i>	Ma'ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari, flomasterlar, multimedija.
<i>O'qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlar bilan ishslash uchun mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki savollar, o'quv vazifalar, test savollari, mustaqil ishlar.

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik kartasi

Ishning bosqichlari vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	talabalar
	o‘qituvchi	
1-bosqich kirish qismi (20 min)	<p>1.1. Mavzusining nomini e’lon qiladi. Fan bo‘yicha umumiy tasavvur keltiradi. Ishning metodologik va tashkiliy xususiyatlarini yoritib beradi.</p> <p>1.2. Mavzuni, uning maqsadi o‘quv mashg‘ulotlardan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.</p> <p>1.3. Kurs davomidagi ma’ruzalar mazmuni bilan tanishtiradi. Reyting baholash mezonlari bilan tanishtiradi, yozma ish va oraliq nazoratlari hamda yakuniy nazoratlar bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p>	Eshitadi. Tinglaydi va yozib oladi. Tinglaydi va yozib oladi.
2-bosqich Asosiy bosqich (50 min)	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlanish uchun tezkor savol-javob o’tkazadi:</p> <p>5. Tashqi aloqa deganda nimani tushunasiz?</p> <p>6. Eksport va import nima?</p> <p>7. SIF va FOB baholari to‘g‘risida qanday tasavvurga egasiz?</p> <p>8. Tashqi aloqalar iqtisodiy operatsiyalari to‘g‘risida nimalar bilasiz?</p> <p>9. Tashqi aloqalar uchun MHT ning qaysi schyotlarini tuzish mumkin, deb o‘ylaysiz?</p> <p>10. Tashqi dunyo bilan qanday birlamchi daromadlar va joriy transfert operatsiyalari amalga oshirilishi mumkin?</p> <p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi: tashqi dunyo sektori, mamlakat va tashqi dunyo o‘rtasida amalga oshiriladigan operatsiyalar: eksport va import, daromadlar, transfertlar, kapital va moliyaviy operatsiyalar to‘g‘risida bat afsil misollar yordamida tushuntirib beradi.</p> <p>2.3. Taqdimotda berilgan misollar orqali tashqi aloqa tovarlar va xizmatlar schyoti, tashqi birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyoti, tashqi kapital operatsiyalar schyoti, tashqi moliya schyoti, tashqi qayta baholash schyoti, tashqi aktivlar va majburiyatlar schyotlarning hisoblanishini ko‘rsatib beradi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga va ko‘rsatkichlariga diqqat qilishlarini va yozib olishlarini ta’kidlaydi.</p>	O‘qiydilar Eshitadi hamda savollarga javo beradi. Tinglaydi va yozib oladi.
3-bosqich Asosiy bosqich (10 min)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa qiladi va yakuniy natijalarni e’lon qiladi.</p> <p>3.2. Talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi hamda maqsadga erishilganlik o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi.</p> <p>3.3. Mustaqil vazifalar beriladi va talabalar tayyorgarlik darajasini baholash e’lon qilinadi.</p>	Savollar beradi Yozib oladi.

Ma’ruzaning mazmuni bo‘yicha ko‘rgazmali slaydlar

Tashqi dunyo sektori schyotlari – bu schyotda rezident va norezident institutsion birliklar o’rtasidagi iqtisodiy operatsiyalarni umumlashgan holda qayd etiladi. Bunda mamlakatning rezidentlari bilen tashqi dunyo rezidentlari o’rtasida barcha iqtisodiy operatsiyalarni hisobot davri uchun qayd etiladi

Tarkibi


1. Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti
2. Tashqi dunyo birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyoti
3. Tashqi dunyo jamg’arma schyotlari
 - 3.1. Tashqi dunyo kapital bilan operatsiyalar schyoti
 - 3.2. Tashqi dunyo moliya schyoti
 - 3.3. Tashqi dunyo aktivlar holatida boshqa o’zgarishlar schyoti
4. Tashqi dunyo aktivlar va passivlar balansi
 - 4.1. Tashqi dunyo aktivlar va passivlar boshlang’ich balansi
 - 4.2. Tashqi dunyo aktivlar va passivlar balansini o’zgarishi
 - 4.3. Tashqi dunyo aktivlar va passivlar yakuniy balansi

Xususiyatlari

- * Tashqi dunyo sektorining barcha schyotlar norezidentlar nuqtai nazaridan tuziladi: ya’ni schyotni resurs qismida norezidentlarni rezidentlardan olgan iqtisodiy naflari, schyotning foydalanish qismida norezidentlarni rezidentlarga ifodalanadi
- * Tashqi dunyo sektorining schyotlarining ma’lumotlar manbai mamlakat to’lov balansi hisoblanadi

**8.1-rasm. Tashqi dunyo sektorining schyotlari va ularni umumiyl
xususiyatlari**


Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti – bu schyotda mamlakat bilan tashqi dunyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy tovarlar va xizmatlar ayirboshlash operatsiyalarni qayd etiladi ya'ni xalqaro amaliyotda qabul qilgan tovarlar va xizmatlar eksport va import operatsiyalar ifodalanadi.



- * Tovarlar va xizmatlar saldosi musbat bo'lsa, tashqi dunyo uchun ijobiy, shu mamlakat uchun esa salbiy hisoblanadi.
- * Tovarlar va xizmatlar eksporti va importini YaIMdagi ulushini dinamikasini tahlili.
- * Mamlakatda olib borilayotgan “mahalliylashtirish” tadbirlari bajarilishi ta'sirini o'rghanish.

8.2-rasm. Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti

Tashqi dunyo birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyoti – bu schyotda milliy iqtisodiyot bilan tashqi dunyo o’rtasidagi joriy jaromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash operatsiyalari qayd etiladi



* Joriy operatsiyalari saldosи musbat bo'lsa, norezidentlarni joriy xarajatlardan rezidentlardan olgan daromadlari ko'pligini bildiradi. Agarda manfiy bo'lsa, teskarisi.

* Schyotni “Joriy operatsiyalar saldosи” kapital bilan operatsiyalar schyotining ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq, chunki joriy operatsiyalar saldosи kapital xarajatlarni moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

8.3-rasm. Tashqi dunyo birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyoti

Tashqi dunyo sarmoya bilan operatsiyalar schyoti – bu schyotda rezidentlar va nerezidentlar o’rtasida ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarni sotib olish, sotish, kapital transfertlarni berish, olish bilan bog’liq operatsiyalarni hamda joriy operatsiyalar tufayli sof kapital qiymatini o’zgarish operatsiyalarni qayd etadi

Tashqi dunyo sektorining kapital bilan operatsiyalar schyoti	
Foydalanish	Resurslar
4. Sof o’zlashtirilgan ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktiv 5. Sof kreditlash (+) yoki sof qarz (-)	1. Tashqi dunyo joriy operatsiyalar saldosи 2. Tashqi dunyodan olingan kapital transfertlar (+) 3. Tashqi dunyoga berilgan kapital transfertlar (-)
Jami: (T.1+T.2+T.3-T.4)	Jami: (T.1+T.2+T.3)

- * Schyotni balanslashtiruvchi moddasi - sof kreditlash (+) yoki sof qarz (-).
- * Sof kreditlash (+) – bu jamg’arilgan resurs bo’lib, uni nerezidentlar rezidentlarga kredit (qarz)ga beradi yoki sof qarz (-) bo’lsa, rezidentlarni jamg’arma resursi bo’lib, uni nerezidentlarga qarz (kredit)ga beradi.

8.4-rasm. Tashqi dunyo sektorining sarmoya bilan operatsiyalar schyoti

Tashqi dunyo sektorining moliya schyoti – bu schyotda rezident va norezidentlar o’rtasidagi moliyaviy aktiv va passivlar operatsiyasi qayd etiladi

Tashqi dunyo sektorining moliya schyoti	
Foydalanish	Resurslar
3. Sof o’zlashtirilgan moliyaviy aktiv 3.1. Monetar oltin va qarz olish huquqi 3.2. Naqd pullar va depozitlar 3.3. Qimmatbaho qog’ozlar (aktsiyadan tashqari) 3.4. Kredit va zaymlar 3.5. Aktsiyalar va kapitalda qatnashuvning boshqa turlari 3.6. Sug’urta tashkilotlarining texnik rezervlari 3.7. Boshqa debitor qarzlar Jami: (T.3)	1. Sof kreditlash (+) yoki sof qarz (-) 2. Sof olingan moliyaviy majburiyatlar 2.1. Naqd pullar va depozitlar 2.2. Qimmatbaho qog’ozlar (aktsiyadan tashqari) 2.3. Kredit va zaymlar 2.4. Aktsiyalar va kapitalda qatnashuvning boshqa turlari 2.5. Sug’urta tashkilotlarining texnik rezervlari 2.6. Boshqa kreditor qarzlar Jami: (T.1+T.2)

Farqlovchi xususiyati

* Tashqi dunyo sektorining moliya schyotini balanslashtiruvchi schyoti yo’q, lekin “ta’rif” qoidasiga asosan ma’lumotlar to’g’ri hisoblangan bo’lsa aktiv va majburiyatlar o’zgarishi bir-biriga teng bo’ladi.

* Sof o’zlashtirilgan moliyaviy aktivda sof olingan moliyaviy majburiyatları qiymatlarini ayirsak sof kreditlash (+) yoki sof qarzga teng bo’ladi.

8.5-rasm. Tashqi dunyo sektorining moliya schyoti

Tashqi dunyo sektorining aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyotida tabiiy ofatlar, urush va to's-to'polonlar, yong'inlar sodir bo'lishi natijasida, rezidentlarni tashqi dunyodagi va shu mamlakatni norezidentlariga qarashli aktivlar va passivlarni qiymatini o'zgarishini ifodalaydi

Tashqi dunyo sektorining aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyotini chizmasi	
Aktivlar qiymatini o'zgarishi	Majburiyatlar va sof kapital qiymatini o'zgarishi
2. Nomoliyaviy aktivlar 2.1. Falokat natijasida yo'qotilgan miqdor 2.2. Kompensatsiya qilinmaydigan aktivlar 2.3. Boshqa kategoriyaga tegishli bo'lмагan moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni miqdorini o'zgarishi 3. Moliyaviy aktivlar 3.1. Falokat natijasida yo'qotilgan miqdor 3.2. Kompensatsiya qilinmaydigan konfeskatsiya (musodara) 3.3. Boshqa kategoriyaga tegishli bo'lмагan moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni boshqa o'zgarishlari miqdori	1. Moliyaviy majburiyatlar 1.1. Falokat natijasida yo'qotilgan miqdor 1.2. Kompensatsiya qilinmaydigan konfeskatsiya (musodara) 1.3. Boshqa kategoriyaga tegishli bo'lмагan moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni miqdorini o'zgarishi 4. Aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar sababli kapitalni sof qiymatni o'zgarishi $(T.4=T.2+T.3-T.1)$
Jami: $(T.2+T.3)$	Jami: $(T.1+T.4)$

Balanslashtiruvchi moddasi – aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar tufayli kapitalni sof qiymatini o'zgarishi. U, aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar natijasida, rezidentlar va norezidentlarni aktiv va passivlari qiymatini o'zgarishini ifodalaydi.

8.6-rasm. Tashqi dunyo sektorining aktivlar va passivlarda boshqa o'zgarishlar schyoti

Tashqi dunyo sektorining qayta baholash schyotida, joriy davrda baholarni o'zgarishi natijasida xolding foyda (zarar) tufayli aktivlar va majburiyatlar hamda kapitalni sof qiymatini o'zgarishni qayd qiladi.

Tashqi dunyo sektorini qayta baholash schyotining chizmasi	
Aktivlar qiymatini o'zgarishi	Majburiyatlar va sof kapital qiymatini o'zgarishi
3. Nomoliyaviy aktivlar 4. Moliyaviy aktivlar 5. Nominal xolding foyda (-), zarar (+) 5.1. Neytral xolding foyda (-), zarar (+) 5.2. Real xolding foyda (-), zarar (+)	1. Moliyaviy majburiyatlar 2. Nominal xolding foyda (-), zarar (+) 2.1. Neytral xolding foyda (-), zarar (+) 2.2. Real xolding foyda (-), zarar (+)*** 6. Nominal xolding foyda (zarar) tufayli kapitalni sof qiymatni o'zgarishi $(T.6=T.3+T.4-T.5-T.1)$ 6.1. Neytral xolding foyda (zarar) tufayli kapitalni sof qiymatni o'zgarishi $(T.6.1=T.3+T.4-T.5-T.1)$ 6.2. Real xolding foyda (zarar) tufayli kapitalni sof qiymatni o'zgarishi $(T.6.2=T.3+T.4-T.5-T.1)$
Jami: $(T.3+T.4+T.5)$	Jami: $(T.1+T.2+T.6)$

* Balanslashtiruvchi moddasi – nominal (neytral, refl) xolding foydaga bog'liq kapital sof qiymatining o'zgarishi
 * Nominal xolding foyda (zarar) – qiymat, bu aktivlari (qarzlari)ni ushlab turgan davrda ularni qiymatlarini o'zgarish tufayli kreditor norezidentlar va qarzdor rezidentlarga yozib qo'yiladigan miqdor
 * Neytral xolding foyda (zarar) – hisobot davrida baholarni o'zgarishi tufayli aktivlar (majburiyatlar)ni o'zgarishi
 * Real xolding foyda (zarar) – nominal va neytral xolding foydalar (zararlar)ni farqi

8.7-rasm. Tashqi dunyo sektorining qayta baholash schyoti

3.4. Aktivlar va passivlarning tashqi balanslari – bu, hisobot davrida mamlakat (rezidentlar) bilan qilingan iqtisodiy operatsiyalar natijasida tashqi dunyoning (norizidentlari) moliyaviy aktivlar va majburiyatlar qiymatini o'zgarishini ifodalaydi.

Aktivlar va passivlarning tashqi balansini chizmasi.	
Aktivlar	Majburiyatlar va sof kapital qiymati
1. Nomoliyaviy aktivlar 1.1 Ishlab chiqarilgan aktivlar 1.2 Ishlab chiqarilmagan aktivlar 2. Moliyaviy aktivlar	3. Moliyaviy majburiyatları 4. Kapitalni sof qiymati. (T.U = T.1+T.2 – T.3)
Jami (T.1+ T.2)	Jami (T .3 + T.4)

Aktivlar va passivlarning tashqi balansini o'zgarishi	
Aktivlar	Majburiyatlar va sof kapital qiymati
1. Nomoliyaviy aktivlar 1.1 Ishlab chiqarilgan aktivlar 1.2 Ishlab chiqarilmagan aktivlar 2. Moliyaviy aktivlar	3. Moliyaviy majburiyatları 4. Kapitalni sof qiymati. (T.U = T.1+T.2 – T.3)

Aktivlar va passivlarning yakuniy tashqi balansi	
Aktivlar	Majburiyatlar va sof kapital qiymati
1. Nomoliyaviy aktivlar 1.1 Ishlab chiqarilgan aktivlar 1.2 Ishlab chiqarilmagan aktivlar 2. Moliyaviy aktivlar	3. Moliyaviy majburiyatları 4. Kapitalni sof qiymati. (T.U = T.1+T.2 – T.3)
Jami (T.1+ T.2)	Jami (T .3 + T.4)

*Balanslashtiruvchi moddasi – kapitalni sof qiymati * Aktivlar va passivlarni boshlang'ich va yakuniy tashqi balanslari xalqaro invenstitsiyalar balansiga mos tushadi.
--

8.8-rasm. Aktivlar va passivlarning tashqi balansi

O‘quv materiallari

Tashqi iqtisodiy aloqalar – bu xalqaro (munosabatlar) miqyosida paydo bo‘luvchi iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, tovar va xizmatlar eksporti va importi, intellektual mulk huquqi; yuridik shaxslar (nerezidentlar) bilan hamda chet el rezidentlari bilan shu davlatning iqtisodiy hududida hamkorlikda qo‘shma tadbirkorlik va boshqa xo‘jalik faoliyatidan iborat.

MHT da tashqi iqtisodiy aloqalar faoliyati natijalari quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

1. Tovar va xizmatlar bilan tashqi operatsiyalar schyoti;
2. Birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyoti;
3. Kapital operatsiyalar schyoti;
4. Moliyaviy schyot;
5. Aktivlardagi boshqa o‘zgarishlar schyoti.

Hozirgi kunda MHT unsurlarini joriy qilishda tovar va xizmatlar, birlamchi daromadlar va joriy transfertlar, kapital bilan operatsiyalar schyotlarini shakllantirishning umumiy metodologik prinsiplari ishlab chiqilgan.

“Tashqi dunyo” sektori mamlakat rezidentlari institutsional birliklari bilan operatsiyalarini amalga oshiruvchi nerezidentlar birliklardan tashkil topadi. Uning schyotlari shu mamlakat milliy iqtisodiyotini “Tashqi dunyo” iqtisodiyoti bilan bog‘lovchi iqtisodiy munosabatlarning umumlashgan holatini tasvirlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, MHTning “Tashqi dunyo” sektori schyotlarida shu mamlakat rezidentlari va nerezidentlari o‘rtasidagi barcha operatsiyalarni aks ettiriladi.

“Tashqi dunyo” sektorining barcha schyotlari nerezidentlar nuqtai nazaridan tuziladi. Shuning uchun bu schyotlarning “Resurslar” tomonida nerezidentlarning rezidentlardan olgan, “Foydalanish” tomonida nerezidentlarning rezidentlarga o‘tkazadigan iqtisodiy qiymati ko‘rsatiladi.

Mamlakat rezidentlari va “tashqi dunyo” o‘rtasidagi joriy operatsiyalar tovar va xizmatlarning tashqi iqtisodiy schyotida hamda birlamchi daromadlar va joriy transfertlarning tashqi iqtisodiy schyotida aks ettiriladi.

Foydalanish	Resurslar
Tovar va xizmatlar eksporti	Tovar va xizmatlar importi
Tovarlar eksporti	Tovarlar importi
Tovarlar importi	Xizmatlar importi

1-rasm. Tovar va xizmatlar bilan tashqi operatsiyalar schyoti sxemasi

«Resurslar» qismida shu mamlakat tovar va xizmatlarning import qilganligi natijasida boshqa mamlakatlarning olgan joriy daromadlari operatsiyasi ko‘rsatiladi. «Foydalanish» qismida tovar va xizmatlarni eksport qilish natijasida boshqa mamlakatlarning shu mamlakatga daromadlarni o‘tkazilganligi aks ettiriladi.

Tovar hamda xizmatlarning eksport va importi quyidagilardan tashkil topadi.

- «mavjud» tovarlari eksporti va importi;
- moddiy va nomoddiy xizmatlar eksporti va importi.

«Mavjud» tovarlarga tijorat bitimlari natijasida amalga oshiriladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovar ayirboshlash va boshqa yetkazib berish turlari mansubdir. Bundan tashqari bu qismga to‘lov vositasi sifatida foydalanilmaydigan nomonetar oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar; BMT texnik yordam fondiga beg‘araz yordam beriladigan elektro-energiya, suv, neft, gazlar, muomalada bo‘lmagan qimmatli qog‘oz, banknot va monetalarini olib chiqish hamda ayrim boshqa tovarlar kiradi.

Xizmatlar eksporti va importi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- transport, qishloq xo‘jaligi va aloqa xizmatlari;
- avtomobil va mototsikllarni ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish;
- hisoblash texnikasi, noshirlik ishlari xizmati;
- qurilish xizmatlari;
- sug‘urta sohasidagi xizmatlar;
- moliyaviy xizmatlar;
- dam olish, turizm, san’at va sport sohasidagi tadbirlar uchun xizmatlar.

Eksport va import tovarlar bahosi FOB bahosi bo‘yicha hisoblanadi. «Mavjud» tovarlar eksporti milliy moddiy boyliklar zahirasini kamaytiradi. «Mavjud» tovarlar importi esa mamlakat modddiy zahirasini oshiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Xizmatlar va tovarlarni tashqi iqtisodiy hisoblar bo'yicha balanslashtiruvchi modda bu – "tovarlar va xizmatlar saldosi" hisoblanadi. Ijobiy balanslashtiruvchi modda "Tashqi dunyo" uchun ijobjiy saldo va shu mamlakat uchun esa salbiy saldoni bildiradi.

Foydalanish	Resurslar
Tashqi dunyoda olindi Shu jumladan: Ish beruvchi norezidentlarning yollanma ishchi rezidentlarga bergan ish haqi Ishlab chiqarishga soliqlar (+) Ishlab chiqarishga subsidiyalar (-) «Tashqi dunyo»dan olingan mulk daromadlari «Tashqi dunyo»dan olingan joriy transfertlar Joriy opertsiyalar bo'yicha saldo	Tovarlar va xizmatlar balansining tashqi saldosi «Tashqi dunyo» ga o'tkazildi. Shu jumladan: Ish beruvchi rezidentlarning yollanma ishchi norezidentlarga bergan ish haqi Ishlab chiqarishga soliqlar (+) Ishlab chiqarishga subsidiyalar (-) «Tashqi dunyo»ga o'tkazilgan mulk daromadlari «Tashqi dunyo»ga o'tkazilgan joriy transfertlar

2-rasm. Birlamchi daromadlar va joriy transfert schyoti sxemasi

Ushbu schyotning resurslar qismida quyidagi operatsiyalar o'z aksini topadi:

- yollovchi rezidentlarning yollanma ishchi norezidentlarga ish haqi to'lovi;
- "Tashqi dunyo"ga o'tkazilgan (shu mamlakat rezidentlarning boshqa mamlakatlarga kurilish, transport vositalari, yer, ishlab chiqarishga to'laydigan soliqlar) ishlab chiqarishga soliqlar;
- "Tashqi dunyo"ga o'tkazilgan mulk daromadlari, u o'z ichiga quyidagilarni oladi: shu mamlakatning xorijiy davlatlardan va xorijiy firmalardan olingan tijorat kreditlari; foizlari to'lovi schyotida tovarlar eksporti; aksionerlik mablag'lari uchun norezidentlarga to'lanadigan dividentlar va boshqa daromadlar; boshqa mamlakatlarda yerdan foydalanilgani uchun sof renta to'lovi; xorijiy kompaniyalar daromadini qayta investitsiya qilish.

Ayrim moddalarning resurslar qismida «Tashqi dunyo»ga beriladigan transfert to'lovlarini aks ettirilgan. Ularga norezidentlarning sug'urta badallari, sug'urtalash bo'yicha chet el tashkilotlarining to'lovlarini; mulk va daromad soliqlari to'lovi; norezidentlarga ijtimoiy sug'urta ajratmalari; norezidentlarga

to‘lanadigan ijtimoiy ta’minot ko‘magi; uy xo‘jaliklari to‘laydigan majburiy to‘lovlar va yig‘imlar kiradi.

“Foydalanish” bo‘limida mavjud operatsiyalar, biroq teskari yo‘nalishdagi moliyaviy oqimlar; «Tashqi dunyo»dan undiriladigan joriy transfert va mulkdan olinadigan daromadlar hamda yollovchi norezidentlarini yollanma ishchilarga to‘laydigan ish haqi to‘lovi aks ettirilgan.

Ushbu schyotning balanslantiruvchi moddasi, uni keyingi (kapital operatsiyalari schyoti) schyot bilan bog‘lovchi «joriy operatsiyalar saldosi» moddasi hisoblanadi. Ijobiy saldo – xarajatlar bo‘yicha joriy operatsiyalar norezidentlar daromadlarining oshganligi, salbiy saldoda esa buning aksi namoyon bo‘ladi. «Joriy operatsiyalar saldosi» moddasi kapitallar bilan operatsiyalar schyoti orqali izohlanadi.

Aktivlardagi o‘zgarishlar	Majburiyatlar va sof xususiy kapitalning o‘zgarishi
Nomoliyaviy nomoddiy aktivlarga sof ega bo‘lish	Joriy operatsiyalar saldosi
Sof kreditlash (+) yoki sof qarz	«Tashqi dunyo»dan olingan kapital transfertlar
	«Tashqi dunyo»ga o‘tkazilgan kapital transfertlar

3-rasm. Kapital bilan operatsiyalar schyoti sxemasi

Kapital bilan operatsiyalar schyotining resurs qismiga «Tashqi dunyo» ga o‘tkazilgan («minus» belgisi bilan) va undan olingan kapital transfertlar saldosi kiradi. «Tashqi dunyo»ga o‘tkazilgan kapital transfertlar boshqa mamlakatlardan olingan investitsiyalarga subsidiyalarni, kapital va mulkka nomuntazam soliq va bojlarni, xorijiy fuqarolardan merosga soliq va boshqa transfertlarni o‘z ichiga oladi.

«Tashqi dunyo»ga o‘tkazilgan kapital transfertlar boshqa mamlakatlarga beg‘araz o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.

Olingan va o‘tkazilgan kapital transfertlar daromad va mulkka muntazam soliqlarni (ular joriy operatsiyalar schyotida joriy transfertlarga aloqador) va boshqa mamlakatlardan olingan hamda boshqa mamlakatlarga o‘tkazilgan kapital qo‘yilmalarining kredit summasini (moliyaviy schyotda aks etadi) o‘z ichiga oladi.

«Foydalanish» qismida («Aktivlardagi o‘zgarishlar») sofi shlab chiqarilgan nomoliyaviy aktivlarning o‘zlashtirilishi erni sofi sotib olish va patentlar, savdo belgilari, mualliflik huquqi, o‘rmon boyliklari singari nomoddiy aktivlarda o‘z aksini topadi.

Mavzuga doir testlar

1. Tashqi dunyo sektori schyotlari qaysi guruh schyotlar turkumiga kiradi.

- a) jamg‘arma schyotlar tarkibiga kiradi;
- b) alohida iqtisodiy operatsiyalar schyotlar guruhiga;
- c) joriy operatsiyalar schyoti tartibiga kiradi;
- d) aktiv va passivlar balanslar schyotlar tarkibiga.

2. Tashqi dunyo sektori schyotlarida ...

- a) rezidentlar bilan iqtisodiy faoliyat yurituvchi norezident korxonalar o‘rtasidagi operatsiyalar, ya’ni milliy iqtisodiyot bilan tashqi dunyo o‘tasidagi iqtisodiy munosabatlar aks ettiriladi;
- b) rezidentlar bilan xalqaro moliya tashkilotlari o‘rtasidagi iqtisodiy operatsiyalar aks ettiriladi;

- c) shu mamlakatda faoliyat ko‘rsatuvchi qo‘shma korxonalar, chet el moliyasiga qurilgan korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar aks ettiriladi;

- d) mamlakatda faoliyat yurituvchi barcha norezident korxonalar kiradi.

3. Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti tuzishdan maqsad:

- a) rezidentlar, birliklar bilan norezident birliklar o‘rtasida iqtisodiy xizmatlar ayirboshlash operatsiyalarni qayd etish uchun;
- b) mamlakat bilan tashqi dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy tovarlar operatsiyasini qayd etish uchun;

- c) mamlakat bilan tashqi dunyo mamlakatlari o‘rtasida moddiy va nomoddiy xizmatlar operatsiyalarini qayd etish uchun;

- d) xalqaro amaliyotda qabul qilgan tovarlar va xizmat eksport va import operatsiyalarni ifodalash uchun.

4. Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyotini balanslantiruvchi ko‘rsatkichi:

- a) tovarlar va xizmatlar sal’dosi;

- b) tovarlar sal'dosi;
- c) xizmatlar sal'dosi;
- d) eksport tovarlar va import tovarlar balansi.

5. Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyotini “resurslar” ustuni qanday ko‘rsatkichlardan tashkil etadi:

- a) xizmatlar eksporti;
- b) tovarlar va xizmatlar importi;
- c) tovarlar eksporti;
- d) tovarlar va xizmatlar sal'dosi.

6. Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyotini “foydalanish” ustuni qanday ko‘rsatkichlardan iborat:

- a) Tovarlar va xizmatlar eksporti;
- b) tovarlar importi;
- c) xizmatlar importi;
- d) tovarlar va xizmatlar importi.

7. Tashqi dunyo birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyotini balanslantiruvchi ko‘rsatkichi -bu

- a) birlamchi daromadlar saldosi;
- b) tovarlar va xizmatlar saldosi;
- c) joriy operatsiyalar saldosi;
- d) tashqi dunyo joriy daromadlar sal'dosi.

8. Qaysi modda tashqi dunyo birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyotini “resurslar” ustunida aks etadi:

- a) norezidentlarni tashqi dunyoga berilgan joriy transfertlari;
- b) norezidentlarni tashqi dunyoga berilgan birlamchi daromadlari;
- c) norezidentlarni tashqi dunyoga berilgan mulk daromadi;
- d) tovar va xizmatlar sal'dosi.

9. Qaysi moddani tashqi dunyo birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyotining “foydalanish” ustunida ko‘rish mumkin:

- a) rezidentlarni tashqi dunyoga berilgan moddiy transfertlar;
- b) rezidentlarni tashqi dunyoga berilgan birlamchi daromadlar;
- c) joriy operatsiyalar sal'dosi;
- d) rezidentlarni tashqi dunyoga berilgan mulk daromadi.

10. Tashqi dunyo sektorlarining kapital operatsiyalar schyotini tuzishdan maqsad

- a) norezidentlarni rezidentlar bilan qilingan iqtisodiy operatsiyalar natijasida aktiv, majburiyatlar va xususiy kapitalning o'zgarishini ifodalash;
- b) norezidentlarni rezidentlar bilan qilingan iqtisodiy operatsiya natijasida faqat kapital qiymatini o'zgarishini ifodalash;
- c) rezidentlarni norezidentlar bilan qilingan iqtisodiy operatsiyalar natijasida faqat aktivlarni sof o'zgarishini ifodalash;
- d) rezidentlar va norezidentlar bilan qilingan iqtisodiy operatsiya natijasida majburiyatlari va sof xususiy kapitalning o'zgarishini ifodalashini.

11. Tashqi dunyo sektori kapital operatsiyar schyoti balanslashtiruvchi ko'rsatkichi:

- a) norezidentlarni rezidentlarga berilgan kapital transfertlar qiymati;
- b) norezidentlarni rezidentlarga berilgan sof kredit qiymati (+) yoki olingan qarzni sof qiymati (-);
- c) rezidentlarni norezidentlarga berilgan sof kredit qiymati (+)/olingan qarzning sof qiymati(-);
- d) rezidentlarni norezidentlarga berilgan kapital transfertlarni sof qiymati;

12. Quyidagi ma'lumotlar asosida tashqi dunyo sektorining tovar va xizmatlar schyotini tovar va xizmatlar saldo ko'rsatkichini hisoblang:mln so'm

Tovarlar eksporti 101,0; xizmatlar eksporti 98,0; tovarlar importi 110,0; xizmatlar importi 80,0

- a) -9,03 mln so'm;
- b) 89,0 mln so'm;
- c) +9,0 mln so'm;
- d) 89,0 mln so'm.

13. Quyidagi ma'lumotlar asosida sof eksport ko'rsatkichlarini hisoblang:mln so'm

Tovarlar eksporti 200,0; tovarlar importi 90,0; xizmatlar eksporti 110,0; xizmatlar importi 20,0

- a) -200,0 mln so'm;
- b) 70,0 mln so'm;

- c) -10,0 mln so‘m;
- d) 10,0 mln so‘m.

14. Quyidagi ma’lumotlar asosida tavarlar va xizmatlar import ko‘rsatkichini hisoblang:mln so‘m

Tovarlar eksporti 20,0; xizmatlar eksporti 5,0; xizmatlar importi 10,0; tovar va xizmatlar saldosi 35,0

- a) 10,0 mln so‘m;
- b) 60,0 mln so‘m;
- c) 25,0 mln so‘m;
- d) 15,0 mln so‘m.

15. Quyidagi ma’lumotlar asosida tovarlar eksportini hisoblang: mln so‘m

xizmatlar eksporti 20,0; tovarlar importi 30,0; xizmatlar importi 25,0; tovarlar va xizmatlar saldosi -30,0

- a) 15,0 mln so‘m;
- b) 25,0 mln so‘m;
- c) 5,0 mln so‘m;
- d) 10,0 mln so‘m.

8.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi

<i>Talabalar soni 25-30 gacha</i>	<i>vaqtি 2-soat</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	<i>Amaliy mashg‘ulotlarda chuqurlashtirish va bilimni kengaytirish jarayoni.</i>
<i>Amaliy mashg‘ulotda muhokama qilinadigan savollar.</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tashqi aloqlar sektorining birlamchi daromadlarini tarkibi va uni hisoblash usuliga oid mashqlar. 2. Joriy transfert tarkibi, ularni hisobga olish va hisoblash usullari. 3. Tashqi aloqlar birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyotini tuzishga oid mashq va uni tahlili. 4. Tashqi aloqlar kapital operatsiyalar schyotini tuzishga oid mashq va uning tahlili.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Mavzu bo‘yicha bilimni chuqurlashtirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Tashqi aloqlar sektorining birlamchi daromadlarini tarkibi va uni hisoblash usuliga oid mashqlarni tushuntiradi. • Joriy transfert tarkibi va ularni hisobga olish va hisoblash usullari mohiyatini tushuntiradi. • Tashqi aloqlar birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyotini tuzishga oid mashq va uni tahlilini yoritib beradi. • Tashqi aloqlar kapital operatsiyalar schyotini tuzishga oid mashq va uning tahlili yoritib beradi. 	<i>O‘quv faoliyatning natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Tashqi aloqlar sektorining birlamchi daromadlarini tarkibi va uni hisoblash usuliga oid mashqlarni yechish ko‘nikmalarini hosil qiladi. • Joriy transfert tarkibi, ularni hisobga olish va hisoblash usullari mohiyatini anglaydi. • Tashqi aloqlar birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyotini tuzishga oid mashqlarni yechish va tahlil qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi. • Tashqi aloqlar kapital operatsiyalar schyotini tuzishga oid mashqlarni yechish va tahlil qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi.
<i>O‘quv uslubi</i>	“Doira” stol, grafik organayzer: mantiqan tizimli chizma.
<i>O‘qitish shakli</i>	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar, flip-chatlar, flomasterlar.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya. Yoritilgan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Mustaqil o‘rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar va vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i> o‘qituvchi		
			talaba
1-bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 min.)	<p>1.1. Mavzu nomini aytadi, rejalashtirilgan natijalarni va uni o‘tkazish jarayoni bilan tanishtiradi. Birgalikda guruhlar bilan texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonini tushuntiradi. Adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Tayanch iboralar tushunchalari orqali so‘rovnama olib boradi. Savol tashlaydi va 1-2 ta javoblarni eshitib bo‘lgach, keyingi muhokamalarni guruhlar ishlarini bajarib, natijalarni prezentatsiya jarayonida eshitishni e’lon qiladi.</p> <p>1.3. Har bir talaba individual tarzda guruhlardagi baholanish bilan birga baho oladi va guruhlarda ishslash qoidalari bilan tanishtiradi.</p>	Eshitadi va yozib boradi Munozarada qatnashadi, savollarga javob beradi. Eshitadi.	
2-bosqich Guruhlarda ishslash (60 min)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhga bo‘ladi. O‘quv vazifalarni tarqatadi. Qanday natijalarga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi.</p> <p>2.2. Natijaviy ko‘rsatkichlarni sharhlaydi. Qanday qo‘srimcha materiallar bilan foydalanish mumkinligini tushuntiradi (darslik, ma’ruza matnlari, o‘quv qo‘llanma).</p> <p>2.3. O‘zaro guruhlarda olingan natijalarni prezentatsiya qilish va ularni baholanishni tashkil qiladi. Qilingan ish jarayonidagi xulosalar keltiriladi va alohida e’tiborga loyiq guruhlar jarayoni ketadi.</p>	Eshitadi, ishni bajarishni boshlaydi. Hisoblaydi va tahlil qiladi. Birgalikda qilingan prezentatsiya chiqishlari ko‘rsatiladi.	
3-bosqich Yakuniy bosqich (10 min)	<p>3.1. Amaliyot natijalarini yakunlaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish mavzusini aytadi va vazifa beradi: “Tashqi aloqlar kapital operatsiyalar schyotini tuzishga oid mashq va uning tahlili”.</p>	Eshitadi aniqlashtiradi. Topshiriqni yozib oladi	

Uslubiy ko'rsatmalar va namunaviy misollar yechish

Tashqi dunyo sektor schyotlari quyidagi iqtisodiy operatsiyalarni ifodalash uchun tuziladi:

- 1) shu mamlakat rezidentlarining iqtisodiy opreatsiyalari;
- 2) norezidentlarning iqtisodiy operatsiyalarini;
- 3) rezident va norezidentlar o'rtasidagi iqtisodiy operatsiyalarni rezidentlar nuqtayi nazaridan tuziladi;
- 4) rezident va norezidentlar o'rtasidagi iqtisodiy operatsiyalar norezidentlar nuqtayi nazaridan

8.1-masala

Quyidagi ma'lumotlar asosida Rossiya Federatsiyasining tashqi aloqalar schyotlarini tuzing (joriy bahoda mln.rub.):

№	Ko'rsatkichlar	yillar					
		"n"	"n+1"	"n+2"	"n+3"	"n+4"	"n+5"
1.	Rossiya tashqi dunyodan oldi: Tovarlar importi	2801049,9	3546854,5	4442034,6	5680250,2	7238187,6	601909,5
2.	Xizmatlar importi	972813,6	1101420,9	1211385,3	1481960,8	1872798,9	1937417,6
3.	Yollangan xizmatchilarining mehnat haqi	34749,7	48468,9	51537,4	66700,2	93942,4	105323,3
4.	To'g'ri investitsiya daromadi	181911,9	228425,3	335191,9	512097,8	722677,0	348239,3
5.	Portfel investitsiya daromadi	11131,3	15482,1	21010,7	26602,0	42623,3	109997,7
6.	Boshqa investitsiya daromadi	117063,8	198617,4	399449,4	604629,0	667088,0	490497,0
7.	Xalqaro hamkorlik yordam	8511,4	8599,7	4597,4	2891,3	2003,4	6106,7
8.	Boshqa joriy transfertlar	96231,8	118523,0	168974,3	212065,1	268522,9	275845,1
9.	Aholining migratsiyasi tufayli olin-gan kapital transfertlar	6151,0	9555,0	10707,0	18584,2	20267,6	23044,9
10.	Qarzdan kechib yuborish	14297,6	44,6	4567,3	-	-	7872,8
11.	Sof olingan ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlar	-	-	-	-	5773,8	7232,4
12.	Rossiya tashqi dunyoga berdi: Tovarlar eksporti	5273485,6	6899884,5	8236403,2	9027840,5	11651960,4	9529103,3
13.	xizmatlar eksporti	586911,3	707372,0	842929,5	1000921,5	1271593,3	1312922,9
14.	Yollangan xizmatchilarga to'-langan mehnat haqi	42204,0	82907,8	164232,0	252605,9	449007,2	385431,5

15.	To‘g‘ri investitsiya daromadi	295859,0	551988,0	936698,4	1103044,5	1533198,0	1174513,4
16.	Portfel investitsiya daromadi	149130,4	125341,8	149494,3	179633,2	197862,6	180242,7
17.	Boshqa inves-titsiya daromadi	225893,9	269761,2	353249,1	458301,1	556665,6	574966,1
18.	Nafaqa	511,6	639,6	1030,9	1449,2	2172,0	2872,0
19.	Xalqaro tashkilotlarga to‘langan badallar	6437,8	14454,4	22550,7	16141,8	14590,0	21523,7
20.	Xalqaro hamkorlik yordam	584,1	797,3	940,7	572,4	2522,0	13437,9
21.	Boshqa joriy transfertlar	116875,3	140838,9	190038,8	285184,4	321991,0	333138,5
22.	Aholining migrat-siyasi tufayli to‘langan kapital transfertlar	25067,1	23358,0	17037,0	17951,4	17971,4	16687,4
23.	Qarzni kechib yuborish	41051,1	353900,0	528,6	240256,8	92,7	388108,7
24.	Boshqa kapital transfertlar	-	-	-	25731,0	-	7004,9

8.2-masala

1. Tovar va xizmatlar eksporti	40304
2. Tovar va xizmatlar importi	26636
3. Yollangan xizmatchilarning mehnat haqi saldosi	6670,0
4. Mahsulot solig‘i:	
4.1. Olingan	2014,0
4.2. To‘langan	1664,0
5. Boshqa ishlab chiqarish solig‘i:	
5.1. Olingan	2240,0
5.2. To‘langan	166,0
6. Daromad, mulk va boshqa soliqlar:	
6.1. Olingan	146,0
6.2. To‘langan	68,0
7. To‘langan ijtimoiy sug‘urta ajratmasi	104,0
8. Nafaqa:	
8.1. Olingan	436,0
8.2. To‘langani	206,0
9. Boshqa joriy transfertlar:	
9.1. Olingan	184,0
9.2. Berilgan	144,0

Yuqorida ma’lumotlar asosida hisoblang:

1. Tashqi tovar va xizmatlar saldosi;
2. Tashqi aloqa sektorining joriy operatsiyalar schyotini tuzing.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar

1. МНТ да ташqi iqtisodiy faoliyat deganda nima tushuniladi va u qanday tarkibiy qismlardan iborat?
2. Tashqi aloqa tovarlar va xizmatlar schyoti hamda asosiy ko'rsatkichlari qanday hisoblanadi?
3. Tashqi aloqa tovarlar va xizmatlar schyoti ko'rsatkichlarini hisoblash usuli va baholashni tushuntirib bering?
4. Tashqi birlamchi daromadlar va joriy transfertlar schyoti qanday tuziladi?
5. Tashqi kapital operatsiyalar schyoti va tashqi moliya schyotlari qanday tuziladi hamda ular qanday asosiy ko'rsatkichlardan tashkil topgan?
6. Tashqi qayta baholash schyoti nima uchun tuziladi?
7. Tashqi aktivlar va majburiyatlar schyotida qaysi ko'rsatkichlar aks ettiriladi?

Adabiyotlar

1. Система национальных счётов 1993. Издание ООН, 1998. – С. 325-354.
2. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./ Под ред. Ю.Н.Иванова. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – С. 237-286.
3. Подмогильная В. Система национальных счетов: Учебно-практическое пособие. – Москва: РАГС, 2010. – 238 с.
4. Кремлев Н.Д. Система национальных счетов: Учебное пособие. – Курган: Издательство Курганстат, 2009. – С. 230-232.
5. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов: Учебное пособие для вузов. – Москва: Финансы и статистика, 2006.– 272 с.
6. Махмудов Б. Миллий ҳисобчилик асослари./Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ, 2003. – Б. 106-110.
7. А.Абдуғаффоров, М.Зокирова, А.Корабоев. Миллий ҳисоблар тизими. Тошкент “Молия” 2002.

IX mavzu. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARNI O'ZGARMAS BAHOLARDA HISOBLASH ZARURIYATI, HISOBLASH USULLARI VA ULARNING STATISTIK TAHLILI


9.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti-2 soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1.Ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda hisoblash zarurati 2.Milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda baholash usullari
O'quv mashg'ulotining maqsadi: milliy hisobchilikda ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda baholash va ular dinamikasini tahlil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> • Joriy va o'zgarmas baholar to'g'risida ma'lumot berish. • Milliy hisobchilikda ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda baholash usullarini tushuntirish. • Dinamika qatorlari va ularning iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlarni bilishda va tahlil qilishdagi rolini asoslash. • MHTni asosiy schyotlarini ko'rsatkichlaridan foydalanib iqtisodiyotni tahlil etish usullarini tushuntirish. 	<ul style="list-style-type: none"> • Joriy va o'zgarmas baholar, to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi. • MHT ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda baholash usullari bilan tanishadi va baholay oladi. • MHT ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda baholash usullari asosida ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qiladi. • MHTni asosiy schyotlarini ko'rsatkichlaridan foydalanib iqtisodiyotni tahlil etish ko'nikmalarini hosil qiladi.
<i>O'qitishning uslubi</i>	Ma'ruza, aqliy hujum, blits-so'rov.
<i>O'qitishning shakli</i>	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
<i>O'quv vositalari</i>	Ma'ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari, flomasterlar, multimedya.
<i>O'qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki savollar, o'quv vazifalar, test savollari, mustaqil ishlar.

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik kartasi

Ishning bosqichlari vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
1-bosqich kirish qismi (20 min)	<p>o‘qituvchi</p> <p>1.1. Mavzusining nomini e’lon qiladi. Fan bo‘yicha umumiy tasavvur keltiradi. Ishning metodologik va tashkiliy xususiyatlarini yoritib beradi.</p> <p>1.2. Mavzuni, uning maqsadi o‘quv mashg‘ulotlardan kutilayotgan natijalar ma’lum qiladi.</p> <p>1.3. Kurs davomidagi ma’ruzalar mazmuni bilan tanishtiradi. Reyting baholash mezonlari bilan tanishtiradi, yozma ish va oraliq nazoratlari hamda yakuniy nazoratlar bilan tanishtiradi.</p>	<p>talabalar</p> <p>Eshitadi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>
2-bosqich Asosiy bosqich (50 min)	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlanish uchun tezkor savol javob o‘tkazadi:</p> <p>1. MHT ko‘rsatkichlarini asosida o‘zgarmas baholarda baholash zaruriyati nimada deb o‘ylaysiz?</p> <p>2. MHT ko‘rsatkichlarini asosida o‘zgarmas baholarda baholashning qanday usullari mavjud deb o‘ylaysiz?</p> <p>3. Baholar indeksi orqali va fizik hajmi indeksi orqali nimani baholaymiz?</p> <p>4. Dinamika qatorlari va ularning iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlarni bilishda va tahlil qilishdagi roli qanday?</p> <p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi: joriy va o‘zgarmas baholar to‘g‘risida, MHT ko‘rsatkichlarini o‘zgarmas baholarda baholash usullarini tushuntiradi, dinamika qatorlari va ularning iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlarni bilishda va tahlil qilishdagi rolini asoslaydi, MHTni asosiy schyotlarini ko‘rsatkichlaridan foydalanib iqtisodiyotni tahlil etish usullarini tushuntiradi.</p> <p>2.3. Taqdimotda berilgan misollar orqali makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘zgarmas baholarda baholashni ko‘rsatib beradi.</p> <p>2.4. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga, ko‘rsatkichlariga diqqat qilishlarini va yozib olishlarini ta’kidlaydi.</p>	<p>Eshitadi hamda savollarga javob beradi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>
3-bosqich Asosiy bosqich (10 min)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa qiladi va yakuniy natijalarni e’lon qiladi.</p> <p>3.2. Talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi hamda maqsadga erishilganlik o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi.</p> <p>3.3. Mustaqil vazifalar beriladi va talabalar tayyorgarlik darajasini baholash e’lon qilinadi.</p>	<p>Savollar beradi</p> <p>Yozib oladi.</p>

Ma’ruzaning mazmuni bo‘yicha ko‘rgazmali slaydlar



9.1-rasm. Ikki marotaba deflyatsiya usuli

Ekstropolyatsiya usuli



Ekstropolyatsiya usulida kuzatilayotgan davrda tovar va xizmatlarning o'zgarmas baholardagi qiymati, bazis davridagi tovar va xizmatlarning qiymatini kuzatilayotgan davr fizik hajmi indeksiga (FHI) ko'paytirish yo'li bilan topiladi.



Hisoblash algoritmi

$$\sum q_1 p_0 = \sum q_0 p_0 \times J_q$$

bunda:

$\sum q_0 p_0$ - tovar va xizmatlar qiymati bazis bahoda;

J_q - tovar va xizmatlarning indeksi, bu tovar va xizmatlarni joriy bahosini bazis davridagi bahosiga bo'lib topiladi;

$q_1 p_0$ - tovar va xizmatlarni kuzatilayotgan va bazis davridagi miqdori;

p_0 - bazis davridagi narxi (bahosi).



Qo'llash sohasi



Ko'p xollarda baholar indeksini aniq hisoblash qiyin yoki baho indeksini butunlay hisoblashga imkoniyati bo'lmasaga (masalan, nobozor xizmatlar).

9.2-rasm. Ekstropolyatsiya usuli

YaIM hajmini o'zgarmas baholarda baholashning boshqa usullari

To'g'ridan to'g'ri o'zgarmas baholarda baholash usuli

To'g'ridan to'g'ri o'zgarmas baholarda baholash usuli ko'rsatkichlar miqdori to'g'ridan to'g'ri o'zgarmas baholarga ko'paytirish yuli bilan aniqlashga asoslangan. Bu usulda o'zgarmas baho sifatida ma'lum bir davrdagi tovar va xizmatlarning preyskurator yoki ulgurji baholari, smeta baholari olinadi. Bu usul, asosan, qishloq xo'jaligi, qurilish tarmoqlarida keng ko'llanilib kelingan. Masalan, qishloq xo'jaligida o'zgarmas baholar sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 1983 yildagi, qurilish tarmog'ida qurilish materiallarining 1991 yildagi smeta baholari ishlatilib kelinmokda. Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotda uzoq davrlar mobaynida baholar va tovarlar tarkibining o'zgarishi ham bo'lgan taqdirdagina bu usuldan foydalanish mumkin.

Ko'rsatkichlarni xarajat elementlari bo'yicha deflyatsiya qilish usuli

Ko'rsatkichlarning xarajat elementlari buyicha deflyatsiya qilish usulida o'zgarmas baholarda baholanadigan ko'rsatkich tarkibini tashkil etuvchi xarajatlarning turlari bo'yicha FHI (fizik hajm indeksi)larini topib, ko'rsatkich shu indekslar orqali (har bir xarajat turining ulushiga qarab) deflyatsiya qilinadi. Bu usul asosan, nobozor xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmini o'zgarmas baholarda hisoblashda ishlatiladi. Bu usulda asosiy ko'rsatkichni FHI shu ko'rsatkichning tarkibiga kiruvchi xarajatlarning turlari bo'yicha fizik hajmlarini o'sishi bilan barobar ishlab chiqarish samaradorligi o'smaydi deb shartli ravishda faraz qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, bu usulda xarajatlar dinamikasi asosiy ko'rsatkich dinamikasiga ko'chiriladi.

9.3-rasm. YaIM hajmini o'zgarmas baholarda baholashning boshqa usullari

Yalpi ichki mahsulotning fizik hajmi indeksi

YaIMni fizik hajmi indeksi - YaIMning fizik hajmi dinamikasi ko'rsatkichi bo'lib, u bazis davr baholaridagi kuzatilayotgan davr YaIM qiymatini bazis davridagi YaIM qiymatiga nisbati bilan hisoblanadi.

Farqlovchi xususiyatlari

YaIMni o'zgarishi tovar va xizmatlar bilan birlashtirishda baholari o'zgarmas deb shartlanadi.

Hisoblash algoritmi

$$I_q^{\text{YaIM}} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

bunda:

I_p^{YaIM} - YaIM deflyatori

$\sum q_1 p_0$ - YaIMning kuzatilayotgan davrdagi qiymati bazis bahoda;

$\sum q_0 p_0$ - YaIMning bazis davrdagi qiymati;

q_1 va q_0 - tovarlar va xizmatlarning kuzatilayotgan va bazis davrdagi hajmi (miqdori);


p_1 va p_0 - joriy va bazis davrdagi baho.

Qo'llash sohalari

YaIMning fizik hajmlarining dinamikasini tahlil qilishda

9.4-rasm. YaIMning fizik hajmi indeksi

Yalpi ichki mahsulot deflyator indeksi



9.5-rasm. YaIMning deflyator indeksi

YaIM ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda baholash usullari

Ishlab chiqarish usuli	Pirovard iste'mol usuli
<p>1. Iqtisodiy sektorlarning yalpi ishlab chiqarish qiymatini o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>2. Iqtisodiy sektorlarning oraliq iste'mol qiymatini o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>3. Shartli moliyaviy xizmatlarini o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>4. Mahsulot solig'ini QQS solig'i bilan birgalikda o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>5. Mahsulot uchun berilgan subsidiya import uchun berilgan subsidiya bilan birgalikda o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>6. YaIMni o'zgarmas baholarda hisoblash ($p.6 = p_1 - p_2 - p_Z + p_4 - p_5$)</p>	<p>1. Pirovard iste'mol qiymatini o'zgarmas baholarda hisoblash (p. 1.1+ p.1.2+ p.1.3):</p> <p>1.1. Uy xo'jaligining pirovard iste'mol xarajatlarini o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>1.2. Davlat boshqaruv idoralarining pirovard iste'mol xarajatlarini o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>1.3. Uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning pirovard iste'mol xarajatlarini o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>2. Yalpi jamg'arishning ko'rsatkichini o'zgarmas baholarda hisoblash (p.2.1+p.2.2+p.2.3):</p> <p>2.1. Asosiy fondlarning yalpi jamg'arma qiymatini o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>2.2. Aylanma moddiy mablag'lar zaxirasi o'zgarish qiymatini o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>2.3. Sof sotib olingan qimmatbaho buyumlar qiymatini o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>3. Tovar va xizmatlar eksport qiymatini o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>4. Tovar va xizmatlar import qiymatini o'zgarmas baholarda baholash;</p> <p>5. YaIMni o'zgarmas baholarda hisoblash ($p.5 = p_1 + p_2 + p_3-p_4$)</p>

9.6-rasm. Iqtisodiy operatsiyalar va yalpi ichki mahsulotni o'zgarmas baholarda hisoblash algoritmi

O'quv materiallari

1. Nima uchun MHT ko'rsatkichlari o'zgarmas bahoda baholanadi?

MHT ko'rsatkichlari, eng avvalo, iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o'rtasida amalga oshirilgan daromadlar va xarajatlar bilan bog'liq oqimlarni aks ettirish maqsadida joriy davr baholarida hisoblanadi. Bu esa, joriy davr mobaynida yaratilgan milliy boylik hajmini hisoblash, tarmoqlar tarkibiy tuzilishini tahlil qilish, ishlab chiqarish, iste'mol va jamg'arish kabi iqtisodiy munosabatlar o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlashda qo'llaniladi.

Biroq baho darajasining o'zgarishi, valyutalar kursining ko'tarilishi, xarid qilish qobiliyatining pasayishi yoki ortishi sharoitida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning real o'zgargan holatini, ya'ni, ular fizik hajmining qanday o'zgarganligini baholash imkonini bermaydi. Joriy baholarda aniqlangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qiymatining o'tgan yoki qaysidir bazis davrga nisbatan ortishi, "Ko'rsatkich hajmi ortdimi?" – degan savolga javob olish imkonini bermaydi, chunki qiymatning ortishiga inflyatsiya ham ta'sir ko'rsatadi. MHTning asosiy konsepsiyalardan "Daromadlar to'g'risidagi konsepsiya"da, inflyatsiya natijasida mahsulot yoki xizmat bahosining ortishi buning natijasida olingan qo'shimcha daromad – xolding foydasi bo'lib, MHTda daromad deb e'tirof etilmaydi, chunki bu jarayon ishlab chiqarish natijasi emas.

MHT ko'rsatkichlari fizik hajmining qanday o'zgarganligini aniqlash uchun ular o'zgarmas bahoda hisoblanishi shart. O'zgarmas baholarda aniqlangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi iqtisodiy o'sishni baholash, samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, aholi turmush darajasiga baho berish imkonini yaratadi. Makroiqtisodiy modellashtirishni amalga oshirishda, istiqbolli dasturlarni tuzishda nominal bahoda aniqlangan ko'rsatkichlar dinamikasidan foydalanish mumkin emas, shuning uchun tahlil qilinayotgan ko'rsatkich va unga ta'sir etayotgan omil-ko'rsatkichlarning qiymat o'lchovi albatta o'zgarmas baholarda olinishi kerak, aks holda olingan natija

bo'yicha salbiy oqibatlarga olib keluvchi qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'ladi.

MHT ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda aniqlashda ikki turdag'i baholardan foydalaniladi:

- 1) doimiy baho;
- 2) taqqoslama baho.

Doimiy baho bu – bazis davr bo'yicha asos qilib olingan baho. Odatda o'zgarmas baholar uchun bazis davr har besh yilda o'zgartiriladi. Doimiy baholarda hisoblangan MHT ko'rsatkichlari uzoq muddatli dinamikani baholash uchun qo'llaniladi.

Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan holatlarda ko'rsatkich dinamikasini baholash uchun taqqoslama baholardan foydalaniladi. *Taqqoslama baho* bu – tahlil qilinayotgan davrdan oldingi davr bahosi. O'zbekiston Respublikasi va MDH mamlakatlarida yil yakunlari bo'yicha ko'rsatkichlar dinamikasi taqqoslama baholarda aniqlanadi va rasmiy matbuotda e'lon qilinadi.

2. MHT ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda aniqlash usullari

MHT ko'rsatkichlarini o'zgarmas bahoda aniqlash uchun bir necha usullardan foydalaniladi, ulardan eng ko'p foydalanimadigan usullar quyidagilar:

- 1) baho indeksi yordamida deflyatsiyalash usuli;
- 2) ikki marotaba deflyatsiyalash usuli;
- 3) fizik hajm indeksi yordamida ekstrapolyatsiya usuli;
- 4) to'g'ridan-to'g'ri o'zgarmas baholarda baholash usuli;
- 5) xarajat unsurlari bo'yicha qayta baholash usuli.

YaIM hajmini o'zgarmas baholarda hisoblash ishlab chiqarish va iste'mol bosqichlarida amalga oshiriladi.

Baho indeksi yordamida deflyatsiyalash usuli. Baho indeksi yordamida deflyatsiyalash usuli pirovard iste'mol unsurlari bo'yicha YaIMni o'zgarmas baholarda hisoblash uchun qo'llaniladi. Bunda joriy baholarda aniqlangan YaIM hajmi baho indeksi – YaIM deflyatoriga bo'linadi. Buni matematik ko'rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\sum q_1 p_0 = \sum q_1 p_1 \div I_p = \sum q_1 p_1 \div \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}$$

bunda $\sum q_1 p_1$ – joriy davr baholarida hisoblangan YaIM hajmi

$\sum q_1 p_0$ – bazis davr baholarida hisoblangan YaIM hajmi

I_p – baho indeksi (YaIM deflyatori)

YaIM deflyatori bu – pirovard foydalanish uchun ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar bahosining joriy davrda bazis davrga nisbatan o'rtacha o'zgarishini aniqlovchi ko'rsatkich.

Ma'lumki, baho statistikasida Laspeyras, Paashe, Fisher indekslari keng foydalaniladigan indekslardan hisoblanadi. YaIM hajmini o'zgarmas baholarda qayta baholash uchun mazkur indekslarning qaysi biridan foydalanish maqsadga muvofiq, degan savol tug'iladi. Laspeyras indeksining qiymati, odatda, Paashe indeksi qiymatidan katta bo'ladi. Indekslar o'rtasidagi bu farq Gershenkron effekti deb nom olgan. Mazkur kamchilikni bartaraf etish maqsadida Lasperas va Paashe indekslarining geometrik o'rtachasi asosida hisoblangan Fisher indeksidan foydalanish tavsiya etiladi, bu indeks indekslar aksiomatik nazariyasining talablariga to'liq mos keladi.

MHT- 1993da baho va fizik hajm indekslarini aniqlashda Fisher indeksidan foydalanish tavsiya etiladi, biroq Laspeyras yoki Paashe indekslarining qo'llanilishi inkor etilmaydi.

Baho o'zgarishini aniqlashda mazkur ikki indeksdan foydalanish ikki yo'nalishdan kelib chiqadi: tahliliy va texnik.

Tahliliy yo'nalishda indekslardan foydalanish baholar dinamikasini aniqlash maqsadidan kelib chiqadi. Bunda bazis davr hajmi bilan tortilgan Laspeyras indeksidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Texnik yo'nalishda indekslardan foydalanish ko'rsatkichlarni o'zgarmas baholarda baholash maqsadidan kelib chiqadi. Bunda joriy davr hajm ko'rsatkichi bilan tortilgan Paashe indeksidan foydalaniladi, chunki mazkur indeksning fizik hajm indeksiga ko'paytmasi qiymat indeksiga teng bo'ladi:

$$\frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} = \frac{\sum q_1 p_0 * \sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0 * \sum q_1 p_0}$$

Shuning uchun YaIM deflyatorini aniqlashda Paashe baho indeksidan foydalaniladi.

Ikki marotaba deflyatsiyalash usuli. Bu usul YaIM unsurlarini ishlab chiqarish jarayonida o'zgarmas baholarda aniqlash uchun qo'llaniladi. Mazkur usulning mohiyati shundan iboratki, avvalo, yalpi ishlab chiqarish hajmi (YaICh), so'ngra oraliq iste'mol (OI) hajmi o'zgarmas baholarda aniqlanadi, hosil bo'lgan natijalar ayirmasidan o'zgarmas baholardagi yalpi qo'shilgan qiymat hajmi (YaQQ) hosil bo'ladi. Bu usul deflyatsiyalash jarayonining avval YaICh, so'ngra OI bo'yicha amalga oshirilishidan kelib chiqib, ikki marotaba deflyatsiyalash usuli deb nomlangan. Ba'zi Evropa mamlakatlarida bu usulning soddalashgan shaklidan foydalaniladi, ya'ni joriy davr baholarida hisoblangan YaQQ hajmi YaICh deflyatoriga bo'linadi. Biroq inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda ushbu usul aniqlikni ta'minlab berolmaydi.

Fizik hajm indeksi yordamida ekstrapolyatsiyalash usuli. Bu usul bazis davrda yaratilgan YaIM nominal qiymatini fizik hajm indeksiga ko'paytirish orqali o'zgarmas baholardagi ko'rsatkichni aniqlashga asoslanadi, uning matematik ifodasi quyidagicha:

$$\sum q_1 p_0 = \sum q_0 p_0 * I_q$$

Bunda $\sum q_0 p_0$ – bazis davrdagi ko'rsatkichning nominal qiymati (shu davr bahosida hisoblangan)

$\sum q_1 p_0$ – bazis davr bahosida hisoblangan ko'rsatkich qiymati

I_q – fizik hajm indeksi:

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

Ushbu indeks Laspeyras formulasi asosida hisoblanadi hamda mahsulot va xizmatlar miqdorining joriy davrda bazis davrga nisbatan o'rtacha qanchaga o'zgarganligini baholaydi.

Ishlab chiqarish natijalarini natura ko'rinishida baholash imkonи bo'limganda (masalan, boshqaruв, ta'lim, mudofaa sohasida yaratilgan nobozor xizmatlar) ekstrapolyatsiya usuli qo'llanilganda fizik hajmi indeksi, yoki ishlab chiqarish hajmini yaqqol aks ettiradigan boshqa turdagи miqdor indeksi bilan

almashtiriladi, masalan, ta'lim oluvchilar, davolanuvchilar indeksi, ishlangan ish vaqtি indekslari.

To'g'ridan-to'g'ri o'zgarmas baholarda hisoblash usuli. Bu usul ishlab chiqarilgan (foydalaniilgan) mahsulotlarni o'zgarmas baholarga ko'paytirishga asoslanadi. Mazkur usul qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmini o'zgarmas baholarda hisoblashda qo'llaniladi, chunki bu tarmoqda yaratilgan mahsulotlar miqdori boshqa tarmoqlarga nisbatan chekli bo'lib, statistika bu to'g'risidagi axborotlarni to'liq olish imkoniyatiga ega.

Xarajat elementlari bo'yicha qayta baholash usuli. Bu usul alohida xarajatlar elementlarini deflyatsiyalashga asoslanadi. Mazkur usul nobozor xizmatlarni o'zgarmas baholarda hisoblash uchun qo'llaniladi, chunki bu sohada ko'rsatilayotgan xizmatlarning bozor bahosi mavjud emas va ular jamiyatga bepul ko'rsatiladi. Bunda xizmatlarga qilingan xarajatlar dinamikasi ushbu xizmatlarning fizik hajmi dinamikasiga mutanosib deb qabul qilinadi hamda nobozor xizmatlar sohasida mehnat unumдорligi o'zgarmaydi, degan shartli yondashuvga yo'l qo'yiladi.

Demak, yuqorida sanab o'tilgan usullar yordamida MHT ko'rsatkichlarini o'zgarmas baholarda aniqlash mumkin bo'ladi.

Mavzuga doir testlar

1. Moliya schyotini tahlil qilishni asosiy yo'naliishlari:

- a) moliyaviy resurslarni sektorlar (kredit beruvchi va qarz oluvchi) o'rtaida qayta taqsimlash jarayonini tahlil qilish;
- b) moliyaviy aktivlarni moliyalashtirish manbayilarini tarkibiy tahlili;
- c) iqtisodiyot va sektorlarni yakuniy moliyaviy iqtisodiy faoliyatini tahlili;
- d) moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashda moliyaviy aktivlarni rolini aniqlash.

2. Kapital bilan operatsiyalar schyotini ko'rsatkichlarni tahlil qilishni asosiy yo'naliishlari-bu...

- a) investitsiyalarni moliyalashtirishni tarkibiy tahlili;

- b) moliya resurslarini sektorlar o‘rtasida – kredit beruvchi va qarz oluvchi sektorlar o‘rtasida qayta taqsimlash jarayonini tahlil qilish;
- c) iqtisodiy sektorlar va iqtisodiyotni iqtisodiy faoliyat natijalarini tahlili;
- d) Asosiy fondlar tarkibiy tahlili.

3. Daromadlarning ikkilamchi taqsimlash schyoti natijaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilishni asosiy vazifalar-bu

- a) Aholini tovar va xizmatlarga bo‘lgan aniq potentsial imkoniyatlarni aniqlash hamda aholi turmush darajasini aniqlash, jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ixtiyordagi daromad larni tahlili;
- b) tovarlar va xizmatlarni yalpi taklifi , bozorni istemol mollarga bo‘lgan potentsial imkoniyati;
- c) sektorlar o‘rtasida joriy transferlarniqanchalik optimal taqsimlanishi va uni daromadlarga bog‘liqligini aniqlash;
- d) tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan bozorni aniq potentsional imkoniyatlarni aniqlash.

4. Daromadlar birlamchi taqsimlash yig‘ma schyot natijaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilishni asosiy yo‘nalishlari-bu:

- a) yalpi ichki maxsulotning birlamchi daromadlar tarkibiy tahlili;
- b) schyotni ko‘rsatkichlarni dinamikasini tahlili, birlamchi daromadlarni hajmlarini o‘sish sur’ati va tarkibiy o‘zgarishlarni tahlili;
- c) yalpi milliy daromadlarning birlamchi daromadlarni tahlili;
- d) iqtisodiy sektorlarini birlamchi daromadlarini tarkibi va ularni qo‘silgan qiymatidagi ulushlarini nisbatini tahlili.

5. Daromadlarning shakllanish schyot natijalarini tahlil qilishni asosiy yo‘nalishlari

- a) ishlab chiqarishdan olingan daromadlarni turli tarmoqlar va sektorlaridagi ulushlarini tahlili hamda iqtisodiyotni umumiyl yalpi qo‘silgan qiymatlarda tarmoqlar va sektorlarni ulushlarini tahlili;
- b) yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichini tashkil qiluvchi birlamchi va ikkilamchi daromadlarni tarkibiy tahlili;
- c) yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichini tashkil qiluvchi daromadlarni tarkibiy tahlili;

d) yalpi milliy daromadni tarkibiy tahlili.

6. Ishlab chiqarish schyot natijalarini tahlil qilishni asosiy yo‘nalishlari:

- a) ishlab chiqarishga solingan soliq yukini tahlili;
- b) ishlab chiqarishda soliq yukini ishlab chiqarishga berilgan subsidiyaga qiyoslab tahlil etish;
- c) ishlab chiqarishga berilgan subsidiyani tarkibiy o‘zgarishini;
- d) ishlab chiqarish tarkibi va iqtisodiyotda faqat tarkibiy siljishini tahlili.

7. Tashqi dunyo tovarlar va xizmatlar schyoti ko‘rsatkichlarini tahlil qilishni asosiy yo‘nalishi:

- a) tovarlar va xizmatlar saldosi baholashni tahlili;
- b) Tovarlar va xizmatlar eksporti, importini YaIMdagi ulushi dinamikasining tahlili;
- c) Tovarlar va xizmatlar importini hamda davlat ulushi dinamikasining tahlili;
- d) tovarlar va xizmatlar eksportini yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichdagi ulushini dinamikasini tahlili;

8. MHT tavsiyasiga ko‘ra ko‘rsatkichlarni o‘zgarmas baholarda hisoblashda o‘zgarmas baho sifatida qaysi davr asos qilib olinadi:

- a) faqat o‘tgan yilning o‘rtacha baholarida baholanadi;
- b) faqatgina o‘tgan yilning ko‘rsatkichlari ma’lum yilni bazis qilib, shu yilning o‘rtacha baholarida baholanadi;
- c) o‘zgarmas baholarda hisoblashda o‘zgarmas baho sifatida o‘tgan va bazis yilning o‘rtacha baholari asos qilib olish mumkin;
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

9. MHTning qaysi ko‘rsatkichlari fizik hajmlarini o‘zgarmas baholarda baholab bo‘lmaydi:

- a) YaIM va YaMD;
- b) faqatgina transfertlar;
- c) investitsiya;
- d) transfertlar, investitsiya, qarz berish.

10. Baholar indeksi $I_p = \sum q_0 p_1 / \sum q_0 p_0$ ga kim tomonidan asos solingan:

- a) Fisher;

- b) Paashe;
- c) Laspeyras;
- d) Tronkvist.

11. Baholar indeksi $I_p = \sum q_1 p_1 / \sum q_1 p_0$ ga formulasiga kim asos solgan:

- a) Laspeyras;
- b) Paashe;
- c) Fisher;
- d) Tronkvist.

12. Fizik hajmlar indeksi formulası

$I_q = \sum q_1 p_0 / \sum q_0 p_0$ ga kim asos solgan:

- a) Fisher;
- b) Paashe;
- c) Laspeyras;
- d) Tronkvist.

13. Fizik hajmlar indeksi formulasiga kim asos solgan:

$I_q = \sqrt{(\sum q_1 p_0 / \sum q_0 p_0) * (\sum q_1 p_1 / \sum q_0 p_1)}$

- a) Laspeyras;
- b) Paashe;
- c) Fisher;
- d) Tronkvist.

14. Quyidagi ma'lumot asosida hisoblangan fizik hajm indeksi teng:

Ma'lumotlar: (shartli pul birligid YaICh bazis davrda – 150, hisobot yilida 260 va baholar indeksi 130% ga teng.

- a) 1,33;
- b) 1,03;
- c) 0,33;
- d) 1,73.

15. Bazis davrda YaICh qiymati 220 mln so'mga teng, joriy yilda fizik hajm indeksi $I_q=1,5$ ga teng bo'lganda joriy yilning YaIChini o'zgarmas baholardagi qiymati quyidagiga teng:

- a) 320;
- b) 220;
- c) 146,7;
- d) 420.

9.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi

<i>Talabalar soni 25-30 gacha</i>	<i>vaqtি 2-soat</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	Amaliy mashg‘ulotlarda bilimni chuqurlashtirish va kengaytirish jarayoni.
Amaliy mashg‘ulotda muhokama qilinadigan savollar.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Baholar indeksi 2. Fizik hajm indeksi 3. To‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zgarmas baholarda baholash 4. Ikki marotaba deflyatsiyalash usuli
<i>O‘quv mashg‘ulotiningmaqsadi:</i>	Mavzu bo‘yicha bilimni chuqurlashtirish va mustahkamlash
Pedagogik vazifalar	<p><i>O‘quv faoliyatning natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Milliy hisobchilikda schyotlar ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiyotni tahlil qilish mohiyati va tartibi: schyotlarni bir biri bilan bog‘langan holda bularga qo‘srimcha makro ko‘rsatkichlar bilan birlashtirishda tahlilini tushuntirish. • Baholar indeksi, fizik hajmi indeksi, to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zgarmas baholarda baholash, ikki marotaba deflyatsiyalash baholash usullari orqali MHT ko‘rsatkichlarini o‘zgarmas baholarda baholashni o‘rganish. • YaIMning o‘sish sur’ati dinamikasi, uning tarkibiy o‘zgarish dinamikasi, OI va YaQQ ko‘rsatkichlarining YaIChdagi ulushini tahlil qilish ko‘nikmalarini hosi qiladi.
<i>O‘quv uslubi</i>	Xabar berish orqali o‘qitish, diskussiya, “Doira” stol, grafik organayzer: mantiqan tizimli chizma.
<i>O‘qitish shakli</i>	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Ma’ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar, flomasterlar.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlardan ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya Yoritilgan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	mustaqil o‘rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar va vaqtি	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	o‘qituvchi	talaba
1-bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish (20 min.)	<p>1.1. Mavzu nomini aytadi, rejalashtirilgan natijalarni va uni o‘tkazish jarayoni bilan tanishtiradi. Birgalikda guruuhlar bilan texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonini tushuntiradi. Adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Tayanch iboralar tushunchalari orqali so‘rovnama olib boradi. Savol tashlaydi va 1-2 ta javoblarni eshitib bo‘lgach, keyingi muhokamalarni guruuhlar ishlarini bajarib, natijalarni prezentatsiya jarayonida eshitishni e’lon qiladi. Har bir talaba individual tarzda guruhlardagi baholanish bilan birga baho oladi va guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi. Guruhlarda ishlangan natijalar flip-chatlar orqali namoyish qilinishini e’lon qiladi.</p>	<p>1.1. Eshitadi va yozib boradi.</p> <p>1.2. Savollarga javob beradi.</p>
2-bosqich Guruhlarda ishlash (40 min)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhga bo‘ladi. O‘quv vazifalarni tarqatadi. Qanday natijalarga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi</p> <p>2.2. Natijaviy ko‘rsatkichlarni sharhlaydi. Qanday qo‘srimcha materiallar bilan foydalanish mumkinligini tushuntiradi (darslik, ma’ruza matnlari, o‘quv qo‘llanma).</p> <p>2.3. O‘zaro guruhlarda olingan natijalarni prezentatsiya qilish va ularni baholanishni tashkil qiladi. Qilingan ish jarayonidagi xulosalar keltiriladi va alohida e’tiborga loyiq guruuhlar jarayoni ketadi.</p>	<p>2.1. Ish jarayonidagi o‘quv vazifalar, baholar mezonlari bilan tanishadi. Ishni bajarishni boshlaydi.</p> <p>2.2. Birgalikda qilingan prezentatsiya chiqishlari ko‘rsatiladi. Qo‘srimchalar kiritiladi va baholash jarayoni ketadi.</p>
3-bosqich Yakuniy bosqich (10 min)	<p>3.1. Amaliyot natijalarini yakunlaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish mavzusini aytadi va vazifa beradi.</p>	Eshitadi, tahlil qiladi va yozib oladi.

Uslubiy ko‘rsatmalar va namunaviy misollar yechish

O‘zgarmas baholarda hisoblashning bir necha usullari bor. Ulardan asosiyлари quyidagilar:

- Baholar indeksi orqali deflyatsiya usuli bizga ma’lum bo‘lgan Laspeyris, Paashe va Fisher indekslari orqali ko‘rsatkichni o‘zgar-mas baholarda hisoblashga asoslangan. Bu usulni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin.

$$YaQQ \text{ o‘zgarmas baholarda} = YaQQ_{\text{joriy bahosida}} / I_p$$

Agarda yalpi qo‘shilgan qiymat ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (q) va uning bahosi (p) deb qarasak, quyidagicha yozish mumkin.

$$\sum q_1 p_0 = \sum q_1 p_1 \div I_p = \sum q_1 p_1 \div \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}$$

Bunda; $\sum q_1 p_0$ - YaQQ o‘zgarmas bahosida;

$\sum q_1 p_1$ - YaQQ joriy bahosida;

$\frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0} = J$ baholar indeksi (YaQQni indeks deflyatori)

YaQQni indeksi (J^{qp})ni ishlab chiqarilgan mahsulotni fizik hajmi indeksi (J^q) va indeks deflyatori (J^p) ko‘paytmasi deb qarash mumkin;

$$I_{qp} = I_q * I_p \text{ yoki } \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} * \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}$$

Bunda $\frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}$ - YaQQni qiymat indeksi (I_{qp});

$\frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$ - YaQQni fizik hajmi indeksi (I_q)

Ikki marotaba deflyatsiya usuli

Bu usul orqali YaQQ ko‘rsatkichini o‘zgarmas baholarda hisoblash uchun:

- 1) Yalpi ishlab chiqarish va oraliq iste’mol ko‘rsatkichlari alohida-alohida o‘zgarmas qiymatlarda baholanib, YaIChdan OI ni ayirmasi YaQQning o‘zgarmas bahosida bo‘ladi.

Ekstrapolyatsiya usuli.

Bu usulda kuzatilayotgan davr fizik hajmi indeksini, bazis davrdagi ko‘rsatkichning joriy baholardagi qiymatiga ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblanadi, ya’ni

$$\sum q_0 p_0 * J_q = \sum q_1 p_0$$

Bunda: $\sum q_0 p_0$ - ko‘rsatkichning bazis davrdagi qiymati joriy bahosida; J_q fizik hajm indeksi; $\sum q_1 p_0$ kuzatalayotgan davrdagi ko‘rsatkichning o‘zgarmas baholardagi qiymati.

Mustaqil ishlash uchun masalalar

9.1-masala

Sanoat tarmoqlari bo‘yicha ishlab chiqarishni natijaviy jara-yonlarini ifodalovchi quyidagi ma’lumotlar berilgan:

Sanoat va sanoat tarmoqlari	Yalpi qo‘shilgan qiymat (joriy bahosida, mln so‘m)		YaQQni fizik hajm indeksini o‘zgarishi oldingi yillarga nisbatan %	
	n yil	n+1 yil	n yil	n+1 yil
Sanoat, jami	462422,8	696229,3	101,3	102,7
Shu jumladan: elektr-energetika	42066,6	60803,3	102,5	100,0
Neft qazib olish	2216,9	2600,1	91,8	96,4
Neftni qayta ishslash	25867,2	29947,7	99,6	92,3
Gaz	43963,8	65624,7	106,1	101,7
Ko‘mir	3097,8	4912,8	85,1	107,4
Qora metallurgiya	8191,1	13945,1	109,8	108,5
Rangli metallurgiya	68071,7	107848,1	102,5	101,8
Kimyo sanoati	21651,7	32461,4	100,8	84,8
Mashinasozlik	40842,6	46948,0	79,6	113,9
Qog‘oz-tsellyuloza sanoati	8688,7	12432,0	100,4	90,6
Qurilish materiallari sanoati	25756,1	37405,9	87,7	102,5
Shisha sanoati	1946,1	5368,6	83,1	167,5
Engil sanoat	69899,8	110271,8	101,9	104,2
Oziq-ovqat sanoati	62434,3	106279,4	108,2	107,7
Un ishlab chiqarish sanoati	18377,9	26322,5	98,9	100,6
Tibbiyot sanoati	3103,2	6413,8	169,9	147,8
Bosma sanoat sohasi	8871,4	16579,4	122,6	102,4
Boshqa sanoat tarmoqlari	7375,9	10064,7	113,7	104,3

Aniqlang:

1. Sanoat tarmoqlarining yalpi qo‘shilgan qiymatini sanoatning jami yalpi qo‘shilgan qiymatiga nisbatan ulushini aniqlang va ulushlarni o‘zgarishini izohlang.
2. Sanoat tarmoqlarida yalpi qo‘shilgan qiymat deflyatorini hisoblang.
3. n+1 yilning yalpi qo‘shilgan qiymatini, n yilning yalpi qo‘shilgan qiymatiga nisbatan o‘sishi (yoki kamayishi) darajasini hisoblang.

9.2-masala

Mamlakat sanoatini ishlab chiqarish natijaviy jarayonlarini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Sanoat va sanoat tarmoqlari	Yalpi qo'shilgan qiymat (joriy bahosida, mln. So'm)		YaQQni fizik hajm indeksini o'zgarishi oldingi yillarga nisbatan %	
	n yil	n+1 yil	n yil	n+1 yil
Sanoat – jami	1079273,1	1553330,4	103,4	103,0
Shu jumladan: elektr - energiya	86769,0	149617,7	110,4	100,8
Neft qazib olish	3572,3	3815,9	93,0	91,5
Neftni qayta ishlash	56107,6	54334,7	119,7	93,2
Gaz	96901,7	174824,3	102,9	111,5
Ko'mir	4673,9	4627,4	99,1	73,4
Qora metallurgiya	23539,2	36114,0	109,1	106,7
Rangli metallurgiya	206461,7	346048,9	106,0	98,4
Kimyo sanoati	53589,0	79692,1	113,2	107,7
Mashinasozlik	65063,3	135594,1	94,7	132,2
Qog'oz-tsellyuloza sanoati	22298,0	24103,4	125,6	106,9
Qurilish materiallari sanoati	54036,8	64102,6	96,0	95,6
Shisha sanoati	7613,7	8179,0	127,5	88,4
Engil sanoat	156736,5	208890,3	95,0	98,5
Oziq-ovqat sanoati	163909,9	182788,5	106,6	103,2
Un ishlab chiqarish	29096,3	26125,5	85,4	81,2
Tibbiyat sanoati	8836,2	9129,2	117,5	92,6
Bosma sanoati sohasi	24374,2	25439,8	99,3	92,8
Boshqa sanoat tarmoqlari	15693,4	19903,0	84,5	99,5

Aniqlang:

Sanoat tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymatini sanoatning jami yalpi qo'shilgan qiymatiga nisbatan ulushini aniqlang va ulushlarni o'zgarishini izohlang.

Sanoat tarmoqlarida yalpi qo'shilgan qiymat deflyatorini hisoblang.

n+1 yilning yalpi qo'shilgan qiymatini, n yilni yalpi qo'shilgan qiymatiga nisbatan o'sishi (yoki kamayishi) darajasini hisoblang.

9.3-masala

Sanoatning n yildagi ishlab chiqilgan yalpi qo'shilgan qiymati tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar ma'lumoti berilgan.

Sanoat va sanoat tarmoqlari	YaQQ o'zgarmas bahosida mln so'm	YaQQni deflyatori %da	O'sish oldingi yilga nisbatan %da
Sanoat – jami	214005,5	142,4	101,2
Shu jumladan: elektr energiya	23991,0	145,1	98,5
Neft qazib olish	1220,2	110,9	93,6
Neftni qayta ishslash	11922,3	134,5	98,1
Gaz	17705,5	130,2	102,0
Ko'mir	1198,9	179,1	101,3
Qora metallurgiya	3082,1	136,5	100,6
Rangli metallurgiya	25148,2	155,3	101,0
Kimyo sanoati	8156,4	159,0	95,2
Mashinasozlik	27737,6	121,7	89,1
Qog'oz-tsellyuloza sanoati	3510,7	149,3	123,9
Qurilish materiallari sanoati	11299,8	162,4	100,2
Shisha sanoati	749,4	139,0	99,8
Engil sanoat	33090,4	135,4	100,4
Oziq-ovqat sanoati	25432,6	157,9	111,7
Un ishlab chiqarish	10872,8	147,7	114,2
Tibbiyot sanoati	684,9	184,3	125,2
Bosma sanoat sohasi	3895,2	137,0	132,4
Boshqa sanoat tarmoqlari	4344,9	118,2	112,0

Aniqlang:

1. Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati (jamiga nisbatan) tarkibini aniqlang.
2. Sanoat va uning tarmoqlarini n va n-1 yillardagi yalpi qo'shilgan qiymati joriy bahosida hisoblang.

9.4-masala

Sanoatning n yilda ishlab chiqilgan yalpi qo'shilgan qiymati tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar ma'lumoti berilgan.

Sanoat va sanoat tarmoqlari	YaQQ o'zgarmas bahosida mln so'm	YaQQni deflyatori %da	O'sish oldingi yilga nisbatan %da
Sanoat, jami	308487,5	149,9	101,2
Shu jumladan: elektr energiya	35679,9	117,9	102,5
Neft qazib olish	1242,0	178,5	91,8
Neftni qayta ishlash	15967,4	162,0	99,6
Gaz	24465,1	179,7	106,1
Ko'mir	1827,6	169,5	85,1
Qora metallurgiya	4619,9	177,3	109,8
Rangli metallurgiya	40042,2	170,0	102,5
Kimyo sanoati	13074,7	165,6	100,8
Mashinasozlik	26852,5	152,1	79,5
Qog'oz-tsellyuloza sanoati	5262,7	165,1	100,4
Qurilish materiallar sanoati	16087,5	160,1	87,7
Shisha sanoati	865,7	224,8	83,1
Engil sanoat	45626,5	153,2	101,8
Oziq-ovqat sanoati	43477,9	143,6	108,3
Un ishlab chiqarish	15856,7	115,9	98,9
Tibbiyot sanoati	2144,6	144,7	169,9
Bosma sanoat sohasi	6542,3	135,6	122,6
Boshqa sanoat tarmoqlari	5835,4	126,4	113,6

Aniqlang:

Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati (jamiga nisbatan) tarkibini aniqlang.

Sanoat va uning tarmoqlarini n va n-1 yillardagi yalpi qo'shilgan qiymatini joriy bahosida hisoblang.

9.5-masala

Sanoatning n yilda ishlab chiqilgan yalpi qo'shilgan qiymati tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar ma'lumoti berilgan.

Sanoat va sanoat tarmoqlari	YaQQ o'zgarmas bahosida mln so'm	YaQQni deflyatori %da	O'sish oldingi yilga nisbatan %da
Sanoat, jami	472936,3	145,9	102,3
Shu jumladan: elektr energiya	42601,0	139,5	101,3
Neft qazib olish	2136,8	123,2	96,4
Neftni qayta ishlash	23820,3	121,5	92,1
Gaz	44529,4	148,2	101,3
Ko'mir	3328,0	144,1	107,4
Qora metallurgiya	8861,0	155,8	108,2
Rangli metallurgiya	68976,5	1535	101,3
Kimyo sanoati	19231,7	156,5	88,8
Mashinasozlik	48558,8	133,4	118,9
Qog'oz-tsellyuloza sanoati	9001,0	146,2	103,6
Qurilish materiallari sanoati	25828,0	146,4	100,3
Shisha sanoati	3260,7	133,5	167,6
Engil sanoat	73539,1	152,3	105,2
Oziq-ovqat sanoati	63182,7	139,7	101,2
Un ishlab chiqarish	18668,2	142,6	101,6
Tibbiyot sanoati	4306,6	123,2	138,8
Bosma sanoat sohasi	10868,6	137,2	122,5
Boshqa sanoat tarmoqlari	8140,9	138,0	110,4

Aniqlang:

Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati (jamiga nisbatan) tarkibini aniqlang.

Sanoat va uning tarmoqlarini n va n-1 yillardagi yalpi qo'shilgan qiymatini joriy bahosida hisoblang.

9.6-masala

Tarmoqlarning n va n+1 yillarda ishlab chiqilgan yalpi mahsulot va xizmatlar ko'rsatkichlarini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Tarmoqlar	Yalpi ishlab chiqarish (asosiy bahosida)		Oraliq iste'molning yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi, %		YaQQni deflyatori, %da	
	n yil	n+1 yil	n yil	n+1 yil	n yil	n+1 yil
Sanoat	1934471,4	2955526,7	76,1	76,4	149,9	146,6
Qishloq xo'jaligi	1464104,5	2216738,1	33,3	33,5	153,6	144,9
O'rmon xo'jaligi	1261,7	1867,4	40,2	40,4	141,7	141,6
Baliq xo'jaligi	2365,9	2810,9	47,5	43,8	139,7	134,9
Qurilish	493650,1	739437,0	60,3	61,3	133,0	141,2
Transport va aloqa	493074,1	733961,0	49,2	49,4	155,3	143,4
Boshqa tovar ishlab chiqaruvchi sohalar	14970,9	23949,5	46,9	52,3	149,3	135,4
Pullik xizmat ko'r-satish	1571916,2	2359137,9	42,4	40,7	152,3	151,4
Nobozor xizmatlar ko'rsatish	660864,2	1025780,5	26,0	25,6	151,1	143,4

Aniqlang:

n va n+1 yillar uchun oraliq iste'mol va YaQQ ko'rsatkichlarini joriy va o'zgarmas baholarda hisoblang.

n+1 yil YaQQni n yilga nisbatan ulushi darajasini hisoblang.

9.7-masala

Iqtisodiyot tarmoqlarining ishlab chiqilgan yalpi mahsulot va xizmatlar ko'rsatkichlarini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar berilgan.

Tarmoqlar	Yalpi ishlab chiqarish (asosiy bahosida)		Oraliq iste'molning yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi %		YaQQni deflyatori, %da	
	n yil	n+1 yil	n yil	n+1 yil	n yil	n+1 yil
Sanoat	4534761,1	6213321,5	76,2	75,0	149,9	139,7
Qishloq xo'jaligi	3430624,0	4305620,3	34,7	34,8	143,5	117,3
O'rmon xo'jaligi	2803,0	3499,3	43,2	40,0	142,5	130,8
Baliq xo'jaligi	3256,2	3561,3	45,1	41,2	110,3	121,1
Qurilish	955923,3	1150373,1	61,8	61,5	123,3	116,8
Transport va aloqa	1216085,9	1773669,1	49,6	47,9	154,4	145,1
Boshqa tovar ishlab chiqaruvchi sohalar	36138,4	44806,3	54,2	56,7	141,2	119,5
Pullik xizmat ko'rsatish	2427579,4	2980648,7	40,5	39,6	143,3	117,5
Nobozor xizmatlar ko'rsatish	1403466,1	1758921,0	41,8	41,5	146,2	129,5

Aniqlang:

1. n va n+1 yillar uchun oraliq iste'mol va YaQQ ko'rsatkich-larini joriy va o'zgarmas baholarda hisoblang.
2. n+1 yil YaQQni n yilga nisbatan ulushi darajasini hisoblang.

9.8-masala

Iqtisodiyot sektorlarining n va n+1 yillardagi yalpi qo'shilgan qiymatining ma'lumotlari, iqtisodiyotni ishlab chiqarish va import uchun soliqlar hamda ishlab chiqarish va import uchun subsidiya qiymatlari berilgan.

Iqtisodiyot sektorlari	Yalpi qo'shilgan qiymat (joriy bahoda mln so'm)		Oraliq iste'mol qiymatini yalpi ishlab chiqarish- dagi ulushi %	
	n yil	n+1 yil	n yil	n+1 yil
Nomoliyaviy korxonalar	1234100,7	1940633,9	66,5	65,7
Moliya tashkilotlari	123330,4	196413,5	12,7	11,7
Davlat boshqaruv organlari	381983,6	545412,9	40,6	40,1
Uy xo'jaliklariga xizmat ko'r-satuvchi notijorat tashkilotlar	20750,2	29927,3	38,5	37,0
Uy xo'jaliklari	1154336,3	1708906,1	29,6	30,3
Iqtisodiyotning mahsulot va import solig'i	428979,3	612393,8		
Iqtisodiyotning mahsulot va import subsidiyasi	21337,9	28323,9		

Aniqlang:

1. Iqtisodiyot sektorlarining n va n+1 yillarda ishlab chiqargan yalpi mahsulot va xizmatlari hamda oraliq iste'mol ko'rsatkichlari qiymatini hisoblang.
2. Iqtisodiyotning n va n+1 yillar uchun yalpi ichki mahsulotini hisoblang.
3. Iqtisodiyot sektorlarini YaQQlarini yalpi ichki mahsulotdagi ulushlarini aniqlang va izohlang.

9.9-masala

Iqtisodiyot sektorlarining n va $n+1$ yillardagi yalpi qo'shilgan qiymati va iqtisodiyotni ishlab chiqarish va import uchun soliqlar hamda ishlab chiqarish va import uchun subsidiya qiymatlari berilgan.

Iqtisodiyot sektorlari	Yalpi qo'shilgan qiymat (joriy bahoda mln so'm)		Oraliq iste'mol qiymatini yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi %	
	n yil	n+1 yil	n yil	n+1 yil
Nomoliyaviy korxonalar	3026398,5	4162337,5	65,0	63,9
Moliya tashkilotlari	250586,1	286542,5	12,8	13,7
Davlat boshqaruv organlari	832536,7	1047633,4	40,6	39,2
Uy-xo'jaliklariga xizmat ko'r-satuvchi notijorat tashkilotlar	2462651,0	3053397,3	31,5	32,6
Uy-xo'jaliklari	45699,6	67977,0	37,5	37,4
Iqtisodiyotning mahsulot va import solig'i	975967,2	374117,8		
Iqtisodiyotning mahsulot va import subsidiyasi	37951,0	29036,5		

1. Sektorlarning n va $n+1$ yillarda ishlab chiqqan yalpi mahsulot va xizmatlari hamda oraliq iste'mol ko'rsatkichlari qiymatini hisoblang.

2. Iqtisodiyotni n va $n+1$ yillar uchun yalpi ichki mahsulotini hisoblang.

3. Sektorlarning YaQQlarini yalpi ichki mahsulotdagi ulushlarini aniqlang.

9.10-masala

Quyidagi jadvalda shartli hudud korxonalarining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish schyotini joriy va o'zgarmas baholarda tuzing.

Institutsion birliklar guruhi	Yalpi mahsu- lot va xiz- matlar qiy- mati mln so‘m	Oraliq is- te’molni yalpi ishlab chiqarish- dagi ulushi %	Indeks deflyatori	
			Yalpi ishlab chiqarish	Oraliq iste'mol
Nomoliyaviy korxonalar	1800,0	65,0	1,4	1,3
Moliya tashkilotlari	192,0	13,5	1,8	2,0
Davlat bosh-qaruv idoralari	432,0	42,5	1,6	1,6

Umumiy mahsulot solig‘i 154,0 mln so‘m
Mahsulot solig‘i summasining indeks deflyatori 1,3

9.11-masala

Iqtisodiyot sektorlariga qarashli guruh korxonalarini ishlab chiqarish jarayonlarini ifodalovchi ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish schyotini joriy va o'zgarmas baholarda tuzing.

Sektorlarning ayrim guruh korxonalari	Yalpi mahsulot va xizmatlar qiymati, mln so‘m	Oraliq iste'molni yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi, %	Indeks deflyatori	
			Yalpi ishlab chiqarish	Oraliq iste'mol
Nomoliyaviy korxonalar	75,0	69,0	2,2	2,4
Moliya tashkilotlari	672,0	14,0	2,1	2,2
Davlat boshqaruv idoralari	348	42,0	2,0	1,9

9.12-masala

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston respublikasining n - (n+5) yillardagi joriy baholardagi yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlari va uning indeksi berilgan.

Ko‘rsatkichlar	n yil	n+1 yil	n+2 yil	n+3 yil	n+4 yil	n+5 yil
Yalpi ichki mahsulot, joriy bahoda mln so‘m	3255,6	4925,3	7450,2	9837,8	12261,0	15210,4
Yalpi ichki mahsulotning fizik indeksi, oldingi yilga nisbatan %da	103,8	104,2	104,0	104,2	107,7	107,0

1. Har bir yil uchun deflyator indeksini hisoblang
2. Barcha yillar bo‘yicha o‘rtacha deflyator indeksini hisoblang
3. Barcha yillarning yalpi ichki mahsulotini bazis yil, n yil bahosida hisoblang.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar

1. Yalpi ichki mahsulot va uning komponentlarini o‘zgarmas baholarda baholashning zaruriyati nimada?
2. YaIM ni o‘zgarmas baholarda baholashda qanday usullar qo‘llaniladi?
3. Baholar indeksi orqali deflyatsiyalash usuli va fizik hajmi indeksi yordamida ekstrapolyatsiya qilish usullarining farqi nimada, bu usullar qanday hollarda qo‘llaniladi?
4. Deflyatsiyalashda qanday baho indekslaridan foydalilaniladi, Gershenkron effekti nima?
5. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zgarmas baholarda baholash usuli qanday xollarda qo‘llaniladi?
6. Ko‘rsatkichlarni xarajat elementlarini deflyatsiya qilish usuli qachon qo‘llaniladi?

7. Ikki marotaba deflyatsiyalash usuli qaysi sohalarda qo'llaniladi?

Adabiyotlar

1. Система национальных счётов 1993. Издание ООН, 1998. – С. 393-420.
2. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./ Под ред. Ю.Н.Иванова. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – С. 142-170.
3. Подмогильная В. Система национальных счетов: Учебно-практическое пособие. – Москва: РАГС, 2010. – 238 с.
4. Кремлев Н.Д. Система национальных счетов: Учебное пособие. – Курган: Издательство Курганстат, 2009. – С. 127-131.
5. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов: Учебное пособие для вузов. – Москва: Финансы и статистика, 2006. – 272 с.
6. Махмудов Б. Миллий ҳисобчилик асослари./Ўқув қўлланма. – Т.: ТДИУ, 2003. – Б. 111-116.
7. Qoraboyev A.R. Milliy hisoblar tizimi fanidan masalalar to'plami. O'quv uslubiy qo'llanma. – Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. – В. 46-67.
8. А.Абдураффоров, М.Зокирова, А.Корабоев. Миллий ҳисоблар тизими. Тошкент "Молия" 2002.

X mavzu. O'ZBEKISTONDA TARMOQLARARO BALANSINI TUZISH AMALIYOTI VA UNDAN MAKROIQTISODIY TAHLILDA FOYDALANISH

10.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Vaqti-2soat	Talabalar soni: 30-60 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Axborot, vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	<p>1.Tarmoqlararo balansning yuzaga kelish tarixi va taraqqiyot bosqichlari</p> <p>2.Umumiy tushuncha va tarmoqlararo balans chizmasi</p> <p>3.Tarmoqlararo balansning asosiy tenglamalari va teng vaznli baholar modeli</p>
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Milliy hisoblar tizimi asosida tarmoqlararo balans tenglamasini tuzish , tarmoqlarni o'zaro bog'lash modeli hamda undan prognozlashda foydalanish usullarini o'rganish va ko'nikma hosil qilish	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> • Tarmoqlararo balans tushunchasi va uni tarkibiy qismlarini tushuntirish • Tarmoqlararo balans chizmasini tasvirlash. • Tarmoqlararo balansning I, II, va III kataklarni tuzishni tushuntirish. • Tarmoqlararo balansdan iqtisodiy tahlil va prognozlashda foydalanish bo'yicha misollar keltirish. 	<p><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> – Mamlakat iqtisodiyotining holati va ularni tahlil qilish natijasini aniqlash; – Tarmoqlar o'zaro bog'lanish darajasi va ularni tahlilda va prognozlashda amaliy qo'llash; – TOB MHTni tuzishda ma'lumotlarni kuzatish orqali hisoblash; – TOB ko'rsatkichlarini baholash usullari.
<i>O'qitishning uslubi</i>	Ma'ruza, aqliy hujum, blits-so'rov.
<i>O'qitishning shakli</i>	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
<i>O'quv vositalari</i>	Ma'ruza matnlari, kompyuter texnologiyalari, flomasterlar, multimediya.
<i>O'qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan guruhlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki savollar, o'quv vazifalar, test savollari, mustaqil ishlar.

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik kartasi

Ishning bosqichlari vaqti	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
1-bosqich kirish qismi (20 min)	<p>o‘qituvchi</p> <p>1.1. Mavzusining nomini e’lon qiladi. Fan bo‘yicha umumiylasavvur keltiradi.</p> <p>1.2. Mazuni, uning maqsadi o‘quv mashg‘ulotlardan kutilayotgan natijalar ma’lum qiladi.</p> <p>1.3. Kurs davomidagi ma’ruzalar mazmuni bilan tanishtiradi. Reyting baholash mezonlari bilan tanishtiradi, yozma ish va oraliq nazoratlari hamda yakuniy nazoratlar bilan tanishtiradi. Asosiy adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p>	<p>talabalar</p> <p>Eshitadi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p>
2-bosqich Asosiy bosqich (50 min)	<p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlanish uchun tezkor savol javob o‘tkazadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. TOBning tarkibiy qismlarini nimalar tashkil qiladi? 2. TOB I, II, III kataklarini asosiy elementlarini sanab o‘ting. 3. Yalpi ishlab chiqarish va teng vaznli baholar modeli 4. Ishlab chiqarishning to‘liq va bilvosita xarajatlarining farqi? 5. TOB asosida qanday masalalarni yechish mumkin? 6. TOB ko‘rsatkichlarini tahlil qilishning asosiy yo‘nalishlari. <p>2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi: tarmoqlararo balans, uni tuzish qoidalari, tarmoqlararo balansni tuzishda amal qilinadigan tenglamalar, TOBdan prognozlashni amalga oshirishda foydalanish to‘g‘risida batafsил misollar yordamida tushuntirib beradi.</p> <p>2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga, va ko‘rsatkichlariga diqqat qilishlarini va yozib olishlarini ta’kidlaydi.</p>	<p>Eshitadi hamda savollarga javo beradi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi.</p> <p>Tinglaydi va yozib oladi</p>
3-bosqich Asosiy bosqich (10 min)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosa qiladi va yakuniy natijalarni e’lon qiladi.</p> <p>3.2. Talabalar faoliyati tahlil qilinadi va baholanadi hamda maqsadga erishilganlik o‘zlashtirish darajasi aniqlanadi.</p> <p>3.3. Mustaqil vazifalar beriladi va talabalar tayyoragarlik darajasini baholash e’lon qilinadi.</p>	<p>Savollar beradi</p> <p>Yozib oladi.</p>

Ma’ruzaning mazmuni bo‘yicha ko‘rgazmali slaydlar

Tarmoqlararo balans (TOB) – (chet el adabiyotlarida sarf-xarajat ishlab chiqarish deb nomlanadi) bu turli xil balans qatorlar, statistik ko’rsatkichlar tizimi, tarmoqlarning o’zaro bir-biri bilan bog’liq va taqsimotini xarakterlovchi va ishlab chiqarish tarkibini ifodalovchi balanslardan iborat.

Tarmoqlararo balansning sxemasi

Oraliq iste’mol xarajatlari			Oraliq iste’mol xarajatlari jami	Pirovard iste’mol mahsulotlari			Yalpi ishlab chiqarish jami	
Sof tarmoq	Bozorga oid tarmoqlar	Nobozor tarmoqlar		Pirovard iste’mol xarajatlari	Yalpi jamg’arish xarajatlari	sof eksport		
Oraliq iste’mol	Oraliq iste’mol I katak			Pirovard iste’mol II				
Qo’shilgan qiymat	Qo’shilgan qiymat III							
Jami								

10.1-rasm. Tarmoqlararo balansning umumiyl chizmasi

**TOB qatorlari bo'yicha har bir tarmoqning yalpi ishlab chiqarishi
ifodalovchi tenglama**

$$x_i = \sum_{j=1}^n a_{ij} x_j + y_i \quad (i = \overline{1, n}) \quad (1)$$

bunda x_i – i -tarmoqning yalpi ishlab chiqarishi;

a_{ij} – j -tarmoqning bir birligini ishlab chiqarish uchun i tarmoqni bevosita xarajat koefitsienti; ya'ni quyidagicha hisoblanadi:

$$a_{ij} = x_{ij} / x_j$$

x_j – j -tarmoqning yalpi ishlab chiqarishi

y_i – i -tarmoq mahsulotiga bo'lgan umumiy talab (pirovard iste'mol, yalpi jamg'arish, sof eksport qoldig'i).

**TOB qatorlari bo'yicha har bir tarmoqning yalpi ishlab chiqarishini ifodalovchi
tenglamaning matritsa ko'rinishi**

$$\begin{vmatrix} x_1 \\ \dots \\ x_n \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} a_{11} \dots a_{1j} \dots a_{1n} \\ \dots \dots \dots \\ a_{n1} \dots a_{n2} \dots a_n \end{vmatrix} \begin{vmatrix} x_1 \\ \dots \\ x_n \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} y_1 \\ \dots \\ y_n \end{vmatrix} \quad (2)$$

$$\text{yoki } Y = AX + Y \quad (3)$$

bunda X – yalpi ishlab chiqarish vektori

A – tarmoqlarni bevosita xarajatlar matritsasi tarmoqlarni to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'laydi.

U – pirovard talab vektori.

Tarmoqlararo balansning asosiy tenglamasi

(3) – tenglamadan pirovard talab vektori aniqlanadi:

$$Y = AX - X \quad (4)$$

$$\text{yoki } Y = (E - A)X \quad (5)$$

bunda E – birlik matritsasi.

Agarda (5) tenglamani ikkala qismini $(E - A)^{-1}$ ga ko'paytirsak, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$(E - A)^{-1} Y = X \quad (6)$$

(6) tenglama TOBning eng asosiy tenglamasidir

bunda $(E - A)^{-1}$ – bilvosita to'liq xarajatlar matritsasi.

10.2-rasm. Tarmoqlararo balansning asosiy tenglamasi

TOB ustunlari bo'yicha har bir tarmoqning yalpi ishlab chiqarish qiymatini ifodalovchi tenglama



$$x_j = \sum_{i=1}^n a_{ij} x_i + z_j \quad (j = \overline{1, n}) \quad (7)$$

bunda x_j – j -tarmoqning yalpi ishlab chiqarishi;
 z_j – j -tarmoqning yalpi qo'shilgan qiymati.

(7) tenglama har bir tarmoqning yalpi ishlab chiqarishini ifodalaydi. Har bir tarmoqda yaratilgan mahsulotlar bahosi (r) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$p_j = \sum_{i=1}^n a_{ji} p_i + z_i \quad (j = \overline{1, n}) \quad (8)$$



Har bir tarmoqda yaratilgan mahsulotlar bahosini ifodalovchi tenglamaning matritsa ko'rinishi



$$\begin{vmatrix} p_1 \\ \dots \\ p_n \end{vmatrix} = \begin{bmatrix} a_{i1} \dots a_{j1} \dots a_{ni} \\ \dots \dots \dots \\ a_{in} \dots a_{jn} \dots a_{nn} \end{bmatrix} \begin{vmatrix} p_1 \\ \dots \\ p_n \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} z_1 \\ \dots \\ z_n \end{vmatrix} \quad (9)$$

$$\text{yoki } P = A'P + Z \quad (10)$$

A' - “ A ” matritsaga teskari matritsa.



Tarmoqlararo balansning teng vaznli baho tenglamasi



(10) tenglamaning bahoga nisbatan echimi quyidagiga teng:

$$P = (E - A')^{-1} Z = B'Z \quad (11)$$

(11) tenglama teng vaznli baho tenglamasi deyiladi.

Bu model orqali tarmoqlar tarkibining o'zgarishi, yalpi qo'shilgan qiymat bahosining o'zgarishini ifodalanadi. Yalpi qo'shilgan qiymat Δz o'zgarganda bahoning o'zgarishi Δr quyidagiga teng bo'ladi::

$$\Delta P = B' \Delta Z \quad (12)$$

10.3-rasm. Tarmoqlararo balansning teng vaznli baho tenglamasi

Tarmoqlararo balans tuzishga doir misol
(shartli ma'lumotlar asosida)

Mamlakat iqtisodiyoti o'zaro bir-biriga iqtisodiy bog'liq A, B, V tarmoqlardan iborat va ularning shartli iqtisodiy ma'lumotlari quvidagicha:

“A” tarmoqning schyoti, joriy bahoda, mln so‘m

Debet	Kredit
Hisobot davri boshidagi tayyor mahsulot qiymati	20
“B” tarmoqda sotib olingan mahsulotlar qiymati	40
→ Olingan mahsulotlar qiymati	100
Xizmatchilarga to‘lov haqi	120
Jami xarajatlar qiymati	280
Foyda	30
Jami	310
	Jami
	310

“B” tarmoqning schyoti, joriy bahoda, mln so‘m

Debet	Kredit
“A” tarmoqdan sotib olingan mahsulot	140
Xizmatchilarga to‘lov haqi	40
→ Jami xarajatlar qiymati	180
Foyda	18
Jami	198
	Jami
	198

“V” tarmoqning schyoti, joriy bahoda, mln so‘m

Debet	Kredit
“B” tarmoqdan sotib olingan mahsulot qiymati	140
Xizmatchilarga berilgan to‘lov haqi	60
Jami xarajatlar qiymati	200
Jami	200
	Jami
	200

10.4-rasm. Tarmoqlararo balans tuzishga doir misol

A, B, V tarmoqlarni o'zaro iqtisodiy bog'liqligi asosida tuzilgan tarmoqlararo balansi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Tarmoqlar		Oraliq iste'mol			Jami	Pirovard iste'mol		Jami pirovard iste'mol	Jami foydalanish
		A	B	V		Pirovard iste'mol	Yalpi jamg'arish		
Oraliq iste'mol	A	-	140	-	140	150	-	150	290
	B	40	-	140	180	-	18	18	198
	V	100	-	-	100	80	-	80	180
Jami		140	140	140	420	220	18	238	668
Mehnat haqi		120	40	60	220				
Yalpi foyda		30	18	-20	28				
Yalpi qo'shilgan qiymat		150	58	60	248				
Resurslar jami		290	198	180	668				

10.4 rasm davomi. Tarmoqlararo balans tuzishga doir misol

Tarmoqlararo balans ma'lumotlari asosida prognozlashni amalga oshirish

Misol. Ikki tarmoq (A,B) bo'yicha hisobot davri uchun tuzilgan hamda bilvosita xarajatlar koeffitsientlarni hisoblangan. Prognozlash yilda mahsulot bo'lgan pirovard talab "A" tarmoqda 10 %, "V" tarmoqni mahsulotga bo'lgan talab 20% oshishi kutilyapti. Tarmoqlarni shu jumladan, iqtisodiyotni yalpi ishlab chiqarishi qancha o'zgardi. Keyingi yil uchun yalpi ishlab chiqarish hajmini prognozlash uchun quyidagi ma'lumotlar kerak bo'ladi.

Tarmoqlar nomi	i-tarmoqni bir birlik mahsulotini ishlab chiqarish uchun j-tarmoqni qancha mahsulot kerakligini ifodalovchi bilvosita xarajatlar koeffitsienti (a_{ij})		Pirovard talab (y_{ij})	Yalpi ishlab chiqarish (x_{ij})
	«A»-tarmoq	«B»-tarmoq		
«A»-tarmoq	$a_{11}=0,2$	$a_{12}=0,3$	$y_1=100$	$x_1=440$
«B»- tarmoq	$a_{21}=0,5$	$a_{22}=0,5$	$y_2=200$	$x_2=840$

Avvalo, keyingi yil uchun pirovard talabni prognozlash kerak:

$$y_1 = 100 \cdot 0,9 = 90$$

$$y_2 = 200 \cdot 1,2 = 240$$

Xarajatlar tarkibini o'zgarishi hisobga olgan holda keyingi yil uchun, hisobot davridagi bilvosita xarajatlari asosida TOBni tenglamasini tuzamiz va natijalarni hisoblaymiz:

$$0,2x_1 + 0,3x_2 + 90 = x_1 \quad x_1 = 468$$

$$0,5x_1 + 0,5x_2 + 240 = x_2 \quad x_2 = 948$$

Olingan natija quyidagi ko'rinishga ega:

Yalpi ishlab chiqarish	Hisobot yil	Prognoz yil	Hisobot yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati, %
«A»-tarmoq	440	468	6
«B»- tarmoq	840	948	13

10.5-rasm. Tarmoqlararo balans ma'lumotlari asosida prognozlash

O‘quv materiallari

Tarmoqlararo balans – (chet el adabiyotlarida sarf-xarajatishlab chiqarish deb nomlanadi) bu turli xil balans qatorlar, statistik korsatkichlar tizimi, tarmoqlarning o’zaro bir-biri bilan bog‘liq va taqsimotini xarakterlovchi va ishlab chiqarish tarkibini ifodalovchi balanslardan iborat.

Oraliq iste’mol xarajatlari			Oraliq iste’mol xarajatlari jami	Pirovard iste’mol mahsulotlari			Yalpi ishlab chiqarish jami	
Sof tarmoq	Bozorga oid tarmoqlar	Nobozor tarmoqlar		Pirovaprd iste’mol xarajatlari	Yalpi jamg’arish xarajatlari	sof eksport		
Oraliq iste’mol	Oraliq iste’mol I katak			Pirovard iste’mol II				
Qo’shilgan qiymat	Qo’shilgan qiymat III							
Jami								

Rasm 1.Tarmoqlararo balansining umumiyligi chizmasi
Agarda TOB ma'lumotlari qatorlar bo'yicha qarasak, har bir tarmoqning yalpi ishlab chiqarishini ifodalaydi.

$$x_i = \sum_{j=1}^n a_{ij} x_j + y_i \quad (i = \overline{1, n}) \quad (1)$$

Bunda x_i – i -tarmoqning yalpi ishlab chiqarishi;

a_{ij} – j -tarmoqning bir birligini ishlab chiqarish uchun i tarmoqni bevosita xarajat koefitsiyenti; ya’ni quyidagicha hisoblanadi: $a_{ij} = \frac{x_{ij}}{x_j}$

x_j – j -tarmoqning yalpi ishlab chiqarishi

y_i – i -tarmoq mahsulotiga bo’lgan umumiyligi talab (pirovard iste’mol, yalpi jamg’arish, sof eksport qoldig’i).

(1) tenglama har bir mahsulotning pirovard va oraliq iste’mollarga, jamg’arish va boshqa kerakli xarajatlarga foydalanishini ifodalaydi.

(1) tenglamaquyidagi matritsako‘rinishidaifodalanadi:

$$\begin{vmatrix} x_1 \\ \dots \\ x_n \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} a_{11} \dots a_{1j} \dots a_{1n} \\ \dots \dots \dots \\ a_{n1} \dots a_{n2} \dots a_n \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} x_1 \\ \dots \\ x_n \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} y_1 \\ \dots \\ y_n \end{vmatrix} \quad (2)$$

yoki

$$X = AX + Y \quad (3)$$

bunda X – yalpi ishlab chiqarish vektori

A – tarmoqlarni bevosita xarajatlar matritsasi tarmoqlarni to’g’ridan-to’g’ri ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog’laydi.

U – pirovard talab vektori.

(3) – tenglamadan quyidagi tenglamalar hosil bo‘ladi:

$$Y = AX - X \quad (4)$$

yoki

$$X = (E - A)X \quad (5)$$

Bunda E – birlik matritsasi;

Agarda (5) tenglamani ikkala qismini $(E - A)^{-1}$ ga ko’paytirsak, quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi:

$$(E - A)^{-1}Y = (E - A)^{-1} \cdot (E - A)X \quad (6)$$

bunda $(E - A)^{-1}$ – bilvositato’liq xarajatlar matritsasi.

(6) tenglamaqo’yidagi ko’rinishga ega bo’lidi:

$$(E - A)^{-1}Y = X \quad (7)$$

(7) tenglama TOBning eng asosiy tenglamasidir, chunki bu tenglama yordamida prognozlashni amalga oshirish mumkin bo’lib, hamda bevosita to’liq xarajatlar koeffitsient matritsasi orqali pirovard talab taqsimoti va turli proqnoz variantlarni hisoblash mumkin.

TOB ustunlaridagi har bir tarmoqning yalpi ishlab chiqarish qiymatini quyidagi tenglamaorqali ifodalash mumkin:

$$x_i = \sum_{j=1}^n a_{ij} x_j + z_i \quad (i = \overline{1, n}) \quad (8)$$

bunda z_j – j -tarmoqning yalpi qo’shilgan qiymati.

(8) tenglama har bir tarmoqning yalpi ishlab chiqarishini ifodalaydi.

Mahsulot bahosi (r) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$p_j = \sum_{j=1}^n a_{ji} p_j + z_i \quad (j = \overline{1, n}) \quad (9)$$

(9) formula matritsa shaklidagi tenglamasi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\begin{vmatrix} p_1 \\ \dots \\ p_n \end{vmatrix} = \begin{bmatrix} a_{i1} \dots a_{j1} \dots a_{ni} \\ \dots \dots \dots \\ a_{in} \dots a_{jn} \dots a_{nn} \end{bmatrix} = \begin{vmatrix} p_1 \\ \dots \\ p_n \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} z_1 \\ \dots \\ z_n \end{vmatrix} \quad (10)$$

yoki

$$P = A'P + Z \quad (11)$$

A' - "A" matritsagateskari matritsa.

(11) tenglamaning bahoganisbatan echimi teng:

$$P = (E - A')^{-1}Z = B'Z \quad (12)$$

(12) tenglamateng vaznli baho tenglamasi deyiladi.

Bu model orqali tarmoqlar tarkibining o'zgarishi, yalpi qo'shilgan qiymat bahosining o'zgarishini ifodalaydi. Yalpi qo'shilgan qiymatning Δz o'zgarishi Δr bahoning o'zgarishigateng.

$$\Delta P = B'\Delta Z \quad (13)$$

Tarmoqlararo balans tuzishni quyidagi shartli ma'lumotlar asosidako'rib chiqamiz.

Mamlakat iqtisodiyoti o'zaro bir-biriga iqtisodiy bog'liq A, B, V tarmoqlardan iborat vaularning shartli iqtisodiy ma'lumotlari quyidagi jadvallar (1,2,3)daberilgan:

1-jadval
"A" tarmoqning schyoti, joriy bahoda, mln. so'm

Debet	Kredit	
Hisobot davri boshidagi tayyor mahsulot qiymati	20	"B" tarmoqqa sotilgan mahsulotdan tushum
"B" tarmoqda sotib olingan mahsulotlar qiymati	40	Aholiga sotilgan mahsulotdan tushum
Olingan mahsulotlar qiymati	100	Hisobot davri oxiridagi tayyor mahsulotlar saldosи
Xizmatchilarga to'lov haqi	120	
Jami xarajatlar qiymati	280	
Foyda	30	Jami tushum
Jami	310	Jami

2-jadval

“B” tarmoqning schyoti, joriy bahoda, mln. so’m

Debet		Kredit	
"A" tarmoqdan sotib olingan mahsulot	140	"A" tarmoqqa sotilgan mahsulotdan tushum	40
Xizmatchilarga to’lov haqi	40	«B» tarmoqqa sotgan mahsulotdan tushum	140
		Hisobot davri oxiridagi tayyor mahsulotlar saldosи	18
Jami xarajatlar qiymati	180	Jami tushum	198
Foyda	18		
Jami	198	Jami	198

3-jadval

“V” tarmoqning schyoti, joriy bahoda, mln. so’m

Debet		Kredit	
"B" tarmoqdan sotib olingan mahsulot qiymati	140	"A" tarmoqqa sotilgan mahsulotdan tushum	100
Xizmatchilarga berilgan to’lov haqi	60	Aholiga sotgan mahsulotdan tushum	80
Jami xarajatlar qiymati	200	Jami tushum	180
		Zarar	20
Jami	200	Jami	200

A, B, V tarmoqlarni o’zaro iqtisodiy bog’liqligi asosida tarmoqlararo balansini tuzamiz.

A, B, V tarmoqlarni o’zaro iqtisodiy bog’liqligi asosida tuzilgan tarmoqlararo balansi quyidagi ko’rinishga egab o’ladi:
Jadval-4

Tarmoqlar		Oraliq iste’mol			Jami	Pirovard iste’mol		Jami pirovard iste’mol	Jami foydalaniш
		A	B	V		Pirovard iste’mol	Yalpi jamg’arish		
Oraliq iste’mol	A	-	140	-	140	150	-	150	290
	B	40	-	140	180	-	18	18	198
	V	100	-	-	100	80	-	80	180
Jami		140	140	140	420	220	18	238	668
Mehnat haqi		120	40	60	220				
Yalpi foyda		30	18	-20	28				
Yalpi qo’shilgan qiymat		150	58	60	248				
Resurslar jami		290	198	180	668				

Endi TOB asosida quyidagi shartli ma'lumotlardan foydalangan holda bashoratlashni ko'rib chiqamiz. Misol. Ikki tarmoq (A,B) bo'yicha hisobot davri uchun tuzilgan hamda bilvosita xarajatlar koeffitsiyentlarni hisoblangan. Prognozlash yilida mahsulot bo'lgan pirovard talab "A" tarmoqda 10 %, "V" tarmoqni mahsulotga bo'lgan talab 20% oshishi kutilyapti. Tarmoqlarni shu jumladan, iqtisodiyotni yalpi ishlab chiqarishi qanchao'zgardi. Keyingi yil uchun yalpi ishlab chiqarish hajmini prognozlash uchun quyidagi ma'lumotlar kerak bo'ladi:

5-jadval

Tarmoqlar nomi	i-tarmoqni bir birlik mahsulotini ishlab chiqarish uchun j-tarmoqni qanchamahsulot kerakligini ifodalovchi bilvositaxarajatlar koeffitsiyenti (a_{ij})		Pirovard talab (y_{ij})	Yalpi ishlab chiqarish (x_{ij})
	«A»-tarmoq	«B»-tarmoq		
«A»-tarmoq	$a_{11}=0,2$	$a_{12}=0,3$	$y_1=100$	$x_1=440$
«B»- tarmoq	$a_{21}=0,5$	$a_{22}=0,5$	$y_2=200$	$x_2=840$

Avvalo, keyingi yil uchun pirovard talabni prognozlash kerak:

$$y_1 = 100 \cdot 0,9 = 90$$

$$y_2 = 200 \cdot 1,2 = 240$$

Xarajatlar tarkibini o'zgarishi hisobga olgan holda keyingi yil uchun, hisobot davridagi bilvosita xarajatlari asosida TOBni tenglamasini tuzamiz va natijalarni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} 0,2x_1 + 0,3x_2 + 90 &= x_1 \quad \Rightarrow \quad x_1 = 468 \\ 0,5x_1 + 0,5x_2 + 240 &= x_2 \quad \quad \quad x_2 = 948 \end{aligned}$$

Olingan natija quyidagi ko'rinishga ega:

6-jadval

Yalpi ishlab chiqarish	Hisobot yil	Prognoz yil	Hisobot yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati, %
«A»-tarmoq	440	468	6
«B»- tarmoq	840	948	13

Mavzuga doir testlar

1. Tarmoqlararo balans bu:

- a) mamlakatning chet el bilan bo‘lgan iqtisodiy faoliyati natijalarini ifoda etuvchi schyotlar;
- b) tarmoqlarning o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq va taqsimotini xarakterlovchi va ishlab chiqarish tarkibini ifodalovchi balanslardan iborat;
- v) moliyaviy instrumentlar bilan bo‘ladigan iqtisodiy operatsiyalar va moliyaviy aktivlarni yig‘ilishi va uni moliyalashtirish manbayini ifodalovchi schyot;
- g) barcha javoblar to‘g‘ri.

2. Tarmoqlararo balansning I katagida quyidagi ko‘rsatkich o‘rin egallaydi:

- a) pirovard iste’mol;
- b) qo‘shilgan qiymat;
- v) oraliq iste’mol;
- g) yalpi ichki mahsulot.

3. Tarmoqlararo balansning II katagida quyidagi ko‘rsatkich o‘rin egallaydi:

- a) pirovard iste’mol;
- b) qo‘shilgan qiymat;
- v) oraliq iste’mol;
- g) yalpi ichki mahsulot.

4. Tarmoqlararo balansning III katagida quyidagi ko‘rsatkich o‘rin egallaydi:

- a) pirovard iste’mol;
- b) qo‘shilgan qiymat;
- v) oraliq iste’mol;
- g) yalpi ichki mahsulot.

5. Tarmoqlararo balansda balans qanday ta’minlanadi:

- a) yalpi qo‘shilgan qiymat pirovard iste’mol ko‘rsatkichlarining o‘zaro tengligi asosida;
- b) jami resurslar jami foydalanishning o‘zaro tengligi asosida;
- v) oraliq iste’molning yalpi qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlarining tengligi asosida;
- g) oraliq iste’mol va pirovard iste’mol ko‘rsatkichlarining tengligi asosida.

6. Tarmoqlararo balansning asosiy tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega:

- a) $Y=AX+Y$
- b) $Y=AX-X$
- v) $Y=(E-A)X$

g) $(E - A)^{-1}Y = X$

7. Tarmoqlararo balansning qatorlari bo'yicha har bir tarmoqning yalpi ishlab chiqarishi ifodalovchi tenglama quyidagicha:

$$a) x_i = \sum_{j=1}^n a_{ij} x_j + y_i$$

$$b) x_j = \sum_{i=1}^n a_{ij} x_i + z_j$$

$$v) p_j = \sum_{i=1}^n a_{ji} p_i + z_i$$

g) $P = (E - A')^{-1}Z = B'Z$

8. Tarmoqlararo balansning ustunlari bo'yicha har bir tarmoqning yalpi ishlab chiqarish qiymatini ifodalovchi tenglama quyidagicha:

$$a) x_i = \sum_{j=1}^n a_{ij} x_j + y_i$$

$$b) x_j = \sum_{i=1}^n a_{ij} x_i + z_j$$

$$v) p_j = \sum_{i=1}^n a_{ji} p_i + z_i$$

g) $P = (E - A')^{-1}Z = B'Z$

9. Tarmoqlararo balansning teng vaznli baho tenglamasi quyidagicha:

$$a) x_i = \sum_{j=1}^n a_{ij} x_j + y_i$$

$$b) x_j = \sum_{i=1}^n a_{ij} x_i + z_j$$

$$v) p_j = \sum_{i=1}^n a_{ji} p_i + z_i$$

g) $P = (E - A')^{-1}Z = B'Z$

10.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi

<i>Talabalar soni 25-30 gacha</i>	<i>vaqtி 2-soat</i>
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i>	<i>Amaliy mashg‘ulotlarda chuqurlashtirish va bilimni kengaytirish jarayoni.</i>
<i>Amaliy mashg‘ulotda muhoқama qilinadigan savollar.</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. TOB tarkibiy qismlari nimalardan iborat? 2. Sarf-xarajatlar- ishlab chiqarish jadvalini I, II, III kataklarini to‘ldirish qanday amalga oshiriladi? 3. Yalpi ishlab chiqarish modeli qanday elementlardan iborat. 4. Teng vaznli baho modeli qanday elementlardan iborat. 5. Ishlab chiqarishning to‘liq va bilvosita xarajatlarining bir-biridan farqi. 6. Tarmoqlararo balans necha xil variantlarda tuziladi? 7. Iqtisodiyotni tahlil qilishda TOBdan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Mavzu bo‘yicha bilimni chuqurlashtirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> <ul style="list-style-type: none"> • TOB tarkibiy qismlarini misollar asosida tushuntirish. • Sarf-xarajatlar- ishlab chiqarish jadvalini I, II, III kataklarini to‘ldirish amalga oshirish. • Yalpi ishlab chiqarish modelini TOB ma’lumotlari asosida tushuntirish. • Teng vaznli baho modelini TOB ma’lumotlari asosida tushuntirish. • Ishlab chiqarishning to‘liq va bilvosita xarajatlarining bir-biridan farqi o‘rgatish. 	<i>O‘quv faoliyatning natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • TOB tuzishga oid mashqlarni yechish ko‘nikmalarini hosil qiladi. • Sarf-xarajatlar- ishlab chiqarish jadvalini I, II, III kataklarini to‘ldirish tuzishga oid mashqlarni yechish va tahlil qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi. • Yalpi ishlab chiqarish modelini TOB ma’lumotlari asosida tushuntira oladi. • Teng vaznli baho modelini TOB ma’lumotlari asosida tushuntira oladi. • Ishlab chiqarishning to‘liq va bilvosita xarajatlarining bir-biridan farqining mohiyatini anglaydi.
<i>O‘quv uslubi</i>	“Doira” stol, grafik organayzer: mantiqan tizimli chizma.
<i>O‘qitish shakli</i>	Guruhlarda ishlash, frontal va jamoa, juftliklarda ishlash.
<i>O‘quv vositalari</i>	Kompyuter texnologiyalari, grafik organayzerlar, flip-chatlar, flomasterlar.
<i>O‘qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta’minlangan guruhlar bilan ishslash uchun mo‘ljallangan auditoriya. Yoritilgan xona.
<i>Monitoring va baholash</i>	Mustaqil o‘rganish uchun savollar beriladi, uy vazifasi uchun slaydlar tayyorlaydi.

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar va vaqtি	Faoliyat mazmuni o‘qituvchi	talaba
1-bosqich O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 min.)	<p>1.1. Mavzu nomini aytadi, rejalashtirilgan natijalarни va uni o‘tkazish jarayoni bilan tanishtiradi. Birgalikda guruhlar bilan texnologiyalarni qo‘llagan holda dars jarayonini tushuntiradi. Adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Tayanch iboralar tushunchalari orqali so‘rovnama olib boradi. Savol tashlaydi va 1-2 ta javoblarni eshitib bo‘lgach, keyingi muhokamalarni guruhlar ishlarini bajarib, natijalarни prezentatsiya jarayonida eshitishni e’lon qiladi.</p> <p>1.3. Har bir talaba individual tarzda guruhlardagi baholanish bilan birga baho oladi va guruhlarda ishslash qoidalari bilan tanishtiradi.</p>	Eshitadi va yozib boradi Munozarada qatnashadi, savollarga javob beradi. Eshitadi.
2-bosqich Guruhlarda ishslash (60 min)	<p>2.1. Talabalarni 3 guruhga bo‘ladi. O‘quv vazifalarni tarqatadi. Qanday natijalarga erishish mumkinligiga aniqlik kiritadi.</p> <p>2.2. Natijaviy ko‘rsatkichlarni sharhlaydi. Qanday qo‘srimcha materiallar bilan foydalanish mumkinligini tushuntiradi (darslik, ma’ruza matnlari, o‘quv qo’llanma).</p> <p>2.3. O‘zaro guruhlarda olingan natijalarни prezentatsiya qilish va ularni baholanishni tashkil qiladi. Qilingan ish jarayonidagi xulosalar keltiriladi va alohida e’tiborga loyiq guruhlar jarayoni ketadi.</p>	Eshitadi, ishni bajarishni boshlaydi. Hisoblaydi va tahlil qiladi. Birgalikda qilingan prezentatsiya chiqishlari ko‘rsatiladi.
3-bosqich Yakuniy bosqich (10 min)	<p>3.1. Amaliyot natijalarini yakunlaydi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish mavzusini aytadi va vazifa beradi: “Tashqi aloqalar kapital operatsiyalar schyotini tuzishga oid mashq va uning tahlili”.</p>	Eshitadi aniqlashtiradi. Topshiriqni yozib oladi

Uslubiy ko'rsatmalar va namunaviy misollar yechish

“Sarf xarajatlar-ishlab chiqarish” balanslashtirilgan quyidagi jadvallar ko‘rinishidagi tizim bo‘lib, u ishlab chiqarish va daromadlarni shakllantirish schyotini kengaytirilgan (maydalangan) holdagi ko‘rinishidir.

“Sarf xarajatlar-ishlab chiqarish” jadvali

Tarmoqlar		Oraliq iste'mol			Pirovard iste'mol						Eksport	Jami foydalanish	
		sanoat	...	Moliya, kredit va sug'urta	U/x	DBO	...	YaJ	...	Qimmatbaho bu-yumlar zahirasi o'zgarishi			
Sanoat	X ₁₁	...	X _{1.14}	Y _{1.1}	Y _{1.2}	...	Y _{1.4}	...	Y _{1.6}	Y _{1.7}	X ₁		
Qishloq xo'jaligi	X ₂₁		X _{2.14}	Y _{2.1}	Y _{2.2}		Y _{2.4}	...	Y _{2.6}	Y _{2.7}	X ₂		
.....	
Moliya, kredit va sug'urta	X _{10.1}	Ikatak	X _{10.14}	Y _{10.1}	Y _{10.2}	Ikatak	Y _{10.4}	...	Y _{10.6}	Y _{10.7}	X ₁₀		
Yalpi qo'shil-gan qiy-mat	Mehnat haqi	Z _{1.1}	Z _{1.14}										
										
	Boshqa i/ch sub sidiyasi	Z _{5.1}	Z _{5.14}										
Import	I _{m1}		I _{m14}										
Tovarlar va xizmatlar resursi	X ₁	...	X ₁₀										

Sarf-xarajatlar ishlab chiqarish jadvali uch qism katakdan iborat. Birinchi katakda tarmoqlarni o'zaro ishlab chiqarish uchun sarf qilingan mahsulotining qiymatlari oraliq iste'mol ko‘rinishida ifodalanadi. Ikkinci katakda esa YaIM pirovard iste'mol ko‘rinishida, uchinchi katakda esa YaIM daromadlar ko‘rinishida ifodalanadi.

Sarf-xarajatlar ishlab chiqarish jadvalini tahlil qilishning asosiy yo‘nalishi bilvosita xarajat koeffitsienti hisobidan iborat. Bilvosita xarajat deganda bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun boshqa mahsulotlardan qancha kerakligi tushuniladi. Bilvosita xarajat koeffitsienti quydag'i formula orqali hisoblanadi:

$$A_{ij} = \frac{X_{ij}}{X_j}$$

Bunda : A_{ij} – j tarmoqni bir-birlik mahsulotini ishlab chiqarish uchun bilvosita sarflangan, i – tarmoq mahsulot xarajati koeffitsenti.

X_j - j tarmoqda ishlab chiqarilgan jami mahsulot.

Jadvalda i – qator tarmog‘i, j – ustun tarmog‘i.

Shunday qilib, j – tarmoq mahsulotini ishlab chiqarish uchun to‘liq xarajat sifatida sarflangan jami tarmoq mahsuloti

$$X_{ij} = A_{ij} X_j$$

Bilvosita harajatlar koeffitsenti – tarmoqlarni o‘zaro bir-biriga hamda ayrim tarmoqni xarajat tarkibini aniqlab beradi.

10.1-masala

Quyida “sarf xarajatlar” ishlab chiqarish jadvalining shartli ma’lumotlari (bozor bahosida mln so‘m) berilgan.

Tarmoqlar	Sanoat	Qishloq xo’jaligi	Xizmat ko’rsatuvchi soha tarmoqlari	Jami oraliq iste’moli	Pirovard iste’moli	Eksport	Jami foydalangan resurslar
Sanoat	308	72	74	?	240	96	790
Qishloq xo’jaligi	86	38	10	134	144	48	326
Xizmat ko’rsatuvchi soha tarmoqlari	24	24	28	?	96	48	?
Ishlab chiqarish xarajati	418	134	112	?	480	19 2	?
Yalpi qo’shilgan qiymat	?	?	?	?			
Import	48	48	24	?			
Jami resurslar	?	?	?	?			

Jadvaldagi so‘roq belgisi turgan ko‘rsatkichlar qiymatini hisoblang.

1. Tarmoqlarni o‘zaro bog‘liqlik darajasini izohlang.

10.2-masala

“Sarf xarajatlar” ishlab chiqarish jadvalining quydagi shartli ma’lumotlari berilgan (mln, so‘m).

Tarmoqlar	Moddiy ishlab chiqarish tar-moq sohalari	Xizmat ko’rsa-tuvchi soha tarmoqlari	Jami oraliq iste’moli	Pirovard iste’mol	Eksport	Jami foydalanish
Moddiy ishlab chiqarish tar-moq sohalari	600	150	?	220	190	?
Xizmat ko’rsatuvchi soha tar-moqlari	96	88	?	200	96	?
Ishlab chiqarish xarajati	?	?	?	900	280	?
Yalpi qo’shilgan qiymat	?	?	?			
Import	100	24	?			
Jami resurslar	?	?	?			

1. Jadvaldagi so‘roq belgisi turgan ko‘rsatkich qiymatini hisoblang.

2. Tarmoqlarni o‘zaro bog‘liqlik darajasini izohlang.

10.3-masala

“Sarf xarajatlar” ishlab chiqarish jadvalini quydagi shartli ma’lumotlari berilgan (mln so‘m).

Tarmoqlar Mahsu- lotlar	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Xizmat	Jami ora- liq iste' - moli	Piro- vard iste'- mol	Eksport	Jami foyda- lanish
Sanoat	128	30	30	?	?	40	328
Qishloq xo'jaligi	36	16	4	?	60	?	136
Xizmat	10	10	12	?	40	20	?
Ishlab chiqarish xarajati	?	?	?	?	200	80	556
Yalpi qo'shilgan qiymat	?	60	?	230			
Import	20	?	10	50			
Jami resurslar	328	136	92	?			

1. Jadvalagi so'roq belgisi o'rniga ko'rsatkichlarni hisoblab, qo'ying.
2. Tarmoqlarni o'zaro bir-biriga bog'liqlik darajasini izohlang.

Mavzuga doir savol va topshiriqlar

1. Tarmoqlararo balans deganda nimani tushunasiz?
2. Tarmoqlararo balansni tuzishdan maqsad nima?
3. Tarmoqlararo balans qanday tarkibiy qismlardan iborat?
4. Yalpi ishlab chiqarish va teng vaznli baholar modelining analitik ifodasi qanday?
5. Ishlab chiqarishning to'liq va bilvosita xarajatlarining farqi?
6. TOB ko'rsatkichlarini tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari?

Adabiyotlar

1. Система национальных счётов1993. Издание ООН, 1998. – С.355-392.
2. Основы национального счетоводства (международный стандарт): Учебник./ Под ред. Ю.Н.Иванова. – Москва: ИНФРА-М, 2011. – С. 208-236.
3. Подмогильная В. Система национальных счетов: Учебно-практическое пособие. – Москва: РАГС, 2010. – 238 с.
4. Кремлев Н.Д. Система национальных счетов: Учебное пособие. – Курган: Издательство Курганстат, 2009. – С. 209-221.
5. Салин В.Н., Кудряшова С.И. Система национальных счетов: Учебное пособие для вузов. – Москва: Финансы и статистика, 2006. – 272 с.
6. Елесеева И., Силаева С., Щирина А. Практикум по макроэкономической статистике. – М.: Проспект, 2008. – С. 109-112.
7. Qoraboyev A.R. Milliy hisoblar tizimi fanidan masalalar to'plami. O'quv uslubiy qo'llanma. – Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. – В. 136-138.
8. А.Абдугаффоров, М.Зокирова, А.Корабоев. Миллий хисоблар тизими. Тошкент "Молия" 2002.

XI mavzu. MHT – 2008 STANDARTIDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR

11.1. MHT–2008 standartidagi kiritilgan ayrim tarkibiy o‘zgarishlarini sharhi

Milliy hisobchilikning yuzaga kelish tarixiga nazar tashlasak, MHT – 1953 nusxasi xalqaro darajada tan olingan dastlabki standarti edi. Keyinchalik u1968 va 1993-yillarda yangilandi. Milliy hisoblar standarti u yoki bu darajada majburiy bo‘lgan shartli qoidalarni o‘zida mujassam etadi.

Iqtisodiyot va jamiyatning rivojlanishi bilan ilgarigi shartli qoidalari mos kelmay qoladi, metodologiya va nazariy konsepsiyalarda, foydalanuvchilar ehtiyojlarida o‘zgarishlar yuz beradi va shuning uchun milliy hisoblar standartlari vaqtiga - vaqtiga bilan yangilanib turishi lozim. 1993-yilda MHT tubdan yangilanganidan keyin BMT Statistika qo‘mitasi kichik, lekin tez-tez yangiliklar kiritishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida qaror qabul qildi, lekin bu qaror amalga oshirilmadi va shuning uchun boshqa yirik yangilashni amalga oshirish zarurati tug‘ildi.

Ushbu zarurat so‘nggi 15 yil mobaynida iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonlarida axborot va kommunikatsion texnologiyalar rolining oshishi bilan bog‘liq katta o‘zgarishlar yuz berganligi, nomoddiy aktivlar xizmatlar rolining oshganligi, milliy iqtisodiy tizimlarni globallashganligi va ijtimoiy islohotlar tufayli yuzaga keldi. Mazkur o‘zgarishlar tasniflash qismida ham, statistik tekshiruvlar makroiqtisodiy statistikani shakllantirish uchun kontseptual asosi sifatida foydalaniladigan nazariy qoidalarda ham statistik ma’lumotlarni shakllantirish sohasidagi tuzatishlarni talab qiladi.

MHTni yangilash jiddiy ish hisoblanadi. Har qanday o‘zgarishlar kontseptual asoslangan bo‘lishi kerak. Xalqaro qiyoslanish darajasini saqlab qolish maqsadida ushbu

o‘zgarishlar ularning barcha mamlakatlarda qo‘llanishi ehtimolini ham e’tiborga olishi kerak.

Mazkur ishni tashkil etish va muvofiqlashtirish IHRT, Yevropa hamjamiyatlari statistika byurosi (Yevrostat), XVF (MVF), BMT statistika bo‘limi va jahon bankingin vakillarini o‘z ichiga olgan Milliy hisoblar bo‘yicha kotibiyatlararo ishchi guruh (MHBKIG) zimmasiga yuklatilgan loyihada asosiy rolni jahoning barcha mintaqalaridan 20 ta mamlkat ekspertlarini o‘zida birlashtirgan milliy hisoblar bo‘yicha ekspertlar maslahat guruhi (EMG) bajardi.

1993-yilgi MHTni yangilash jarayoni 2003 yilning mart oyida nihoyasiga yetdi, uni yangilangan versiyasi BMT statistika qo‘mitasi tomonidan ma’qullandi. Unga, “ 2008-yilgi Milliy hisoblar tizimi” (MHT-2008) nomi berildi.

MHT 2008 standartlaridagi o‘zgarishlari deyarli barcha bo‘limlarini qamrab oladi, lekin asosan ular nomoliyaviy aktivlar, moliyaviy xizmatlar va moliyaviy vositalar, to‘lov balansi, davlat boshqaruvi sektori va davlat sektori bilan bog‘liq bo‘limlarda jamlangan. Boshqacha aytganda, aksariyat tavsiyalar iqtisodiyotning globallashuvini, moliyaviy vositalardagi innovatsiyalarni boylik manbalariga hamda xususiy va davlat sektorining qarziga bo‘lgan qiziqishning oshishini tavsiflovchi iqtisodiy birliklarga va operatsiyalarga taalluqli. Tavsiyalardan bir qismining amalga oshirilishi, ishlab chiqarish, iste’mol, jamg‘arishining ayrim jihatlarini aks ettirishdagi o‘zgarishlar munosabati bilan, tizimdagи YaIM va omonat kabi asosiy vositalar o‘zgarishiga olib keladi. Boshqa tavsiyalar asosiy ko‘rsatkichlarga dahldor emas, lekin ta’riflar va tasniflar rivojlantirilib, ularga aniqliklar kiritgan.

Aksariyat mamlakatlar barcha ushbu tavsiyalarni darhol amalga oshirmsa-da, hozirdanoq 2008-yilgi MHTga o‘zgarishlar qanday ko‘rinishga ega bo‘lishini va milliy hisoblar ko‘rsatkichlari uchun ularni oqibatlari qanday bo‘lishini tasavvur qilish foydadan holi bo‘lmaydi, deb hisoblaymiz.

Ularning YaIMdan foydalanish hajmiga va tarkibiga ta’siri nuqtayi nazaridan MDH mamlakatlari uchun ilmiy-tadqiqot

faoliyati va qurol-yarog‘ xarid qilish xarajatlari talqinidagi o‘zgarishlar eng muhim hisoblanadi.

1993-yilgi MHTda ilmiy-tadqiqot faoliyati natijasidan foydalanish oraliq iste’mol sifatida aks etadi, buning natijasida YaIMga yetarlicha baho berilmasligi o‘rin tutadi. O‘z navbatida, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari (bilimlar zahiralari) kelgusidagi iqtisodiy o‘sishning asosiy omili hisoblanishiga qaramay, ular asosiy kapitalning yalpi jamg‘armasi hamda aktivlar va passivlar balansidagi aktivlar sifatida hisobga olinmaydi, demak, mamlakat kapitalsining sof qiymati ham etarlicha baholanmaydi.

2008-yilgi MHTda ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalaridan foydalanishning aks ettirilishiga nisbatan yondashuvi o‘zgardi. Ular xarajatlari, xuddi binolar, asbob-uskunalar, jihozlar, kompyuter dasturiy ta’minoti va h.k. xarajatlar kabi asosiy kapitalning yalpi jamg‘armasi sifatida o‘z aksini topadi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonida ko‘p martalab foydalanilishi mumkin. Aktivlar va passivlar balansida ular uchun asosiy fondlar tarkibida alohida pozitsiya («tadqiqotlar va ishlanmalar») ajratilgan.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati xarajatlarining taklif etilayotgan talqini kontseptual asoslangan talqin hisoblanadi. Ushbu xarajatlarni oraliq iste’moldan jamg‘armaga o‘tkazish borasidagi tavsiya MDH mamlakatlarida 2008-yilgi MHTni joriy etishning dastlabki bosqichida amalga oshirilishi mumkin. Bu YaIM absolyut miqdorining, shuningdek, uning o‘sish sur’atlarining oshishiga olib keladi.

1993-yilgi MHTda hujum qilish qurol-aslahalari va ularni yetkazib berish vositalari, xizmat muddatidan qat’i nazar, kapital jamg‘armasi tarkibiga kiritilmaydi, ularning xarajatlari esa davlat boshqaruvi sektori hisoblarida aks ettiriladi.

2008-yilgi MHTda markaziy banklar turli funksiyalarining ular xizmatlarini baholash va ulardan foydalanishga ta’sirini aniqlashga urinib ko‘rildi. Buning uchun, agar ushbu farq umuman hisoblar uchun katta bo‘lsa, markaziy banklarda bozor va nobozor xizmatlarini amalga oshiruvchi muassasalar ajratilishi kerak. Joriy xarajatlar bo‘yicha baholash nobozor

xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi. Ulardan foydalanish davlat boshqaruvi sektori tomonidan jamoaviy xizmatlarning xarid qilinishi sifatida, ya'ni davlat boshqaruvi sektorining oraliq iste'moli, ishlab chiqarishi va yakuniy iste'moli xarajatlarida aks ettiriladi, bu YaIMning oshishiga olib keladi. Ushbu xaridni moliyalashtirish uchun daromadlarni ikkinchi marta taqsimlash hisoblarida bankdan (moliyaviy korporatsiyalar sektoridan) davlat boshqaruvi sektoriga shartli transfert ko'rsatilishi kerak. Bozor xizmatlari bozor narxlari bo'yicha baxolanadi va iqtisodiyotning barcha sektorlariga ko'rsatilishi mumkin, biroq ularning asosiy iste'molchilari tijorat banklari hisoblanadi.

Ushbu tavsiya kontseptual nuqtayi nazarda o'zini to'liq oqlaydi. Biroq uni amaliyatga joriy etishda MDH mamlakatlari bankning alohida bo'linmalar doirasidagi xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin; bundan tashqari, ushbu bo'linmalar faoliyati aralash xususiyatga ega bo'lishi, ya'ni bozor va nobozor faoliyatini uyg'unlashtirishi mumkin.

1993-yilgi MHT ma'qullanganidan keyin o'tgan davr mobaynida butun jahonda moliyaviy korporatsiyalar faoliyati katta tarkibiy o'zgarishlarni boshdan kechirishdi: oddiy moliyaviy vositachilik roli kamayib, xolding foydasi olish maqsadida moliyaviy aktivlar portfelini boshqarishning ahamiyati ortdi. Ushbu xizmatlar ahamiyatini 2008-yilgi MHTda yaxshiroq aks ettirish uchun moliyaviy korporatsiyalar ta'rifi kengaytirildi; moliyaviy xizmatlar haqiga yaqqol shaklda chet el valutasi va qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar bo'yicha marja kiritildi.

Agar nomoliyaviy korporatsiyalar pulli moliyaviy xizmatlarni ko'rsatsa, bunga BO'MVX sifatida qaralmaydi. Biroq o'z mablag'larini qarzga beruvchi birliklar, agar ular bir necha mijozlarga ssuda bersa va qarzdor bankrot bo'lgan taqdirda moliyaviy xatarni o'z zimmasiga olsa, to'lov evaziga moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi moliyaviy korporatsiyalar hisoblanadi.

2008-yilgi MHTda BO'MVX hisoblab chiqish faqat foydalanishning turli moddalari: oraliq va yakuniy iste'mol, shuningdek, eksport o'rtasida BO'MVX ko'rsatishni taqsimlash imkoniyatini nazarda tutuvchi formula bo'yicha ssudalar va

depozitlar bo'yicha operatsiyalar uchun amalga oshiriladi. Mazkur yondoshuvga muvofiq BO'MVX ko'rsatish olinadigan va to'lanadigan foizlarning amaldagi stavkalari bilan foizning mablag'larni qarz olishining sof qiymatini aks ettiruvchi, ya'ni xatar uchun mukofot va vositachilik xizmatlari uchun to'lovlarni o'z ichiga olmaydigan bazaviy qiymati o'rtasidagi farq asosida aniqlanadi. BO'MVX hisob-kitobiga moliyaviy vositachilar xususiy kapitali qo'yilishidan olinadigan daromadlar kiritilmasligi kerak, degan qoida chiqarib tashlandi. Bunday qo'yilmalar moliyaviy vositachilik hisoblansa-da, lekin amaliyotda ularni ajratib bo'lmaydi. Shuningdek, 1993 yilgi MHTda BO'MVXni hisoblab chiqishga nisbatan soddallashtirilgan yondashuvni qo'llashga izn bergen BO'MVXni foydalanuvchilar jumlasiga kiritish mumkinligi to'g'risidagi qoida ham chiqarib tashlandi. BO'MVX ko'rsatishni doimiy narxlarda baholashga doir tavsiyalar kiritildi.

1993-yilgi MHTda faqatgina noqonuniy faoliyat milliy hisoblardan chiqarib tashlanmasligi kerak, deyilgan edi, biroq uning ta'rifi nuqtayi nazaridan qandaydir muayyan ko'rsatmalar mavjud emas edi.

Hozirgi vaqtida MDHning ayrim mamlakatlari noqonuniy faoliyatning alohida turlarini baholashni amalga oshirmoqda, lekin, odatda, ularni YaIMga kiritmaydi; boshqa mamlakatlar ularni yaqin kelajakda baholashga kirishishni rejalashtirgan. Bunday baholar asta-sekin MDH mamlakatlari tomonidan ham muntazam statistika amaliyotiga kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

1993-yilgi MHTda tovarlarni chet elda qayta sotish juda qisqacha tilga olingan. Ushbu faoliyat turining ahamiyati ortib borayotganligi bois, 2008 yilgi MHT mazkur operatsiyalarni ishlab chiqarishda, tovarlar eksporti va shuningdek, moddiy aylanma mablag'lari zahiralarining kirishi tarkibida aks ettirishga doir tavsiyalarni o'zida mujassam etgan. Yuqorida tilga olingan operatsiyalar ahamiyatini ortib borayotganligini hisobga olgan holda yaqin kelajakda tovarlar va xizmatlar hisobi, ishlab chiqarish hisobi, kapital bilan operatsiyalar hisobi va boshqa hisoblarga taalluqli mazkur tavsiyalarning amalga

oshirilishini nazarda tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu ish milliy banklar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim.

Adabiyotlar

1. Система национальных счётов 1993. Издание ООН, 1998.
2. Система национальных счетов 2008 (Европейская комиссия, Международный валютный фонд, Организация экономического сотрудничества и развития, Организация Объединенных Наций, Всемирный банк) Нью-Йорк, 2012.

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
I mavzu. FANNING PREDMETI VA VAZIFALARI.	
O‘ZBEKISTONDA QO‘LLANILAYOTGAN MILLIY HISOBCHILIK TIZIMI, ULARNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA YO‘NALISHLARI.....	5
1.1. Ma’ruza mashg‘ulotini o‘qitish texnologiyasi	5
1.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi.....	25
II mavzu. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA IQTISODIY KATEGORIYALAR, OPERATSIYALAR VA ASOSIY TASNIFFLASHLAR	34
2.1. Ma’ruza mashg‘ulotini o‘qitish texnologiyasi	34
2.2. Amaliy mashg‘ulotni o‘qitish texnologiyasi	66
III mavzu. MILLIY HISOBLAR TIZIMI SCHYOTLAR TARKIBI, ULARNI O‘ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	93
3.1. Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi.....	93
3.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi.....	106
IV mavzu. IQTISODIY FAOLIYATNI NATIJAVIY KO‘RSATKICHLARINI HISOBGA OLİSH VA HISOBLASH USULLARI	122
4.1. Ma’ruza mashg‘ulotini o‘qitish texnologiyasi	122
4.2. Amaliy mashg‘ulotni olib borish texnologiyasi	155
V mavzu. DAROMADLARNI SHAKLLANISHI, TAQSIMLASH VA QAYTA TAQSIMLASH JARAYONLARINI IQTISODIY KO‘RSATKICHLARINI HISOBGA OLİSH VA ULARDAN MAKROIQTISODIY TAHLILDA FOYDALANISH	173
5.1. Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi.....	173
5.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi.....	197
VI mavzu. DAROMADLARDAN FOYDALANISH JARAYONLARI KO‘RSATKICHLARINI HISOBGA OLİSH, ULARNI HISOBLASH USULLARI	229
6.1. Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi.....	229
6.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi.....	241

VII mavzu. KAPITAL BILAN OPERATSIYALARNI HISOBGA OLİSH, UNING KO‘RSATKICHLARINI HISOBLASH USULLARI VA UNDAN MAKROIQTISODIY TAHLILDA FOYDALANISH	255
7.1. Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi	255
7.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi	279
VIII mavzu. MILLIY IQTISODIYOTNI TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI IFODALOVCHI IQTISODIY OPERATSIYALAR KO‘RSATKICHLARINI HISOBGA OLİSH VA UNDAN MAKROIQTISODIY TAHLILDA FOYDALANISH USULLARI.....	297
8.1. Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi	297
8.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi	315
IX mavzu. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARNI O‘ZGARMAS BAHOLARDA HISOBLASH ZARURIYATI, HISOBLASH USULLARI VA ULARNING STATISTIK TAHLILI	320
9.1. Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi	320
9.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi	336
X mavzu. O‘ZBEKİSTONDA TARMOQLARARO BALANSINI TUZISH AMALIYOTI VA UNDAN MAKROIQTISODIY TAHLILDA FOYDALANISH	352
10.2. Amaliy mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasi	367
XI mavzu. MHT – 2008 STANDARTIDAGI TARKIBIY O‘ZGARİSHLAR.....	374
11.1. MHT–2008 standartidagi kiritilgan ayrim tarkibiy o‘zgarishlarini sharhi	374

**ABDUSATTOR RAXMONOVICH QORABOYEV,
BAHODIR KARIMOVICH G‘OYIBNAZAROV,
NILUFAR XATAMBAYEVNA RASHITOVA**

MILLIY HISOBLAR TIZIMI

Darslik

*Muharrir: N. Rustamova
Badiiy muharrir: M. Odilov
Kompyuterda sahifalovchi: U.Raxmatov*

Nashr. lits. AI № 174. Bosishga ruxsat 17.09.2015-y.da berildi.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog’ozi №2. «Times» garniturasi.
Shartli b.t. 23,85. Nashr hisob t. 24,0. Adadi 200 dona.
42-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084, Toshkent, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 7-uy.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»
bosmaxonasida chop etildi.
100000. Toshkent, Amir Temur 60^{«A»}-uy.

Qaydlar uchun